ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 5

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 19.10.2020
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 19.10.2020
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 19.10.2020
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЁҚУБОВ ШАРИФ МУҚИМОВИЧ
Шоир қадами етган манзиллар 7

YODGOROV SHAMSIDDIN ABDURAIMOVICH
Diniy matnlarni teolingvistik jihatdan
tadqiq qilish metodologiyasi (Qur'oni Karim misolida) 10

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Lingvomadaniy kodlarni aniqlashda kult omili
(Surxondaryo teotoponimlari misolida) 14

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo'ng'irot etnonimining shajaraviy tarkibiga oid ayrim onomastik tahlillar 17

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Etnorealiyalarning milliy etnografik leksikada aks etishi
(Afg'oniston o'zbeklari misolida) 20

RAXIMOVA UMIDA DJUMAYEVNA
Shaxsh nutqi voqelanishida areal ta'sir 23

RAJABOV FERUZ UMARQULOVICH
Folklor onomastikasi va uning terminologiyasi 27

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Nom (ot) bildiruvchi evfemik birliklarning ma'no turlari 30

MUMINOVA NILUFAR ABDURAHMONOVNA
"Temurnoma" asaridagi antroponimlarning tarixiy-etimologik qatlamlari 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Konsept inson ruhiy holatining ifodalanishida asosiy lingvokognitiv unsur 36

SAMIYEVA SURAYYO ORIPOVNA
O'zbek va tojik tillarida evfemizmlar va ularning sinonim so'zlar bilan aloqasi 39

NE'MATOVA YULDUZ
Ayrim tabiiy-geografik oykonimlarning leksik-semantik xususiyatlari xususida
(Namangan viloyati oykonimlari misolida) 43

MADAMIOVA RA'NO YUSUPBAYEVNA
Qoraqalpog'iston dialektal arealining leksik xususiyatlari 46

AMINI AZIZ AHMAD
Shimoliy Afg'oniston o'zbek shevalarida
dehqonchilik mahsulotlari nomlarining ifodalanishi 50

МУНДАРИЖА

QULTO‘RAYEVA SARVINOZ BAHODIR QIZI
O‘zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlar talqini 52

SARIYEVA ZAMIRA
Structural features of possessive pronouns in indonesian language 56

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синтаксис гендерной лексики в русском языке....58

JALILOVA MUXLISA ZAFARJON QIZI
O‘zbek tili Toyloq shevasining leksik qatlamlari 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

АТАНИЯЗОВА МУБОРАК АБДУЛЛАЕВНА
Искандар образи Олим Шарафиддинов талқинида....64

АЛИМОВ ПАРДА
Тарихга бир назар....67

BOBOJANOV ALISHER
YULDOSHEV DILMUROD
Tanqid va badiiy ijod: adabiy jarayondagi o‘zaro munosabatlar 72

TA’LIM

RAXMATULLAYEVA SHAXODAT ZIYOTOVNA
OROMOVA NAFOSAT JO‘RAYEVNA
Adabiy ta’limda nazariy ma’lumotlar –
badiiy matn mazmunini anglashning asosiy vositasi sifatida....76

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ
Профессор Бекпўлат Умурқуловнинг ижодий фаолиятига бир назар 80

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ШОИР ҚАДАМИ ЕТГАН МАНЗИЛЛАР

Ёқубов Шариф Муқимович,
Термиз давлат университети доценти,
филология фанлари номзоди

Навоийнинг таржимайи ҳолидан биламизки, у 1464 (баъзи олимлар 1462 йилдан, баъзилар 1465 йил дейишади) йилдан 1469 йилнинг март, апрел ойларигача Самарқандда бўлган. Бироқ Алишер Навоий шу йиллар ичида доим узлуксиз Самарқандда бўлмасдан, "Бу ердан бирор муносабат билан кетишга тўғри келганда ҳам, яна кўпинча Ҳиротга эмас, Самарқанднинг ўзига қайтар экан"[1]. Бу фикрни З.М. Бобурнинг *"Мир Алишер Навоий Ҳиридан Самарқандга келган фурсатлар Аҳмад Ҳожибек била бўлур эди"*[2] деган фикри ҳам тасдиқлайди. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, шоир Самарқандда муқим яшамасдан, баъзан кетиб ҳам турган. Баъзан Хуросонга, баъзан бошқа вилоятларга қадам ранжида қилган. Шундай экан, Навоий Самарқанддан Хуросонга томон ўтаётганда ёки Хуросондан Самарқандга томон юрганда "Жанубий Ўзбекистон, хусусан Сурхон воҳаси карвон йўллари орқали ҳаракат қилган"[3]. Чунки ўша даврда энг хавфсиз йўл Сурхон воҳасидан ўтган йўл эди.

Алишер Навоий ёшлигидан бирга ўсган дўсти Ҳусайн Бойқаро билан улуғ орзулар билан яшаган. Бу дўстлик уларни бир умр бирлаштириб турган. Ҳусайн ёшлик пайтларидан тахтга эга бўлиш учун кураш майдонига чиқди. "Алишернинг бутун оиласи бу курашда Ҳусайн тарафида эдилар. Шубҳасиз, ўша пайтда мактабдаги ўқишини эндигина тугатган ёш Алишер ҳам бу масалада Ҳусайннинг содиқ иттифоқчиси бўлган. Улар бир умр дўст, сафдош ва ҳаммаслак бўлган[4]."

Атоқли олим Иззат Султоновнинг хабар беришича, Алишер Навоий Самарқандда турганида ҳам Ҳусайн Бойқаро билан алоқасини узмаган. Унинг илтимоси билан баъзи бир топшириқларини ҳам бажариб турган. Шоирнинг хатлари ва ёзишмаларини ўзида жам қилган насрий усулда ёзилган "Муншаот" асаридаги 9-хат алоҳида эътиборлидир. Бу хат бир қатор олимларнинг фикрига кўра, шоир Самарқандда эканида, Ҳусайн Бойқарога ёзилган. Бу хатда "Ҳусайн Бойқаронинг ҳаёти ва ишларидан хабардор турганини, унинг муҳим ишларига бевосита иштирок этганини, унга маслаҳатлар билан ёрдам беришни ва ҳатто тахт олишга фаол рағбатлантириб борганини, ўз дўстининг охирида ғалабага эришувига астойдил ишонганини бу хатдан фаҳмлаб олиш қийин эмас"[5]. Ушбу хатда "...бу ҳақирни (мени) баъзи маслаҳатлар учун ким, ул ҳазратнинг маслаҳати дағи анинг заминидадур, агарчи иккаласи маслаҳат уқдур, Хуросон вилоятиға юборилди. (Самарқанддан бўлса керак , албатта)...". Юқоридаги хатнинг мазмунидан англашиладики, Ҳусайн Бойқаро Навоийни Самарқанддан махсус топшириқ билан Хуросонга юборган. Бироқ, шоир бу ишнинг уддасидан чиқолмаганлиги туфайли ушбу хатни ёзиб, Ҳусайн Бойқарога соғлиқ, омонлик тилаб, "Мақсуд гули очилмоғининг имкони йўқлиги"ни, шошилишнинг эса фойдасиз эканлигини баён қилади. Хатда қадрдон дўсти Ҳусайнни юпатиш, кўнглини кўтаришга интилиб, унга "кишвару мулк Ҳисорининг фатҳин насиб қилиш"ини тилайди. Дўстининг ҳукмига бир неча маснавийни юборади. Шеърнинг камчиликларига боқмай "мулоҳаза қилгайлар", дейди. Хатда келтирилган қуйидаги маснавийни ўқиймиз:

Ўн икки буржлуқ гардун Ҳисори,
Ҳаводис тошидин жо бўлса ори,

Сипоҳинг кўк сипоҳи узра ҳоким,
Ҳисори Шодмондин кам десун ким,

Мусаллам зотинга кишварстонлиғ,
Ҳисори давлат узра шодмонлиғ[6].

[1] Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 195.

[2] Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. –Тошкент: Фан, 1960. – Б.77.

[3] Эргаш Умаров. Карвон йўлларида унинг излари. // "Совет Ўзбекистони" газетаси, 1991 й. 9 февраль.

[4] Азиз Қаюмов. Дилкушо такрор ва руҳафзо ашъорлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 192, 195.

[5] Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – Б. 210.

[6] Алишер Навоий. 13 – том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 99.

Асосий фикр қаратилган *Ҳисори Шодмон* атамаси фикримизни жалб қилади: Ҳисори Шодмон қаер? Нега шоир унга ишора қилаяпти? Нега айнан шоир Ҳусайн Бойқаро қўшинларини Ҳисори Шодмон сипоҳлари билан таққослайди? Бир қатор тарихий китобларни варақлаймиз, уларда бу атама йўқ. Навоий асарлари юзасидан тузилган бир неча луғатларда ҳам бу номга изоҳ берилмаган. Амир Темур қаламига мансуб "Темур тузуклари" китобида ушбу атамани қайта - қайта ўқиймиз. Қадимий Сурхон ва Термиз тупроғида қайта - қайта от суриб, кучга тўлган Жаҳонгирга макон бўлган Сурхон юртининг шарқий қисм ерлари боболаримиз буюк фотиҳ Амир Темур ва Алишер Навоий даврида *Ҳисори Шодмон* деб аталганини билиб оламиз. Навоий асарларида бу атама бир неча бор ишлатилган.

Ҳисори Шодмон атамаси "Темур тузук"ларида қуйидагича ифодаланади: "Яна амир қилдимки, ўнбоши, юзбоши ва мингбошилардан қай бири душман сафини бузиб ўз қаршисидаги аскар фавжини синдирса юзбоши бўлса, уни бирон мамлакат ҳукмдори этсинлар. Бунга мисол шулки, юзбоши Барлос Баҳодир Тўхтамишхон билан бўлган урушда ёв лашкари билан юзма-юз тўқнашиб, душман қўшинини синдирди. Уни Ҳисори Шодмон мамлакатига ҳоким этиб тайинладим". ("Темур тузуклари") Ушбу варақда Ҳисори Шодмонга қуйидагича изоҳ берилади: "Ҳисори Шодмон – Қадимги Сағониён (Чағониён) вилоятининг XIV-XV асрлардаги номи"[1]. Чағониён мамлакати эса бизнинг қадимги юртимиз Сурхондарё тупроғига тўғри келади. Академик Б.О.Қодиров ва заҳматкаш адабиётшунос олим Б.Х.Муртозаевнинг "Чағониён адабиёти" китобида қуйидаги маълумотлар юқоридаги фикримизга янада аниқлик киритади. "Чағониён амирлиги сарҳадлари кенг бўлиб, унинг ҳудудларига Бойсуну Дарбанд, жанубдан Жарқўрғондан юқори туманлар, шарқдан Боботоғ этакларигача чўзилган заминлар киради. Умумвоҳа Чағониён номи билан юритилган; Қадимги Сурхон дарёси еса Чағонруд дейилган. Чағониён ва Чағонруд номлари қадимги Сак элатининг номи ила ҳамоҳангликни касб етади[2].

Юқоридагилардан Ҳисори Шодмон билан Чағониён бўлак-бўлак мамлакатларми екан деган савол туғилади-ю лекин айрим тарихий китобларни ўқисак, фикримизга ойдинлик киритилади. "Баҳр ал-асрор" ("Сирлар денгизи") асарининг муаллифи Маҳмуд ибн Вали (XVII аср) қуйидагиларни ёзади: "Сағониён (Чағониён) Мовароуннаҳрнинг катта вилоятларидан... Термизнинг шимолида бўлиб Кеш ва Самарқанднинг жанубида жойлашган. Жайҳунга қуйиладиган кўпчилик дарёлар шу вилоят ичидан оқади, уни Чағониён ҳам дейишади. Ҳозирда у Ҳисор номи билан машҳур, чунки унинг маркази Ҳисори Шодмон шаҳри. Шундай бир мустаҳкам қальаки, у тоғнинг энг баландида қурилган[3]", уларнинг барчаси шимолий Сурхон тупроғининг салмоқли бир қисми эканлигини кўрсатади.

Ҳисори Шодмон аслида Тожикистон Республикасидаги Ҳисор шаҳрининг қадимги номи бўлиб, Султон Абусаиднинг иккинчи ўғли Султон Маҳмуд мамлакатининг пойтахти эди. Унинг мамлакати ҳам ана шу ном билан аталган. Чунки топонимикада ном англатган объектнинг кенгайиш ҳодисаси кенг тарқалган[4]. Бугунги кунда ҳам Жарқўрғон, Денов, Шеробод, Шаҳрисабз, Наманган, Яккабоғ шаҳарлари номлари ушбу туманларнинг ҳам номи ҳисобланади. Шоир яшаган ўн бешинчи аср шароитида ҳам вилоятлар, бекликлар ва мулкликлар ана шундай номлар билан аталган. Шу туфайли Бўрибой Аҳмедов томонидан нашрга тайёрланган "Темур тузуклари" китобининг 83-бетида қадимда Сурхондарё тупроғи ҳам Ҳисори Шодмон деб аталганлиги ҳақидаги изоҳ бежиз эмас.

Юқоридаги маснавийда *Ҳисори Шодмон* атамасининг ишлатилиши, Ҳусайн Бойқаро қўшинларини Ҳисори Шодмон билан таққосланишининг асосий сабаби ҳам Алишернинг шу юрт (Сурхон воҳаси) орқали юрганини далил сифатида кўрсатиш билан, иккинчидан, бу юртнинг мустаҳкам истеҳком эканлигини Ҳусайн Бойқарога ишора қилади. Шеърнинг давомидаги "Ҳисори давлат узра шодмонлиғ" мисраси Хуросонда битмаган ишнинг, беклар ва фуқаролар орасидаги осойишталикка ишора эмасми? - деган фикр ҳам туғилади. Кўринадики, Навоий бу хатни Хуросондан қайтганда йўл-йўлакай қадимги Сурхон – Ҳисори Шодмон таассуротлари асосида ёзган бўлиши, "давлат узра осойишталик" қадим юртимизга таалуқли бўлиши ҳам мумкин.

Агар Ҳисори Шодмон юрти беклари ва амирзодалари қўллаб-қувватласа, Ҳиротдан бир оз узоқда ва айни вақтда кутилмаганда Хуросон марказига катта ҳарбий юриш уюштириш имконига эга бўлган Сурхон воҳасида ҳам ўзига хайрихоҳ кучларни қўлга киритишни кўзлаган бўлиши ҳам эҳтимолдан ҳоли эмас[1]. Шоир хатнинг давомида

[1] Темур тузуклари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 82.

[2] Қодиров Б., Муртазаев Б. Чағониён адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б.11.

[3] Маҳмуд ибн Вали. Море тайн. Пер.с персид. – Ташкент: Фан, 1977. – С.168.

[4] Ёқубов Ш. Топонимларнинг муҳим бир хусусияти // Филологик тадқиқотдар: тил, адабиёт, таълим. 2023. 12-сон. – Б. 40-44.

ўйлаган фикрларининг амалга ошмоғи учун имкони йўқлигини дўстига жуда сирли равишда тушунтиришга ҳаракат қилади. Ҳар қандай ишни рўёбга чиқариш учун, албатта, имконият бўлиши зарур. Ҳар бир иш вақти – соати билан амалга оширилади. Бажариш мумкин бўлмаган ишни рўёбга чиқариш учун шошилмаслик лозим. Ушбу фикрни ифодалаш мақсадида қуйидаги шеърни келтиради:

Агар юз қатла булбул чексун афғон,
Баҳор бўлмай гул очилмоқ на имкон.
Агар оламни тутсун шому дайжур,
Тонг отмай кун чиқормоқ кимга мақдур.

Шоир жуда чиройли ўхшатиш орқали ўз фикрини баён қилади. Гул ишқида булбул қанча хониш қилмасин, фиғон қилмасин, баҳор келмай гул очилмаслиги каби тонг отмай қоп-қоронғу тунда кун чиқармоқ ҳеч кимнинг қўлидан келмаслигини таъкидлайди. Яна бир маснавийсида ҳар қандай гавҳару дурлар сақланадиган хазинанинг ҳам темирдан ясалган калити мавжуд бўлиб, темир қулфнинг калити топилса, у шоҳу гадога бир хил имконият яратгани сингари маълум муддат кутиш лозимлигини баён этади. Бу билан дўсти Ҳусайнга вазиятни ҳолисона тушунтиради.

Алишер Навоий Самарқандда яшаган йиллари ўз юрти Хуросондан келган кишилар билан алоқасини узмади. Улар билан учрашиб, она шаҳри Ҳиротда бўлаётган воқеалардан воқиф бўлиб турди. Хуросондан келган яхши-ёмон хабарларни эшитиб гоҳ хурсанд бўлса, гоҳ баъзи воқеалардан дили сиёҳ бўлди. Ўша даврда Самарқандга келиб қолган хуросонлик ватандошлари билан ҳам бот-бот учрашиб турар, ватанларида бўлаётган воқеалардан мумкин қадар хабар топишга интилар эди. Навоийнинг бу даврда ҳам ҳар вақтдагидек мутолаа қилиш, ўз билимини ошириш, самарқандлик алломаларнинг сабоғини олиш асосий вазифасига айланиб қолган эди. Шоир Самарқандда яшаган кезлари жуда кўп қаламкашлар билан фикр алмашди, баҳслар олиб борди. Билими, ўткир зеҳни, хотираси, тинимсиз мутолаа қилиши билан устозлари ва дўстлари, мактабдошларининг ҳурматига сазовор бўлди.

Rezyume. Мақолада Алишер Навоийнинг ”Муншаот” асаридаги 9-хати таҳлил қилинган. Кўпчилик олимларнинг фикрига қараганда шоир бу хатни Хуросондан Самарқандга қайтиш таассуротлари асосида ёзган. Таҳлил давомида шоирнинг Сурхон ва Qашқадарё карвон йўллари орқали ҳаракат қилганига ишора қилувчи манбалар ҳам аниқланган.

Resume. In the article analyzed is the 9th letter of Alisher Navoi’s work “Munshaot”. According to most scholars, the poet wrote this letter based on his impressions of returning from Khurasan to Samarkand. During the analysis, sources indicating that the poet moved through the Surkhan and Kashkadarya caravan routes were also identified.

Резюме. В статье анализируется 9-е письмо произведения Алишера Навои “Муншаот”. По мнению большинства ученых, это письмо поэт написал на основе своих впечатлений от возвращения из Хорасана в Самарканд. В ходе анализа также были выявлены источники, указывающие на то, что поэт передвигался по Сурханскому и Кашкадарьинскому караванным путям.

[1] Қодиров Б., Ёқубов Ш. Алишер Навоий Сурхондарёда бўлганми? // “Сурхон тонги” газетаси, 1993 й. 3-март.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DINIY MATNLARNI TEOLINGVISTIK JIHATDAN TADQIQ QILISH METODOLOGIYASI (QUR'ONI KARIM MISOLIDA)

Yodgorov Shamsiddin Abduraimovich,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Til inson madaniy hayotining turli jabhalarida, ayniqsa, din va e'tiqod bilan bog'liq jarayonlarda jamiyat hayoti bilan chambarchans holatda shakllanib kelgan sotsiomadaniy fenomendir.[1] Tilning boyib borishi va dunyo miqyosida yoyilishida din va e'tiqodiy faktorlarning ham alohida ta'siri mavjud bo'lganligini hech kim inkor qilmaydi.[2] Garchi, o'zlari boshqa til vakillari bo'lishsa-da, bugungacha saqlanib qolgan diniy matnlar tilida so'zlashuvchi insonlarning son jihatdan ko'pligi, ma'lum bir tilning tarqalishida diniy faktorlarning ham alohida ahamiyati mavjud ekanligining mantiqiy dalilidir. Masalan, O'rta Sharq o'lkalarida she'riyat tili bo'lib kelgan, mumtoz arab tili fus'hada milodiy VII asrga kelib Qur'oni Karimning nozil bo'lishi, uning ayni Qur'oni karim vositasida Janubiy, Sharqiy va Markaziy Osiyo hududlarida keng ommalashishiga sabab bo'ldi. Hozirda mazkur hududlar aholisi, arab bo'lmasalarda, Qur'oni karim va Islom dini tufayli arab tilida xat – savod chiqarishgan va aynan mazkur hududlarda yuzaga kelgan o'rta asrlar sharq ilm – fan inqilobi, Musulmon renessansi ham ayni shu til orqali butun dunyoga tarqalib, o'z davrining ilmiy tiliga aylangan.

Din fenomeni orqali tarqalgan tillar tadqiqi esa dinshunos P. Bennettning fikricha, ushbu tilning tarqalishida muhim o'rin egallagan birlamchi manba, u orqali bayon qilingan muqaddas matnning "diniy lingvistikasi"ni o'rganishdan boshlanishi lozim bo'lib, o'rganish ishlari muqaddas matn bitilgan tilning "diniy til" sifatidagi teologik va lingvistik xususiyatlari, uning diniy uslubi, matniy qurilishi, undagi diniy leksik birliklarni qamrab olishi zarur, chunki muqaddas matnlarning mazkur jihatlari ilmiy jihatdan qanchalik chuqur o'rganilsa, ulardagi ma'noviy komponentlik shunchalik to'liq anglashiniladigan holatga keladi.[3] I.V.Bugayevaning fikricha, diniy-e'tiqodiy tushunchalarning kommunikativ, lingvopragmatik, stilistik xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq ekstralingvistik tadqiqotlarni to'g'ri va tizimli tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj XX asr o'rtalariga kelganda, teologiya (ilohiyotshunoslik) va lingvistika (tilshunoslik) fanlarining o'zaro integrallashishiga va tilshunoslikda "teolingvistika" nomli yangi bir interdistsiplinar fanning paydo bo'lishiga olib keldi.[4] V.Hobbsga ko'ra, yunoncha θεός (teos) – Xudo", λιήγβθς (lingvos) – til" va τίϰθσς (tikos) – fan" so'zlaridan yaxlitlanib *"Xudo so'zlagan til haqidagi fan"* degan mazmun ifodalovchi mazkur fan bugungi kunda til va din o'rtasidagi barcha interdistsiplinar yondashuvli tadqiqotlarni o'z vazifasi doirasida qamrab olgan bo'lib, soha doirasida "teologik lingvistika", "lingvistik teologiya" kabi nomlar bilan ham ataladi.[5]

Tadqiqot obyektiga ko'ra "diniy til" va "diniy uslub"ni o'rganuvchi mazkur fanga kim asos solganligi bahsli masalalardandir, chunki ba'zi ikkilamchi manbalarda, fanga belgiyalik tilshunos J.P.Noppen asos solganligi aytilsa, birlamchi manbalar, J.P.Noppenning fanni "teolingvistika" deb atashni taklif qilganligini, ammo uning nazariy asoslari J.P.Noppengacha shakllanganligi haqida ma'lumot beradi. Jumladan, D.Wangga ko'ra "teolingvistika" deb nomlangan ilmiy termin ilk bor lug'aviy iste'molga britan tilshunosi Devid Crystall tomonidan kiritilgan bo'lib,[6] u teolingvistikaga muqaddas matn va diniy-ma'rifiy adabiyotlardan manbalanadigan diniy e'tiqod, aqidaviy masalalar va ularga bog'liq shar'iy qonuniyatlarning til bilan o'zaro ijtimoiy bog'liqligini o'rganuvchi fan deya ta'rif bergan.[7] J.P. Noppen esa teolingvistikani insonning ilohiyot dunyosi va Xudo bilan bog'liq tasavvurlarni nutqda til orqali ifodalashni va ushbu

[1] Малько Е. Язык как социокультурным феномен: постановка проблемы //Теория и практика общественного развития. – 2012. – №. 6. – с.19

[2] Афанасева Т. Источники и методика исследования литургии в религиозных рукописных источниках. – Москва.: Русский фонд Содействия Образованию и Науке. – 2015. – с.78

[3] Bennett B. P. Sacred languages of the world: An introduction. – John Wiley & Sons, 2017. – p.14

[4] Бугаева И.В. Теолингвистика: теология+ лингвистика? // Język i metoda. – Т. 2015. – №. 2. – с. 297

[5] Hobbs V. An introduction to religious language: exploring Theolinguistics in contemporary contexts. – Bloomsbury Publishing, 2020. – p.43

[6] Wang D. P. Chilton & M. Kopytowska (Eds.). Religion, language, and the human mind. Oxford University Press, 2020. – p.16

[7] David Crystal. A Dictionary of Linguistics and Phonetics 6th Edition. Blackwall publishing, 2008. – p.309

jarayonning qay holatda yuz berishi va qanday kechishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha lingvistik masalalarni nazariy jihatdan o‘rganadigan fan deya izohlagan.[1]

D.Crystallning so‘zlariga ko‘ra, g‘arbda diniy matnlarni lingvistik jihatdan tadqiq qilishda teologiya va lingvistika fanlari asosida alohida bir interdistsiplinar yondashuvli fan nazariyasini shakllantirish masalasi ilk bor 1972-yili Jorjtaun universitetida bo‘lib o‘tgan “Sociolinguistics and religion” nomli ilmiy anjumanda muhokama qilingan bo‘lib, unda ma’ruza qilganlarning ilmiy maqolalari, jumladan V. Samarinning “Tongues of men and angels”, F. Goodmanning “Speaking in religious tongues”, J. Barrning “Semantics of Biblical language”, A. Jorjning “Language in religious practice” va M.Atkinsonning “God’s word in men’ language” kabilar teolingvistika fanining ilk nazariy asoslari sifatida e’tirof etiladi.[2] Biroq D.Kristal tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan mazkur manbalar tadqiqi natijasida shunday xulosaga keldikki, ushbu maqolalarda ham teolingvistika deb nomlangan yaxlit bir prinsipial fan va uning tarkibiy qismlari haqida aniq fikrlar berilmagan bo‘lib, qilingan ishlar mualliflarning Bibliya matnlari ustida olib borilgan lingvistik tahlillarida teologiya fanlariga va Bibliya lug‘atlariga murojaat qilishganidan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda, ilmiy izlanishlari teolingvistika fanining sobiq sovet ittifoqi hududiga kirib kelishi va ommalashishida nazariy-fundamental ahamiyat kasb etgan tilshunos, rus teolingvistikasi otasi deya e’tirof etiluvchi A.K.Gadomskiyning fan doirasidagi maqola va ilmiy ishlarida ham asosan teolingvistikaning fan sifatida shakllanish tarixi, uning diniy matnlar tadqiqi va manbashunod mutaxassislar tayyorlashdagi ilmiy ahamiyati, slavyan tillardagi diniy matnlar tadqiqida tilshunoslik fanlari bilan bir qatorda teologiya fanlariga murojaat ham qilish zarurati, slavyan tillaridagi diniy uslubiyatning geneologik tasnifi, diniy matnlar leksikasi asosida teolingvistik terminlarning shakllanishi, teolingvistika fanining nazariy-fundamental va paradigmatik muammolari va boshqa bir qator masalalarda ilmiy qarash va tahlillar ilgari surilgan bo‘lib, teolingvistikaning tahliliy-metodologik yo‘nalishlariga to‘xtalinmagan. Rus teolingvistikasining A.K.Gadomskiydan boshqa A.D.Vagner, S.I.Shamarova, V.I.Postovalova, I.V.Bugaeva, V.A. Stepanenko, A. S. Makarova, Ye. A. Staviskaya, A. A. Buevich, M. A. Kulagina, V.A.Stepnenko, I.D.Kikvidze, Y.A.Vasilyeva, N.O.Kravchenko, Y.A.Stavitskaya kabi vakillarining ilmiy ishlari ham asosan teolingvistikaning nazariy evolutsiyasi, rus-pravoslav diniy leksik birliklarining teologiya va lingvistika fanlari doirasidagi tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda ham fanning tarkibiy qismi tasniflab berilmagan. Teolingvistika faniga oid nazariy-fundamental va eng so‘nggi ilmiy manba va adabiyotlar tahlillariga tayanuvchi xulosalarimizdan kelib chiqib, teolingvistikani Ilohning yoki Xudoning so‘zi deya e’tirof etiluvchi muqaddas (sacral) matnlarni o‘rganuvchi interdistsiplinar fan deb hisoblaymiz, chunki “diniy matn” deya e’tirof etiluvchi matnlarning hammasida ham Iloh yoki Xudoga dalolat qiluvchi teosentrik (Iloh yoki Xudoni markaziy o‘rinda tutuvchi) tamoyil mavjud emas va ularning aksariyati antroposentrik (inson markazli) yondashuvdagi falsafiy, diniy-ma’rifiy manba va adabiyotlardir.

Shundan kelib chiqib, biz ularni 1) muqaddas va 2) diniy matnlar deya ikki xil konseptual birliklar sifatida tasnifladik. Bizningcha, muqaddas matnlar “Xudoning so‘zi” deya e’tirof etiluvchi Tavrot, Zabur, Injil va Qur’oni karim singari kitob shaklidagi ilohiy matnlar to‘plamlari, diniy matnlar esa ana shu ilohiy matnlar mutoalasidan kelib chiqqan holda insonlar tomonidan yoziladigan diniy-ma’rifiy mazmundagi adabiyotlar bo‘lib, teolingvistika fani doirasida inson markazli diniy-ma’rifiy adabiyotlar emas, balki o‘z nomi bilan “Xudoning so‘zi” deya e’tirof etilinuvchi muqaddas matnlarning teodiskursiv, teostilistik, teoleksik va teokonseptual jihatlari tadqiq qilinishi lozim. Ayni shuning uchun teolingvistika fani teodiskurs, teostilistika, teoleksikologiya va teokonseptologiya kabi to‘rtta tarmoqdan iborat bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz.

Teodiskursiv tahlil. Ushbu bo‘limda muqaddas matnlar tarjimalarining asliy matnga nisbatan matniy va pragmatik adekvatligi tilshunoslikdagi diskursiv tahlil metodi asosida o‘rganiladi. Qur’oni karimning tarjimalarining asliy matnga nisbatan lingvistik adekvatligini tadqiq qilish ham aynan tarjimonning Qur’oniy so‘z tartibi izchilligini tarjimada to‘g‘ri ifodalanligini tahlillash bo‘lib, ko‘pchilik tarjimonlarda ayni mazkur masalada e’tiborsizlik kuzatiladi. Jumladan, Qur’oni karimning ko‘pchilik tarjimalarida ayniqsa, o‘zbek va ingliz tilidagi ma’noviy tarjimalarida ham Baqara 2:142, 213, 272; An’om 6:88; Ibrohim 14:4 va shu mazmundagi boshqa oyatlarda to‘ldiruvchi vazifasidagi olmoshlarga ishora qiluvchi maxsus so‘roq so‘zlar tarjimasida anaforik noadekvatlik kuzatiladi. Gap shundaki, yuqoridagi sanab o‘tilgan oyatlarning deyarli barchasida Allohga ishora bilan **“Kim (Allohdan) hidoyat xoxlasa, Alloh uni hidoyat qiladi”** degan mazmundagi **يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ** jumlasi takroran kelgan bo‘lib, tarjimonlar ushbu jumlani ko‘p hollarda “Allohning O‘zi kimni xoxlasa o‘shani hidoyat qiladi” *(He guides whoever He wills to the Straight Path)*

[1] J.P. van Noppen. Theolinguistics: The English of Religion: At the Edges of Language. Presses Universitaires de Bruxelles, 1995. – p.90

[2] Crystal D. Whatever happened to theolinguistics. Oxford Scholarship Online. Journal of religious language and human mind. – 2018. – p.7

deya tarjima qilishadi, chunki مَنْ so‘roq olmoqshi arab tilida ham ega, (kim?) ham to‘ldiruvchi (kimni) vazifasida kelgan so‘zlarni ifodalashi mumkin.

Qur’oni karimda insonlarning hidoyat topishi yoxud zalolatga ketishi haqida xabar berilgan oyatlarni diskursiv jihatdan tahlil qilish asnosida shunday xulosaga keldikki, يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ jumlasi bilan kelgan Qur’on oyatlarini “Allohning O‘zi kimni xoxlasa o‘shani hidoyat qiladi” deya tarjima qilish Qur’oni karimda insonning dunyo hayotiga imtihon uchun kelganligi, bu dunyo imtihon dunyosi ekanligi, shunga ko‘ra insonlar o‘zlariga berilgan hur iroda orqali iymon yoki kufr yo‘lini o‘zlari tanlashlari va tanlagan yo‘llariga ko‘ra hisob-kitob kunida hisobga tortilib, jazo yoki mukofot olishlari haqidagi Qur’oni karimning boshqa qator oyatlariga zid keladi. Jumladan, Baqara 2:38 oyatida Alloh taolo Odam a.s. va uning nasliga, ya’ni butun insoniyatga hidoyat berishi, kim Allohdan kelgan hidoyatga ergashsa najot topishi haqida xabar beriladi. Bundan tashqari, Baqara 2:38 oyatidagi فَمَن تَبِعَ هُدَايَ (kim hidoyatga tobe bo‘lsa) jumlasining Baqara 2:142, 213, 272; An’om 6:88; Ibrohim 14:4 oyatlarda kelgan يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ (Kim hidoyat istasa) mazmunidagi jumla bilan semantik jihatdan intertekstual ekanligini dalillaydigan boshqa oyatlar ham mavjudligini e’tirof etish lozim. Shu bilan bir qatorda, Tag‘obun 64:11 oyatida, kim Allohga iymon keltirsa, Alloh uni hidoyat qilishi haqida aytiladi.

Hidoyatni avvalo insonning o‘zi istashi lozimligiga yana bir dalilimiz shuki Fotiha 1:6 oyatida insonlarning Allohdan hidoyat so‘rashlari uqtiriladi. Boz ustiga Oli Imron 3:101 oyatida ham inson Allohga yo‘nalsa, Alloh uni hidoyat qilishi haqida xabar beriladi. Umuman olganda, Alloh taolo ma’lum bir insonni emas, butun insoniyatni O‘z yo‘liga hidoyat qilishni xoxlashi haqida Niso 4:26 oyatida bayon qilinadi. Qisqacha aytganda, hidoyat butun insoniyat uchun Allohdan beriluvchi bir ne’mat ekanligi aytilgan yuqoridagi kabi oyatlar Qur’onda talaygina.

Oyat matnidagi anaforik adekvatlikni tarjimada to‘g‘ri ta’minlash uchun esa tilshunos yoxud tarjimon Islom teologiyasi tarkibidagi lisoniy fan balog‘at ilmiga, Qur’oni karim ma’nolarini tarjima qilish usullaridan esa tafsir ilmiga murojaat qilishi lozim bo‘lib, tilshunoslik va Islom ilohiyotshunosligi orasidagi mazkur ilmiy integratsiya Baqara 2:142, 213, 272; An’om 6:88; Ibrohim 14:4 va shu mazmundagi boshqa oyatlarda kelgan يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ jumlasiga berilgan “Allohning O‘zi kimni xoxlasa o‘shani hidoyat qiladi” (He guides whoever He wills to the Straight Path) shakldagi tarjimaning yanglish ekanligini ko‘rsatadi. Shulardan kelib chiqib, Baqara 2:142, 213, 272; An’om 6:88; Ibrohim 14:4 oyatlaridagi يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ jumlasini *“Allah guides the one who seeks His guidance”* (Kim Allohdan hidoyat istasa Alloh uni hidoyat qilur.) deya tarjima qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Teostilistik tahlil. Bizningcha, muqaddas matnlardagi, ayniqsa Qur’oni karimdagi diniy uslubiyat boshqa turdagi diniy-ma’rifiy adabiyotlar uslubiyatidan anchayin farqli ravishda Iloh tomonidan bo‘ladigan ilohiy xitob, hukm, buyruq, tavsiya va ko‘rsatmalarni qamrab oladi va ayni shu sababdan ham ushbu teosentrik (Iloh-markazli) uslubiyat alohida bir subdistsiplinar tarmoq kesimida tadqiq qilinishi zarur. Teolingvistikaning subdistsiplinar tarmog‘i sifatida ilgari surayotganimiz “teostilistika” ana shu kabi tadqiqotlarni tizimli tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Zero, teostilistika fenomeni ham etimologik jihatdan “teo” – Iloh yoki Xudo va “stylistics” – “uslubiyat” so‘zlaridan umumlashgan holda *“Xudo so‘zlagan lisoniy uslubiyat”* (divine style) degan tushuncha ifodalaydi. Bu uslubiyat o‘zining boshqa tillarda uchramaydigan semantik, pragmatik, kognitiv va konseptual ma’noviy mukammalligi va o‘ziga xosligi bilan insonlar orasidagi ijtimoiy muloqot va murojaat uslubidan tamomila farq qiladi. حَلَلْ **(halol)** va حَرَام **(harom)** konseptlari ishtirok etgan Baqara 2:175, Moida 5:1 va Moida 5:96 oyatlari misolida Qur’oni karimning o‘ziga xos teostilistikasi bilan tanishish mumkin. Jumladan, Baqara 2:175 oyatdagi savdoning halol qilinishi, undan topiladigan daromadning halolligiga ishora bo‘lib, daromadning halolligi unda boshqalarga tegishli bo‘lgan haqning qo‘shilmaganligidir. Riboning (foizning) haromligi esa u orqali sun’iy ravishda ko‘payadigan mablag‘da boshqa birovning haqqi mavjud ekanligidir.

Moida 5:1 va Moida 5:96 oyatlardagi chorva mollarining va dengiz mahsulotlarining halol qilinishi esa ushbu mahsulotlarning yeyilishiga ruxsat berilishidir. حَلَلْ (halol) va حَرَام (harom) tushunchalarining uslubiy-fenomenal o‘ziga xosligi, ular va ular ifodalaydigan mazmunning hom-som tillar oilasi tarkibidagi tillardan boshqa tillarda konsept sifatida mavjud emasligidir.

Teokonseptologik tahlil. Fikrimizcha, diniy konseptlar ma’lum bir dinning ramziy identifikatorlari sifatida o‘sha dinning asosiy teosentrik mezoni bo‘lib, ular quyidagi tasnif asosida tadqiq qilinishi kerak:

1) Diniy-aqidaviy konseptlar;
2) Umume’tiqodiy konseptlar;
3) Shar’iy-doktorinal konseptlar;

Insonlarda ma’lum bir din haqidagi tasavvurlarning holis shakllanishi, uning e’tiqodiy asoslarini tashkil etuvchi asosiy tushunchalarining to‘g‘ri idrok qilinishiga bog‘liqligi hisobga olinsa, diniy matnlar va ularning tarjimalarining lingvistik tadqiqida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat ham aynan uning birlamchi manbasi bo‘lgan muqaddas matnlaridagi diniy-e’tiqodiy konseptlarning boshqa tillarda qay da-

rajadagi yaqin muqobillilik asosida ifodalay olinganligini baholash, undagi nomuqobillik holatlarini keltirib chiqargan muammo va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish ekanligi oydinlashadi.

Mazkur mulohazamizga misol tariqasida ko‘p hollarda bibleizmlar orqali talqin qilinadigan Qur’oniy konseptlarni misol qilishimiz mumkin. Misol uchun, Qur’oni karimning Baqara 2:62; Oli Imron 3:67; Moida 5:14; Tavba 9:30; Haj 22:17; kabi oyatlarda kelgan **النَّصَارَىٰ** (nasroniylar) so‘ziga muqobillanadigan “christians” termini ana shunday bibleizmlardan hisoblanadi. **النَّصَارَىٰ** (nasroniylar) va “christians” so‘zlari orasida olib borilgan semantik tahlillarga tayanib aytamizki, mazkur ikki so‘z ham leksik ham semantik hamda konseptual jihatdan boshqa-boshqa tushunchalar ifodalovchi leksik birliklar hisoblanadi. Jumladan, **النَّصَارَىٰ** (An-Nasoro/Nasroniylar) so‘zi arabcha tilidagi **نَصَرَ** (dastaklamoq, yordam bermoq) fe’lidan kelib chiqqan **نَصْرَانِيّ** (nasroniy) so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, mohiyatan “Iso a.s.ga din da’vatida yordam beruvchilar” degan ma’noni anglatadi.[1] Qur’oni karimning Soff 61:14 oyatida **النَّصَارَىٰ** (Nasroniylar) so‘zi mazkur ma’noda ta’riflanadi. Oyat matniga e’tibor berilsa, unda **النَّصَارَىٰ** (An-Nasoro) so‘zining sinonimi **أَنصَارُ** (ansor) so‘zi kelgan bo‘lib, havoriylar o‘zlarini Allohning diniga xizmat qiluvchi “yordamchilar” ekanliklarini **نَحْنُ أَنصَارُ ٱللَّهِ** deya e’tirof etishadi. Shuningdek, Oli Imron 3:52 oyatida havoriylarning o‘zlarini “Allohning diniga yordamchi ekanliklari”ni e’lon qilishganligi xabar beriladi. Biroq, etimologik jihatdan lotincha “cruxifixus” (xochlangan) so‘zidan kelib chiqqan “christian” so‘zi “Xudoning diniga xizmat qiluvchi” degan ma’noni ifodalamasligini alohida urg‘ulash lozim.

Douglas Hallning *“The cross in our context: Jesus and the suffering world”* nomli kitobida qayd etilishicha, “christ” so‘zi “xochga tortilgan”, “christian” esa “xochga tortilganga ergashuvchi” yoki “xochga tortilganning diniga mansub shaxs” degan ma’no ifodalaydi.[2] O‘z navbatida, “xoch” so‘zining arab tilida **صلب** (salb), “xochga tortilgan” **مصلوب** (maslub) va “xochga tortilganga ergashuvchi”, ya’ni xristian **أتباع المصلوب** (atba’il maslub) deyilishini hamda Niso 4:157 oyatida **صَلَبَ** (xochga tortmoq) fe’lining o‘tgan zamon inkor shakli orqali Iso a.s. xochga tortilmaganligi haqida xabar mavjudligini inobatga olinsa, “christian” so‘zi “yordamchi” yoxud “xizmatkor” ma’nosini beruvchi **نَصْرَانِيّ** (nasroniy) so‘ziga muqobil bo‘la olmasligi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, Qur’oni karim oyatlari bizga Iso a.s. ning xristian bo‘lmaganligi yoxud xristianlik deb nomlangan bir dinga asos solmaganligi va eng asosiysi “Xudoning o‘gli” emas, balki “Isroil qavmiga yuborilgan payg‘ambar” bo‘lganligini oydinlashtirib beradi. Xulosa o‘rnida qayd etishimiz lozimki, tilshunoslik tarmoqlaridagi har bir fan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi va tadqiqot uchun tanlangan obyekt fanning tarkibiy qismlari doirasida o‘rganilishi kerak bo‘lsa, muqaddas matnlar tadqiqi ham metodologik jihatdan teolingvistikaning istiqbolli tarmoqlari kesimida tadqiq qilinishi kerak.

Resume. This article is dedicated on the methodology which is proposed by the researcher on studying the sacred scriptures within the framework of analysis of sources related to the theolinguistics, new interdisciplinary branch of linguistics that studies religious texts.

Резюме. Данная статья посвящена предложенной исследователем методике изучения Священных Писаний в рамках анализа источников, относящихся к теолингвистике, новому междисциплинарному разделу языкознания, изучающему религиозные тексты.

[1] Abdul Mannan Omar. Dictionary of the Holy Quran – Arabic words with English meanings (with notes). Classical Arabic dictionaries combined. NOOR Foundation International Inc press, 2010. – p.301

[2] Hall Douglas John. The cross in our context: Jesus and the suffering world. Fortress Press, 2003. p.183

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LINGVOMADANIY KODLARNI ANIQLASHDA KULT OMILI (SURXONDARYO TEOTOPONIMLARI MISOLIDA)

Turdiqulov Sherzod Duminovich,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Teotoponimlarda lingvomadaniy kodni aniqlash muammosiga ilmiy jihatdan to‘g‘ri yechim berilsa, tegishli joy nomlarining muqaddaslashtirilishiga asos bo‘lgan nolisoniy omillar kashf etiladi – bu jihat nafaqat tilshunoslar, madaniyatshunoslar, balki tarixchilar, etnologlar uchun nihoyatda muhimdir. Vaholanki, ziyoratgohlar orasida real hamda ramziy qabrlar, ilohiylashtirilgan jonsiz predmetlar, tog‘ jinslari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga aloqador tushunchalarni ifodalovchi joy nomlari ham borki, ularni noto‘g‘ri talqin qilish soxta etimologiyaga yo‘l ochadi. Qolaversa, xalq orasida biror ziyoratgoh nomiga doir noto‘g‘ri talqinning mavjudligi shu millat ma’naviyati, konseptual, pirovardida, qadriyatiy manzarasiga doir kemtiklar borligini tasdiqlaydi va u toponimistlar tomonidan jiddiy tekshirilishi, ilmiy asos va dalillar bilan to‘lg‘azilishi zarur. Binobarin, mazkur qadamjolarning atalish sababiyati, ulardagi motivlanganlik // motivlanmaganlik jihatlarini tekshirishda bevosita, shu nomlar semantikasida aks etgan kodlarni aniqlash muhim va dolzarb muammo hisoblanadi.

Maqolamizga doir uzil-kesil aniqlab olinishi lozim bo‘lgan 1-jihat – bu dialektal va toponimik arealning ko‘p o‘rinlarda bir-biriga mos tushmasligi masalasi. Odatda, mahalliy aholining til xususiyatlarini aks ettirishi lozim bo‘lgan toponimik nomlar etimoni shu aholi shevaviy xususiyatlaridan butkul yiroq tabiatga egaligi aniqlanadi – bu mazkur etimonlarning boshqa tillar ta’sirida kelib chiqqan holatlarda sodir bo‘ladi. Mazkur vaziyatlarda u yoki bu toponimning etimologiyasi to‘g‘risida faqat va faqat taxmin qilishdan o‘zga chora qolmaydi.

Teotoponimlar asosidagi lingvomadaniy kodni aniqlashga doir 2-muhim jihat – bu ziyoratgohlar, u yerda o‘tkaziluvchi aqidaviy marosimlarni keltirib chiqargan kult masalasi. Zero, tegishli teotoponim mundarijasida yashirin yoxud ochiq ifoda topgan lingvomadaniy kodni aniqlash uchun dastavval shu toponimning shakllanishiga asos yaratgan kult va umuman, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston musulmonlarida mavjud aqidaviy qarashlarga fanning munosabatini belgilab olishimiz lozim bo‘ladi.

Fanda muqaddas zotlar kulti o‘zgarmas, ratsionalizm va zamonaviy odam turmush tarziga “singishmaydigan”, o‘tgan davrlarga mansub aqida, irimlardan meros hodisa ekani ta’kidlanadi[1]. Zero, kult bir necha talqinga ega tushuncha:

1) unga bo‘lgan salbiy munosabat bir jihatdan 18-19-asr Yevropa ateistik falsafasi ta’sirida yuzaga kelgan;

2) kultga bo‘lgan salbiy munosabat sof islom mafkurasini himoya qilish, yolg‘iz Allohga itoat etish, imon keltirish hamda shirkdan, bid’atlardan muhofazalanish bilan belgilanadi.

3) Islomning o‘zga dinlarga munosabatida chin ma’nodagi musulmon ma’naviyati va mafkurasining chegaralarini aniqlashga bo‘lgan harakatlar kultni murakkab, oraliq madaniy-e’tiqodiy hodisa sifatida tekshirishga undaydi. Masalan, *Xo‘jai Xubon* (Surxondaryo v., Denov t.) yetti og‘ayni yoxud yetti pir kultini o‘zida ifoda etadi[2]. *Xo‘jai Xubon* toponimida mavjud lingvomadaniy kodni aniqlashga doir taxminlarimizni tahlil qilib ko‘ramiz.

1) Mazkur qadamjoga asos bo‘lgan qarashlar ildizini Islom tarixiga, to‘g‘rirog‘i, Muqaddas Qur’oni Karimning 18- “As’hobul-Kahf” (qahf – g‘or, as’hob – sohibning ko‘pligi: g‘or egalari) surasida kelgan qissalarga bog‘ladik. Zero, musulmon mafkurasidagi bu qissa alomatlari Alloh nozil qilgan barcha muqaddas kitoblar mundarijasida uchraydi. **2)** yetti pir – Abduxoliq G‘ijduvoniy, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Bobooyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me’moriy majmualari Buxoro viloyatida joylashgan. Bu vaziyatda Denov tumanidagi (Surxondaryo

[1] Подвижники ислама: Культ святых и суфизм в Средней Азии и на Кавказе / С. Абашин, В. Бобровников (ред.). – М., 2003.

[2] Бу фикр тарихчи олим С.Турсунов томонидан илгари сурилади. Бу ҳақда қаранг: Турсунов С. ва бошқ. Ўзбекистон жанубий ҳудудларида маданий ва амалий санъат ёдгорликлари тарихи. – Термиз: Сурхон-нашр, 2017. – 288 б.

v.) Xo‘jai Xubon ziyoratgohining yetti pirga taalluqlilik belgisi haqida gapirish noo‘rin bo‘ladi. **3)** 1. *Xuboni – xubonū* – [ینابوخ] tojik tilida “bodom mag‘izli, quritilgan o‘rik; 2. Ma’joziy ma’noda – lab, xurmo; 3. Olmaning eng yaxshi navlaridan biri” ma’nosini beradi[1]. **4)** *Xubon* – 15-asr Ispaniya tarixiga oid kiyim turi.

Tahlillar to‘rtala taxminning uchinchi – “o‘rik” talqinli variantda to‘xtalishga da’vat etadi. Zero, mazkur ziyoratgoh etimonida yetti og‘ayni kultiga ergashishni tasdiqlovchi dalillarimiz yetarli emas va biz, an’anaviy tarzda, el ichida islomgacha bo‘lgan davrga xos predmetlar bilan bog‘liq irimlardan kelib chiqib, *Xo‘jai Xubon* ziyoratgohini fitonim kodli qadamjo deb baholashga shoshilmaymiz.

Vaholanki, “yetti avliyo og‘ayni” kultining Janubi-Sharqiy Osiyoda tarqalgan variantlari *Xo‘jayi Xubon*ning asl etimonini ochiqlashga yordam berishi mumkin.

“Yetti avliyo og‘ayni” kultining Farg‘ona varianti.

1. Quva shahrida joylashgan Oq ota mozori ziyoratgohi mavjud bo‘lib, Oq ota – yetti avliyo og‘aynilarning biri, deya hisoblanadi. Yetti og‘aynining vatani sifatida Turkiya, yoxud Turkiston, yoki Xitoyning Sinszyan hududi taxmin qilinadi. Yetti og‘aynilarning shaxsiyatiga doir turli talqinlar mavjud. 1) *Oq ota, Tezgir ota, Xo‘ja Xasan, Qaranchu ota, Chirmoch* (aslida singil), *Bolalik-qayrag‘och, Qorovul ota*. 2) Xuddi shunday, Farg‘ona viloyatining sharqiy qismida ham shunday ziyoratgoh mavjud bo‘lib, “yetti og‘ayni”dan atigi uchovlonning ismlari xalqqa ma’lum. Bular *Boy-ob buva (Boboiob), Chinor buva, Chil mayram (Chil mahram)*. 3) Boshqa rivoyatda uch og‘aynilar – *Boyob buva, Osh buva* (Osh shahridagi Taxti-Sulaymon qadamjosi nomidan), *Shohimardon buva* (Hazrat Ali xalifaning Farg‘onadagi ziyoratgohi nomidan). 4) *Boyob buva, Oppoq buvi, Tut mozor*. Bu variantning o‘ziga xos jihati mavjud: qadamjoga ziyorat *Oppoq buvi* va *Tut mozor* qadamjosidan boshlanib, *Boyob buva* ziyorati bilan yakunlanishi shart[2].

2. So‘xda**:** mozor *Buvayda* (variantlari: *Huvayda, Huviona, Buvi-ona), Xo‘ja Turop, Sulton Bayoz, Bajgir* (var. *Bachkir*)

3. Marg‘ilonda mazkur kult *Qorasoqol buva, Tol quduq buva, Sherali buva, Xalfa buva, Hayron* (gayron-?) *azizlar, Qizlar mozor*.

4. Toshloq tumani: *Aka Sho (Oqshoh), Makatillo, Arab mozor, Osh buva, Shohimardon, Arslonbob, Hazrati Ayub*.

Buxoro varianti: *Xo‘ja Nurobod, Xo‘ja Sesaron, Xo‘ja Aspgardon*.

Qirg‘iz varianti: *Oysul ota* (Xitoyda), *Qorako‘l ota, Qo‘chqor ota, Shin ota, Manjili ota, Cho‘lpon ota, Avliyo ota.*

“Yetti avliyo og‘ayni” kultining 1. Konibodom (Tojikiston) varianti: 1) *Langarbobo* (Konibodom rahnamosi Hazrati Bobo nomidan), *Xo‘ja Ro‘shnoi, Qilich Burxoniddin, Sari mozor, Ambar ona, Takrubob (Takoburd)* va yana bir noma’lum mozor.

2. O‘ratepa varianti: *G‘oyibota, Xojai Mullo, Childuxtaron, Nurota, Xo‘jai Ro‘shnoi.*

Shimoliy Afg‘oniston varianti: *Xo‘jai Kil Vali Sohib, Xo‘ja Shoi Darbandi, Xo‘ja Ahmadi Vosharo, Xo‘ja Hasani Sarpili, Xo‘ja Misgari Oriviy*[3].

Bu ro‘yxatni Hindistonning Bengaliya, Panjob viloyatlarida mavjud “Panj piriyya” kulti misolida ham davom ettirish mumkin, biroq Janubi-Sharqiy Osiyo lokal mifologik tizimining yirik tarmoqlari bo‘ylab tarqalgan xilma-xil, bir-birini zidlovchi rivoyat va talqinlar bu o‘rinda bitta to‘xtamga kelishimizga to‘sqinlik qiladi. Aytilganlardan farqli, izlanishlarimiz natijasida *Xo‘jai Xubon*ga doir yana bir dalilga ega bo‘ldik. **Xo‘ja ubbon** (toj. obbon – *mirob, suv boshqaruvchi*) – Sho‘rchi tumani T.Berdiyev xo‘jaligida joylashgan qadamjoy ekan. Bu yerda Xo‘jaubbon qudug‘i (hovuz) mavjud. Xo‘jaubbon bobo suv himoyachisi, suv qo‘riqchisi, suv homiysi bo‘lgan ulug‘ zot hisoblangan. Bu shaxs *Ubbon, Sulton Xubbi, Xazrat Xubbi, Oqshixbobo* kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan. Hovuz suvi tarkibida mineral tuzlari ko‘p bo‘lganligi uchun ilgarilari terini oshlashgan (qayta ishlashgan). Bugungi kunda shu hovuzga ziyorat uchun maxsus kelishadi, jonliqlar so‘yib, *xudoyi* o‘tkazishadi, niyat qilib suviga yuvinishadi va Allohdan shifo tilab umid qilishadi.

Binobarin, tadqiqotimiz davomida Surxondaryo teotoponimlarining shakllanishiga asos bo‘lgan 10ga yaqin kultni aniqladik. Bular: Taxti Sulaymon kulti, Qirqqiz kulti, Sulton va sayyidlar, sahobalar, xo‘jalar kulti, mifonimlar kulti, tabiat (g‘or, tog‘, daraxt, suv (buloq)), kulti, zoonimlar kulti, litosonimlar (toshlar) kulti, qal’alar kulti, “yetti avliyo kulti*”, “yetti avliyo og‘ayni”, “yetti pir”*kulti va b.

Jumladan, “yetti avliyo og‘ayni” kultini o‘rgangan S.Abashin, S.M.Abramzon, A.I.Shevyakov singari o‘nga yaqin olimlarning xulosalariga tayanib, Denov tumanidagi *Xo‘jai Xubon* teotoponimining aslida Farg‘ona viloyati So‘x tumanida joylashgan mozor(i)

[1] https://dic.academic.ru/dic.nsf/dic_synonims/241341

[2] Подвижники ислама: Культ святых и суфизм в Средней Азии и на Кавказе / С. Абашин, В. Бобровников (ред.). – М., 2003.

[3] Подвижники ислама: Культ святых и суфизм в Средней Азии и на Кавказе / С. Абашин, В. Бобровников (ред.). – М., 2003.

Buvayda (variantlari: *Huvayda, Huviona, Buvi-ona*) asosida shakllangan bo‘lishi mumkin, degan to‘xtamga keldik. Demak, *Xo‘jai Xubon – Huvayda, Huviona, Buvi ona*(?) ehtimoldagi yetti (Janubi-Sharqiy Osiyo mifologiyasida “yetti og‘ayni” kultidagi 7 miqdoriga qat’iy amal qilinmaydi: ayrim hududlarda ulardan faqat ikkitasi qayd etilgani haqidagi ma’lumotlar ham mavjud[1]) og‘aynining singlisi yoxud opasi bo‘lishi mumkin. Har holda, mazkur teotoponimning antropomorf kodli onomastik unsur ekani, shuningdek, izofa tarkibidagi *xubon* (toj. *yaxshi*)ga tayanib, uning “xo‘jalarning yaxshisi” ma’nosida kelayotgani aniqlandi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida mavjud **“Sulaymonota” kulti** (Sherobod t.)ning asoslari tekshirilganda, uning ildizlari qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasida joylashgan “Taxti Sulaymon” – “Sulaymon tog‘”ga borib taqalishi aniqlandi.

Sherobod tumanidagi Sulaymonota (Dovud Allayhissalomning o‘g‘li Sulaymon Allayhissalom nomi bilan bog‘liq: uning mulki, podshohlik davri haqida muqaddas kalomimiz “Qur’oni Karim”da, Shayx Ali Tantoviyning “Payg‘ambarlar tarixi” kitobida va boshqa manbalarda ma’lumotlar berilgan) ziyoratgohi Markaziy Osiyodagi shu nomdagi yagona ziyoratgoh emasligini quyidagi misol ham tasdiqlaydi: *Bu qayerdadir, tog‘ning ortida, dalalarida paxta o‘sadigan joyda emish. Tep-tekis yerda, tog‘ bo‘lishi mumkin bo‘lmagan tekislikda aziz bir tog‘ – Sulaymon tog‘i bor emish. Ana shu tog‘ poyiga bir qora qo‘chqor so‘yib, Xudoga iltijo qilsa, toqqa chiqib har qadamda Xudoga sig‘inib, yolvorsa hamda chin ko‘ngildan so‘rasa, Xudoning rahmi kelib, farzand ato etarmish. Bekey xolam o‘sha yoqqa, Sulaymon tog‘iga borishga juda intizor. O‘razqul amaki esa unchalik istamaydi. Uzoq. Ko‘p pul kerak, deydi. U yoqqa faqat samolyot bilan tog‘dan oshib borish kerak, axir.* (Chingiz Aytmatov, Oq kema). Ch.Aytmatovga ergashilsa, Sherobod tumanidagi Sulaymonota qadamjosi adib tasvirlagani kabi paxta dalalari orasida joylashmagan – uni yonlab oqib o‘tuvchi Sherobod kanali hamda balandlik va tepaliklar bunday mulohaza yuritishga yo‘l bermaydi. Ikkinchidan, yozuvchi nazarda tutgan tog‘ – aynan O‘sh shahridagi Sulaymon tog‘idir va uning asardagi talqini Sherobod tumanidagi Sulaymonota tepaligining geografiyasiga mos kelmaydi. Vaholanki, Farg‘ona vodiysidan ko‘rinib turuvchi Sulaymon tog‘ Qirg‘izistonning O‘sh shahri uzra qad ko‘targan. Tog‘ Buyuk ipak yo‘lining yo‘nalishlari kesishgan hududda joylashgan. Sulaymonota tog‘ining beshta cho‘qqisida qadimiy ziyoratgohlar, qo‘hna g‘orlar va XVI asrga taalluqli, qayta qurilgan masjidlar joylashgan. Katta miqdordagi ziyoratgohlar ichida bugunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan 17 ta ziyoratgoh tog‘ hududi bo‘ylab tarqalgan bo‘lib, o‘zaro yo‘laklar bilan bog‘langan. Bu huddudga asosan farzandtalab hamda bod kasaliga yo‘liqqan bemorlar o‘zlariga shifo izlab keladilar. Rivoyatlarga qaraganda (shuningdek, tog‘dagi g‘orlarning qoyalarida aks etgan 400 dan ortiq petrogliflarning guvohlik berishicha), Zardo‘sht ham shu tog‘ning qaysidir g‘orida “Avesto”ni yozish bilan mashg‘ul bo‘lgan ekan. Buyuk Ipak yo‘lining markazida, yo‘llar kesishgan nuqtada joylashganidan, tog‘ dastlab *Ptolemey minorasi* deb atalgan.

Sulaymonota kultining o‘zi esa eramizdan avvalgi III asrda vujudga kelgan. XVI asrga qadar tog‘ “Bara-Kuh” (bizningcha, *Barko‘h* – “chiroyli tog‘”), davr o‘tib (XX asrda), tog‘ni *Taxti Sulaymon,* so‘ng *Sulaymon tog‘* deb atab boshlaganlar.

Garchi ikki manzilda joylashgan ziyoratgohlarning har ikkisi ham Sulaymonota kulti mundarijasiga mos belgilarni namoyon etsa ham (Sherobod tumanidagi Sulaymonota ziyoratgohiga ham farzand umidida qadam ranjida qiladilar), biroq Sherobod tumanidagi mazkur qadamjoda Axtam sahobaning ramziy qabri, shuningdek, bir necha chillaxonalar, chiroq yoqish uchun mo‘ljallangan hujrachalar mavjud. Xuddi shunday, tepalikning eng yuqori nuqtasidagi mazkur maqbaraga zinalar orqali yurib boriladi. Ziyoratgoh qoshidagi masjid – namozxona esa bevosita tepalikning o‘zida emas, ziyoratgoh joylashgan tog‘likning etak qismida joylashgan. Qolaversa, bu kultning Surxon aholisi o‘rtasida tarqalgan aqidalari qirg‘izlarda mavjud qarashlardan birmuncha farq qiladi: Hasan Madi To‘ranazarovning “Qadim skif-turkiylar” kitobida ta’kidlanishicha: “...ba’zi bir betobliklar, ayniqsa, yosh bolalarga xos bosinqirash, harorat oshishi suvga bog‘lanib, bevaqt qosh qorayganda ariqdan o‘tish, suvga axlat to‘kib uni bulg‘ash, suvga tupurish yoki bilmay peshob qilganlik sababidandir. Buni “bolani suv parilari ushlagan”, deyishgan. Shunda momolarimiz tezda Sulaymon chiroq udumini o‘tkazishgan. Bolaning bo‘yi barobarida pilik eshilib, moylangan. Chiroq ariq bo‘yida yoki obtovadagi suvdan to‘ldirilgan tovoq ustida cho‘pga ilingan holda yoqilgan. Bola yonidagi yoqilgan pilikdan ariqqa yoki tovoqdagi suvga cho‘g‘lar jizillab tomib turishi kelak bo‘lgan. Tilovat qilingan va: *Dardning boshi Sulaymon, Dardingga shifo tilayman*, deyilgan. Bu suv mevali daraxt ostiga yoki ariqqa to‘kib tashlangan”[2].

[1] Подвижники ислама: Культ святых и суфизм в Средней Азии и на Кавказе / С. Абашин, В. Бобровников (ред.). – М., 2003.

[2] Тўраназаров Х. Қадим скиф-туркийлар. – Тошкент: Шамсиқамар, 2021. – Б. 92-93.

Rezyume. Maqolada lingvomadaniy kodlarni aniqlashda kult omili va uning millat madaniyatiga daxldorlik jihatlari tahlil qilingan. Unda Surxondaryo viloyatida joylashgan Sulaymonota, Xo‘jayi Xubon, Xo‘jayipok kabi teotoponimlarning lingvomadaniy kult asosida paydo bo‘lganligi daliliy materiallar asosida ochib berilgan.

Resume. The article analyzes the cult factor and its relevance to the culture of the nation in the definition of linguistic and cultural codes. In it, it is revealed on the basis of evidentiary materials that such teotoponyms as Sulaymanota, Khojayi Huban, Khojayipok, located in Surkhandarya region, appeared on the basis of linguistic and cultural cult.

Резюме. В статье анализируется культовый фактор и его значимость для культуры нации в определении лингвокультурных кодов. В нем на основе доказательственных материалов выявлено, что такие теотопонимы, как Сулайманота, Ходжайи Хубан, Ходжаипок, расположенные в Сурхандарьинской области, возникли на основе лингвокультурного культа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QO‘NG‘IROT ETNONIMINING SHAJARAVIY TARKIBIGA OID AYRIM ONOMASTIK TAHLILLAR

Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Insonlar tarixdan o‘z ajdodlari, ota bobolari haqida qiziqib turli rivoyatlar, tarixiy manbalarni o‘rganganlar. Keksa avlod vakillaridan kerakli bilimlarni o‘zlashtirganlar. Chunki turli kitoblarda yozilgan yoki og‘izdan-og‘izga ko‘chib kelayotgan ma’lumotlar insonning millati qandayligi, nasl-nasabi kim bo‘lganligi, qaysi urug‘ vakili ekanligiga oydinlik kiritadi. Shu tariqa avlodning shajarasi vujudga keladi. Shajara (arabcha “daraxt”) – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshchilik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog‘i – geniologiya o‘rganadi. Qadim zamonlardanoq podshohlar, hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar nasl-nasabiga qiziqish mavjud, biroq o‘rta asrlarda shajara imtiyoziga ega bo‘lgan tabaqalarning paydo bo‘lishi va ularning avlod-ajdodlarini rasmiylashtirishga qiziqishning kuchayishi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Bu, o‘z naavbatida, XV asrdan boshlab shajaralar o‘rtasidagi nikoh aloqalari haqida guvohlik beruvchilarning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Shu davrda urug‘ yoki bir-biriga yaqin urug‘ a’zolarining nasl-nasabiga oid bir necha daftarlar tuzila boshlagan.

O‘rta Osiyoda nasab daftariga xo‘jalar, saidlar kabilar ega bo‘lib, bu hujjatlar ularning payg‘ambar, sahobalar, tarxonlar va beklar naslidan kelib chiqqanligini ko‘rsatuvchi dalil sifatida, shuningdek, soliq to‘lash, xalq hasharlariga chiqish va boshqa ishlarda alohida imtiyozga, umuman jamiyat hayotida yuqori mavqega ega bo‘lish uchun xizmat qilgan. Shajara hujjatlari dastlab shaxsning siyosiy mavqeiga ko‘ra guvohlar ishtirokida hukmdorlar huzurida tuzilgan va uning muhri bilan tasdiqlangan. Keyinchalik hukmdorlar avvalgi muhrlarni ko‘rib tasdiqlab beraverishgan[1].

Qo‘ng‘irotlarning tarixi va sharhi ko‘p. Qo‘ng‘irot urug‘ining ildizi chinordek baquvvat. Baxshilari kuylab kelgan dostonlari, Alpomish-u Barchinoylari umrboqiydir. Sarvari olam qo‘ng ‘irotning beshta urug‘iga

[1] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Sh harfi. – Toshkent, 2000.

beshta hislatni ko‘proq bergan deyishadi. Unga ko‘ra: *vaxtamg‘aliga* shajaralik, *qo‘shtamg‘aliga* sarkardalik, *qonjig‘aliga* boylik, *oyinniga* mullalik, *tortuvliga* botirlik berilgan emish[1].

Qo‘ng‘irot urug‘ining asosiy katta guruhlari boshqa urug‘lardan ajralib, farqlanib turishi uchun o‘z tamg‘asi – muhriga ega bo‘lgan. Shu tamg‘alarning shakli va nomi urug‘ vakillarining tarixi, ota-bobolari, ularga xos bo‘lgan xarakter-xususiyat, asosiy mashg‘uloti, kasbi-kori va yashash manzillariga ishora bergan. Masalan, qo‘ng‘irotlarning eng katta bo‘g‘ini bo‘lgan *vaxtamg‘ali* urug‘ining nomlanishi bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Xususan, *Vaxtamg‘ali* qo‘shma so‘z bo‘lib, *“vax”* va *“tamg‘a”* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bundagi “vax” *vaxiy* so‘zidan olingan. *Vaxiy* so‘zi Xudoning xohishi, Allohning amri ma’nosida qo‘llanilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, “Xudoning amri bilan, Allohning roziligi bilan vujudga kelgan” degan mazmunni tushunishimiz mumkin. Bu nom ularning vujudga kelish tarixiga ko‘ra berilgan. Mazkur urug‘ning tamg‘asiga va nomlanishini ifodalovchi xalq etimologiyasidagi boshqa bir ma’lumotga ko‘ra, vaxtamg‘ali aslida *oqtamg‘ali* bo‘lishi mumkin. Oq rangli tamg‘a ozodlik, yorug‘lik, ezgulik ramzi sifatida tanlangan. Mazkur urug‘ning boshi Qo‘ng‘irot boboning birinchi xotinidan ikkinchi o‘g‘li Jonquljonbekdan boshlanadi. Bu 18 urug‘dan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilar: *ochamayli (ochamoyli), boymoqli, taroqli, chan-chiqli, qozoyoqli, cho‘michli, qaychili, ishqili, qiyg‘ochli, jilontamg‘ali, bolg‘ali, qoraqo‘ng‘irot, bug‘ajili, uyuvli, xandaqli, irg‘oqli, oboqli, kesovli*.

Qo‘shtamg‘ali ham qo‘ng‘irotlarning bosh bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, tamg‘asining shakliga ko‘ra nomlangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, *“qo‘sh”* – ikkita, juft ma’nosida kelib, ikkita – qo‘shsha chiziqdan iborat tamg‘aga ega degan ma’noni anglatadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, tamg‘alarning ahamiyati urug‘lar orasida muhim bo‘lgan. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi qo‘ng‘irotlarning chorva mollariga ham tamg‘alar shakli solingan. Jundan ishlangan kigiz, gilamlarga ham o‘z urug‘i tamg‘asining naqshi tushirilgan. Bu urug‘ qo‘ng‘irot boboning birinchi xotinidan katta o‘g‘li Aliquljonbekdan boshlangan bo‘lib, 16 ta urug‘ni o‘z ichiga oladi: *kal, barmoq, savribuzar, qoraqalpoq, ko‘chaxo‘r (go‘jaxo‘r), oqpichoq, chalbachcha (cholbachcha), to‘lang‘it, tilovmat, o‘troqi, chalka, mavlush, bandigujuk (bangikuchuk), zamburi, qoraqasmoq, ko‘sa*.

Qonjig‘ali urug‘i Qo‘g‘irot boboning Xaydarquljonbek degan o‘g‘lidan boshlangan avlod bo‘lib, 14 ta ichki urug‘larga bo‘linadi: *ko‘rto‘g‘ay (qo‘rto‘g‘ay), qo‘ldovli, jelkillak, moltaka, qoraxonjig‘ali, qorabuvra, do‘sna, chola (chala), no‘g‘ay, tunqora (to‘pqora), quyun, cho‘llik, ulus, qoravursoq (qoraqursoq)*. Bu urug‘ning nomlanishi bo‘yicha ham bir qancha tahminlar bor. Xususan, *qonjig‘ali* etnonimi ikki asosdan tarkib topgan bo‘lib, *qon jig‘ali – jog‘ali – yoqali,* ya’ni *qon yoqali* degan ma’noni bildiradi. Yana bir boshqa ma’lumotga ko‘ra, chorvachilik bilan shug‘ullangan, go‘shtxo‘r bo‘lgan qonjig‘alilar ko‘p qo‘y, echkilar so‘ygani uchun ariq, jilg‘alarida suvlarga qon tushib qizil rangga bo‘yalgan. Shunga ko‘ra *qon jilg‘ali* ning fonetik o‘zgarishga uchragan varianti deb hisoblanadi. Bizningcha har ikkala qarashda ham qaysidir ma’noda asos bordek. Xulosamizga ko‘ra, har qanday vaziyatda ham mazkur etnonimning asosi *qon* semasi bilan bog‘liq.

Tamg‘asining shakliga ko‘ra nomlangan yana bir urug‘ nomi *oyinni* bo‘lib, oyinli tarzida ham yuritiladi. *Oyinni* etnonimining asosi *“oy”* bo‘lib, *“oyli”* degan ma’noni ifodalagan. Bu urug‘ning tamg‘asi yangi oy (ingichka yarim oy) shaklida bo‘lgan. Surxondaryo vohasida mashhur oybaldoq – yarim oy shaklidagi sirg‘a – zirakning kelib chiqishi ham aynan qo‘ng‘irotlarning oyinni urug‘iga borib taqaladi. Oyinnining ayollari o‘z urug‘iga ishora qilib oy shaklli taqinchoqlar taqqanligi haqida ma’lumotlar bor. Bu urug‘ Qo‘ng‘irot boboning ikkinchi xotinidan birinchi o‘g‘li Mullamuroddan boshlanadi. 12 ota urug‘dan iborat bo‘lib, ular quyidagilar: *qovg‘a, qochay, qoraqalpoq, tipor (topar), beshbola, cho‘rak (churan), turmak, xojibachcha, kal, qora, oqtana (oqtaka), oytamg‘ali*.

Tortuvli etnonimi *“tortiq qilish”, “in’om etish”* ma’nolarini ifodalaydi. Yoshi o‘tib, ancha keksayib qolgan Qo‘ng‘irot boboga ikkinchi xotini tomonidan in’om etilgan, tortiq qilingan (xalq orasidagi boshqa bir afsonaga ko‘ra xon tomonidan Qo‘ng‘irot boboga sadoqatli xizmati uchun taqdim etilgan, in’om etilgan kichik xotini tomonidan dunyoga keltirilgan farzand bo‘lgani uchun *tortuvli* nomini olgan) o‘g‘li – Jiyanbekning avlodi bo‘lib, eng kichik urug‘ guruhi hisoblanadi. Nisbatan yosh va tarkibi jihatidan ancha ixcham bo‘lgan mazkur urug‘ga oid ma’lumotlar boshqa urug‘larga nisbatan biroz ko‘proq. Baxshilar tomonidan kuylangan termalar, xalq og‘zaki ijodiga oid ba’zi afsona va rivoyatlarda mazkur urug‘ haqidagi o‘rinlarni uchratishimiz mumkin.

Alpomish ham tortuvlidan bo‘lgan. Mahmatqulboy qo‘ng‘irotlarning bosh bobosi, uning o‘g‘li Jiyanbek tortuvlining bobosi hisoblanadi. Qo‘ng‘irot urug‘ining shunqori, gapga yetar zukkosi tortuvli olti urug‘ – *to‘g‘iz, o‘r, mo‘nka, oboqli, cho‘poq, maydataboq*. Shu guruh tarkibiga kiruvchi urug‘lar borasida ba’zi tortishuvli o‘rinlar mavjud. Biz asosiy shajara sifatida to‘g‘ri deb hisoblaganimiz va tayanib ish olib borayotganimiz B.Karmisheva[1] tasnifidan boshqa bir qator manbalar farqlanadi. Xususan, ba’zi manbalarda

[1] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Muharrir, 2019. – B:136.

moydatovoq (maydataboq) urug‘i tortuvlining tarkibiga kirmaydi[2]. Saqlanib qolgan ma’lumotlarga ko‘ra: To‘raquldan *to‘g‘iz*, Mo‘minqul Jebachidan *mo‘nka*, O‘rozmatdan *o‘r*, Choridan *cho‘poq*, Cho‘tboydan *qorabo‘yin*, Abrahmatboydan *oboqli* urug‘i tarqalgan[3]. Yana boshqa manbada oboqli tortuvlining urug‘lari orasiga kiritilmagan[4]. Biz o‘rgangan va tahlil qilgan ma’lumotlarga ko‘ra oboqli tortuvli urug‘ining tarkibiga kiradi. Oboqli urug‘ining deyarli barcha shahobchalariga mansub keksa avlod vakillari o‘zlarining bosh urug‘ini tortuvli deb hisoblashadi. Tortuvli urug‘ining ichki bo‘linishi quyidagicha: *To‘g‘iz: sadiri, bo‘rboy, obiz, kirboloq, mandat, balxiyonbosh, qo‘shchi, shoxol, ko‘kkalbosh; o‘r: shayxnazar, o‘ris, dalba, itbaliq, chuva, jostobon; mo‘nka: so‘ngkeldi, o‘razoq, marday, bo‘g‘robachcha, kalbachcha; cho‘poq: qorabo‘yin, Abray, qoshqa, qizilbosh, sorixo‘ja, Oshir kichkina; oboqli: murodbachcha, qaroqchi, cholish, bo‘z qiyiq, shudgor, qizilbelbov*[5].

Yuqorida qo‘ng‘irot urug‘ining bosh bo‘g‘inlari va ichki shaxobchalarini, o‘rganishlarimizga asoslangan holda, ajratib chiqdik. Bu qo‘ng‘irotlar haqida muhim ma’lumot bo‘lsada, bizning asosiy maqsadimiz, mazkur urug‘ tarkibiga oid nomlarni ifodalovchi etnonimlarning onomastik tahlilini amalga oshirishdir. Ko‘rib o‘tganimizdek, bu etnonimlarning har biri o‘ziga xos etimologiyaga ega bo‘lib, ma’lum bir mantiqqa aoslanadi. “Etnonimlarning vujudga kelishida asosiy omil nima bo‘lgan, qanday konseptual asosga tayaniladi?” kabi savollarga javob topish uchun ko‘plab tarixiy manbalar va keksa avlod vakillarining bilimlariga tayanish kerak bo‘ladi. Shunda ham aniq xulosa chiqarish biroz mushkul. Chunki fonetik o‘zgarishlar etnonimga asos bo‘lgan so‘z aslida qanday bo‘lganligini tushunishga to‘sqinlik qiladi. Misol uchun, o‘zbek urug‘lari orasida mashhurlaridan bo‘lgan *qozoyoqli – qoziyoqli* etnonimi bir qarashda zoomorf kodga asoslangan *g‘oz* semasi bilan bog‘liqdek. Lekin qarashlar turli xil. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ziga xos yurish shakliga ega bo‘lgan ya’ni, g‘ozga o‘xshab oyoqlarini ikki tomonga tashlab yuradigan kishidan tarqagan urug‘ga, yurish shakliga ko‘ra, shu nom berilgan. Ba’zi fikrlarga ko‘ra esa o‘ziga ishongan, davralarda ko‘krak kerib yuruvchi, gerdaygan, bahslarda faol bo‘lgan urug‘ vakillari shu nom bilan atalgan. Manbalarda yuqoridagi fikrimizni asoslovchi shunday ma’lumotlar bor: “Qozoyoqli bo‘g‘inining nomi (g‘oz oyoqli) so‘zidan olingan bo‘lib, boshqirdlarda *“puyir oyoq” (ножки глухаря) “гусинные лапки”*, qoraqalpoqlarda – *qozyak*, no‘g‘aylarda va qrim tatarlarida – *kazayak* deb yuritiladi[6].

Tarixchi S.Tursunovning fikricha, mazkur urug‘ning nomi *qozoyoqli* emas, *qoziyoqli* bo‘lib, *g‘oz* so‘ziga umuman aloqasi yo‘q. Olimning ma’lumotlariga ko‘ra, Sirdaryoda bir podsho bo‘lib, qozisi bilan yer-suv masalasida tortishib qoladi. Aholining ma’lum qismi qozini qo‘llab-quvvatlaydi. Podshoh qozini o‘ldirmoqchi bo‘lganda, qozi o‘z tarafdorlari bilan tunda podsholik hududidan chiqib ketadi. Hozirgi Surxondaryo hududlariga kelib joylashadi. Qozoyoqlilar qozini yoqlaganlar (tarafdorlar), u bilan kelgan kishilar avlodlaridir. Bizningcha, S.Tursunovning mulohazalari haqiqatga yaqinroq. Chunki, g‘ozga o‘xshab yurish qo‘ng‘irotlarning boshqa urug‘lariga ham xos (masalan, *jostoboni*).

Ko‘rinib turibdiki, etnonimlar etimologiyasini aniqlash ancha murakkab va ko‘p izlanishni, tahlillarni talab etadigan jarayon. Ma’lumotlarning bir qismi etnonim haqida tegishli xulosani bersa, yana boshqa mulohazalar dastlabki fikrni inkor etadi. Bu jarayonni o‘rganish tadqiqotchiga murakkablik tug‘dirsa-da, tilshunosligimiz uchun muhim hisoblanadi. Zero, etimologiya til ilmlarining boshlanishi va asosidir.

Resume. This article provides information about the genealogical composition of the kongirat ethnonym, the names of its main syllables and branches. The analysis and history of the words that are the basis for the naming of the main syllables are given. It is emphasized that etymology is a complex field, and the influence of phonetic mysticism is discussed. As an example, the ethnonym *kazoyogli (kozyogli)* was analyzed and the attitude expressed.

Резюме. В данной статье представлены сведения о генеологическом составе этнонима кунграт, названиях его основных слогов и ветвей. Представлен анализ и история слов, положенных в основу наименования главных слогов. Подчеркивалось, что этимология – сложная область, обсуждалось влияние фонетической мистики. В качестве примера был проанализирован этноним *казаёгли (казиёгли)* и высказано отношение.

[1] Кармишева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. –М.: Наука, 1976. – С. 90-94.
[2] Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Тошкент, 1997. – Б. 20.
[3] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Muharrir, 2019. – B. 136.
[4] Эшим Олтинбош. Илдизлари бақувват эл – Хомкон. – Тошкент, 2022. – B. 8.
[5] Раҳимов Т. Алпнома. – Тошкент: Muharrir, 2019. – B. 12.
[6] Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Тошкент, 1997. – Б. 21.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ETNOREALIYALARNING MILLIY ETNOGRAFIK LEKSIKADA AKS ETISHI (Afg'oniston o'zbeklari misolida)

Nadim Muhammad Humayun,
Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Afg'oniston o'zbeklarining etnik voqeliklarini ijtimoiy, madaniy va tarixiy kelib chiqishiga ko'ra turli toifalarga bo'lish mumkin. Afg'onistondagi o'zbeklar jamiyati mamlakatdagi eng yirik etnik guruhlardan biri bo'lib, 9 millionga yaqin o'zbek aholi istiqomat qiladi. Ular asosan Afg'onistonning فاریاب Faryab[1], جوزجان Jawzijan [2], سرپلSaripul, بلخBalkh, سمنگان Samangon, تخار Takhar, بدخشانBadakhshan, کندوزKunduz kabi shimoliy viloyatlarida zich yashab kelmoqdalar. Afg'oniston o'zbeklari etnik voqeliklarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning o'zlikni anglash va madaniy merosga ega ekanligidir. Afg'onistondagi o'zbeklari tarixiy ildizlari qadim mingyilliklarga tutash bo'lib, ularning etnik jihatlari qadim o'zbek urug'lariga tutashdir. Bu holatni Afg'oniston o'zbeklari nutqida uchraydigan etnorealiyalar, etnografizmlari, urf - odati, e'tiqodi, an'analarini kuzatish asnosida ham bilishimiz mumkin. Chunki, Afg'onistonning 9 ta shimoliy viloyatlarida azaldan yashab kelayotgan etnik o'zbeklar ayniqsa, Faryab, Jawzijan, Saripul, Balkh, Samangon, Takhar, Badakhshanda yashab keladi hamda Afg'onistondagi boshqa etnik guruhlardan ajralib turadigan o'ziga xos til, toamlar, mehmondo'stlik, mavsumiy marosimlar, sport, hunarmandchilik, an'anaviy musiqa, oilaviy qadriyatlar va an'anaviy liboslariga ega. Afg'on o'zbeklari etnik haqiqatlarining yana bir muhim jihati ularning ijtimoiy tuzilishi va tashkil etilishidir[3]. Afg'onistondagi o'zbeklar jamoasi an'anaviy ravishda qabila va urug'larga bo'lingan bo'lib, har bir guruhning o'ziga xos urf-odatlari, an'analari mavjud. Bu ijtimoiy tashkilot tizimi Afg'onistondagi o'zbeklar jamiyatining o'ziga xosligi va jipsligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Afg'oniston o'zbeklari marosim va urf-an'analarida integratsiyalashgan etnorealiyalar:

Afg'oniston – etnik jihatdan ko'pmillatli xalq. Bu holat barcha jarayonlarda, xususan, hudud etnografiyasi, etnorealiyalarida ham integratsion holatni namoyon qiladi. Hududda istiqomat qiladigan etnoslar: pushtun, turkman, tojik, o'zbeklarning to'y-marosim etnorealiyalarida ham uyg'un holatlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, turkman, tojik xalqlari to'y-marosim etnoetnorealilari shu hududlarda yashovchi o'zbeklarning to'yga oid etnorealiyalari bilan uyg'unlik hosil qilishi barobarida o'ziga xoslikni ham ma'lum darajada saqlab qolgan. Quyida Afg'onistondagi tojik xalqlari to'y marosimi, urf-odatlarini bayon qilgan holda fikrimizni davom ettiramiz. Sovchilik jarayoni tojiklarda "**gap zani**" گپ زنی – *sulh tuzuvchilar*, *bitim tuzuvchilar;* yoki **asokoli**, ya'ni *oqsoqollar* deb nomlanadi. Bunday deyilishiga sabab shuki, sovchilikka odatda qariyalar borishgan. Tojik elatlarida unashtirish to'yi "**Fotihayi to'yi**"فاتحه تویی deb nomlanadi. Unashtirish jarayonida kuyovning ota-onalari kelinga boshdan-oyoq sovg'alar, kiyim-kechaklar taqdim qilishadi hamda bu *sarupo* deb nomlanadi. Aynan shu jarayon Afg'oniston o'zbeklari etnorealiyalarida *sarpo*, *sarpoy* nomlari bilan ataladi. Tojik elatlarida kelinning uyiga kuyov tomonidan yog', guruch, qo'y go'shti yuboriladi. Bu an'ana hudud o'zbeklariga ham xos. Tojiklarda to'y, asosan, *to'y*, *to'y arusi* deyiladi[4]. Darhaqiqat, *to'y* so'zi anglatgan marosimlar har doim kishilarning talabi, ehtiyoji bilan o'tkazilgan. Ushbu hayotiy hodisaning turli elatlar, xalqlar va millatlardagi vujudga kelish tarixi, shakllari, tarixiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uning tarkibida saqlanib qolgan umuminsoniy, milliy va mahalliy, ijobiy an'analarni saqlab qolish: qoloq, davr talablariga mos kelmaydigan jihatlarni isloh etish, kamxarajatli, ixcham to'ylar qilishga xalqimizni

[1] Hamdard, Hasamuddin. "Afg'onistonda o'zbek tilida ommaviy axborot vositalarining boshlanishi." news of uzmu journal (2024): 325-328.

[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Jowzjan_Province

[3] Nadim, Muhammad Humayun. "ethnocultural situation of uzbek people in northern Afghanistan." theoretical & applied science,(6) (2021): 490-492.

[4] Дониёров А. Бўриев О. Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенизи ва этник тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2011. – В. 147.

odatlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan ma'lumotlarga qaraganda, *to'y* atamasi turkiy so'z, *toy* yoki *qurultoy* shaklida mo'g'ullar va chig'atoy xonlari davrida ham keng qo'llangan. XIV asrda Movarounnahr hududiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta esdaliklariga asosan "toy" – bu har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy), unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkiy beklar, obro'li ayonlar va lashkarboshi ishtirok etgan.

Yakunlangan muddati 1864-yil 5-may bo'lgan "Tavorixi xorazmshoxiya" tarixiy asarida uchraydigan ma'lumotga ko'ra, vazir Xasan-Murod qushbegining o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan, ziyofat – toy (to'y) bir necha kun davom etgan. Tadqiq etilgan aksariyat ma'lumotlar asosida "to'y" – qadim zamonlardan beri doimo katta jamoa, yuqori martabali zodagonlar, katta hajmdagi yig'in, cheklanmagan miqdordagi ziyofat va dabdaba bilan uzviy bog'liq bo'lgan odat ekanligi aniqlandi[1]. O'zbek to'y marosimlari davrlar o'tishi bilan qisman o'zgarib borgan va har bir etnik guruhda o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladi. Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanmish oila munosabatlari nikohdan boshlanadi. To'y jarayonini "*yasavul*" boshqaradi. To'y bazmida kuyov "*sha*" yoki "*shah*" – *podshoh* nomini oladi. To'y marosimi nihoyasida kuyovning *soch olish* udumi bajariladi. Bunda kuyovga boshdan-oyoq yangi kiyimlar taqdim qilinadi. Nikoh to'yidan oldin mulla chaqirilib nikoh o'qitiladi. Mullaning yoniga bir kosa suv, uning ustiga non qo'yiladi. Bu suv *nikoh suvi* yoki *obi nikoh* deb nomlanadi. Kelin nikoh o'qish jarayonida qatnashmaydi. Bo'lajak kelin yoniga bir *padarvakil* (*vakilota*) hamda ikki odam guvoh sifatida boradilar. "Vakilota" ga qiz o'z roziligini va nafsiga vakil tutganini aytadi. Bu jarayonga guvoh bo'lgan ikki inson *shohidvakil* yoki *shohidlar* deb ataladi. Shu guvohlar va "vakilota" gaplariga asosan mulla nikoh o'qiydi. Afg'oniston o'zbeklarida nikoh o'qish jarayoni ana shu tartibda amalga oshiriladi. Afg'oniston tojiklari orasida ayrim marosim nomlari Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimlarida ham hozirgi kunda faol qo'llaniladi va ularning izohlarini keltirib o'tamiz. **Izdivoj merosi (nikoh merosi نکاح میراثی) –** ushbu an'anaga asosan baxtsiz hodisa tufayli erta vafot etgan aka yoki ukaning xotinini, marhumning akasi yoki ukasi o'z nikohiga oladi. Bunda ular bu majburiyatdan bosh tortishi mumkin bo'lmagan. Afg'oniston o'zbeklarida bu taomil pushtun xalqlaridan o'tgan, hanuz madaniy meros sifatida saqlanib qolgan. **xoskorlik** خواستگاری (sovchilik) Kelin bo'ladigan qiznikiga kuyovning onasi yo xolasi, opa-singillari o'n dona patir, shirinlik bilan borib qizini kelinlikka so'rash jarayoni. **xiysh xuri خویشخوری Fors tilida xiysh o'zlari bilan o'zi va xuriy** ovqatlanish degani. Nikoh to'y bo'lishi arafasida qiz va kuyovni, uyida ovqatdan oldingi kungi bazm ushbu bazmda, oila a'zolari va yaqin qarindoshlaridan tashqari, ba'zi do'stlar va qo'shnilar yig'ilib, o'g'il -qizlarning oilalarini tayyorlab, kiyim -kechak va taom tayyorladilar. Shuningdek, ular qo'shiq, raqsga tushish va o'ynash orqali baxtli daqiqalar va soatlarni yaratadilar. Albatta, bu yig'in bo'lajak kuyov va kelinning oilasida alohida - alohida o'tkaziladi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida har bir xalqning milliy etnorealiyalari jahon sivilizatsiyasida nechog'liq o'ringa ega ekanligini aniqlashga e'tibor va qiziqish kuchayib bormoqda. Darhaqiqat, o'zbek tilining boyishi va o'ziga xosligini namoyon etishda etnorealiyalarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular leksik birliklar sifatida til lug'at sathining boyishiga xizmat qiladi.

Etnorealiyalarni til, tarix, adabiyot va boshqa bir qator fanlarning obyekti sifatida o'rganish mumkin. Shunga ko'ra ularni ikkiga:

a) leksik etnorealiyalar;

b) adabiy etnorealiyalar tarzida ajratish mumkin[2].

Leksik etnorealiyalar sifatida etnosning qadimiy hayot tarzi, uning tafakkuri, tasavvuri bilan bog'liq, an'anaga kirib qolgan xatti-harakatlarining, ya'ni insonning tug'ilishidan to vafotiga qadar oila yoki jamoat orasida tashkil qilinadigan marosimlar, ular tarkibiga kiruvchi udum va rasm-rusm, irim-sirimlarning nomlari, shuningdek, xalq e'tiqodiy qarashlari bilan aloqador lug'aviy birliklarning nomlari nazarda tutiladi[3]. Barcha zamonlarda bir joyda istiqomat qiluvchi aholi boshqa hududlarda yashovchi xalqlar bilan yaqindan madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqada bo'lib kelgan. Bunday aloqalar tufayli bir xalqdan ikkinchi xalqqa turli urf-odat, an'analar bir-biriga o'tishi tabiiy. Jumladan, tadqiqot obyekti sifatida o'rganayotgan Shimoliy Afg'oniston o'zbek to'y marosimi etnorealiyalari ham millatlararo munosabatlar ta'sirida boyib borgan. O'zbek tilshunosligida etnorealiyalarni yozib olib o'rganish ildizi bir ming yillikka borib taqaladi. Buyuk qomusiy olim Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida *to'y* atamasi qayd etilmagan. Biroq unda *todundi, to'yundi, todg'undi to'zg'urdi* kabi *tod* o'zagidan yasalgan 18 ta leksema qayd etilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy "*sovchi-kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar yetkazuvchi*" – deb

[1] Saydullayeva X., Ochilov A. O'zbekistonda to'y an'analari tarixi va buguni (maqola). Academic Research in educational sciences volume 2 | ISSUE 3 | 2021. – B. 1238.

[2] Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фолклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Фил.фан. номз. дисс. – Тошкент, 2018. – B. 13.

[3] Касимова Р. Yuqoridagi dissertetsiya. – B. 13.

yozadi[1]. Tilshunos olim Abdusamad Jo‘raboyev shu dalilga asoslanib, *to‘y* so‘zi *to‘ymoq* fe’lining o‘zagi *to‘y*dan hosil bo‘lgan degan fikrni bayon etadi[2]. Bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, to‘y so‘zi keyinchalik iste’molda faol qo‘llangan bo‘lsa-da, uning ma’no anglatgan xususiyatlari bir necha asrga borib taqaladi.

Nikoh to‘y نکاح توی marosimlarini boshlab beruvchi dastlabgi marosim sovchilik, sovchilar to‘g‘risidagi ilk ma’lumotlar VII-VIII asrga oid O‘rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi To‘nyuquq (VII asr) bitiktoshida “sov” – atamasi “sab” – so‘z, gap ma’nosida ishlatilgan. Irq bitigida esa “sab”-so‘z, “sabchi” – xabarchi, so‘z keltiruvchi ma’nosida ishlatilgan[3]. Nikohni shakllantirishda hamda ertangi kunda katta hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarning bir-birlari bilan baxtli yashashida sovchilarning roli katta. Negaki, ular dastlabgi, unashtiruvga sabab bo‘luvchi kishilar. Sovchilik marosimi nutqining ahamiyati haqida professor A.Omonturdiyev shunday yozadi: “Sovchilik aslida davlat diplomatiyasiga o‘xshaydi, hatto, undan ham nozik. Diplomat davlat nomidan gapiradi, talab (ba’zan ultimatum) qo‘yadi. Sovchi birovning uyiga (ot savdosiga, suyunchi olishga, suhbatlashishga emas, albatta) bolasini – qizini olishga boradi. Bu jarayon har qanday odamni sukut saqlashga, o‘ylashga, gapni nimadan boshlashga, nozik iboralar qo‘llashga, ehtiyot bo‘lib so‘zlashga, o‘ylab javob berishga majbur qiladi. Shuning uchun ham sovchilar gapga chechan, gapdon, suxandon, so‘zamol, dono, zukko, topqir, ziyrak, donishmand, bosiq, psixolog, ayni zamonda, ko‘pni ko‘rgan, oqqorani tanigan, e’tiborli, baobro‘ kishilardan tanlangan[4]. Ana shunday ishiga mas’ul odamlarning xizmatlari sabab bu an’ana o‘zining ahamiyatini aslo yo‘qotgani yo‘q. Biroq, boy madaniy merosi va kuchli o‘zligini his qilishiga qaramay, afg‘on o‘zbeklari qator qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqda. Afg‘onistondagi o‘zbek jamiyati oldida turgan asosiy muammolardan biri siyosiy vakillik va iqtisodiy imkoniyatlarning yo‘qligidir. O‘zbeklar ko‘pincha afg‘on jamiyatida chetga suriladi va kamsitiladi, bu esa jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy tafovutlarga olib keladi. Afg‘onistondagi o‘zbek xalqi boy madaniy merosga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos urf-odatlarga ega.

Afg‘onistondagi o‘zbek xalqining urf-odat va an’analaridan ba’zilari quyidagi guruhlarga ajratamiz:

1. Mehmondo‘stlik
2. An’anaviy liboslar
3. Bayramlar
4. Oilaviy qadriyatlar
5. An’anaviy musiqa
6. Hunarmandchilik
7. Mavsumiy marosimlar
8. Sport

1. Mehmondo‘stlik: O‘zbeklar mehmondo‘stligi va mehmonga saxovatliligi bilan mashhur. Mehmonlarga hurmat va ehtirom belgisi sifatida choy, shirinlik va taom berish odat tusiga kiradi. **2. An’anaviy liboslar:** Afg‘onistondagi o‘zbeklar ko‘pincha ayollar uchun rang-barang naqshli ko‘ylaklar, erkaklar uchun uzun tunikalar kabi an’anaviy kiyimlarni kiyishadi. Ushbu kiyimlar ko‘pincha ipak yoki paxtadan tayyorlanadi va murakkab naqsh va naqshlar bilan bezatilgan. **3. Bayramlar:** Afg‘onistondagi o‘zbeklar Navro‘z (forscha yangi yil) va Ramazon hayiti kabi qator an’anaviy bayram va bayramlarni nishonlaydilar. Bu bayramlar ziyofatlar, raqslar va musiqalarni o‘z ichiga oladi va o‘zbek madaniyatining muhim qismidir. **4. Oilaviy qadriyatlar:** O‘zbek madaniyatida oila yuksak qadrlanadi va katta oilalar ko‘pincha ahil-inoq jamoalarda birga yashaydilar. Keksalarni e’zozlash, oila a’zolariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish muhim madaniy qadriyatlardir. **5. An’anaviy musiqa :** Afg‘onistondagi o‘zbeklar boy musiqa va raqs an’analariga ega, rubob va doira kabi an’anaviy cholg‘u asboblari ijrolarda keng qo‘llaniladi. Raqs o‘zbek bayramlari va bayramlarining muhim qismidir. **6. Hunarmandchilik:** Afg‘onistondagi o‘zbek xalqi kashtachilik, gilamdo‘zlik, kulolchilik kabi an’anaviy hunarmandchilikdagi mahorati bilan mashhur. Bu hunarmandchilik ko‘pincha avloddan avlodga o‘tib, o‘zbek madaniy o‘ziga xosligining muhim qismi hisoblanadi. **7. Mavsumiy marosimlar:** Turli marosimlar, an’anaviy bayramlar jarayonida ijro etiladigan qo‘shiq turlari nomi. Chorvachilik, dehqonchilik mehnatlari bilan bog‘liq va hk. **8. Sport:** o‘ziga xos uloq va kurash sport jaryonlarini yoritib beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Afg‘on o‘zbeklarining etnik voqeliklari o‘zlikni anglash, madaniy meros va ijtimoiy tashkilotchilikning kuchliligi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, Afg‘onistondagi o‘zbek xalqining madaniy g‘urur va o‘ziga xosligi kuchli bo‘lib, ularning urf-odat va an’analari jamiyat va turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynar ekan, shunningdek etnorealiyalarlarida to‘y marosim etnografizmlari ask etishini ko‘ramiz.

[1] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘ati-t- turk. Qosimjon Sodiqov nashri. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017 – B. 258.

[2] Жўрабоев А. Ўзбекистонда тўй-маросим номлари (Андижон группа шевалари материаллари асосида): Филол.фан. номз. дисс. – Тошкент, 1971. – B. 47

[3] Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2009. – B. 89

[4] Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Фил. фанлари док. дис. автореферати – Тошент, 2009. – B. 173.

Rezyume. Ushbu maqolada Afg‘oniston o‘zbeklari etnorealiyalarlarida to‘y marosim etnografizmlarini berilishi yoritilgan. O‘zbek xalqining madaniyati, ijtimoiy va ma’naviy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan va shu jarayonda yaratilgan har bir marosim, an’ana, udumlarga oid so‘z va terminlar borki, ular o‘zbek tilining lug‘at tarkibida ma’lum leksik guruhni tashkil etadi. Bunday so‘zlar guruhi rus, o‘zbek va jahon tilshunosligida “etnografik leksika”, “etnografik dialektizm”, “etnorealiyalar” kabi terminlar bilan nomlanib kelinadi. Shu asosda maqolada ham Afg‘oniston o‘zbeklari marosimlarida, etnorealiyalar va etnografizmlarning o‘ziga xosliklari ochiqlab berilgan.

Resume. In this article, the ethnographies of the wedding ceremony in the ethno-realities of the Uzbeks of Afghanistan are highlighted. There are words and terms related to the culture, social and spiritual activities of the Uzbek people and each ceremony, tradition created in this process, which are included in the vocabulary of the Uzbek language. Such a group of words is called “ethnographic lexicon”, “ethnographic dialecticism”, “ethnorealia” in Russian, Uzbek and world linguistics. It is revealed that the Uzbeks of Afghanistan show ethnorealisms and ethnographies in their ceremonies.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHAXSH NUTQI VOQELANISHIDA AREAL TA’SIR

Raximova Umida Djumayevna,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jahon tilshunosligida til va undan foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqadorlikka (lingvopragmatikaga) bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham ortdi. Natijada, tilni quyidagi uch birlik asosida tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi:



Insonning jonli nutqini bunday aspektda o‘rganish jarayonida etnolingvistika va uning zaminida hosil bo‘lgan lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) kabi soha va yo‘nalishlar yuzaga keldi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning yangi yo‘nalishi bo‘lishiga qaramay, o‘z navbatida uning ham yangi tarmoqlari: frazeologik lingvomadaniyatshunoslik, kotseptologik, leksikografik, lingvodidaktik lingvomadaniyatshunoslik kabilar paydo bo‘ldi. Bularning hammasi insonning jonli, amaldagi nutqini o‘rganishga qaratilgan.

Dunyo xalqlari o‘rtasida turli sohalarda o‘zaro hamkorlik aloqalari tobora kengayib borayotganligining o‘zi ham tilshunoslikning bu kabi yangi soha va yo‘nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har bir millat va elatlarning o‘ziga xos, hech kimnikiga o‘xshamaydigan muloqot me’yorlari mavjudki, bularni bilmay turib turli mamlakat xalqlari o‘zaro muloqotga kirisha olmaydilar. Aynan shuning uchun ham chet tillarini yoki bir tilda so‘zlashuvchi turli hududlarda yashovchi kishilar muloqot xulqini o‘rganishda ularning o‘ziga xos tomonlarini bilishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

I.A.Boduen de Kurtene asarlarida ham indlividual shaxs nutqi masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Tilshunosning fikricha, “til va til imkoniyatlarining ko‘rinishi (yuzaga chiqishi) faqat individual shaxsning tafakkuri, voqelikni qalban his eta olishi, uning ruhiy dunyosi va holatiga bog‘liq holda shu shaxsning boshqalar bilan (muayyan nutq momentida) aloqa-aralashuvidagina yuzaga chiqadi. Muayyan tilning shajarasi yoki milliyligi ham faqat individual

shaxs nutqining tuzilishi, voqelanishi bilan aniqlanishi mumkin”[1]. Boduen de Kurtenening mazkur fikrlarini to‘la qo‘llab quvvatlagan lingvopersonolog olim Ivanseva bu xususda shunday yozadi: “U har bir “so‘zlayotgan kishi” nutqida til xom ashyosining qorishiq manbaini ko‘ra olgan. Individual shaxs nutqi garchi tashqi tomondan faqat uning o‘zigagina tegishlidek, ya’ni xususiy ko‘rinishi mumkin. So‘zlayotgan shaxsning nutqidagi har qanday o‘zgarishlar, rang-barangliklar aksariyat tinglovchilarda xuddiki shu shaxs nutqigagina tegishlidek taassurot qoldiradi, olim so‘zlayotgan shaxs nutqidagi har bir element (u katta yoki kichik bo‘lishidan qat’i nazar–izoh bizniki) tavsifini juda to‘g‘ri holatda tildagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holatda izohlagan”[2]. Ijtimoiy muhit, ya’ni kishining shakllanishi va faoliyatidagi uni o‘rab olgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning qanday bo‘lishligi ko‘proq ekologiyaga bog‘liqdir. Uning bevosita ta’sirida shakllangan ijtimoiy muhit shaxsning shaklanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga kishining ijodiy faolligi va faoliyati tufayli ijtimoiy muhit o‘zgarib turadi va bu jarayon ta’sirida kishilar o‘zlari ham o‘zgaradilar.

Insondagi o‘zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo‘ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta’sir etadi.

O‘zbeklar nutqida cho‘pon va dehqonlarga nisbatan “Dalasiday bag‘ri keng” iborasi qo‘llaniladi. Zero, keng joyda yashab, ishlaydigan kishilarning fe’l-atvori ham shunga yarasha bo‘ladi. Bunday muhitdagi kishilar baqirib-chaqirib gapirish, xohlagan paytda ovozining boricha qo‘shiq aytish imkoniyatiga ega bo‘lganlari holda, shaharning tor, beton devorli xonalarida yashaydigan kishilar sharoit taqozosiga ko‘ra ko‘pincha past ovozda gaplashishga, qo‘shiq aytgilari kelganida ham damlarini ichlariga yutishga yoki past ovozda xirgoyi qilishga majbur bo‘ladilar. Issiq, diqqinafas xonada kishining asabiylashish darajasi ham ortiq bo‘ladi. Asli tabiatning bir parchasi bo‘lgan inson esa hamisha o‘z ona maskaniga talpinib yashaydi[3].

Ekologik sharoit va turmush tarzi, eng avvalo, shahar bilan qishloq o‘rtasida farqlanadi. Qishloq tabiati u yerda yashovchi kishilar xulq-atvori, jumladan, muloqot xulqida ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, qishloqliklar nutqi uchun tabiiylik va soddalik qanchalik xos bo‘lsa, shaharliklar nutqi turli til sathlaridagi o‘ziga xos tartibliligi, binobarin, adabiy tilga yaqinligi bilan farqlanib turadi. Qishloqliklar nutqi asosan dialektologik nuqtayi nazardangina o‘rganilgan bo‘lsa, shaharliklar nutqining ayrim jihatlari Rossiya sotsiolingvistlari tomonidan tadqiq etilgan.

Shahar va qishloqliklar muloqot xulqini sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish g‘oyatda muhim bo‘lib, bu haqda V. V. Kolesov quyidagilarni yozadi: “Shahar tili (nutqi)ni o‘rganish ko‘p jihatdan muhimdir. Bu til taraqqiyotining har bir davrida milliy tilning oliy ko‘rinishi bo‘lib, adabiy tilning nufuzli asosi hisoblanadi. Shahar til sharoitini bilmasdan turib, adabiy tilning paydo bo‘lishi, uning u yoki bu stilistik xususiyatlarini tushunish mushkul. Shahar nutqini bilmasdan turib, har bir sotsial guruhning hozirgi tilga, madaniyatga va u orqali umuman ijtimoiy qoidalarga qo‘shgan aniq hissasini baholash qiyin”[4].

Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlarda kelinlar o‘zlari kelin bo‘lib tushgunga qadar tug‘ilgan qaynog‘a, qaynsingillarining ismlarini aytib chaqirishlari uyat sanaladi. Ism o‘rnida **“sher bola”, “qaynim”, “toy bola”, “qizgina”, “qizcha”, “o‘g‘ilcha”** kabi so‘zlarni qo‘llaydilar.

Notanish kishilar bilan bo‘ladigan muloqot ancha rasmiy va qisqaligi bilan ajralib turadi. Zotan, notanish kishilarga qilinadigan murojaat tanish kishilarga qilinadigan murojaatdan anchagina farqlanadi.

Notanish kishilarga nisbatan qo‘llanadigan va dialektlar bo‘yicha farqlanadigan murojaat shakllarini quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Qarindosh-urug‘ nomlari orqali murojaat etish.
2. Lavozimi, kasb-kor, vazifa nomlari orqali murojaat etish.
3. Hayvonlarning nomlari orqali murojaat etish.

O‘zbeklar tabiatan mehmondo‘st, ochiqko‘ngil bo‘lganliklari uchun bo‘lsa kerak, ko‘pincha notanish kishilarga ham qarindosh-urug‘ nomlarini aytib murojaat etadilar. Quyida bunday murojaat shakllaridan ayrimlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

- **“opoq”, “opoqi” deb murojaat etish.** Bu so‘z **“oppoq“** (sifat) so‘zining qisqargan shakli bo‘lib, **“toza”, “yaxshi”** ma’nolarini anglatadi va aslida dada, buvi, oyi kabi qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, “katta” so‘zi o‘rnida keladi yoki hurmat ifodalaydi**: “opoq-buvi”, “opoq dada”** kabi. Qizig‘i shundaki, Farg‘onada **“opoqi”** deb keksa erkak kishiga murojaat etilsa, Toshkentda bu so‘z yoshi katta ayollarga nisbatan qo‘llaniladi;

- **“buvo” deb murojaat etish.** Farg‘ona viloyatining ko‘pgina hududlarida bu so‘z yoshi oltmishdan o‘tgan kishilarga muorjaat qilinganda qo‘llaniladi. Ammo Buvayda tumanida qirq va undan katta yoshdagi kishilarga ham **“buvo”** deb murojaat qilinaveradi. Bu yerda muhimi adresat adresantning dadasi bilan teng yoki undan katta bo‘lishligidir. Toshkentda

[1] *Бодуэн де Куртене И.А.* Избранные труды по общему языкознанию. – М.: Izd-vo AN SSSR, 1963.– T. 1-2.–str.2; 71.

[2] Иванцова В.А. Лингвоперсонология. – Томск, 2010.

[3] Иванцова В.А. Лингвоперсонология. – Томск, 2010.

[4] Колесов В.В. Язык города. – М.: Высшая школа, 1991.

bunday yoshdagi kishilarga **“buvo”** deb murojaat etish adresatlarda norozilik tug‘diradi;

-dada” deb murojaat etish. Farg‘onaning ayrim hududlarida, jumladan, Qo‘qonda 20-30 yillarda bu so‘z katta yoshdagi kishilarga nisbatan hurmat ma’nosida qo‘llanilgan. Hozir bu so‘z ko‘proq katta yoshdagi kishilar tomonidan yosh o‘g‘il bolalarga erkalovchi murojaat shakli sifatida qo‘llaniladi;

-“tog‘a” deb murojaat etish. Farg‘ona, Marg‘ilon shahri va shahar atrofidagi qishloqlarda yashovchi kishilar bu so‘z bilan onasining aka-ukasiga va har qanday notanish kishiga murojaat etsalar, Toshkentda faqat onasining aka-ukalariga nisbatangina bu so‘z qo‘llanadi. Toshkent va Qo‘qon aholisi notanish erkak kishiga **“amaki”, “oka”** (Toshkentda) deb murojaat etadilar. Notanish kishilarga lavozim, vazifa, kasb-kor bildiruvchi so‘zlar orqali murojaat etishda ham dialektal farqlanishlar kuzatiladi. Jumladan, Farg‘onada o‘rta maktab va oliy ta’lim sohasidagi kishilardan tashqari tashqi ko‘rinishidan ziyoli ekanligi bilinib turgan notanish erkak kishiga **“domla”** deb murojaat etilsa, Samarqand, Qashqadaryo tomonlarda bu so‘z ayol o‘qituvchilarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Marg‘ilonda 25-30 yoshdan yuqori bo‘lgan notanish erkak kishiga **“qori aka”, “taqsir”** deb murojaat etish tabiiy hol sanalsa, respublikamizning boshqa hududlarida bunday murojaat notabiiydek tuyulishi, hatto ba’zi bir adresatlarning achchig‘ini keltirishi mumkin.

Farg‘ona viloyati qishloqlarida yashovchi aholi nutqida **“usta buvo”, “oshpaz amaki”, “qoravul tog‘a”, “shopir aka”** kabi murojaat shakllari ko‘p qo‘llaniladi. Ammo katta shaharlarda, jumladan, Toshkent shahrida bunday murojaat shakllari asosan mehmonlar tomonidan aytilgandagina quloqqa chalinadi.

Notanish adresatga hayvon nomlari orqali murojaat etishda ham har xilliklar kuzatiladi. Jumladan, Farg‘onada **“toychoq”, “sher bola”, “qo‘zichoq”** kabi murojaat shakllari katta yoshdagi adresantlar tomonidan yosh o‘g‘il bolalarga nisbatan qo‘llansa, Surxondaryo viloyatida **“toyim”, “toybola”, “bo‘taloqlarim”** kabi murojaat shakllari katta yoshdagi adresatlarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin[1].

Nutqda murojaat shakllarining bir ko‘rinishi – “sen” va “siz” olmoshlarining qo‘llanilishida ham hududiy farqlanishlar kuzatiladi. Chunki o‘zbek tilida “sen/siz” shakllari nutqiy odat me’yori bilan bog‘liq bo‘lib, “siz” olmoshi shaharliklar nutqida qishloqliklar nutqiga nisbatan, vodiyliklar nutqida respublikamizning boshqa viloyatlaridagilar nutqidagiga nisbatan ancha faol qo‘llanadi. O‘zbekistonning hamma hududlarida bobo, buvi, ota, ona, amaki, amma, tog‘a, xola, aka, opa kabi katta yoshli tinglovchilarga sizlab, nabira, farzand, jiyan, uka, singil singari kichik yoshdagi tinglovchilarga asosan senlab murojaat qilish kuzatiladi. Shuningdek, ayollarning o‘z umr yo‘ldoshlariga “siz” deb murojaat qilishlari belgilangan me’yor bo‘lib, “siz”ning “sen”ga aylanishi o‘zbek nutq odatining qo‘pol buzilishidan dalolatdir.

Erlarning xotinlarini senlash yoki sizlashlarida hududiy tafovutlar ko‘rinadi. Jumladan, shaharlarda (Farg‘ona vodiysining ko‘pgina qishloq joylarida ham) yashovchi o‘zbek erlarning aksariyati turmush o‘rtoqlariga “siz” deb murojaat etsalar, O‘zbekistonning turli hududlaridagi qishloqlarda yashovchi erlar xotinlarini senlab gapiradilar. Shaharlik o‘zbeklar murojaat xulqiga xos bunday odat boshqa millat vakillari tugul, hatto qishloq sharoitida yashovchi shu millatga mansub kishilarning o‘zlariga ham erish tuyulishi mumkin. Sirdaryo tumanilik Abdurazoq Burliyevning “Jufti halolingizni sizlaysizmi?” sarlavhali maqolasidan olingan quyidagi parcha fikrimizni quvvatlaydi: *“...yo‘lim tushib, Baxt shaxridagi korxonalarning birida ijodiy safarda bo‘ldim. O‘sha kuni korxona ilg‘or ishchilaridan biri bo‘lgan Ahmadjonlarinikida mehmonda bo‘ldim. Oiladagi o‘zaro totuvlik, samimiylikdan mamnun bo‘ldim. Shu bilan birga bir narsaga e’tibor berdim: er-xotin bir-birini “siz”lab gaplashishar ekan... Aksariyat shahar joylarida bo‘lganimda oilada erlar xotinlarini “siz”lashini kuzatganman. Go‘yo shaharda bu “moda”ga aylanib qolganday. Biroq, fikrimcha, turmush o‘rtog‘ini “sen”lab gapirgani maqsadga muvofiqday...*”.

Sirdaryolik gazetxon uchun erlarning xotinlarini “sen”lab gapirishlari me’yor sanalsa-da, ammo O‘zbekistonning aksariyat shaharlarida (Farg‘ona vodiysining ko‘pgina qishloqlarida ham) yashovchilar uchun bu odat me’yor sanalmaydi. Chunki vodiyda, ayniqsa, Marg‘ilon shahrida, nafaqat turmush o‘rtoqlarini, balki farzandlarini ham sizlab gapiruvchi otalar ko‘plab topiladi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand tomonlarda bu so‘z “sizar” shaklida qo‘llaniladi.

O‘zbekistonning ayrim hududlari, jumladan, Namangan, Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari, shuningdek, Toshkent viloyatining ba’zi tumanlarida adresantlar tomonidan hurmat qilinadigan adresatlarning buyum, narsalariga ham “siz”lab murojaat qilish hollari kuzatiladi. Bu hurmat ko‘proq “-lar” affiksi orqali ifodalanadi.

So‘zlovchining qaysi tabiiy va ijtimoiy muhit vakili ekanligi nafaqat murojaat shakllari, “siz” va “sen” olmoshlarini qo‘llashlaridan, balki o‘z nutqida ko‘chma ma’noli so‘zlarni qo‘llash darajasi, morfologik qo‘shimchalarni qanday ishlatishi, gap bo‘laklari tar-

[1] Siddiq Mo‘min. Nutq va ijod uslubining hududiy xoslanishi. – Toshkent, 1998.

tibi, noverbal xatti-harakatlari, hatto muloqot jarayonida sukut saqlash muddatidan ham bilinib turadi. Chunonchi, atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan so‘lim diyorda yashaydigan vodiy aholisi, ayniqsa, qadimdan savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanib kelgan Marg‘ilon va Qo‘qon shahri hamda mazkur shaharlar atrofidagi qishloqlarda yashovchi kishilarning gapga chechanligi, askiya, hazil-mutoyibaga moyilligi kundalik muloqot xulqidan ham sezilib turadi.

Muloqot xulqining hududiy jihatdan xoslanishi, ayniqsa, maqol va matallarda yaqqolroq ko‘rinadi. Chunki L. N. Tolstoy ta’biri bilan aytganda, “har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning siymosi ko‘rinadi”. Zero, “xalq maqollari umuminsoniy g‘oyalarni milliy shaklda targ‘ib qiluvchi janr hisoblanadi”[1].

To‘g‘ri, u yoki bu maqolning aniq muallifini topib bo‘lmaydi. Chunki yaratilish jarayonida ayrim matallarning muallifi haqida so‘z bo‘lishi mumkin, biroq ular og‘zaki ijodga aylanishi bilan xalq mulkiga aylanadi. Natijada ularning dastlabki ijodkorlarini topish mumkin bo‘lmay qoladi. Ammo bu fikr maqolning aniq muallifi masalasiga tegishli bo‘lib, aslida, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, maqollardan millat, hudud, hatto kasb-korning nafasi kelib turadi. Jumladan, bir mazmundagi maqolni turli hududlarda ayrim so‘zlarni o‘zgartirib, o‘zlariga moslashtirib aytilishi kuzatiladi. Masalan, toshkentliklarda **“Ahmoqqa To‘ytepa bir tosh”** deb qo‘llaydigan maqolning Andijonda “**Ahmoqqa Asaka bir tosh”,** Farg‘onada **“Ahmoqqa Quva bir tosh”** kabi variantlari mavjud.

Xullas, tabiiy va ijtimoiy muhitning inson muloqot xulqiga bevosita ta’sir etish-ligini dialektologlar, etnograflar yiqqan boy faktik materiallar ham, yozuvchi va shoirlarning asarlarida tasvirlangan hayotiy voqealar ham to‘liq tasdiqlaydi. Chunonchi, Tog‘ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Erkin A’zamov asarlaridan Surxondaryo vohasi kishilarining, Jumaniyoz Sharipov, Erkin Samandar, Omon Matjon asarlaridan xorazmliklarning, Ne’mat Aminov, Jamol Kamol, Omon Muxtor asarlaridan buxoroliklarning, Erkin Vohidov, Oxunjon Hakimov, Yo‘ldosh Sulaymon, Anvar Obidjon, Iqbol Mirzo kabi shoir va adiblarning asarlaridan Farg‘ona kishilari va hokazolarning nafasi kelib turadi. Chunki mazkur adiblarning aksariyat asarlarida o‘zlari tug‘ilib o‘sgan yurt kishilari hayoti, o‘sha zaminda bo‘lib o‘tgan voqealar tasvirlanadi. Bundan tashqari, yozuvchining shaxsiy uslubida uni inson sifatida shakllantirgan ijtimoiy muhitning so‘z va iboralari, hatto talaffuzlari goh ixtiyoriy, goh beixtiyor aks etadi. Demak, muayyan (individual) shaxs nutqining o‘zidayoq u so‘zlayotgan tilga mansub bo‘lgan xalqning butun madaniyatini, an’analarini, qadriyatlarini ko‘ra olish mumkin ekan.

Resume: This article analyzes the views, views aimed at studying the speech of an individual, data on the linguistic differentiation of speech, which underlie the development of the study of speech of an individual as a separate area.This article focuses on the issues of human speech characteristics, internal and external factors affecting human speech, the importance of studying human speech and its impact on the development of linguistics. The article is intended for linguists and a wide range of readers interested in linguistics.

Резюме: В данной статье анализируются взгляды, взгляды, направленные на изучение речи отдельного человека, данные по языковой дифференциации речи, лежащие в основе развития изучения речи отдельного человека как отдельной области.В данной стате основное внимание уделяется вопросам особенностей речи человека, внутренних и внешних факторов, влияющих на реч человека, важности изучения речи человека и ее влияния на развитие языкознания. Статья предназначена для специалистов-лингвистов и широкого круга читателей, интересующихся вопросами языкознания.

[1] Язык и человек. – М., Издательство Московского университета, 1970.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

FOLKLOR ONOMASTIKASI VA UNING TERMINOLOGIYASI

Rajabov Feruz Umarqulovich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Folklor asarlarda lingvistik hodisalarni tahlil etish va bu tilshunoslikda yangi yo'nalishning yuzaga kelishiga zamin hozirlashi A.A.Potebnya, A.N.Veselovskiy, P.G.Bogatyryova, A.P.Evgeniyeva, I.O.Ossovetskiy tomonidan folklor tiliga yangicha yondashuvlar kerakligini aniq belgilab berdi, bu hol tadqiqotchilarni xalq og'zaki ijodi tili hodisalarini integratsiyalashgan tahlil qilish zarurligini anglashga olib keldi[1].

Jahon va o'zbek tilshunosligida badiiy va folklor asarlari tadqiqiga bag'ishlangan bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, jahon tilshunosligida, ya'ni rus tilshunosligida badiiy matn hamda folklor asarlar tarkibidagi onomastik birliklarni o'rganish borasida G.Y.Sizranovaning "Poetik onomastika", "Badiiy matnning onomastik makonda o'rganilishi", V.A.Nikonovning "Ism va jamiyat", G.A.Xaburgayev "O'tgan yillar ertagi" etnonimiyasi singari tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa, S.I.Zinin, N.I.Zubov, Y.A.Karpenko, V.I.Suprun, L.V.Shulunova, T.D.Suslova, O.I.Fonyakova, G.A.Xaburgayev, A.A.Novichkov, V.V.Anisimovlarning tadqiqotlarida esa onomastik birliklarning har xil turlari tahlilga tortilgan.

Bu borada o'zbek tilshunosligida R.Rasulovning «Alpomish» dostonidagi so'zlarning o'zaro sintaktik bog'lanishi" nomli nomzodlik dissertatsiyasi, S.Tursunovning «Alpomish» dostonining leksik xususiyatlari", I.Xudoynazarovning "Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida)", B.To'ychiboyev, D.Andaniyozova, Q.Olloyorov, Y.Avloqulov, J.Xolmurotova, G.Jumanazarov, A.Ishayev, N.Mahmudov, S.Tursunov, N.Mo'minova, R.Saydullayevalarning tadqiqotlarini qayd etish o'rinlidir.

B.Yunusova tadqiqotida *lingvofolkloristika* termini A.T.Xrolenko tomonidan ilmiy muomalaga kiritgani va hozirgacha faol qo'llanmoqdaligini, rus lingvofolkloristikasining paydo bo'lishi va shakllanishiga V.Y.Proppa, A.P.Yevgenyeva, A.V.Desnitskaya, P.G.Bogatiryov, I.A.Ossovetskiy, D.S.Lixachev, S.G.Lazutin, S.Y.Nikitina, A.T.Xrolenko, Y.B.Artyomenko va boshqalarning folklor tili tadqiqiga doir yondashuvlari asos bo'lganini ta'kidlangan[2].

O'zbek tilshunosligida *lingvofolkloristika* terminini birinchilardan bo'lib amaliyotga qo'llagan B.Yunusova o'zbek tilshunosligida *lingvofolkloristika* termini amaliyotda qo'llanmagan bo'lsa-da, mazkur soha o'zbek tilshunosligida 50-60-yillarda shakllangan, deb xulosalaydi va bu sohada Sh.Shoabdurahmonovning "Ravshan" dostoni badiiy tiliga oid nomzodlik dissertatsiyasi ilk tadqiqot ekanligini ta'kidlaydi[3] va lingvofolkloristika maqsadi va vazifasi hamda yo'nalishiga ko'ra quyidagi bo'limlarni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tadi: 1) folklor fonetikasi; 2) folklor leksikologiyasi; 3) folklor frazeologiyasi va paremiologiyasi; 4) folklor dialektologiyasi; 5) folklor grammatikasi; 6) folklor uslubiyati; 7) folklor leksikografiyasi[4] kabi. Biz bunga *folklor onomastikasi*ni ham qo'shishni ma'qul ko'rdik.

B.Yunusova o'zbek lingvofolkloristikasidagi tadqiqotlarni yo'nalishiga ko'ra quyidagicha tasniflash va tavsiflash mumkinligini ko'rsatgan: 1) folklor asarlari leksikasiga doir tadqiqotlar; 2) folklor asarlari onomastikasiga doir tadqiqotlar; 3) folklor asarlari sintaksisiga doir tadqiqotlar; 4) folklor asarlari uslubiyati va lingvopoetikasiga doir tadqiqotlar kabi.

O'zbek tilshunosligida B.Yunusova xalq dostonlarining lingvofolkloristik jihatini tadqiq qilingan, unga qadar ayni shu yo'nalish asosida folklor asarlardagi nomlar tadqiq etilmagan. Tadqiqot ishida "Alpomish"dagi onomastik birliklarni o'rganish borasida ayrim ishlarga munosabat bildirgan. Dostondagi *qo'ng'irot, qalmoq* etnonimlari, *Hakimbek*, *Barchin, Boybo'ri* va *Boysari, Toychaxon (Toychixon), Ultontoz, Qultoy, Kayqubot, Ko'kaldosh, Ko'kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Yartiboy, Suqsuroy, Bodom* antroponimlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Shuningdek, dostondagi toponimlarni leksik-semantik jihatdan: 1. *Xoronimlar* – mamlakat, o'lka,

[1] Abdumannatova N. Tilshunoslikda lingvofolkoristik tadqiqotlarning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti // Til, ta'lim, tarjima jurnali. – Toshkent, 2022. 3-son, 6-jildi. – B. 35-44.

[2] Yunusova B. "Alpomish" dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. – Namangan, 2021. – 27 b.

[3] Yunusova B. "Alpomish" dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. – Namangan, 2021. – B. 27.

[4] Yunusova B. "Alpomish" dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. – Namangan, 2021. – B. 25.

viloyatlarning atoqli nomlari. 2. *Oronimlar* – tog‘, qir, tepa, cho‘qqi, dovon va boshqalarning atoqli nomlari. 3. *Gidronimlar* – suv obyekti va inshootlarining atoqli nomlari. 4. *Agroonimlar* – vodiylar, dalalar, yer uchastkalarining atoqli nomlari kabi guruhlarga bo‘lib, *Boysun, Boysin-Qo‘ng‘irot, Anbartog‘, Asqartog‘, Boboxon tog‘i, Ziltog‘, Boysuntov, Bolqon, Ajinag‘or, Kashalg‘or, Bo‘zbiya joylovi – Oq ot yaylovi, Ko‘kko‘l jaylovi – Ko‘kko‘l bo‘yidagi yaylov, Buvracho‘l, Xiyracho‘l, Chilvircho‘l, Ko‘kqamishko‘l, Oydinko‘l, Oqko‘l, Achchiqko‘l, Korsonko‘l, Xomushko‘l, Qovg‘ali ko‘l, Hovdakko‘l, Oqsuv daryo, Sadafdaryo, Sirdaryo, Murodtepa*[1] kabi toponimik birliklar hamda boshqa onomastik birliklar haqida mulohazalar keltirilgan.

Olimaning ilmiy izlanishlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, folklor asarlari onomastikasiga doir tadqiqotlarni *folklor onomastikasi* (onomafolkloristika) o‘rganadi.

Bizningcha, folklor onomastikasi (onomafolkloristika) sohasining tadqiqot birligi *folkloronim*lar hisoblanadi. Folkloronimlar – xalq og‘zaki ijodi janrlarida keltirilgan onomastik birliklar (antroponim, toponim, zoonim, fitonim va boshqalar) deyish mumkin. Quyida onomastik birliklarning *folklor onomastikasi* (onomafolkloristika) tadqiqi bilan aloqador ayrim terminlarni keltiramiz:

Folklor onomastikasi (onomafolkloristika) – folklor asarlar matnida muayyan xalq madaniyati va an’analari va boshqa maqsadlarni yoritish uchun xizmat qilgan onomastik birliklarning lingvofolkloristik xususiyatini o‘rganuvchi soha.

Folkloronim – xalq og‘zaki ijodi asarlari matnida xalqona yuk olgan, folklor asar g‘oyasini yoritishga xizmat qilgan, turli lingvofolkloristik xususiyatlarga ega bo‘lgan har qanday nom.

Antrofolkloronim – folklor asarlar matnida lingvofolkloristik xususiyatga ega bo‘lgan ism, laqab, va h.k. uchun umumiy nom.

Antromifofolkloronim – tabiat hodisalari, stixiyali kuchlarning presonifikatsiyasi tufayli kelib chiqqan nomlari (Chuy momo, Sust xotin kabi)

Topofolkloronim – folklor asarlar matnidagi lingvofolkloristik xususiyatga ega bo‘lgan turli obyektlar, ya’ni joy nomlarining nomi.

Zoofolkloronim – folklor asarlar matnida xalq e’tiqodi va an’analari bilan bog‘liq niyatlarni qo‘llanilgan hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar. Hayvon va boshqa xil mavjudotlarga qo‘yilgan maxsus laqab-nomlar zoonimlardir. Folklor asarlarda ot (*Boychibor, G‘irot, Ko‘kdo‘nan, To‘riq, Tarlon, Oqbo‘z, Somon, Olachibor, Olmako‘z, Oyshapaq, Jiyroncha, Jiyronbo‘z), tuya (Qoranor, Tarlon, Elchinor, Ko‘galcha*), it (*Izquti, Boyqadam)*, g‘oz (*Qo‘ng‘irg‘oz, Olatumshuq)* nomlari zoofolkloronimlardir.

Mifozoofolkloronimlar – moddiy olamda mavjud bo‘lmagan, ammo afsona, rivoyat, ertak, doston va boshqa asarlarda uchraydigan, odamlar rostdan mavjud deb tasavvur qiladigan hayvonlarning atoqli otlari: *Duldul*, *Boychibor, G‘irko‘k (G‘irot), Jiyronqush, Ko‘kdo‘nan* va boshqalar.

“Boychibor, timsoli mifozoonimning yorqin namunasidir. *Boychibor* – dostondagi jangovor ot timsoli, tuzilishiga ko‘ra qo‘shma tarkibli bo‘lib,*“boy”* va *“chibor”* so‘zlarining qo‘shiluvidan yasalgan. *Boy* polisemantik so‘z bo‘lib, *“hech narsadan kamchiligi yo‘q, hamma narsadan badastir, to‘kis”* degan ma’nolarga ega. *“Chibor” //“chipor” va “chokvor”* aslida bir so‘zning fonetik variantlari bo‘lib, *“olatusli, ola”* ma’nolarini anglatadi”[2].

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham ot laqablari alohida tilga olinadi va ular, odatda izohi bilan beriladi. Umuman, o‘zbek folklorida ot obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. «Ravshan» dostonidagi Jiyronqush nomli ot ta’rifi quyidagicha beriladi:

Jiyronqush ham shunday ot:
to‘rt oyog‘i teng tushgan:
biqini yoziq keng tushgan,
qarchig‘ayning havosi tekkan.

Aslida *mifozoofolkloronim* hisoblangan folklor nomlar badiiy matnda alohida poetik ahamiyat kasb etadi. O‘zbek badiiy matnlarida *Qaqnus, Humo, Samandar* kabi *mifozoofolkloronim*lar orqali buni ko‘rish mumkin. Ular mashhur nom sifatida matnni shakllantirishga, intertekstuallikka xizmat qiladi.

O‘zbek she’riyatida *Humo* mifozoofolkloronimini she’riy matnlarda baxt-saodat va davlat ramzi sifatida qo‘llash an’anaga aylangan. Bunday qo‘llanish orqali o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tasvirlangan *Humo* qushi bilan bog‘liq motivlarga ishora qilinib, intertekstual matn yuzaga keltiriladi. Humoning yana bir nomi *Semurg‘* bo‘lib, u o‘zbek folklorida ijobiy qahramonning do‘sti va himoyachisi sifatida tasvirlangan.

Mifofolkloronim – folklor asarlar matnidagi lingvofolkloristik xususiyatga ega bo‘lgan afsonaviy nomlar.

Deofolkloronim folklor asarlar matnidagi tabiiy hodisalarni ifodalab kelgan, xalqning e’tiqodi, an’analarini yoritishga xizmat qilgan tabiiy hodisalar nomlari.

Mifodeofolkloronim tabiiy hodisalarning nomini ifodalovchi deofolkloronimlarning bir ko‘rinishi (Haydar, A’yamajuz, Chuy momo kabi).

Urbandeofolkloronim folklor asarlar matnida

[1] Yunusova B. “Alpomish” dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. – Namangan, 2021. – B. 27.

[2] Yunusova B. “Alpomish” dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy tadqiqi. – Namangan, 2021. – B. 27.

ichki shahar obyekti, madaniy qimmat kasb etadigan, masalan, istirohat-bog‘i kompleksi kabilarni bildiruvchi nomlar.

Mifoantrofolkloronimlar – afsona, rivoyat, ertak, doston va boshqa asarlarda uchraydigan kishi ismlari. Dostondagi *Boybo‘ri, Boysari, Alpomish, Surxayil, Ko‘kaldosh, Ko‘kaman* mifoantroponimlarining har bir onomastik, uslubiy vazifa hamda mohiyatga ega.

Mifotopofolkloronimlar – afsona, rivoyat, ertak, doston va boshqa asarlarda uchraydigan xayoliy joy nomlari: *Asqar tog‘, Eram bog‘i, Ko‘hi Qof, Tur tog‘i* kabi.

Qadimgi ajdodlarimiz mifologiyasida tosh kultiga sig‘inish an’anasi keng yoyilganligi sababli tog‘lar, ayniqsa, ularning baland cho‘qqilari o‘rta olam, ya’ni Yer bilan yuqori olam – ko‘kni birlashtirib turuvchi ramziy vosita, ya’ni “hayot daraxti”ning transformatsion ko‘rinishlaridan biri, deb qaralgan. “Alpomish” va boshqa dostonlarda qo‘llangan *Asqartog‘* oronimi *buyuk, ulug‘ tog‘* ma’nolarini anglatadi, uning tasvirida mifologik makon talqini ustuvorlik qiladi. «Ertak-dostondagi toponimlar asar turi va janridan kelib chiqib tanlangan. *Jambil, Susambil* nomlari Go‘ro‘g‘li turkumidagi epik yurt Chambil nomiga qiyoslangan. Susambil nomi azaldan o‘zbek tilida epik yurt (toponim) va ertak (ktematonim) nomi maqomida mavjud. Jambil nomi ham ertaklarda zikr qilingan toponim.

Xalq og‘zaki ijodida *Shiroq, To‘maris, Sindbod* pretsedent nomlar sifatida ko‘pchilikka ma’lum. Va ular folklor asarlar bilan o‘quvchiga tanish. Shuning uchun ular yozma badiiy adabiyotda emas, folklor manba asosida o‘rganish asoslidir. Masalan, *Sindbod* onimi *mifoantrofolkloronimlikdan* tashqari uning lingvofolkloristik xususiyati o‘xshatish vazifasida kelganligi bilan ham izohlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, foklor asarlarni lingvofolkloristika sohasi asosida tadqiq qilish, xususan, folklor asarlardagi onomastik birliklarni to‘plash, o‘rganish, tasniflash va xalq og‘zaki ijodi nuqtayi nazariga ko‘ra tadqiq qilish nafaqat folklor sohasida, balki, tilshunoslikda ham qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishga sabab bo‘ladi.

Rezyume. Ushbu maqolada lingvofolkloristika sohasining alohida bir bo‘limi folklor onomastikasi va uning terminologiyasi xususida bahs boradi. Mam’lumki, Folklor asarlarda o‘zbek xalqi va tiliga xos atoqli otlarning barcha tiplari: antroponimlar, mifonimlar, toponimlar, gidronimlar, oronimlar, zoonimlar, etnonimlar faol qo‘llangan. Mazkur onomastik birliklarni to‘plash, o‘rganish va tasnif qilish o‘zbek xalqining yashash tarzi, urf-odatlari, an’analari mahsuli sifatida xalqimizning tarixi, tili, madaniyati hamda etnografiyasi haqida boy ma’lumotlarni beradi, tilshunoslikka oid manbalarni boyitadi.

Resume: This article discusses folklore onomastics and its terminology, a separate branch of linguo-folkloristics. It is known that folklore works actively use all types of nouns specific to the Uzbek people and language: anthroponyms, mythonyms, toponyms, hydronyms, oronyms, zoonyms, ethnonyms. Collecting, studying and classifying these onomastic units as a product of the way of life, customs and traditions of the Uzbek people provides rich information about the history, language, culture and ethnography of our people, and enriches linguistic resources.

Резюме: В данной статье рассматривается фольклорная ономастика и ее терминология, отдельная отрасль лингвофольклористики. Известно, что в фольклорных произведениях активно используются все виды существительных, характерные для узбекского народа и языка: антропонимы, мифонимы, топонимы, гидронимы, оронимы, зоонимы, этнонимы. Сбор, изучение и классификация этих ономастических единиц дает богатую информацию об истории, языке, культуре и этнографии узбекского народа как продукте быта, обычаев и традиций узбекского народа, обогащает лингвистические ресурсы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

NOM (OT) BILDIRUVCHI EVFEMIK BIRLIKLARNING MA'NO TURLARI

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ma'lum so'zga evfemik ma'no yuklanar ekan, bu ma'noda qo'llanilmay qolgan so'zning ma'nosi yuzaga chiqadi. Ya'ni u leksik sathga mansub hisoblanadi. Bu ko'proq tabu bilan bog'lanadi. Tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida to'g'ridan-to'g'ri evfemizm qo'llanadi, shu so'zga tabuga uchragan lug'aviy birlikning ma'nosi yuklanadi, u evfemistik ma'no tarzida qo'llanadi[1].

O'zbek tilidagi evfemik ma'noli birliklarni qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishi – morfologik jihatdan to'rt guruhga: ot, sifat va fe'l metaforik evfemik ma'noli birliklar shuningdek, olmosh so'z turkumi bilan ifodalanadigan evfemik birliklarga ajratish mumkin. O'zbek tilida ot turkumiga xos evfemik vositalar ham salmoqli qismni tashkil etadi. Bularga masalan, ILON o'rnida *arg'amchi, arqon, olachilvir, o'rmalovchi, gazanda*; TASHVISH, DAXMAZA o'rnida *yuk;* BO'RI o'rnida *jondor;* NARKOMAN, GOMOSEKSUALISTLAR o'rnida *xavfi ko'tarilgan guruh(lar);* HIYLA, NAYRANG o'rnida *dom*; AROQ (spirtli ichimlik) o'rnida *may, sharob, gulob*; TOBUT o'rnida *yog'och ot*; QABRISTON o'rnida *abadiy (oxirgi) manzil, so'ngi yo'l*; ONGSIZLIK o'rnida *ma'naviy bo'shliq;* O'YNASH o'rnida *jazman, oshiq*; G'ARLIK o'rnida *suyuqoyoqlik;* QIZAMIQ (kasallik) o'rnida *gul*, *oymomo* kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Nom ifodalovchi ot turkumiga xos evfemik vositalar ayrim axloqsizlik bilan bog'liq evfemizmlar: **a)** narsa va buyum otlari; **b)** shaxs otlari; **v)** faoliyat-jarayon otlari hamda shu faoliyat turi bilan bog'liq; **g)** joy nomlarining o'rnida qo'llanishini uchratish mumkin. Bularga: *SIYNABAND* narsa-buyum oti o'rnida, *tanfurush, fohisha, fohishaboz, qo'shmachi* kabi shaxs otlari, *tanfurushlik, fohishabozlik, fohishalik, qo'shmachilik* kabi salbiy ma'nodagi faoliyat-jarayon otlari, shuningdek, *fohishaxona, ishratxona*[2] kabi o'rin-joy oti nomlari o'rnida qo'llanilishini aytib o'tishimiz mumkin. Ushbu lug'aviy birliklar izohli lug'atlarda bosh so'z tarzida berilgan bo'lib, ma'nolari to'g'ridan-to'g'ri izohlangan, sinonimik ma'nolari qayd etilgan. SIYNABAND [*f.*– ko'krakpech, oshxo'rak; byusgalter, lifchik] Ayollarning ichki kiyimi; lifchik. *U siynabandidan ro'molchaga o'rog'liq allanarsa chiqarib, erining oldiga tashladi.* N.Aminov, Qahqaha[3].

Ot turkumiga xos evfemik vositalarni qaysi nom o'rnida qo'llanilishining tahlilida ularni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin. Masalan, narsa-buyum otlari, shaxs otlari, faoliyat-jarayon otlari va o'rin-joy otlari o'rnida qo'llaniluvchi evfemik birliklarga ajratishimiz mumkin. Ushbu ishimizda asosan mana shu to'rtta turga xos evfemik birliklar haqida qisqacha to'xtalishni maqsad qilganmiz. Misol uchun:

a) narsa-buyum otlari evfemik birliklari: ayollar ichki kiyimlaridan birining nomi o'rnida *siynaband, ko'krakband;* QIZAMIQ o'rnida *gul, oymomo;* HOMILA o'rnida *gumona;* TOBUT o'rnida *yog'och ot*; AROQ o'rnida *may, sharob, gulob*; BIY o'rnida *qurt, qoraqurt*; ILON o'rnida *arg'amchi, arqon, olachilvir, o'rmalovchi, gazanda*; EMCHAK o'rnida *siyna, ko'krak, ko'ks mamma, sut bezi*; SIYDIK o'rnida *peshob*; QIZLIK o'rnida *iffat pardasi, nomus, or, bakorat*; AXLAT TASHIYDIGAN MASHINA o'rnida *maxsus avtotrans xizmati*, ISHTON o'rnida *lozim*; O'SIMTA (kasallik) o'rnida *shish* va b. Misollarga e'tibor qaratadigan bo'lsak: 1) *Guli: – Alisher, nomusim, orim o'zimda* (I.Sulton, "Navoiy", 53-b), 2) *Bu metoddan ...iffat pardasi yirtilmaganda, qin bitovi keskin stenozani tekshirishda foydalaniladi* (I.M.Gryaznova, "Yengiltaklik oqibati", 27-b), 3) *Qizning bakoratini avval o'sha kishi ketkizadi...* Narshaxiy[4]. Birinchi gap tarkibidagi *nomusim, orim*, ikkinchi gapdagi *iffat pardasi*, uchinchi gapda esa *bakorat* so'zlari nutqda aytilishi uyat, noqulay hisoblangan *qizlik* leksemasining o'rnida qo'llaniladigan ot metaforik evfemik ma'noli birlik vazifasini bajarib kelmoqda.

b) shaxs otlari evfemik birliklari: XIZMATCHI o'rnida *texnik xodim*; NARKOMAN, GOMOSEKSUALIST(lar) o'rnida *xavfi ko'tarilgan guruh(lar)*; XOTIN o'rnida *yostiqdosh, turmush o'rtoq, qalliq, yor, onasi*; ER o'rnida *xo'jayin, dadasi, begim*; O'YNASH o'rni-

[1] Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 1-том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 345.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5томлик, 3-том. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – Б. 498.

[4] Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: ФАН, 2006. – Б. 16.

da *jazman, xushtor*; DUSHMAN o‘rnida *yov, g‘anim*; NOGIRON(lar) o‘rnida *imkoniyati cheklangan(lar)* va b. Misollarda *XOTIN* leksemasi o‘rnida qo‘llaniladigan evfemalarning tahliliga qaraydigan bo‘lsak, masalan, XOTIN, jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko‘rish, emizish qobilyatiga ega odam, ayol. *Bozorqulning onasi juda chiroyli xotin edi*. A.Muxtor. Chinor. 2 Biror erkak nikohidagi ayol. – *U (me’mor) to‘g‘ri uyga qaytib keldi-da, bor gapni qizi Badiya bilan xotini Ma’suma bekaga aytib, o‘rniga cho‘zildi*. Mirmuhsin. Me’mor[1]. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida keltirilgan ushbu so‘zlik izohida XOTIN leksemasi ayol ma’nosini anglatishi qayd etilgan bo‘lib, XOTIN leksemasi ma’nolariga doir *turmush o‘rtoq, umr yo‘ldosh* zavjayi *halol* kabi bir qancha evfemik ma’nolari nutqimizni boyitishda, muomala madaniyatini shakllantirishda alohida ahamyat kasb etadi.

v) faoliyat-jarayon otlari evfemik birliklari: JALABLIK, G‘ARLIK o‘rnida *qo‘shmachilik, fohishalik, suyuqoyoqlik*; ONGSIZLIK o‘rnida *ma’naviy bo‘shliq*; TUG‘ISH o‘rnida *oy kuni yaqinlik*; QARILIK o‘rnida *keksalik*; KLIMAKS o‘rnida *hayz to‘xtash davri* va b. Misollarni G’AR (sifat), G’ARLIK (ot) leksemasi o‘rnida qo‘llaniladigan evfemalarning tahliliga qaraydigan bo‘lsak, masalan, G‘AR bosh so‘z sifatida berilgan bo‘lib, G‘AR [*f*. - fohisha, buzuq ayol, xotinchalish] *suyug‘oyoq xotin, buzuq xotin, fohisha*[2] kabi izohlar va misollar keltirilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni kuzatish jarayonida ko‘pgina sifat so‘z turkumiga oid bosh so‘zlar izohlangan va ana shu sifat asosiga – *lik* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladigan faoliyat-jarayon otlari bosh so‘z sifatida alohida izohlangan. Ammo G‘AR sifati bilan yasaladigan G‘ARLIK leksemasi izohli lug‘atlarda ifodalangan o‘rinni kuzatmadik.

g) o‘rin-joy otlari evfemik birliklari. O‘rin-joy oti o‘rnida qo‘llaniladigan evfmemik ma’noli leksemalar asosan o‘z ma’nosida va ayrim o‘rinlarda metonimik ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Bularga YETIMXONA o‘rnida *bolalar uyi, mehribonlik uyi*; TUALET o‘rnida *hojatxona;* QAMOQXONA o‘rnida *hibsxona;* JALABXONA o‘rnida *islovatxona, ishratxona, fohishaxona*; GO‘RISTON, QABRISTON o‘rnida *abadiy makon, so‘ngi yoki oxirgi manzil, so‘ngi yo‘l* (izohli lug‘atlarda ifodalanmagan) kabi o‘rin-joy bildiruvchi evfemik vositalar mavjud. Bu haqda yetimxona leksemasi o‘rnida qo‘llaniladigan evfemalarning tahliliga e’tibor qaratganimizda, masalan, YETIMXONA leksemasiga o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida 1 *tar*. Yetimlar va qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalaydigan va o‘qitadigan muassasa ma’nosini anglatishi to‘g‘risidagi izohlarni uchratishimiz mumkin. Uning evfemik ma’noli *bolalar uyi* kabi o‘rin joy oti leksemalari shu so‘z izohida ham alohida tarzda, umuman olganda izohli lug‘at tarkibidan joy olmaganligini kuzatishimiz mumkin. Tahlillarimizni nutqimizda uyat, nafrat mazmunini anglatuvchi *jalabxona* leksemasi o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar bilan davom ettirgan holda ushbu leksemaning o‘ziga izohli lug‘atlarda o‘rin berilmaganligini ko‘ramiz (Bu bizningcha nutqiy etiket, balki leksik etiket sababdir). Lekin uning o‘rnida qo‘llaniladigan *islovatxona, ishratxona, fohishaxona* kabi leksemalar bosh so‘z shaklida berilib izohlanganligini kuzatishimiz va ularning izohida bir-biriga ishora qilingan holatlar ham mavjud. FOHISHAXONA 1 [fohisha + xona] *esk*. Fohishalar yashaydigan va fohishabozlarni qabul qiladigan joy: islovatxona. *Hayit kunlari to‘qligidan sho‘xlik qiladigan boyvachcha yigitlar qovoqxona va fohishaxonalarga kirib ichib yurardi.* M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari[3]. Shu o‘rinda yana bir misol, kasalxona leksemasi izohli lug‘atlarda bosh so‘z shaklida berilgan va shifoxona ma’nosini anglatishi o‘z o‘rnida to‘g‘ri izohlangan. Unda kasalxona, kasallarni muntazam kuzatish va davolash uchun joylashtiriladigan muassasa; shifoxona, qishloq vrachlik punkti, shoshilinch tez tibbiy yordam markazi. *Mastura Alieva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og‘ir xasta, uni hamma bilar ko‘p kishi kirib ko‘rgan ekan*. A.Qahhor. Ming bir jon. Shuningdek, SHIFOXONA[4] leksemasi ham o‘z o‘rnida bosh so‘z sifatida berilgan va kasalxona so‘ziga ishora qilingan, misollar keltirilgan. Ushbu keltirilgan misollardagi leksemalar bog‘liqlik asosida yuzaga kelgan. Bunday evfemik ma’noli leksemalar o‘rin-joy otlari hisoblanib, ot metonimik evfemik ma’noli leksemalar sifatida talqin etishimiz mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek ba’zi o‘rin-joy otlari o‘rnida qo‘llaniladigan metaforik evfemik ma’noli leksemalar ham nutqimizda mavjud. Bunga GO‘RISTON, QABRISTON leksemalari o‘rnida qo‘llaniladigan evfemik ma’noli birliklar haqida quyidagi misollarni tahlilga tortamiz. Masalan, 1. *Umrim bitsa* ***abadiy makon****im mana shu er bo‘lsin* (P.Qodirov., “Avlodlar dovoni”, 523-b). 2. *Hammamizning* ***so‘ngi makon****imiz bir, og‘aynilar!* (“Tadbirkor”, 1998, 19-may). 3. *Ertami, kechmi, barimiz ham* ***oxirat uyi****ga borgach*, ... (“Guliston”, 1997, №5, 18-b). 4. *Uni* ***so‘ngi uy****ga kuzatgali ko‘p odam yig‘ildi* (E. Turon, “Bu tog‘lar ulug‘ tog‘lar”, 81-b)[5]. Ushbu gaplar tarkibida ishtirok etayotgan *abadiy makon, so‘ngi makon, oxirat uyi*, *so‘ngi uy* kabi evfemik ma’noli

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5томлик, 4-том. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – Б. 415.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик, 2-том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 652.

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик,4-том.– Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – Б. 366.

[4] Yuqoridagi asar. – Б. 583.

[5] Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент: ФАН, 2006. – Б. 124.

birliklar izohli lug‘atda GO‘RISTON va QABRISTON leksemalarining izohlarida ham, alohida shakllarda ham izohli lug‘at tarkibida uchramadi. Bundan tashqari xalq tilida, nutqimizda, badiiy asarlarda tez-tez uchraydigan *iti yo‘q qishloq* (sheva), *marhumlar diyori, qora yer, so‘ngi yo‘l*, ... kabi bir qancha ot turkumiga xos evfemik ma’noli birliklar qo‘llaniladi.

Shuningdek, o‘zbek tili va uning izohli lug‘atlarida ba’zi o‘rinlarda ifodalanmagan metaforik evfemik ma’nolarni ham kuzatish mumkin. Bunga misol sifatida QO‘RG‘ON leksemasining izohiga e’tibor qaratishimiz kerak. Bu so‘zlikning lug‘at maqolasida uning uch xil izohi keltirilib, misollar bilan dalillangan. Masalan:

QO‘RG‘ON 1 O‘rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar, qal’a. Yov qo‘rg‘onini qamal qilib, uning qulochkash baland devorlari yoniga chodir tashlagan qo‘shin kabi odamlar tog‘ etagiga to‘lib ketdilar. M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o. 2 Qal’a, shahar, qo‘rg‘on va sh.k.ni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor. *U baland qo‘rg‘on bilan o‘ralgan bo‘lib, ichkariga to‘rtta temir darvozadan kirilar edi*. M.Osim, Ibn Sino qissasi. 3 Dala joyda va umuman shahardan tashqarida atrofi devor bilan o‘ralgan hovli joy va uning ichidagi binolar (atrofi, odatda bog‘, ekinzorlardan iborat bo‘lgan). Arslonbekning qo‘rg‘onini bu yo‘lga tushib olgan ko‘r ham topadi. H.G‘ulom, Mash’al[1].

E’tiborlisi shundaki, ushbu o‘rindagi izohlardan keyin QO‘RG’ON so‘zligining ko‘chma ma’nosidagi *oila* ma’nosini anglatishiga doir izohlar bugungi kun nutqimizda ham faol qo‘llanilib kelmoqda.

Resume: This article presents ideas about the specific characteristics of nouns that represent names in the Uzbek language. They can be divided into such types as personal nouns, thing-item nouns, activity-process nouns, place nouns. The role of metaphorical migration in euphemistic units representing nouns is incomparable.

Резюме: В данной статье представлены представления о специфических характеристиках существительных, обозначающих имена в узбекском языке. Их можно разделить на такие типы, как личные существительные, предметно-предметные существительные, деятельностно-процессуальные существительные, местоимения. Роль метафорической миграции в эвфемистических единицах, обозначающих существительные, бесподобна.[1]

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик,5-том.– Тошкент: ЎзМЭ, 2006-2008. – Б. 416.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"TEMURNOMA" ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK QATLAMLARI

Muminova Nilufar Abdurahmonovna,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Ma'lumki, har qanday til o'z rivojlanish tarixida turli bosqichlarni bosib o'tadi. Til rivojlanishning mana shu bosqichlarida uning lug'at tarkibi va grammatik tuzilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu hol o'z-o'zidan har bir davr tilining o'ziga xos xususiyatlari va normalarini yuzaga keltiradi. Mana shu normalarga ko'ra bir davr adabiy tili ikkinchi davr adabiy tilidan ma'lum xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Til rivojining muayyan davri uchun xos leksika, grammatik vositalar o'sha davr tilining davriy normalaridir.

O'zbek tili tarixiy antroponimiyasini tarixiy lug'aviy qatlamlarga ajratish bu til lug'at tarkibini boyitgan antroponim, taxallus, laqablar tarixini bilib olishda, o'zbek tilining o'tmishda qanday tillar ta'sirida bo'lganini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Antroponimlarni tarixiy-lug'aviy qatlamlarga ajratish antroponimiyani sistema sifatida o'rganishning muhim usullaridan bir[1]dir. Tub turkiy antroponimlar yoki asl turkiycha antroponimlar aslida turkiy bo'lmagan antroponimlar, ya'ni o'zlashma antroponimlarga nisbatan olinadi.

Shunday qilib, tarixiy lug'aviy qatlamlar deyilganda, turli genetik manbaga mansub, muayyan miqdorga ega bo'lgan so'zlarning turli tarixiy davrlarda til leksik tizimida qatlamlanishi ko'zda tutiladi.

Xullas, til antroponimik tizimida tarixiy lug'aviy qatlamlarning borligi aniq. Ammo bu tarixiy lug'aviy qatlamlar o'zaro kelib chiqishi, paydo bo'lish davri, o'ziga xos funksional belgilariga ko'ra farqlanadi. Qatlamlanish o'zbek tilining barcha jabhalarida keng tarqalgan hodisadir. O'zbek tilining tarixiy antroponimiyasi ham bundan mustasno emas, albatta. Natijada o'zbek tili tarixiy antroponimiyasi tizimida uchta antroponimik qatlam yuzaga kelgan:

1. Turkiy antroponimlar qatlami.
2. Fors - tojikcha antroponimlar qatlami.
3. Arabcha antroponimlar qatlami.

"Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichi – milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda"[2]. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda jumladan, tarixiy yozma obidalar tilidagi matnlarda saqlanib qolgan antroponim materiallarini sinchiklab tekshirish, tarixiy manba matnida qo'llangan antroponimik birliklarning leksik-semantik jihatdan tahlil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

"Temurnoma" asari matnida qo'llangan *Temur, To'rag'ay, Qochuli bahodir, Erdamchi barlos, Sug'u chechan, Qorachor no'yon, Iyjil no'yon, Tegina Xotun (STT-45), Qutluq Turkon og'a, Turmush og'a, O'ljoy Turkon og'a, Tuman og'a, Cho'lpon To'kal xonim, Xonzoda xonim (Sevinch beka)* kabi tub va yasama, qo'shma turkiy ismlar bilan bir qatorda fors-tojikcha va arabcha antroponimlar ko'plab uchraydi: *Abdullaxon (STT-37), Arab Muhammadxon, Yofas (STT-35), Isrofil, Iblis, Haybatulla Xom, Hushang (STT-34), Xumor (STT-265), Hakim, Hofiz, Nuh (STT-33), Mustafo, Mikoyil, Chingizxon (STT-35)* va shu kabilar.

Demak, tarixiy lug'aviy qatlam tushunchasi antroponimiya uchun ham xosdir. Chunki bir tildan ikkinchi tilga ismlarning o'zlashishi, unda ma'lum antroponimik guruhlarni yuzaga keltirishi ismlar uchun ham umumiydir. O'tmishda o'zbek tiliga o'zlashgan arabcha hamda fors-tojikcha antroponimlar o'z qatlamga nisbatan hajman salmoqli o'rin tutgan va ma'lum davrlarda o'zbek tili antroponimiyasida muayyan antroponimik qatlamlarni shakllantirgan[3].

O'zbek tili antroponimiyasining asl turkiy qatlamini genetik jihatdan turkiy bo'lgan leksemalar va turkiy so'zlardan qo'shilib yasalgan antroponimlar tashkil qiladi. Masalan, *Temur, Temurbek, Tarag'ay Bahodir, Temur Ko'ragon, O'ljoy Turkon og'a* va boshqalar.

Bu davrda ikki asr (XIV-XVI) hukmronlik qilgan

[1] Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сонли «Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги қарори // "Маърифат" газетаси. – Тошкент, 2019 йил 5 октябрь. – №77.

[3] Begmatov E., Kenjayeva S. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent. Fan, 2007. – 94 b.

Amir Temur va temuriylar sulolasi vakillarining ismlari, ya'ni yuqori tabaqa vakillari - xon va malikalarning nomlari boshqa tabaqa vakillari nomlaridan keskin farq qilgan. Bu nomlarda o'sha davr ruhi, sharqona milliy dunyoqarash aks etgan. Masalan, *Amir Temur (STT-49), Muhammad Jahongir mirzo (STT-144), Mironshoh mirzo (STT-165), Umar Shayx mirzo (STT-169), Saroy Mulk xonim (STT-76), Sevinch beka (STT-166)* kabi.

Shu o'rinda aytish lozimki, turkiy qatlamga mansub qo'shma ismlarda o'ziga xos murakkab yasalish xususiyati mavjud, ularning tarkibida ko'pincha turkiycha: *bek//beg, tegin.chechak. hoqon, xon, xonim, oqa//og'o, chechan, bibi, boy, bonu, no'yon, beka, begim, bahodir;* arabcha: *amir,* fors-tojikcha: *mirzo* kabi antroponimik indikatorlar qo'shilib nomlar yasaladi.

Ma'lumki, indikatorlar ismning qanday, qaysi jinsning atoqli oti ekanini aniqlab, unga ishora qilib turadi. Ular ismlarni erkaklar va ayollar ismiga ajralishida asos bo'ladi. Temuriylarga oid antroponimlarda ham indikatorlar shu yo'sinda ishlatilgan.

Ayollarga oid indikatorlar: begim-turkiycha so'z bo'lib, podshoning xotini yoki qiziga nisbatan qo'llanib, hurmat ma'nosini anglatadi. Beka- turkiycha so'z bo'lib, bekning xotini yoki qiziga nisbatan ishlatilgan, og'a- turkiycha so'z bo'lib, xonim ma'nosini anglatib, hurmat ifodalash uchun qo'llangan, xonim-turkiycha so'z bo'lib, podshoning xotini yoki qiziga nisbatan qo'llanib yuksak martabali, e'zozli kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Temuriylarga oid erkaklar ismida asosan mirzo indikatori qo'llangan. Mirzo- fors-tojikcha so'z bo'lib, amirzoda so'zining qisqartma shakli hisoblanadi. Amir avlodiga mansub bola ma'nosida Amir Temurning o'g'illari va undan keyingi avlod vakillari shunday atalgan. Temuriyzoda antroponimlar xoh ayollarniki, xoh erkaklarniki bo'lsin har biri o'z ma'no qirralariga egadir. Yuqori tabaqa vakillarining ismlari tuzilishi jihatidan ham, ma'no jihatidan ham oddiy aholi nomlaridan farqlangan.

Xullas, temuriy antroponimlarning turkiy qatlami turkiy tillar antroponimiyasi tizimining qadimiy qatlamini tashkil qiladi. Erkak va ayollar ismlarining turkiy qatlami qadimdan mavjud so'zlardan hosil bo'lgan. Temuriyzoda erkaklarga ism tanlashda ismning quyidagi ma'nolari e'tiborga olingan. *Amir Temur* - temirdek mustahkam, ya'ni bardoshli, umri uzoq bola. *Buzanjir Mirzo* - bo'yiga yetsin, o'sib ulg'aysin. *Boyqaro Mirzo*-kuchli, qudratli va davlatli bo'lsin. *Qorachar Mirzo* - qoramag'iz yoki qora sochli bola. *Boysung'ur Mirzo* - badavlat, shunqordek jasur, ziyrak bola. Temuriylar davrida ularga ism qo'yish odatlarida, asosan, jasurlikka, mardlikka, aql-zakovatga e'tibor qaratishgan.

Temuriyzoda malikalarga alohida hurmat va e'tibor bilan ism tanlashgan. *Qutlug' begim, Sevin beka, Sevinch Qutlug' og'o begim, Oybegim, Qutlug' Sulton begim, Opoq begim, Oqobegim, Ugi begi, Beka Sulton, Cho'lpon Mulk og'o, Qutlug' Nigor xonim*. Temuriyzoda malikalarning ismlarida Temuriylar urf-odatlari, orzu-istaklari, o'y-xayollari jo bo'lgan[1].

Qisqasi, "Temurnoma"da turkiy antroponimiyalar qatlami o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida o'zbek tili antroponimik lug'at tarkibini o'z ichki imkoniyatlari hisobiga boyitishga, takomillashtirishga xizmat qilgan.

"Temurnoma" asarida qo'llangan Amir Temur davrdoshlarining fors-tojikcha qatlami har ikkala jins vakillarida ham kuzatiladi. "Temurnoma"da temuriy malikalarning turkiy qatlamiga oid *Tegina begim, O'ljoy Turkon, Sevinch beka*... kabi antroponimlarga qaraganda, ya'ni ayollar ismlari orasida fors-*tojikcha+o'zbekcha, arabcha+fors-tojikcha+o'zbekcha* shakllarda ismlar ko'proq uchraydi: *Saroy Mulk Xonim, Shod Mulk begim, Shahribonu begim, Poyanda Sulton begim, Feruza begim, Xonzoda begim*[2] va boshqalar.

"Temurnoma" asaridagi antroponimlarning fors-tojikcha qatlami o'ziga xos ma'no va mazmunga ega. Bunday antroponimlarda go'zallik, ko'rkamlik tushunchasi mavjud: *Gavharshodbegim* – gavhardek bebaho, go'zal. *Shahribonubegim* – ayollarning eng yaxshisi, *Mehrangiz* – suyukli, yoqimtoy, *Sulton Nigorxonim* – go'zal, chiroyli. Ba'zi ismlar esa ota-onaning farzandli bo'lganidan mamnunligini, shod va xursand ekanliklarini anglatadi: *Dilshod og'o begim* (quvnoq, baxtiyor), *Shod Mulk begim* (quvnoq, shodon), *Shodibegim* (baxtiyor, xushchaqchaq) *Farrux Mirzo* (baxtli, baxtiyor) va boshqalar.

Fors-tojikcha o'zlashma ismlarning katta qismi chaqqonlik, mardlik, dovyuraklik, kuch-qudratlilik kabi tushunchalarni anglatadi: *Faridun Mirzo (qudratli), Jahongir Mirzo (g'olib, mard), Komron Mirzo (kuch-qudratli)*. Ba'zi ismlarning tanlanish motivini bolaning tarbiyali, mehribon, adolatparvar, dilkash bo'lib yetishini istash, orzu qilish tashkil qiladi: Mehrlik begim (mehribon, g'amxo'r), Mehrbonu (dilkash).

Farzandini Allohdan iltijolar bilan so'rab olingan sovg'a yoki ulug' avliyolarning ehsoni, rahm-u shavqati deb ishonishgan va bu tasavvurlar ism uchun asos qilib olingan: *Pir Muhammad Mirzo (tilab olingan bola), Pir Ali Mirzo (Ali ato qolgan bola), Umid xonim (orzu qilingan, kutilgan qiz)*. Kishilar o'z farzandlarining kelajak hayoti nurli, baxtli, chiroyli

[1] Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1994. – B.5.

[2] Qarang: Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma (Amir Temur Ko'ragon jangnomasi). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, lug'at muallifi P.Ravshanov. –Toshkent: Cho'lpon, 1990. – 349 b.

bo‘lishini istab qo‘yilgan nomlar: *Feruza begim(tolei baland), Farrux Mirzo (iqbolli bola), Mehr Nigor xonim (quyoshdek nurli), Davlat Baxt Saodat (davlatli, baxtli bola).*

Tarixiy antroponimlarning bir tildan boshqa tilga kirishi va singishi, shunchaki oddiy jarayon emas, balki murakkab lingvistik va ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liq qonuniyatdir. Tildan tilga antroponimlarning o‘zlashishi uchun, avvalo, turli xil omil va shart-sharoitlar bo‘lishi lozim. Bunday omillar va shart-sharoitlar natijasida tillarning o‘zaro hamkorligi, ya’ni tillar orasidagi aloqalar shakllanadi va rivojlanadi.

O‘rta Osiyo, qolaversa, O‘zbekiston tarixida o‘zbek tili lug‘at tarkibiga sezilarli ta’sir o‘tkazgan hamda o‘zbek tili lug‘at tarkibini sezilarli darajada boyitgan tillar: fors-tojik, arab va rus tili bo‘ldi. O‘zbek tiliga bu tillardan anchagina so‘zlar o‘tgan va ular o‘z miqdori, sifati jihatidan o‘zbek tili leksik tizimida o‘ziga xos lug‘aviy qatlamlarni tashkil etadi. O‘zga tillardan so‘zlarning o‘zlashishi o‘zbek tilining barcha jabhalarida birdek amalga oshmagan bo‘lsa-da, o‘zbek antroponimiya sohasini ham chetlab o‘tmadi. Ayniqsa, turli istilolar natijasida, jamiyatning rivojlanish, o‘zgarish davrida so‘z o‘zlashtirish avjiga chiqdi. Dastlab arablar istilosi so‘ng mo‘g‘ullar bosqini xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Bunday jarayonlarda xalqlarda o‘zaro madaniy aloqalar shakllandi. Natijada bir millatdan boshqa bir millatga turli so‘zlar, urf-odatlar va hattoki, ismlar ham kirib keldi. Ayniqsa, arablar istilosi va undan keyingi davrlarda islom dini, islom tili – arab tili, islom madaniyati va ma’rifatining O‘rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi natijasida juda ko‘plab arabcha so‘zlar, atoqli otlar bu hududda yashovchi xalqlar tomonidan o‘zlashtirildi.

“Temurnoma”da zikr etilgan temuriy shahzoda va malikalar nomlarida o‘sha davr madaniy hayoti, urf-odatlari aks etadi. Xonlar, amirlar ismlari oddiy xalq vakillari ismlaridan birmuncha farq qilgan. Temuriylar turli xalqlar bilan madaniy aloqada bo‘lgan ekan, o‘z-o‘zidan o‘sha xalqning ismlari, nomlaridan ham foydalanishgan. Buning natijasida temuriy ismlar orasida boshqa tilga xos ismlar shakllandi.

O‘zbek xalqining chaqaloqqa nom qo‘yishida o‘zlashma qatlam ismlaridan foydalanib ish ko‘rish omili va yana boshqa o‘nlab omillari borki, ular ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan[1].

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida keltirilgan tarixiy antroponimlar lug‘aviy qatlamiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, *fors-tojikcha* ismlar qatlamida *fors-tojikcha + fors tojikcha, fors-tojikcha + fors-tojikcha + o‘zbekcha, fors-tojikcha + arabcha + fors + tojikcha, arabcha + fors-tojikcha + fors+tojikcha* kabi modellardagi yasalishlar ko‘plab uchrashi ma’lum bo‘ldi. “Temurnoma” asaridagi tarixiy antroponimlarning *fors-tojikcha* qatlami o‘ziga xos ma’no qirralari va nozikliklariga egadir. Temuriylarga oid *fors-tojikcha* nomlarda bolaning barcha xislatlari aks ettirilgan. Bu esa Amir Temur va Temuriylar davrida fors-tojik tilida uchraydigan antroponimlar anchayin urf bo‘lganligidan dalolat beradi[2]. Shu kabi tarixiy manbalardagi tarixiy nomlarni to‘plash va o‘rganish orqali o‘sha davr xalqining, millatining orzu-umidlari, tilaklari, e’tiqodlari, madaniy qarashlari namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Ushbu maqolada tarixiy antroponimlar, ularning lug‘aviy qatlamlari Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari misolida o‘ganishga harakat qilingan. Asarda keltirilgan ba’zi bir tarixiy antroponimlarning o‘zlashish omillari va etimologiyasi ilmiy-tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Resume. In this article, an attempt is made to study historical anthroponyms and their lexical layers on the example of “Temurnoma” by Salahiddin Toshkandi. The factors of acquisition and etymology of some historical anthroponyms presented in the work are analyzed on the basis of scientific and historical sources.

Резюме. В данной статье предпринята попытка изучить исторические антропонимы и их лексические пласты на примере “Темурнома” Салахиддина Тошканди. На основе научно-исторических источников анализируются факторы приобретения и этимология некоторых исторических антропонимов, представленных в работе.

[1] Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 151.

[2] Qarang: Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma (Amir Temur Ko‘ragon jangnomasi). Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, lug‘at muallifi P.Ravshanov. –Toshkent: “Cho‘lpon”, 1990. – 349 b.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KONSEPT INSON RUHIY HOLATINING IFODALANISHIDA ASOSIY LINGVOKOGNITIV UNSUR

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho bilmas aql-u zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi[1]. Shuning natijasida har birimizning ongimizda o'zimizga xos olam manzarasi va uni ifodalashga qodir bo'lgan o'zimizga mos til boyligimiz bor. Bu buyuk ne'matning nimaga sarflanishi har bir insonning bilimi, iqtidori, tarbiyasi va madaniyatiga bog'liq.

Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar, konsept, geshtalt, freymlar va h.k. vositasida yaratiladi[2].

Ko'plab tadqidotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik antroposentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi[3]. D.Xudoyberganovaning fikricha, psixolingvistika sohasini ham shu qatorga kiritish lozim. Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi[4].

Tilshunoslikda konsept haqida yuqorida bildirilgan ilmiy nazariyalardan kelib chiqadiki, konsept – yozuvchining o'ziga xos individual ongida mavjud bo'ladigan ruhiy olami bilan bog'liq holatda shakllanadi, ko'po'lchamli hodisa sifatida tasavvuridagi so'z yordamida voqelanadi, ijodkor mental dunyosidagi madaniyatning asosiy birligi hamda olam haqidagi bilimlarini obrazlar va unga bo'lgan munosabatini ijobiy, salbiy yoki neytral baholaydi.

D.Xudoyberganova superkonsept maqomida bo'lgan holat konseptining bosh maqsadi inson va u bilan bog'liq fenomenlarni tasvirlash ekanini izohlaydi. Ruhiy holat konsepti maydoniga *shodlik, qayg'u, sog'inch, iztirob, qo'rquv, hayrat*[5] kabi tushunchalarning matn orqali ifodalanishini misollar asosida dalillaydi.

Konsept inson ruhiy holatining ifodalanishida asosiy lingvokognitiv unsurlardan biri hisoblanadi. Odil Yoqubov asarlarida shaxs tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish amalining namoyon bo'lishi ko'p uchraydi. Ijodkor bu usuldan o'zi tasvirlayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yoritib berishda unumli foydalanadi. Yozuvchi asarlarida holat konseptining rang-barang ifodalarini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asarlarida bunday konseptlar asosan qahramon ruhiy holatini ifodalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "Ulug'bek xazinasi" romanida Ali Qushchining Mirzo Ulug'bek haqidagi o'ylari tasvirida Ali Qushchi ruhiyatida ustoz boshiga tushgan ayanchli kunlardan qayg'urish kayfiyati ifodalanganini kuzatish mumkin. Bu holat inson ruhiy holatining ifodalanishi, insonning o'z olami bilan boshqalarga bo'lgan munosabati, hayotni o'z qarashlari orqali idrok etishi, tafakkur va tasavvur olami bilan bog'liqligi orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Masalan:

Achinish (kuyunish, qayg'urish) ruhiy holat konsepti. *Mana hozir yana o'sha qasri oliyda, ulug' jahongirning dorulmulkida o'tiribdi, lekin qalbida na bir qo'rquv bor, na bir hayajon! Faqat dilida teran*

[1] Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – № 3. – В.3.

[2] Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С. 152.

[3] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – В. 3–16.

[4] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – В. 19.

[5] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2015. – В. 69–70.

bir mahzunlik bor. Yo‘q, bu mahzunlik sabiylik chog‘larida qalbini hayratga solgan bu muazzam qasrlar yemirilayotganidan emas, yo‘q, suyukli ustodiga kuyunganidan, uning aziz boshini qora bulutlar o‘rab olganiga achinganidan xolos! (“Ulug‘bek xazinasi”). Matnda asar qahramonining ustoziga qayg‘urish va hamdardligi uning ruhiyatida ro‘y berayotgan holatning *lekin qalbida na bir qo‘rquv bor, na bir hayajon, suyukli ustodiga kuyunganidan, qora bulutlar o‘rab olganiga achinganidan* kabi ifodaviy birliklar, shunindek qahramon ichki nutqi orqali muallif tomonidan ochib berilgan. Muallif tomonidan yoritilgan Ali Qushchining o‘ylari ustozga achinish vaziyati orqali kitobxonni asar voqealarining ichiga sezdirmay kirgizib qo‘yadi. Kitobxon qahramonning ichki tug‘yonlari ifodalangan mikromatnni o‘qir ekan, xayol og‘ushiga cho‘madi va qalbida olim Ulug‘bekka hamdardlik hissi paydo bo‘ladi.

Matn orqali insonga hos bo‘lgan ikki qarama-qarshi xususiyat – buyuklik va tubanlikning o‘zaro qiyosi inson dunyosining ziddiyatli tomonini ochib beriladi. Qiyoslash amali ko‘p hollarda asar qahramonlarining ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni tasvirlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. Buni quyidagi matn tasvirida kuzatish mumkin:

Hayrat, ajablanish (inson ruhiyatidagi ziddiyat) ruhiy holat konsepti. *Yo tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o‘ltirgan har bir kimsa darhol o‘zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u haqir ekanini darhol unitadi? Bu toj-u taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi? Nainki shahzoda, bu taxt, hattokim amirul muslimin atalmish Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana, go‘yo bobosi Amir Temurday gerdayib o‘tiribdi! Bilmaydikim… yo‘q to‘xta, Muhammad Tarag‘ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toj-u taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o‘zingni ham aqli hushungdan ayirmagan edimu? Shahzoda yaxshi bo‘lsun, yomon bo‘lsun – o‘z farzanding, o‘z pushti kamaringdan bo‘lgan zurruyoding emasmu? … Ot tepkisini ot ko‘taradur. Uni qarg‘ab, yomonlik tilagandan yaxshi so‘zingni so‘zlab, nasihatiningni qilganing maqbul emasmu, E osiy banda?* (“Ulug‘bek xazinasi”). Ushbu matn Mirzo Ulug‘bekning ichki nutqi asosida qurilgan bo‘lib, bevosita Ulug‘bekning o‘z farzandi Abdullatif haqidagi ziddiyatli o‘ylari tasvirlangan. Unda ritorik so‘roq gaplardan ham foydalanilganki, qahramonning hayrat, ajablanish ruhiy holati shu vosita orqali to‘laqonli ochib berilgan. Toj-u taxtdan ayrilgan Mirzo Ulug‘bek xayolan o‘g‘li Abdullatifni qoralaydi, undan benihoyat ranjiydi, lekin otalik mehri g‘olib kelib, beixtiyor shahzodani oqlash uchun dalillar keltiradi.

Inson ruhiy holatidagi muhim omillardan biri **qo‘rquv**dir: *Shaxzoda holsizlanib devorga suyandi. Mudhish qo‘rquv uni karaxt qilib qo‘ygan, u holdan toyib “shilq” etib yiqilib tushishga tayyor, lekin yiqilib tushishdan qo‘rqar, zero, ko‘zini yumsa oltin barkashda qonga belanib tiryayib yotgan o‘z boshini ko‘rishini bilar edi. Nigohi oldidan ketmayotgan bu daxshatli manzarani unutish umidida u yana bir piyola may ichdi. Lekin aksiga olib, bu safar musallas uning yuragini battar uvishtirdi. U go‘yo eshikdan hozir amir Jondor kirib keladiganday, kirib kelib dasturxon yopilgan mash’um barkashni uzatadiganday, yana bir lahza garang bo‘lib turdi* (“Ulug‘bek xazinasi”). Mazkur matnda asar qahramonining qo‘rquvga tushgan holati, asosan, uning vujudida ro‘y berayotgan jismoniy o‘zgarishlarni ifodalovchi *qo‘rquv karaxt qilgan; holdan toygan; oltin barkashdagi tiryaygan bosh; nigohi oldidagi daxshatli manzara* kabi birliklar orqali berilgan.

Qo‘rquv ruhiy holatining ifodasi “Ulug‘bek xazinasi” romanida juda ko‘p uchraydi. Muallif asardagi bitta mikromatnda ikki qahramonning qo‘rqqanidagi ruhiy holatini mahorat bilan yoritib beradi. Masalan, *Bobosi har chiqib-kirganida bonuning yuragi uvishib, igna tutgan nozik barmoqlari titrab ketadi; boya qorong‘ida to‘fonday yopirilib kirgan yasovullar ko‘z oldiga kelib, o‘tirgan joyida karaxt bo‘lib qoladi. Har safar yasovullarning dag‘al ovozlarini, nag‘al qoqilgan etiklarning betakalluf gursillashini, ayniqsa qo‘rquvdan ikki bukilib, titrab-qaqshab qolgan otasining dir-dir titrashini eslasa yodiga shu yil ko‘klamda sodir bo‘lgan boshqa bir mudhish voqea tushib, yuragi o‘ynab ketadi* (“Ulug‘bek xazinasi”). Berilgan matnda Xurshidabonu va otasi ruhiyatidagi o‘zgarishlar qo‘rquv aralash talvasaga, hayajonga tushish holati *yuragi uvishib, barmoqlari titrab, karaxt bo‘lib, qo‘rquvdan ikki bukilib, titrab-qaqshab qolgan, dir-dir titrashi, mudhish voqea, yuragi o‘ynab ketadi* kabi birliklar orqali ifodalangan.

Alam ruhiy holat konsepti. *Ucharning savoli negadir yana xo‘rligini keltirdi. “Nega ham xo‘rligi kelmasin? Salkam yigirma yil bir kun orom bilmay ishlasa, olamga dovrug‘i ketgan ishlar qilsa-yu, yana uning ustidan shikoyat ustiga shikoyat tushsa! Rost, bu shikoyatlarni oqko‘ngil, oddiy kishilar emas, otdan tushsa ham egardan tushmagan mansabparastlar, yog‘liq joylaridan ayrilib qolgan yulg‘ichlar yozishyapti. Hamma narsaga aqli yetadigan ba’zi rahbarlar bo‘lsa, og‘zi bilan yuradigan bu fosiqlarning tanoblarini tortib qo‘yish o‘rniga, komissiya ustiga komissiya yuborsa... bu uning, Otaqo‘zining shuncha mehnatini yerga urish, izzat-nafsini koyitish emasmi? Tirnoq ostidan kir qidiradigan o‘sha nopoklarning bo‘hton-*

lariga ishonish emasmi bu, o‘rtoq Shukurov? Yo‘q, bunaqa ekan, uyam taxta-o‘qlog‘isini yig‘ishtiradi! Rahmat! Shuncha ishlagani, sog‘ligidan ayrilib, asablari qaqshab, adoyi tamom bo‘lgani ham yetadi” (“Diyonat”). Matnda el-yurt uchun kecha-yu kunduz dam olmasdan xizmat qilgan, lekin izzat-nafsi poymol qilingan Otaqo‘zining ruhiyatida kechayotgan holatlar *xo‘rligini keltirdi; olamga dovrug‘i ketgan ishlar qilsa, ustidan shikoyat ustiga shikoyat tushsa; mehnatini yerga urish; izzat-nafsini koyitish; sog‘ligidan ayrilib, asablari qaqshab, adoyi tamom bo‘lgani* kabi birliklar orqali ochib berilgan.

G‘am-anduh ruhiy holat konsepti. *Bo‘lg‘usi kelini Latofat esa uning tamom aksi, tirnoqlariga xina qo‘yilgan oppoq nozik qo‘llarini tizzasidagi guldastaga xorg‘in tashlab, katta-katta ma‘yus ko‘zlarini boqqa tikib, o‘yga tolgan, o‘ylari ham ko‘zlariday g‘amgin, go‘yo u bu yerga bo‘lg‘usi hayot yo‘ldoshining quvonchiga sherik bo‘lish uchun emas, o‘zi istamagan bir marosimga majbur bo‘lib, birovlar qistovi bilan kelgan. “Nimaga motam tutib o‘tiribdi bu!... Sira chehrasi yorishmaydi* (“Diyonat”). Badiiy matnlarda holat sifatida ma’yuslik, g‘amginlik, g‘ussaga botish, parishonlik kabilarning matn orqali ifodalanishi qahramon ruhiy holati tasvirining to‘laqonli bo‘lishini ta’minlagan. Qahramon ruhiy holatini ifodalashda *xorg‘in, ma‘yus ko‘zlar, o‘yga tolgan, o‘ylari ham ko‘zlariday g‘amgin, motam tutib, chehrasi yorishmaydi* kabi birliklar asos vazifasini bajargan.

Inson o‘ta kuchli ruhiy zarbaga uchraganda, o‘zini idrok eta olmay, vasvasaga tushib qoladi, hatto o‘zining jismoniy harakatlarini ham boshqara olmaydi. Bu kabi holat Mirzo Ulug‘bek ruhiyatidagi o‘zgarishlar asosida tasvirlab berilgan:

Vasvasa (talvasaga tushish) ruhiy holat konsepti. *Bir tomoni mavlonoga ham qiyin, u hibsga tushgan dastlabki kunlari qattiq yotib qoldi, kechalari olovday yonib alahlab chiqar, yomon tushlar ko‘rib uvvos tortib uyg‘onib ketar, ko‘zlariga allanimalar ko‘rinib qorong‘u burchakka tiqilib olar va bir nimalar deb pichirlar edi* (“Ulug‘bek xazinasi”). Matndagi *alahlab chiqar; yomon tushlar ko‘rib uvvos tortib uyg‘onib ketar; ko‘zlariga allanimalar ko‘rinib, bir nimalar deb pichirlar edi* kabi birliklar qahramon ruhiyatidagi juda kuchli o‘zgarishlarni ifodalagan. Psixologiyada bu holat gallyusinatsiya deb nomlanadi. Gallyusinatsiya (lotincha: alucinatio – xomxayollik) – yo‘q narsa va hodisalarni bordek idrok etish, ruhiy zararlanish, ruhiy iztirob va h.k[1].

Xurramlik ruhiy holat konsepti. *Qalbida ilk muhabbat g‘unchalari paydo bo‘lgan Haydar onasining gaplaridan sevindi. Ko‘z oldiga Latofatning nur bilan yug‘rilgan tiniq yuzi keldi-yu, chuqur xo‘rsindi. U ich-ichidan shodlanardi. – Ooo! – bu hayot qanchalar lazzatli!* (“Diyonat”). Matnda qahramonning baxtiyorlik, xushnudlik kabi ruhiy holatini *sevindi, chuqur xo‘rsindi, ich- ichidan shodlanardi* kabi birliklar ifodalagan.

Insonga xos ushbu ruhiy holatning asosida xotira deb atalmish hodisa yotadi. Xotira o‘tmishda bo‘lib o‘tgan va inson ongida mustahkam o‘rnashib qolgan, hayot taqozasi bilan uning shuurida qaytadan jonlanuvchi voqea-hodisa yoki kechinmadan iborat. Xotira insonning o‘tmishi, hozirgi va kelajagini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib, uning bilish jarayonida benihoya ahamiyat kasb etadi.

Odil Yoqubov inson ruhiy holatini ifodalashda, asosan, muallif nutqidan, tabiat tasviridan, qahramon ichki nutqidan, xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish o‘lanlardan, shuningdek, tush tavsifidan mohirona foydalanadi.

“Adolat manzili” romanida o‘z sha’ni, g‘ururini baland tutgan, el-yurt, vatani, or-nomusi yo‘lida, adolat, haqiqat, erk yo‘lida jonini fido etib, xo‘rlikdan o‘limni afzal bilgan Suyun burgutning o‘limidan keyingi butun xalq qalbidagi, ruhidagi holati muallif tomonidan birma-bir tavsiflanadi. Bu jumlalar bir umumiy mazmun atrofida birlashib, iztirob, alam, chuqur darddan nola chekayotgan, adolatsizlikka qarshi “isyon” tuyg‘usi o‘rtayotgan millatning, xalqning yaxlit qiyofasi o‘quvchi tasavvurida jonlanadi:

Qariyalarning maslahati bilan Suyun burgutni Marjontovga, o‘zi ko‘p yil ishlagan yilqi fermasining yonidagi kichik qabristonga dafn etadigan bo‘lishdi. Shundan keyin qutini buzib, undan Suyun Burgutning jasadini olishdi, yuvib-tarashdi, marhum enasi o‘z qo‘li bilan to‘qib, to‘ylariga in’om etgan ulkan pat gilamga o‘rashdi, so‘ng janoza o‘qib, Marjontovga olib ketishdi. Burgutni o‘zi yaxshi ko‘rgan soy bo‘yidagi archazorga dafn qilishdi. Tumonat odam yig‘ildi, Suyun burgutni yerga berib bo‘lgach, eski udum bo‘yicha: “Xaloyiq qanday odam edi Suyun burgut!” deb so‘rashganda tog‘-toshga sig‘may ketgan el jo‘r bo‘lib: “Yaxshi odam edi, mard yigit edi, Suyun burgut!” deb hayqirdi. Bu hayqiriqdan Marjontov ham yig‘ladi-yov, Marjontov ham silkindi-yov!.. (“Adolat manzili”). Asar qahramoni Suyun burgutning o‘limi-mardona o‘lim. U o‘z insonlik sha’nini yuksakka ko‘tarib, sevikli jufti xaloli nomusini saqlab qolib, el-yurt ko‘nglida yorqin iz qoldirib bu foniy dunyodan ketadi. Burgut obrazi, umuman, asardagi kurashchan ruh faqat adabiy hodisa sifatida emas, muhim ma’naviy-ijtimoiy omil sifatida ham qimmatlidir.

[1] Шербатых Ю.В. Общая психология. – М.: Питер, 2008. – С. 130.

Резюме. Maqolada badiiy matnda konsept ko‘po‘lchamli hodisa sifatida tasavvuridagi so‘z yordamida voqelanishi, ijodkor mental dunyosidagi madaniyatning asosiy birligi hamda olam haqidagi bilimlarini obrazlar va unga bo‘lgan munosabatini ijobiy, salbiy yoki neytral baholanishi ifodalangan.

Resume: The article describes the realization of the concept as a multidimensional phenomenon in the imagination with the help of words, the main unit of culture in the mental world of the creator, and the positive, negative or neutral assessment of his knowledge about the universe and his attitude towards it.

Резюме: В статье описывается реализация концепта как многомерного явления в воображении с помощью слова, основной единицы культуры в ментальном мире творца, а также позитивная, негативная или нейтральная оценка его знаний о мироздании и его отношение к этому.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK VA TOJIK TILLARIDA EVFEMIZMLAR VA ULARNING SINONIM SO‘ZLAR BILAN ALOQASI

Samiyeva Surayyo Oripovna,
Termiz davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi oqituvchisi

Sinonimlar leksik, semantik va grammatik xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, ularda uslubiy imkoniyatlar ham keng bo‘lib, shu munosabat bilan evfemizmlar sinonimlar manbai sifatida qaraladi yoki boshqacha qilib aytganda, bunday so‘zlar an’anaviy sinonim lug‘atlariga nisbatan iste’mol pozitsiyasi har xil ifodalaydi.

Rus leksikografi D. N. Shmelyov va tadqiqotchilarning fikricha, evfemizmlar sinonimlarning shakllaridan biridir. “Evfemizmlar so‘zlovchi uchun mos bo‘lmagan tushunchalarni almashtirish uchun ishlatiladigan so‘zlar yoki iboralardir”[1]. U sinonimlar va evfemizmlar o‘rtasidagi munosabatga to‘xtalar ekan, “evfemizmlar man etilgan tushunchalar o‘rnini bosishda leksik fakt sifatida qayd qilinadi, chunki man etilgan so‘zning asl ma’nosi ta’sirini niqoblash uchun tegishli vaqtda nutqda tabu tushunchalari paydo bo‘ladi”, deb yozadi. Mohiyatan inkor ega ekanligini bildiradi, ishlatiladi. Shuning uchun ham ayrim evfemistik so‘zlar matn mantiqiga ko‘ra turli vaziyatlarda u yoki bu so‘zning mutlaq yoki to‘liq sinonimi bo‘la olmaydi. Shuning uchun ularni “matnli (kontekstual) sinonimlar yoki lahzali sinonimlar deb atash maqsadga muvofiqdir”[2].

Tojik tilshunoslaridan M. Muhammadiev bu ikki leksik kategoriya o‘rtasidagi munosabat haqida o‘z fikrini bildirar ekan, tilning lug‘aviy tarkibining rivojlanishi va takomillashuvi uning ichki imkoniyatlaridan ko‘ra ko‘proq sodir bo‘lishini ta’kidladi. Shu bilan birga, u tojik tili lug‘atini rivojlantirishning ichki omili sifatida evfemistik so‘zlarni izohlagan. “Agar vulgarizmlarda predmet, hodisa, hodisaning xususiyatlari va salbiy tomonlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, evfemizmlarda bu holatning aksini ko‘ramiz. Bu yerda qo‘pol so‘zlar o‘rniga odobdan tashqari odobli, yaxshi va yoqimli so‘zlar qo‘llanadi”[3].

Darhaqiqat, tojik tilidagi ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlarning sinonimik qatorida evfemik so‘zlarning ma-

[1] Шмелёв Д.Н современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение. – 1997. – 336 с.

[2] Шмелёв Д.Н современный русский язык. Лексика. – М.: Просвещение. – 1997. – 336 с.

[3] Назарзода С. Забон ва истилоҳот. – Душанбе, 2003. – 148 с.

qomi katta. Tilshunoslikda sinonimlar tilning faol leksik-semantik qatlami sifatida hisobga olinadi, lekin evfemistik va vulgar so‘zlar leksik kategoriyalar va nutq tuyg‘ulari guruhiga arxaizmlar va neologizmlar bilan birga kiradi[1]. Professor H. Majidovning bu borada nuqtai nazari boshqachadir. U evfemizmlarni “yuqori uslubdagi so‘zlar” yoki “ta’sirli so‘zlar” qatoriga kiritib, “ta’sirli so‘zlar mavzusida faqat rang-barang so‘zlarni hisobga olish lozim, chunki aynan shu guruhda “yuqori uslubdagi so‘zlar” yoki “ta’sirli so‘zlar” qatoriga kiritgan. turli ma’nolarni ifodalash, juda o‘ziga xos iboralar paydo bo‘ldi. Bunday baholovchi iboralar so‘zlarda ijobiy yoki salbiy ma’noda ifodalanishiga qarab, ularni yuqori yoki past uslubdagi so‘z turkumlariga bo‘lish mumkin[2].

Sinonimlar leksik, semantik va grammatik xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, ularda uslubiy imkoniyatlar ham keng bo‘lib, shu munosabat bilan evfemizmlar sinonimlar manbai sifatida qaraladi yoki boshqacha qilib aytganda, bunday so‘zlar an’anaviy sinonim lug‘atlariga nisbatan iste’mol pozitsiyasi har xil ifodalydi. Yuqori uslubdagi so‘zlarning aksariyati (jumladan, evfemizmlar) adabiy tilga tegishli. Ular nutqga yuksak hissiyotlar beradi, uning ohangini yorqin va ulug‘vor qiladi, nutqning nafisligi va ifodaliligini ta’minlaydi. “Evfemistik so‘zlar va ma’nolar (ya’ni, evfemizmlar), avvalo, taqiqlangan, man’ qilingan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar o‘rniga yumshoq qo‘llaniladi. Odamlarning xurofotiga ko‘ra, bunday tushunchalarning asl nomlari tilga olinsa, falokat yuz beradi. Shuning uchun bunday tushunchalar, albatta, tojik tilida ramziy nomlarda ifodalanadi: **чилпо** (o‘zb. chaquvchi hasharot navi**,** gazanda) **гумном** (jin, balo), **ногуфтанӣ** (dev, albasti) **ҳафтпӯст** (kech sog‘ayadigan yara, uchak), **оҷиз**(ko‘r, qori, nobino), **гул** (surxakon, chechak) **саримоҳ** (hayz), **дуҷон**(homila)»[3] .

Xuddi shunday, evfemizmlarni, bir tomondan, so‘zlarni sinonimlashtirish manbasi sifatida qarash mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aynan evfemistik so‘zlarning qo‘llanishi orqali so‘zlovchi nutqining tuyg‘usi, hayajonlanishi, ifodaliligi ta’minlanadi. M.Muhammadiev: “Evfemizm hodisasi sinonim sozlarni ifodalash vositalaridan biri va shu orqali soz go‘zalligi (xoh badiiy, xoh ilmiy, xoh boshqa ijod turi) dir [4].

Sinonimlarni tashkil etishda yumshoq **(toj. tilida maleh(evfemistik)** so‘zlarning hissasi haqida tadqiqotchilarning fikri ijobiydir. Odatda, evfemizmlarda shunday holatni ko‘rish mumkinki, evfemizm ma’nosida qo‘llangan so‘zlarda qator sinonimlar hosil qiladi: **амр кардан- хоҳиш; илтимос кардан** (toj. tilida)[5] .

Shuni ta’kidlash kerakki, evfemistik lug‘atlar doimiy ravishda rivojlanib boradi. Ular jamiyat taraqqiyotiga qarab doimiy ravishda o‘zgarib turadi: iste’moldan yoki nutqdan tashqarida qolgan so‘zlar o‘rniga yangi evfemizmlar paydo bo‘ladi. Bunday holatlarga ikkita asosiy omil sabab bo‘ladi: ijtimoiy va lingvistik (tillararo).

Evfemistik so‘zlarning sinonimlik imkoniyatlarini qayd etilgan omillarga qarab ko‘rib chiqamiz:

Maleh so‘zlarning paydo bo‘lishining ijtimoiy omili hayot hodisalari, kishilarning ijtimoiy munosabatlari (turmush, oila, shaxsning o‘zgalar bilan o‘zaro munosabati), insonning boshqa tiriklar: mavjudotlar va boshqalar bilan munosabatlari jarayonida nutqda uchraydigan so‘z va tushunchalarning o‘sishiga sabab bo‘ladi. Aksariyat hollarda qo‘pol tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladi.

Bunday tushunchalarning asl nomlarini o‘qimishli kishilar orasida qo‘llash jinoyat, to‘liq odobsizlik hisoblanadi. Shu sababdan bilimli kishilar o‘z ifodalarida yumshoq so‘zlardan foydalanishga harakat qiladilar: **сабукпо** (fohisha), **тунука** (kalta ishton), **лозимӣ** (ayyollar lozimasi), **ноширо** (shol), **озод кардан** (ishdan haydash) va boshqa so‘zlar[6].

Bundan kelib chiqadiki, erkak va ayollga oid so‘zlarining qo‘llanilishi kishilarning bilim darajasi, savodxonligi va madaniyati darajasi, ya’ni jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga bog‘liq. Masalan, keyingi masalalarda “**рӯзи сиёҳ”**(qora kun) tushunchasi evfemik xususiyatga ega bo‘lib, inson qandaydir tarzda omadsizlik yoki baxtsizlikka duch kelgan ijtimoiy hodisani ifodalaydi.

Tojik adibi Jalol Ikromiy matnga **бадбахтӣ-фалокат-рӯзи сиёҳ** (omadsizlik – ofat – qora kun) **kun**ning bir qancha sinonimik turkumlarini kiritgan. U baxtsizlik so‘zini aytish bilan qanoatlantirmadi, uni musibat (baxtsizlik cho‘qqisi) so‘zi bilan qo‘shib qo‘ydi, lekin maqolani bu tarzda ifodalash uning maqsadini aniq ifodalay olmadi. Shu boisdan ham qora kunning evfemizmiga murojaat qilib, ta’birning ta’sirchanligiga erishdi: Misol:

Ба ҳар бадбахтӣ ва фалокат, дар ҳар рӯзи сиёҳ наҷотдиҳанда ва дастгири ту аст [7]. **“Qora kun”**ning sinonimlari orasida tojik tilida-н**окомӣ–**

[1] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[2] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[3] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[4] Назарзода С. Забон ва истилоҳот. – Душанбе, 2003. – 148 с.

[5] Назарзода С. Забон ва истилоҳот. – Душанбе, 2003. – 148 с.

[6] Маҷидов Ҳ. Забони адабии муосири тоҷик. Ҷилди 1. Луғатшиносӣ. – Душанбе: Девештич, 2007.

[7] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273с.

бемуваффақиятӣ – муносибат – бало – осеб – офат – кулфат - ғам uchun umumiy so‘zdir.

“Qora kun” atamasi frazeologik ibora bo‘lib, uslubiy niyatli leksik birlik sifatida ishlatiladi va faqat uni iste’mol qilish orqali yozuvchi o‘zini maqsadiga erishgan deb hisobladi.

Tojik tili sinonimlardagi **бекас – бекасу кӯ, бепарастор - бепушту паноҳ - бесаробон - бесоҳиб - ятим** ifodalaydi va uning ko‘pchilik a’zolarining nutqda qo‘llanishi tinglovchiga yoki nutqning maqsadiga noqulaylik tug‘diradi, evfemizm qo‘llanishi esa tilga olingan so‘zlarning mantiqiy ta’sirini zaif qiladi.

O‘xshatishlar turkumida ular (**бекас – бекасу кӯ, бепарастор - бепушту паноҳ; бесаробон - бесоҳиб – ятим)**ni ifodalaydi va nutqda uning ko‘pchilik a’zolarining qo‘llanishi tinglovchiga yoki nutqning maqsadiga noqulaylik tug‘diradi, uysizlarning evfemizmini qo‘llash esa, uning kuchli va noqulay ta’sirini tilga olingan so‘zlarning mantiqiyligi ma’lum darajada zaiflashtiradi.

Masalan qiyoslash tariqasida: **Пётр пеш аз он ки равад, хотири осуда нагаштаи ятими бекасу кӯйро ҷам карданӣ шуд**[1].

Ғайр аз як модагов ба писари сағираи худ чизе мерос нагузошт [2].

Беҳом (yolg‘iz, sag‘ir, yetim, ota-onasiz) kabi so‘z va sinonimlar ularni eshitish nutq predmeti uchun yoqimsiz degan ma’noni aniq ifodalaydi, ammo adabiy nutqda uysiz so‘zlarning qo‘llanilishi nutqning ma’lum yumshoqligini ta’minlaydi: **Инчунин ягон писари бараҳнарӯеро бинанд, ки беҳомӣ ба сайр рафта истодааст, ба дом мекашиданд** [3].

Yuqorida tojik tilida **-бе** old qo‘shimchasi biror narsaga ega bo‘lmagan **(toj.»надоштани чизеро»)** katta mafhumga egadir. Mahz shuni natijasida sinonimlar miqdori oshgan. Tojik tilidagi arabcha yatim**(хизматгор)** va sag‘ir**(хурд)** so‘zlari ma’no evolyutsiyasiga uchrab, tojikcha yasama so‘zlarga tenglashgan. **“Boda”** so‘zi tojikcha so‘zlar bilan ham bog‘langan. Shuningdek**, вино, май, мусаллас, хамр** so‘zlari bevosita boda so‘zi bilan sinonimdir.

Lekin so‘zlovchining ahvoliga yoki badiiy asar xarakteriga qarab, bu turkum sinonimlar o‘rniga matnda tojikcha **“ғамбарор”, “дармонбахш”, “дору”, “оби ҳаёт”, “оби шифо”** va shunga o‘xshash evfemizmlar sinonim yoki shunga o‘xshash so‘zlar sifatida uchraydi.

Evfemistik so‘zlar haddan tashqari kamtarlik va hayo tushunchalarini ifodalash uchun ham qo‘llaniladi: **қиблагоҳ // қиблагоҳӣ//(падар), волида(модар), соябон(мутако), вафодор (саг), гаҳворабахш (номзад), онҷо хокҷо (қабристон), оромгоҳ (гӯр), манзилгоҳ (қабристон).**

Ta’kidlash joizki, ilgari so‘zlovchi va tinglovchida xunuk, nafratli, nomaqbul taassurot uyg‘otishi sababli ifoda etib bo‘lmaydigan bir qancha tushunchalar o‘zining ba’zi bir jihati va jihatlari bilan shartli ravishda sanab o‘tilgan. Misol: (tojikcha **муш - хоянда ё дузд, каждум - гумном, мор - гумном, шабушк - ҷондор, гург - ҷондор, хирс - каҷпо**).

Masalan, bunday nutq turi **tojiklar** orasida an’anaviy hodisa hisoblanadi: **Сари духтарашро ҷондор (шабушк) задааст.** Tojik tilidagi **“шабушк”**ning tovush birikmasini talaffuz qilish juda yoqimsiz, shuning uchun uni aytishdan saqlaniв va uning evfemizmi **“ҷондор’** ishlatilgan. Biroq “**ҷондор”** so‘zi har qanday zararli jonzotlarga nisbatan qo‘llaniladi:(**шабушк, кайк, кана, гург, рӯбоҳ...)**.

Biroq aniq matndan tashqarida bu so‘z hasharotlar va hayvonlar tushunchasining o‘rnini bosa olmaydi va u yoki bu tushunchaning sinonimi yoki shunga o‘xshash so‘z deb aytish noto‘g‘ri bo‘ladi. Masalan: **Чӯпон шумурда дидааст, ки як сар гӯсфанд нест. Ӯ яқин кард, ки онро ҷондор (гург) хӯрдааст. Мурғҳо фиғон бардоштанд, ба онҳо ҷондор (рӯбоҳ) таҳдид менамуд.**

Biroq “**Xudo”** tushunchasi, uning sifatlari va ismlari bilan bog‘liq evfemistik so‘zlar matndan tashqarida ushbu tushuncha o‘rniga qo‘llaniladi va sinonim va yaqin ma’nolar o‘rnida joylashgan: **Худо, Худованд, Аллоҳ, Офаридагор, Холиқ, Халққунанда, Ҷонофарин, Ҷонбахш, Ҷаҳонофарин, Яздон, Парвардигор** va boshqa.

Fosiq, jalab, g‘ar so‘zlari bilan sinonim bo‘lgan va asosan axloqsiz ayollar uchun qo‘llaniladigan fohisha vulgarizmi o‘zining evfemistik xususiyati natijasida yangi sinonim **“sabuk**”ni oldi. Qiz bola tushunchasini ifodalash uchun evfemizmlar mavjud bo‘lib, ular asta-sekin uning tojik tilidagi sinonimiga aylangan: **poshikasta, parshikasta.**

Сабук(sabuk) so‘zi tojikcha lug‘atda quyidagi ma’noda: **1) тезрав, тундрав; 2) маҷозан: гурезпо, бесубот; ноустувор**(6,166) kelib, tarixiy jihatdan qo‘llanilgan: **На гирифтор омадӣ ба дасти ҷавоне мӯҷиби хираройи сартезе, сабукпой, ки ҳар ду дам ҳавасе пазад ва лаҳза ройе занад** [4].

Раҳматӣ одами хуб буду як хислати бад дошт, чашмаш ғар буд [5].

---

[1] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[2] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[3] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[4] Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – М.: СЭ, 1969.

[5] Шамсиддинов Ҳ.Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997. – Б. 22-25.

Evfemizmlarning eskirganligining namoyon bo‘lishi lingvistik omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Evfemistik so‘zlar tarixining u yoki bu bosqichida o‘zining asl shaklini yo‘qotadi, gohida qo‘llanishga o‘xshab ketadi, gohida bosh so‘z sifatida o‘zining o‘rnini egallaydi. Масалан, tilshunos M.Muhammadiyevning «Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ» (1993)da **“обхона”** so‘zi **“халоҷо”** va **“ҳоҷатхона”** so‘zlarining sinonimi sifatida ko‘rsatilgan. Lug‘at muallifi “Bu so‘zlar o‘z sinonimlarining umumiy ma’nosida bir-biridan farq qilmaydi, lekin asl lug‘at ma’nosida **“маҳбас”** o‘zbek tilida “qamoqxona” sinonim emas. Bu qomoqxonalarning obxona deb atalishining sababi ham xuddi **“обхона”, “халоҷо”** kabi har doim rutubatli, iflos, hidli va chiriyotgan bo‘lgan. So‘zlashuv nutqida xalq **“tualet”** so‘zining ruscha **“туалет”**ni ham foydalanadilar. **“Обхона”** so‘zi tarixiy so‘z bo‘lib, hozirgi adabiy tilda qo‘llanilmaydi, lekin so‘zlashuv tilida keng tarqalgan. Madaniy yodgorliklarda **mabraz, xalojo** va Buxoro arki qomoqxonalaridan biri, sernam maskani sifatida talqin qilinadi. Misol: **Ба яке аз маҳбасҳои он ҷо, ки обхона мемонанд, ба ҳамон ҳол андохтанд[1].** Buxoro amirligidagi o‘rta asr qamoqxonalarining badbo‘y hidi va iflosligi uni **“обхона”** deb atashga, **hojatxonaga** sinonim deb tenglashtirishga sabab bo‘lgan.

Sinonim xususiyatga ega bo‘lgan **arslon**(**toj tilda шер-асад, зайғам(zayg‘am), ғазанфар (g‘azanfar)** sinonimlari turkumida **zayg‘am, g‘azanfar** so‘zlari arxaizmga aylangan. Asad so`zi **“шер”** ma`nosida faqat oy nomi sifatida qo`llanib, qo`llanishi cheklangan.

Қатор(q**ator)** so‘zi tojik tilida sinonimi **“қатор-саф- силсила- силк”** bo‘ladi. **“Саф”(saf)** sinonimi qator so‘zi kabi hozirgi adabiy tilida iste’molda bo‘lib “silk” so‘zi esa majoziy ma’noda ta’rixiy xususiyat kasb etib “**пайрави ҷараёни сўфия будан”, “дар сафи дарвешон”, “дар қатори сўфиён”** (“so‘fiy jarayoni izdoshi bo‘lgan”, “darvishlar safida bo‘lish”, “so‘fiylar qatorida”) aytishdir. Ammo silsila ma’nosi:

1.Занҷир банд, баст;

2. насабнома, шаҷара, насл; авлод, хонадон;

3. ҳалқа, гурӯҳ, ҷомеа, даста, тоифа[2].

Bu so‘zning bugungi nutqdagi **“qator”** va **“saf”** ma’nosi bilan real sinonimik munosabati yo‘q. Ammo murakkab tarkibda **“силсилакӯҳ-қаторкӯҳ”** ma’nosida hozirgi adabiy tilida uchraydi:**Силсилакӯҳҳои Туркистон аз маъданҳои зеризаминӣ бой аст[3].**

Professor X. Majidov sinonimlar bilan bog‘liq evfemizmlarning xususiyati haqida o‘z fikrini quyidagicha izohladi: “Evfemizmlar nazariyasining leksik jihati shundaki, ular tez orada yumshoqligini yo‘qotib, qo‘pol so‘zlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham bunday so‘zlar vaqti-vaqti bilan yangi sinonimga ega bo‘ladi. Sinonim tilda uzoq davom etmaydi, chunki qisqa vaqt ichida u tabiiy, taqiqlangan yoki qo‘pol ohangga ega bo‘ladi. Oqibatda til egasi o‘sha tushunchani ifodalash uchun boshqa yumshoq so‘z ishlatishga majbur bo‘ladi”[4].

Shuningdek tojiklar nutqida kichkina farzand yo kenja farzand evfemizmi o‘zbek-turkiy tilida **“kenjatoy”** ifodasi bilan va “**хуки хона”** vulgarizmi bilan; er va xotin atamasi (toj. tilida **“зан ё шавҳар”**, **“очаи бачаҳо”** va “**додо ё отаи бачаҳо”— “занак”, “мардак”),** balog‘atga loyiq yosh(turkcha-o‘zbekcha)— **mujarrad, narg‘ol, bo‘ydoq, marhum** yoki s**hodravon** yo **xudorahmati** tushunchasi-(toj tilida “**shavharmurda”** yo “**zanmurda”**, “**beva”** sifatida evfemik va vulgar atamalar bir-biriga sinonimdir.

Xulosa evfemistik so‘zlar faol manba sifatida sinonimlarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Evfemizmning namoyon bo‘lishi rivojlanish hodisasi bo‘lib, sekin-asta ba’zi evfemizmlar o‘zining mayin va uslubiy xususiyatlarini yo‘qotadi va ularda asosiy ma’no va tashbeh tarzida ifodalanmaydi, maqsad bevosita va ochiq ifodalanadi va mavjud nutqning yumshoqligidan hech qanday alomat bo‘lmaydi, so‘z vulgar xususiyatga ega bo‘ladi. Bu evfemizmlarning aksariyati tilning faol va vulgar so‘zlari bilan sinonimdir. Ulardan ba’zilari eskirgan va tarixiy so‘zlar qatoriga kiritilgan. Har qanday holatda ham sinonimlar bilan maleh tilidagi so‘zlar o‘rtasida leksik-semantik munosabat mavjud bo‘lib, evfemizmlarni leksik munosabatlarning rivojlanish manbai deyish mumkin.

Tojik tilidagi evfemizmlar fikrni ifodalashning kuchli vositasi bo‘lib, ular orqali nutq ta’sirchan va rang-barang bo‘ladi. Xususan, qo‘pol, behayo so‘zlarning sinonimlari bilan almashtirish masalasida tutgan o‘rni juda katta. Shu bilan birga, evfemizmlar so‘zlovchiga predmet va hodisa nomining ma’nosiz ma’nosidan qochish imkonini beradi va shu nuqtai nazardan leksik va matn munosabatlarining (lahzali, faqat alohida matn doirasida) yuzaga kelishida muhim omil bo‘ladi. Ular ta’sirchanlikning qimmatli quroli sifatida nutqqa g‘alati ohang va ko‘rk bag‘ishlaydi, jamiyat a’zolari o‘rtasida axloqiy me’yorlarga amal qilish imkonini beradi. Aynan sinonimik evfemizmlar so‘zlovchi nutqi madaniyatini, bilim va nutq mahorati darajasini, odamlarning turli ijtimoiy vaziyatlardagi madaniyat darajasini aniqlash imkonini beradi.

[1] Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 1. – М.: СЭ, 1969.

[2] Фарҳанги забони тоҷикӣ. Ҷилди 2. – М.: СЭ, 1969.

[3] Муҳаммадиев М. Луғати синонимҳои забони тоҷикӣ. – Душанбе: Маориф, 1993. – 273 с.

[4] Маҷидов Ҳ. Забони адабии муосири тоҷик. Ҷилди 1. Луғатшиносӣ. – Душанбе: Деваштич, 2007.

Rezyume: Mazkur maqolada evfemistik so‘zlar faol manba sifatida sinonimlarning rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkinligini aytilgan. Evfemizmning namoyon bo‘lishi rivojlanish hodisasi bo‘lib, sekin-asta ba’zi evfemizmlar o‘zining mayin va uslubiy xususiyatlarini yo‘qotadi va ularda asosiy ma’no qoplama va tashbeh tarzida ifodalanmaydi, maqsad bevosita va ochiq ifodalanadi va mavjud nutqning yumshoqligidan hech qanday alomat yo‘q, so‘z vulgar xususiyatga ega bo‘ladi. Bu evfemizmlarning aksariyati tildagi faol va qo‘pol so‘zlar bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi. Ulardan ba’zilari eskirgan va tarixiy so‘zlar qatoriga kiritilgan. Har qanday holatda ham sinonimlar bilan inglizcha so‘zlar o‘rtasida leksik-semantik munosabat mavjud bo‘lib, evfemizmlarni leksik munosabatlarning rivojlanishi manbai deyish mumkin.

Резюме: В данной статье утверждается, что эвфемистические слова могут способствовать развитию синонимов как активного ресурса. Проявление эвфемизмов является явлением развития, причем некоторые эвфемизмы постепенно утрачивают свои мягкие и стилистические особенности, причем основной смысл не выражается в форме прикрытия и аллюзии, цель выражена прямо и открыто, и нет никаких признаков мягкости существующей речи, слово имеет вульгарный характер. Большинство этих эвфемизмов являются синонимами активных и грубых слов в языке. Некоторые из них устарели и включены в число исторических слов. В любом случае между синонимами и английскими словами существует лексико-семантическая связь, а источником развития лексических связей можно назвать эвфемизмы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

AYRIM TABIIY-GEOGRAFIK OYKONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI XUSUSIDA (NAMANGAN VILOYATI OYKONIMLARI MISOLIDA)

Ne’matova Yulduz,
Qarshi davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Joylarni, jumladan, aholi manzillarini nomlashda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari asosga olinishi birlamchi va yetakchi motiv hisoblanadi. Toponimlar paydo bo‘lishida birinchi va eng keng tarqalgan turi aholi maskani joylashgan hududning tabiiy-geografik xususiyatini e’tiborga olinishidir. Bunda joyning tabiiy-geografik xususiyatini aks ettiruvchi geografik tushunchalarning konkretlashuvi va individuallashuvi yuz beradi.

Tabiiy-geografik oykonimlar o‘z ichida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Geomorfologik oykonimlar.
2. Gidrooykonimlar.
3. Fitooykonimlar.
4. Zooykonimlar.

Yer tuzilishi, sathi bilan bog‘liq tarzda nomlangan aholi yashash manzillari **geomorfologik oykonimlardir**. Ayrim ilmiy manbalarda bunday oykonimlar **orooykonimlar** termini ostida o‘rganiladi. Biroq bu tipdagi nomlarning xususiyatlarini **orooykonimlar**ga nisbatan **geomorfologik oykonimlar** termini mukammalroq ifodalaydi.

Geomorfologik oykonimlar yer yuzasining relf shakllarini hamda joyning landshaft tuzilishini ham ifoda etadi. Masalan, **yozi** qadimgi geografik terminlardan biri bo‘lib, turkiy va eski o‘zbek tilida *sahro, dasht, cho‘l* degan ma’nolarni anglatgan.[1] Yozi geografik termini asosida shakllangan *Qizilyozi* oykonimi *qizil dasht, qizil cho‘l* ma’nosini bildiradi. Yangiqo‘rg‘on tumanidagi qishloq dasht, cho‘l hududida bunyod etilganligiga ko‘ra shunday nomlangan.

K.S. Gorbachevich geomorfologik oykonimlar haqida fikr yuritib, vaqt o‘tishi bilan nomlangan obyektning relyefi o‘zgarsa-da, lekin avvalgi relyefni ifoda qilgan nom saqlanib qoladi deb ko‘rsatadi.[2]

[1] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – I том. – Б. 532.

[2] Горбачевич К.С. Русские географические названия. – М. – Л., 1965. – С. 32.

Namangan viloyati oykonimiyasi doirasida ham bir qancha geomorfologik oykonimlar kuzatiladi: *Yandama* (To‘raqo`rg`on tumani), *Toshloq* (Norin tuimani), *Qoracho‘qqi* (Chortoq tumani), *Toshqo‘rg‘on* (Chust tumani), *Qizilyozi* (Yangiqo`rg`on tumani) kabi.

Viloyat geomorfologik oykonimlarini qanday so‘z asosida shakllanganligiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) jar so‘zi vositasida: *Navjartepa, Jar* (Kosonsoy tumani) kabi.

Navjartepa – Kosonsoy tumanidagi qishloq. Nav – *yangi,* jar – *suv yuvib hosil bo‘lgan tik chuqurlik,* tepa – balandlik. Navjartepa oykonimi yangi suv yuvishidan hosil bo‘lgan chuqurlik yonidagi tepalik degan toponimik ma’noga ega. Qishloq shunday hududda joylashganiga ko‘ra Navjartepa deya nom olgan;

2) tepa so‘zi vositasida: *Gurtepa* (Mingbuloq tumani), *Uchtepa* (Norin tumani), *Do‘nartepa* (Kosonsoy tumani), *Qo‘shtepa, Yassitepa* (Uychi tumani), *Qiziltepa* (Chust tumani), *Semiztepa, Tepa, Tepaqo‘rg‘on, Qoratepa* (Namangan tumani), *Bo‘ritepa* (Norin tumani), *Tepaqo‘rg‘on* (Pop tumani.) kabi. Bu oykonimlarning har biri o‘ziga xos ma’noga ega. Masalan, *Do‘nartepa* – Kosonsoy tumanidagi qishloq nomi. Oykonim morfemik jihatdan *do‘n, moq, -ar, tepa* morfemalaridan tarkib topgan, *qiya tepalik, balandlab boruvchi tepalik* degan ma’nolarni anglatadi. Qishloq shunday tepalikda joylashganligiga ko‘ra *Do‘nartepa deb atalgan*.

3) yor so‘zi vositasida: *Yorboshi, Yorkatay, Yormahalla, Yorqo‘rg‘on (Uychi tumani), Yortepa (To‘raqo‘rg‘on tumani), Keskanyor (Chortoq tumani), Yorqishloq (Chust tumani) kabi.*

Yor – umumturkiy so‘z bo‘lib, barcha turkiy tillarda uchraydi. Aynan yor, jar so‘zlari bir so‘z. Qadimiy «Attuhfatuz zakiyatu-fil-lug‘atit turkiya» lug‘atida yor so‘zi jar deb izohlanadi.[1] Bu so‘z o‘zbek tilining ayrim shevalarida, jumladan, Namangan guruh shevalarida hozir ham shu ma’noda qo‘llanadi.

4) dasht so‘zi vositasida: *Dasht* (Chust tumani). Namangan viloyati toponimiyasida dasht so‘zi asosida shakllangan shu birgina oykonim kuzatiladi. Tahlillardan ko‘rinadiki, viloyatda tepa, yor so‘zlari vosita-sida hosil bo‘lgan oykonimlar salmoqli o‘rin tutadi.

Tilning toponimik tizimi doirasida transonimizatsiya asosida bir joy nomi ikkinchi bir joy nomiga aylanadi. Jumladan, suv obyekti nomi – gidronim qishloq, shaharcha, shahar nomiga o‘tishi ham mumkin.

Daryo, kanal, ko‘l, soy, buloq, ariq, quduq va boshqa suv obyektlarining atoqli nomlari gidronimlar asosida yuzaga kelgan aholi turarjoylarining nomlari **gidrooykonimlar** deyiladi. Gidrooykonimlar gidrotoponim-larning bir turi. Namangan viloyati toponimiyasida anchagina gidro-toponimlar, jumladan, gidrooykonimlar kuzatiladi. Namangan viloyati gidrotoponimlari va uning turlari N.Uluqov tomonidan keng o‘rganilgan.[2]

Namangan viloyati gidrooykonimlarini qanday suv obyekti nomi transonimizatsiyasi asosida hosil bo‘lganligiga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) buloq nomi bilan atalgan aholi manzillari: *Sho‘rbuloq (Chust, Chortoq tumani), Buloq (Kosonsoy tumani.), Katta Toshbuloq, Kichik Toshbuloq (Namangan tumani), Bekbuloq, Sutbuloq (Yangiqo‘rg‘on tumani.) kabi;*

2) soy nomi bilan atalgan aholi manzillari: *Uyg‘ursoy (Pop tumani), Kosonsoy (Kosonsoy tumani), Jabborsoy (Pop tumani), Rezaksoy (Chust tumani) kabi*;

3) daryo nomlari bilan atalgan aholi manzillari: *Norinkapa (Norin tumani);*

4) ko‘l nomlari bilan atalgan aholi manzillari: *Damko‘l (Mingbuloq tumani.), Qaranko‘l (Kosonsoy tumani), Qorako‘l (Namangan tumani), Baliqko‘l (Chortoq tumani) kabi;*

5) ariq nomlari bilan atalgan aholi manzillari: *Tikariq, Sho‘rariq (Pop tumani), Shaldirama (Uychi tumani), Duob (Chust tumani), Qizariq (Yangiqo`rg‘on tumani) kabi.*

Namangan viloyati gidrooykonimlarini qanday aholi manzilini ifodalayotganligiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin*:*

1. Gidroastionim (gidropolisonim)lar.
2. Gidrokomonimlar.

Gidroastionim. Astionim (grek. astyaos – shaharga oid) – shahar nomi, oykonimning bir turi. Gidroastionim – suv obyekti nomi bilan atalgan shahar nomi.

Namangan viloyati oykonimiyasida birgina Kosonsoy gidroastionimi mavjud.

Gidrokomonimlar. Komonim (grek. komo – qishloq) – oykonimlarning bir turi, har qanday qishloq, ovul, shaharchalarning nomi.[3] Gidrokomonim esa

[1] Муталлибоев С. Аттуҳфатуз закияту-фил-луғатит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 197.

[2] Қаранг. Улуқов Н. Шимолий Фарғона гидротопонимлари // Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари: Республика илмий-назарий анжумани материаллари.– Наманган, 2006. – Б. 231-235.

[3] Қаранг. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 211.; Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.

suv ob'yekti nomiga nisbat berish asosida atalgan qishloq, ovul, shaharcha nomlaridir. Namangan viloyati ayrim gidrokomonimlari S.Qorayev, N.Oxunov, N.Uluqovlar tomonidan o'rganilgan.

Namangan viloyati gidrokomonimlari 50 dan ziyod: *Qorasuv, Buloq, Karanko'l (Kosonsoy tumani), Katta Toshbuloq, Kichik Toshbuloq, Oqbuloq, Sherbuloq, Qorako'l, Qorasuv (Namangan tumani.), Polvonko'l (Norin tumani), Jabborsoy (Pop tumani), Bekbuloq, Sutbuloq (Yangiqo'rg'on tumani), Baliqko'l (Chortoq tumani)* kabi. Mazkur gidrokomonimlarning har biri o'ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega.

Qishloq, shaharcha va shaharlarni nomlashda hayvon, parranda va boshqa jozotlarning nomlari ham asos qilib olinishi mumkin. Toponimika oid ilmiy manbalarda bunday joy nomlarini **zootoponimlar** deb ataydilar.[1] Demak, hayvon, parranda, jonzot tushunchasini ifodalovchi apellyativlar bilan nomlangan joy nomlari zootoponim hisoblanadi.

Namangan viloyati oykonimiyasida hayvon, jonzot va parranda nomlari bilan atalgan quyidagi bir nechta aholi manzillari kuzatiladi: *Qush (Mingbuloq tumani, Gurtepa qishlog'i), Bo'ritepa (Norin tumani Paxta qishlog'i), Kaklikqo'rg'on (Chust tumani Sho'rkent qishlog'i)* kabi. Demak, viloyatda bunday oykonimlar juda oz. Viloyatda hayvon va qushlarning atoqli nomlari bilan nomlangan aholi manzilgohlari nomlari uchramaydi.

Yuqorida keltirilgan *Qush, Bo'ritepa, Kaklikqo'rg'on* kabi qishloq nomlari o'ziga xos nomlanish tarixiga ega. Chunonchi, Chust tumanining Sho'rkent qishloq fuqarolar yig'inidagi aholi manzili hududida tovuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi tog' qushi – kaklik ko'pligiga ko'ra *Kaklikqo'rg'on deb atalgan. Qo'rg'on so'zi o'zbek tilida «dushman hujumidan saqlanish uchun uzoq muddatli istehkomlar, devorlar bilan mustahkam-langan joy, shahar, qal'a»* degan ma'nolarni anglatadi.[2] Shuningdek, qishloq, shahar ma'nolarida ham qo'llanadi. Demak, Kaklikqo'rg'on oykonimi «kakliklar ko'p bo'lgan aholi manzili» degan ma'noga ega. Kaklikli qo'rg'on otli birikmasi oykonimning etimoni hisoblanadi. Kaklikqo'rg'on oykonimining lisoniy shakllanishini qo'yidagicha ifodalash mumkin: kaklikli qo'rg'on > kaklik qo'rg'on > kaklikqo'rg'on > Kaklikqo'rg'on.

Oykonimlarning bir guruhini o'simlik va daraxt nomlari asosida yaratilgan nomlar tashkil etadi. Bunday oykonimlarni ilmiy adabiyotlarda **fitooykonimlar** (yunoncha fitos – o'simlik nomi + oykonim – turarjoy nomi) deb yuritiladi.[3]

Namangan viloyatida ham *Yertikan* (To'raqo'rg'on tumani Sayram qishlog'i), *Qayrag'ochovul* (Mingbuloq tumani), *Yakkatut* (Pop tumani Nayman qishlog'i.), *Chinor* (Pop tumani), *Buramatut* (To'raqo'rg'on tumani), *Kurmak* (Namangan tumani Xonobod qishlog'i.) kabi fitooykonimlar mavjud. Fitooykonimlar viloyat tabiati, o'simliklar dunyosi, unda o'sadigan daraxtlar haqida yorqin ma'lumot beradi.

Namangan viloyati fitooykonimlarini qanday o'simlik va daraxt nomlari asosida hosil bo'lganligiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

I. O'simlik nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: *Qorayantoq* (Yangiqo'rg'on tumani), *Yertikan* (To'raqo'rg'on tumani Sayram qishlog'i), *Qoratikan* (Uychi tumani), *Kurmak* (Namangan tumani Xonabod qishlog'i.), *Qizilqiyoq* (Yangiqo'rg'on tumani), *Kanopli* (Pop tumani) kabi.

II. Daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari:

1) manzarali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: *Qo'shqayrag'och,* (To'raq'org'on tumani Axsi qishlog'i), *Beshtol* (Yangiqo'rg'on tumani), *Terak* (Mingbuloq tumani Dovduq qishlog'i), *Chinor* (Pop tumani Nayman qishlog'i), *Majnuntol* (To'raqo'rg'on tumani), *Qayrag'ochovul* (Mingbuloq tumani);

2) mevali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari: *Jiyda* (Chust tumani; Kosonsoy tumani), *Yakkatut* (Uychi tumani; Pop tumani), *Buramatut* (To'raqo'rg'on tumani), *Shaftoli* (Uychi tumani) kabi. Keltirilgan fitooykonimlardan ko'rinadiki, Namangan viloyati oykonimiyasida manzarali daraxt nomlari bilan atalgan turarjoy nomlari salmoqli o'rin tutadi. Ayrim fitooykonimlar tarkibida o'simlik va daraxtlarning sanog'ini, miqdorini, xarakterli belgi-xususiyatlarini ifodalovchi so'zlar ham kuzatiladi: Yakkatut, Beshtol, Qo'shqayrag'och, Buramatut kabi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oykonimlarning hosil bo'lish yo'llari, nomlanish tamoyillari, atalish motivlari barcha tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham mushtarak bo'lib, bu aholi manzillarini nomlanishida obyektlarga xos deyarli bir xil belgi-xususiyatlar asosga olinishi bilan izohlanib, tabiiy-geografik oykonimlar o'zbek xalqining o'tmish tarixidan, o'lkaning tabiiy-geografik, botanik xususiyatlari (fauna va florasi)dan, hatto yerosti zaxiralaridan darak beruvchi betakror lisoniy boylikdir.

[1] Қаранг. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б.213.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II том, 641-бет.

[3] Қаранг. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиши хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.21.

Rezyume. Ushbu maqolada joylarni, jumladan, aholi manzillarini nomlashda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari asosga olinuvchi birlamchi va yetakchi motivlari xususida va toponimlar paydo bo‘lishida aholi maskani joylashgan hududning tabiiy-geografik xususiyatini e’tiborga olinishi masalalari yoritilgan.

Resume. This article discusses the main and leading motives based on the natural-geographical features of the region when naming places, including addresses of the population, as well as issues of taking into account the natural-geographical features of the region where the population is located. in the emergence of toponyms.

Резюме. В данной статье рассматриваются основные и ведущие мотивы, основанные на природно-географических особенностях региона при наименовании мест, в том числе адресов населения, а также вопросы учета природно-географических особенностей региона, где находится население. в возникновении топонимов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QORAQALPOG‘ISTON DIALEKTAL AREALINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Madamiova Ra’no Yusupbayevna,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Ma’lumki, *areal lingvistika* atamasi *area* – maydon, hudud; *-l* – sifat yasovchi affiks hamda *lingvistika* – tilshunoslik tarkibiy qismlaridan tuzilgan. Bu termin 1943-yil M.Bartoli va G.Vidossilar tomonidan fanga kiritilgan[1]. Areal lingvistika zamonaviy tilshunoslik sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanalib, bu soha bugungi kunda ham ilmiy ham amaliy jihatdan jadal rivojlanib bormoqda. Ammo “areal yo‘nalish qiyosiy tilshunoslikning asosiy tarmoqlaridan bo‘lsa ham, bu sohada ancha sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lishiga qaramay, tilshunoslikda “areal lingvistika” tushunchasini qanday talqin qilish borasida aniq bir to‘xtamga kelingan emas[2]”.

Areal lingvistikaning asosiy vazifasi til hodisalarining ma’lum bir hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat. Ma’lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o‘zining tarqalish chegarasiga, o‘z hududiga ega. Jumladan, etnomadaniy lug‘aviy birliklar chegarasi ham ma’lum hudud bilan chegaralanadi. Bir-biriga yaqin bo‘lgan tillar va dialektlarning o‘zaro to‘qnashuvi yuz beradigan areallarda faol munosabatlar amal qilayotgan bo‘lsa, ikki hududning oraliq chegaralarida alohida lingvistik xususiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni yonma-yon holda qo‘llanilib kelayotgan dialektlarning har ikkisiga ham o‘xshash bo‘lgan alohida sheva ko‘rinishi yuzaga keladi. Yuzaga keladigan dialektni chatishgan sheva yoki chatishgan til deb yuritish mumkin. Bunday chatishmalar haqida dialektolog olimlar ko‘pgina ilmiy faktlarni keltirib o‘tganlar. Jumladan, V.Shteynisning qayd etishicha, xanti dialekti o‘ziga yondosh areallarda joylashgan ko‘pgina dialektlarning xususiyatlarini o‘zida jamlagan bir shaklda qo‘llanilmoqda[3]. Bu holat Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi shevalar doirasida ham kuzatiladi. Demak, bu jarayonni dialektlarning o‘zaro ta’siri va o‘tish zonalari bilan izohlash ham mumkin. O‘tish zonalari nafaqat tillar o‘rtasida, balki dialekt-shevalar o‘rtasida ham vujudga keladi. Chunonchi, o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi areallari, asosan, Xorazm viloyatining Xiva, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazarasp, Shovot, Xonqa tumanlari va Qoraqalpog‘istonning Beruniy, To‘rtko‘l,

[1] Bartoli M., Vidossi G. Lineamenti di linguistica spaziale. – Milan, 1943.

[2] Гуров Н.В., Зограф А. Ареальное языкознание: предмет и метод (на материале языков Южной Азии. \\ Вопросы языкознания. – 1992. – №3. – С.71.

[3] Штейниц В.К. Хантыйский (остяцкий) язык. Языки и письменность народов Севера. Ч.1. – М-Л., 1937. – С. 196.

Ellikqal'a tumanlari hududlariga to‘g‘ri keladi. Ammo dialektologik tekshirishlar mazkur lahjaning Buxoro viloyatidagi Qorako‘l, Olot tumanlari hududida ham mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti, elektron kommunikatsiya aloqalarining rivojlanishi, uning aholiga ta'siri tuman va qishloqlarda kun sayin o‘zgarishlar, qishloqlarimizni shaharga aylantirish borasida qilinayotgan ishlar – barcha-barchasi adabiy til mavqeyini kundan kunga oshirib bormoqda. Buning natijasida mahalliy til va shevalarning fonetik, leksik va grammatik o‘zgarishlari sodir bo‘lmoqda. Shu sababli dialekt va shevalarga xos leksik xususiyalarni qayd qilish, yozib olish lingvistik tomonlarini qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tamoyillar asosida kengroq o‘rganish, tadqiq qilish o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi, tarixini o‘rganishda shu til egasi bo‘lgan xalqlar tarixi etnografiyasini o‘rganishda muhim amaliy va nazariy ma'lumotlar beradi. Qorqalpog‘iston o‘zbek shevalari qipchoq va o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi shevalar deb ajratish mumkin.

Qoraqalpog‘iston ko‘p millatli xalq bo‘lib, unda qoraqalpoqlar bilan birga o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa xalq vakillari birga yashab, mehnat qilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘zining areal joylashishiga qaralsa, qo‘shni Turkmaniston va Qozog‘iston respublikalari bilan chegaradosh ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Dialektizmlar ma'lum areallarda joylashgan qator shevalarga xos so‘zlar hamda fonetik va grammatik shakllarni o‘z ichiga oladi. Bunday so‘z va grammatik formalar, asosan, o‘sha arealdagi shevalarga xos xususiyatlar hisoblanadi. Masalan: *guring* – ad. orf. suhbat (Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida, Beruniy), *belcha* – ad. orf. belkurakning kichkina turi (Xo‘jayli, Taxiatosh), *chalak¸ chakar* – fors-tojikcha chelak (Xo‘jayli, Taxiatosh, Beruniy), taqiya – ad.orf. do‘ppi (Xo‘jayli, Taxiatosh), *zangi* – ad. orf. narvon (Xo‘jayli, Taxiatosh, Beruniy).

Bu elementlar turli tillarga oid bo‘lib, o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. Ammo o‘zbek xalqining og‘zaki tilida, shevalarda o‘z ma'nolari bilan saqlanib qolgan. Areal lingvistik jihatdan shevalar mahalliy va umumxalq til xususiyatlarining birligidan iborat. Shu sababli ularni o‘rganish mahalliy til xususiyati bilan birga umumxalq tilini ham tadqiq etish demakdir. Umumxalq tiliga o‘xshash tarzda dialekt ham o‘zining og‘zaki va maxsus yozma shakliga ega. Uning yozma formasi, asosan, transkripsiya bilan yozib olingan dialektologik va folklor matnlarida namoyon bo‘ladi. Sinonim so‘zlar ham shevalarimizda ko‘plab uchraydi. Unday so‘zlar davrlarning almashinishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan: *ona* so‘zining bir qancha variantlarini ko‘rishimiz mumkin. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining ko‘pchiligida *apa, ava* shaklida ishlatiladi. Bu shaklda ishlatilishini Xo‘jayli, Taxiatosh, Beruniy, Amudaryo, To‘rtko‘l areallarida ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘zning bugungi adabiy tilga yaqinroq shakllari ham ishlatiladi. Masalan: *oyi, aya, mama* shakllari ko‘plab ishlatiladi.

Areal sinonim atamasi ostida adabiy tilga oid so‘zlarning ma'nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan variantlarining har xil hududlarga har xil shaklda tarqalishi tushuniladi. Bu so‘zlarning har qaysisi ma'lum chegara bilan xarakterlansa ham, ular ma'no jihatidan o‘zaro sinonim hisoblanadi. Ma'lum geografik areal vakili bu so‘zlardan bittasini ishlatgani holda, ularning boshqa variantlarining ma'nosini ham tushunadi. Areal sinonimlar o‘zbek shevalari joylashgan hududni markaziy (Toshkent, Guliston, Jizzax), shimoliy (Turkiston areali) shevalari, shimoliy-sharqiy (Farg‘ona areallari), janubiy-sharqiy (Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo), shimoliy-g‘arbiy (Urganch, To‘rtko‘l, Toshhovuz), shimoliy-janubiy (Qoraqalpog‘iston) kabi areallariga ajratish bilan birga, adabiy til va dialektlar o‘rtasidagi o‘zaro lingvistik ta'sir va munosabatlarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dialektlarning tarixiy taraqqiyoti va hozirgi takomillini o‘rganishda dialektlar yagona tizim shaklida tadqiq etuvchi areal leksikologiya (regional leksikologiya) muhim rol o‘ynaydi. Qadimgi so‘z va formalar bilan bir qatorda shevalarimizda qadimgi ibora ham o‘zining asl ma'nosi yo‘qotgan holda boshqa ma'no ottenkasi bilan saqlanib qolishi mumkin. Xo‘jayli shevasida *jolg‘a atlanmaq, jolg‘a chiqmaq, jolg‘a chig‘achaq* iboralari mavjud. Bu ibora "biror joyga borishga tayyorgarlik ko‘rish" ma'nosida qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek tilida "otlanmoq" so‘zi o‘zining asl ma'nosida "otni egarlab, yuganlab, ustiga minib jo‘nash" ma'nosida ishlatiladi. Xo‘jayli shevasida esa *atlanmaq* so‘zidan "ot ishtirokisiz, umuman, biror yoqqa jo‘nash" ma'nosi anglashiladi.

Qoraqalpog‘iston dialektal arealini tarixiy lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, atrof qo‘shni shevalarining munosabatini nazarda tutib, ko‘plab ilmiy tasnif va tavsiflarga tayanib quyidagicha guruhlash mumkin:

Qipchoq lahjasiga mansub shevalar guruhi:

a) "**y**"lovchilar guruhi;

b) "**j**"lovchilar guruhi: *jur* (yur), *jol* (yo‘l), *jenga* (yanga), *shuytip* (shunday qilib) kabi.

Qipchoqlar o‘zbek xalqi etnogenizining yirik komponentini tashkil etadi. Qipchoqlar ko‘pgina turkiy xalqlar: qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, tatar, boshqird, Oltoy va ayrim Shimoliy Kavkaz xalqlari: no‘g‘oy, kumik, qorachoy kabi xalqlarning shakllanishida ishtirok etgan. O‘zbekiston hududidagi qipchoqlar etnik guruhlarining aralashishi natijasida asta-sekin atrofdagi o‘zbeklar tarkibiga singib bormoqda. Qadimgi va eski qipchoq yozuvi yodgorliklari bi-

zning kunlarimizgacha saqlangan bo‘lib, bu yodgorliklar arxeologlar, etnograflar va lingvist turkologlar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Qipchoq tili o‘g‘uz, bulg‘or va qarluq tillari bilan birga turkiy tillarning g‘arbiy xunn guruhiga mansub. U qarluq va o‘g‘uz tillari o‘rtasida bo‘lib, o‘g‘uz tillariga yaqinroq turadi.

O‘zbek tilining qipchoq dialekt zonasi juda katta arealga ega bo‘lib, **j**-lovchi o‘zbek urug‘-qabilalar guruhidan tashkil topgandir. Qipchoq shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlarida va Respublikadan tashqarida ham mavjud.

Shevalar o‘z joylashgan areallarida alohida dialektlarni emas, balki dialekt zonalarini va shevalar guruhlarini tashkil etgani holda o‘zbek tili umumqipchoq arealining mos hodisalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilining qipchoq shevalari, asosan, XX asr boshlaridan boshlab o‘rganila boshladi.

Dialektlarni areal lingvistik o‘rganilishi til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham qimmatli material beradi. Adabiy tilda yo‘q bo‘lib ketgan yoki o‘zgarib ketgan ba’zi bir fonetik, leksik, grammatik formalarining dastlabki ko‘rinishlari hozirgi mahalliy dialektlarda hamon saqlanib kelmoqda. Shuning uchun qadimgi o‘zbek yozma yodgorliklarining ayrim tomonlari biz uchun noaniq bo‘lsa, hozirgi dialektlarning xususiyatlarini lingvogeografik usul bilan o‘rganish orqali ularni aniqlab olishimiz mumkin. Shuni qayd etish kerakki, dialekt manbalari yozma yodgorliklarsiz ham o‘rganilaveradi, lekin yozma yodgorliklarni tarixiy dialektal nuqtayi nazaridan dialektlarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Ba’zi olimlar, masalan, akad. A.I.Sobolevskiy yozma yodgorliklarga katta ahamiyat bergan bo‘lsa, ayrim olimlar, jumladan, akad. A.A.Shaxmatov jonli shevalar faktlariga yuqori baho bergan. Yozma yodgorliklar o‘tgan davrning tovush sistemasini aniqlashda ham hamma vaqt ham ishonchli material bo‘lavermaydi. Tarixiy grammatika uchun eng ishonchli va eng asosiy material olinadigan bosh manba hozirgi jonli shevalardir, – degan edi olim. Bu olimlar ikkala manbaning ham til tarixi uchun yirik ahamiyatga molik ekanligini inkor etmaydilar. Har bir shevaning o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari bo‘lgani kabi Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining ham boshqa shevalardan farqlanadigan juda ko‘plab lisoniy qirralari mavjudki, uning leksik qatlamida yaqqol ko‘zga tashlanadi. So‘z – terminlarning qo‘llanish darajasi va anglatgan ma’nolariga ko‘ra turfa, rang-barangdir. Lekin ularning barchasi hali mukammal to‘planib, o‘rganilganicha yo‘q. Shuni nazarda tutib, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining leksik qatlamdagi mavjud so‘zlarning shakli va ma’nosidan kelib chiqib, so‘zlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Faqat shevaga xos so‘z va terminlar, qo‘shma so‘z va birikmalar:

a) adabiy tilda uchramaydigan faqat shevaga xos so‘z-terminlar. Masalan, *uvuz* – sigir yangi bolalaganidan keyin ikki, uch kungacha sog‘ib olinib, odatda, iste’mol qilinmaydigan sut. Bu so‘z O‘zbekistonning barcha dialekt arealida, hatto Qozog‘iston Respublikasining o‘zbek shevalarida ham mavjud.

b) nomemasi adabiy tildagi so‘zlardan farq qilmasa ham, lekin shevada boshqa ma’no anglatuvchi so‘zlar: *qulaq* – bir ariqdan ikkinchi bir ariqqa suv olinadigan joy, *ura* – sabzavot saqlovchi joy, *supa* – dam olib o‘tiradigan joy.

b) fonetik qonuniyatlar asosida yuzaga kelgan leksik birliklar: qo‘shma fe’l yoki “yetakchi fe’l + ko‘makchi fe’l” tipidagi fe’l qo‘shilmalarining yagona urg‘u olib, bo‘g‘in yoki tovush tushishi natijasida bir so‘z doirasiga kelib qolishi: “**y**”lovchilarda *apchiq* (olib chiq), *appar* (olib bor), *akit-apket* (olib ket), *tasha-atvar* (tashlab yubor, otib yubor). Adabiy tildagi shakliga nisbatan kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: *iyna* (igna), *javin-chachin* (egin-sochin, yeg‘ingarchilik), *shuytip (shunday qilib), atla* (sakrab o‘tmoq), *taup* (tabib), *jayma* (qatlama – qozonda pishiriladigan non turi), *palchi* (folbin).

O‘ziga xos morfemik strukturaga ega bo‘lgan so‘zlar. Bular Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari uchungina xos bo‘lgan affikslarga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklar: *-uvchi* affiksi quyidagi ko‘rinishda ishlatiladi: *olivchi* (oladigan), *ishlovchi* (ishlaydigan), *boruvchi* (boradigan). Adabiy til va shevalarda o‘zak va yasovchi affikslar umumiy bo‘lib, lekin adabiy tilda birikib yasalmaydigan so‘zlar: *bo‘y+la* (suvga tushishdan oldin suvni bo‘y bilan o‘lchash), *quvirma+ch* (mayda bug‘doydan quvirib tayerlanadigan taom). Qoraqalpog‘iston hududi qipchoq shevalari quyidagi fonetik xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

a) kontrast juft unlilarning mavjudligi va uning natijasida singarmonizmning saqlanishi, ya’ni hozirgi qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq tillari va boshqa qipchoq guruhiga kiradigan turkiy tillariga xos bo‘lgan tovushlarning asos va affiksal morfemalarida almashinishi: *poxto* (paxta), *monti* (manti), *boliq* (baliq), *baringlar* (boringlar) kabi;

b) so‘z boshida kelgan o‘rta ko‘tarilish unlilarining diftonglashuvi barcha qipchoq shevalarida bo‘lgani kabi “**j**”lovchilarda ham mavjud: *yegin* (ekin), *yeki qoli* (ikki qo‘li), *yegib ber* (ekib ber) kabi;

v) “**j**”lovchilarda ham, “**y**”lovchilarda ham qisqa-uzun unlilarning farqlanmasligi, undosh tovushlarning tushib qolishi sababli ikkinchi darajali uzunlikning mavjudligi;

g) “**j**”lovchilarda so‘z boshida **y** undoshining **j** ga o‘tishi: *jol* (yo‘l), *jur* (yur), *jenga* (yanga), *ko‘zingdi jum* (ko‘zingni yum) kabi;

d) “**y**”lovchilarda so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida **y**

undoshining orttirilishi (paydo bo‘lishi): *yip* (ip), *yilon* (ilon), *rayis* (rais), *sarpoy* (sarpo) kabi;

j) hudud shevalarida boshqa qipchoq shevalarida bo‘lgani kabi unlilar orasida **p, k, k** undosh tovushlarining jaranglashishi, so‘z boshida **h** undoshining ortishi, paydo bo‘lishi: *hayvan* (ayvon), xarra (arra) kabi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida quyidagi o‘ziga xos morfologik xusisiyatlarga ega. Qaratqich va tushum kelishiklari affikslarining bir xil *-di, -ti* ko‘rinishida qo‘llanilishi: *nandi* (nonni), *kitapti ko‘r* (kitobni kor), *kitapti beti* (kitobning beti). Komponentlari adabiy turda bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’iy nazar adabiy tilda uchramaydigan shevagagina xos bo‘lgan qo‘shma so‘z va iboralar: *qalangir-qasangir* (begano, hech kimga yeqmaydigan odam), *qo‘li chaqqon, yepchil-chaqqon* kabi.

Yuqorilardagidan shunday xulosaga kelish mumkinki, hududiy yondosh – bir arealdagi shevalarning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri o‘zbek shevalari leksikasining taraqqiy yetishida muhim omil hisoblanadi. Bunday ta’sir va bir-birini leksik jihatdan oziqlantirish adabiy markazdan uzoq joylashgan va boshqa tillar qurshovida bo‘lgan yeki yondosh joylashgan o‘zbek shevalarida bir muncha intensivroq yuz berishi mumkin. O‘z-o‘zidan ayonki, areal jihatdan bir-biridan uzoqda bo‘lgan turli dialekt hududlari orasida bunday aloqalarning bevosita yuzaga chiqishi mumkin emas. Chunki o‘zbek shevalarining har biri yoki har bir guruhi uzoq davrlardan beri o‘zlariga xos va muvofiq tarqalish areallariga ega. Sheva o‘ziga xos xususiyatlarining bir qismi ana shu chegara, ularning tarqalish, joylashish o‘rni – areali bilan bogliq bo‘lib, ular shu arealdagina paydo bo‘lgan va rivojlangan.

Xullas, Qoraqalpog‘istonda yashovchi o‘zbeklar qipchoq va o‘g‘uz lahjasiga xos so‘z va iboralardan foydalanishini ko‘rib chiqdik. Sheva areali juda katta joylarni o‘z ichiga oladi. Umuman, turkiy xalqlarning bir-biriga qondosh va qardosh ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilining Xo‘jayli shevasi o‘z lingvistik xususiyatlariga ko‘ra, o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga taalluqlidir. Demak, shevalarni va ularning xususiyatlarini mukammal ravishda o‘rganish tilimizning hozirgi ahvoli va tarixini to‘laroq o‘rganish sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Adabiy tilimizning rivojida shevalarning ta’siri katta. Ayniqsa, qipchoq lahjasiga kiruvchi shevalar juda katta hududni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, qipchoq shevalari o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘z tabiatini ko‘proq saqlab qolgan hamda har xil o‘zgarishlarga kam uchragan tipik shevalardan hisoblanadi. Ana shuning uchun ham qipchoq dialektlarining, xususan, sharqiy gruppa shevalarining leksikasi o‘zining rang-barangligi, boyligi, oxori to‘kilmagan leksik-stilistik xususiyatlarga va katta imkoniyatlarga ega ekanligi, turli-tuman o‘ziga xos tomonlari bilan kishi e’tiborini o‘ziga tortadi. Bu shevadagi so‘zlar ma’lum darajada adabiy tilimiz mulkiga aylanib borayotgan bo‘lsa ham, uning katta bir qismi hali o‘zlashtirilgan emas, ya’ni u ochilmagan qo‘riq sifatida o‘zlashtirilmay kelmoqda.

Qipchoq shevalarining o‘ziga xos leksik xususiyatlari, asosan, quyidagilardan iborat: bu shevalarda o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning hammasi uchun barobar bo‘lgan umumiy leksik qatlam bilan bir qatorda har bir shevaning o‘ziga xos bo‘lgan leksik birliklari ham mavjud. Bunday o‘ziga xos tomonlar ba’zan shu shevalarning fonetikasida va qisman grammatik xususiyatlarida ham ko‘zga tashlanadi. Bunday xususiyatlar, umuman olganda, qipchoq dialektlarining, jumladan, sharqiy gruppa qipchoq shevalarining haqiqatan ham milliy tilimizning juda katta til birligini tashkil qilishidan dalolat beradi. Bunday xususiyatlarning paydo bo‘lish sabablariga to‘xtalganda shuni aytish kerakki, ularning katta bir qismi bu shevalarda juda qadimgi davrlardan beri davom etib kelayotgan integratsiya va differensiatsiya prosesslarining natijasidir. Bunday xususiyatlarning bir qismi shu sheva vakillarining o‘troq hayotiga qachondan boshlab o‘tganligi, kim bilan qo‘shinchilik qilib kelayotganligi, o‘tmishda turmush tarzining qanday bo‘lganligi va nihoyat qisman bo‘lsa ham, shu gruppa vakillarinig qadimgi davrda qaysi urug‘ va qabilaga mansub bo‘lganliklari bilan ham izohlanadi. Demak, shu shevalarni va ularning xususiyatlarini mukammal ravishda o‘rganish tilimizning hozirgi ahvoli va tarixini o‘rganish sohasidagina emas, balki xalqimiz tarixini to‘laroq o‘rganish sohasida ham katta ahamiyat kasb etar ekan.

Resume. In this article, it was considered that the main task of areal linguistics is to study the spread of language phenomena in a certain area and to solve the problems arising from it.

Резюме. В данной статье считалось, что основной задачей ареальной лингвистики является изучение распространения языковых явлений на определенной территории и решение вытекающих из этого проблем.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHIMOLIY AFG'ONISTON O'ZBEK SHEVALARIDA DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI NOMLARINING IFODALANISHI

Amini Aziz Ahmad,
Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

O'zbek tilshunosligida shevalar va uning leksik qatlamini o'rganishga ahamiyat berib kelindi. Natijada lahja leksikasi, dialektlar leksikasi, shevalar leksikasi, etnografik leksikasi, kasb-hunar leksikasi kabi terminlar paydo bo'ldi va amaliyotda qo'llanila boshlandi. Shunga o'xshash boshqa asarlarning leksik tarkibini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar ham yuzaga keldi.

"Ushbu ishlar o'zbek tili leksikasini o'rganish nuqtayi nazaridan ikki guruhga ajratiladi:

1. Umumiste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.
2. Umumiste'mol doirasi chegaralangan leksika.

Umumiste'mol doirasi chegaralanmagan leksikaga umumturkiy va o'zbekcha so'zlar hamda o'zlashma (tojikcha, arabcha, ruscha) so'zlar kiritilgan.

Iste'mol doirasi chegaralangan leksika esa dialektal leksika, terminologik leksika, jargon va argonlar tarzida o'rganilgan"[1].

"Boshqa guruh olimlar o'zbek tilining lug'at tarkibini quyidagi guruhlarga ajratib o'rganadilar:

1. Tarixiy jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi. Bunga umumturkiy, o'zbekcha, tojikcha, arabcha va ruscha so'zlar kiritiladi.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ijtimoiy-dialektal leksikasi (aktiv va passiv so'zlar, arxaizmlar, istiorizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, jargon va argonlar). Yoki:

1. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti;
2. Hozirgi o'zbek tili sostavi"[2].

Ushbu tasniflardan kelib chiqib, dehqonchilikka alqador atamalarni dastlab quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Dehqonchilikka alqador mahsulot nomlarini ifodalovchi o'z qatlamga mansub atamalar: ***bug'doy, arpa , poxol, somon;***

2. Dehqonchilikk sohasiga oid mahsulot nomlarini ifodalovchi o'zlashgan qatlamga mansub atamalar: ***mosh, chor, anjir, zardoluv.***

Dehqonchilikka xos o'z qatlamga mansub atamalar o'zbek tilining imkoniyatlari asosida tuzilgan leksemalar sanaladi. Masalan: ***bug'doy, arpa, poxol, somon*** kabilar.

Dehqonchilikka xos o'zlashgan qatlamga oid leksemalar asosan ikkinchi til ta'siri ostida o'zbek tiliga o'zlashgan leksemalar hisoblanadi. Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida ishlatiladigan o'zlashgan qatlamga oid atamalarning ko'p qismini fors-tojik tilidan o'zlashgan atamalar tashkil qiladi. Masalan, ***anjir, mosh, chor, zardoluv*** kabilar.


Fan-texnologiya taraqqiyoti davri bo'lganligi uchun, mazkur sohaga texnikalar kirib kelishi natijasida yangi o'zlashgan qatlamga oid atamalar kirib kelishiga zamin yaratilmoqda. Masalan, ***trishal, kambayn, traktor*** kabi atamalar.

Dehqonchilik tushunchalarini ifodalovchi atamalarni ifoda mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Dehqonchilik mahsulotlarini ifodalovchi atamalar: *zig'ir, bug'doy, arpa, kunjit, somon, poxol, angara, chor, to'ppon, zig'irpuri* kabilar.

2. Dehqonchilik asboblarini ifodalovchi atamalar: *juvoldiz, bel, qop, o'roq, g'albur, chig'il, chodir (kappa, xayma), qirtish, kurak* kabilar.

3. Dehqonchilikka alqador harakat fe'llarini ifodalovchi atamalar: *ekmoq, sug'ormoq, ag'darmoq, o'rmoq* kabilar.



[1] Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. Монография. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 16.

[2] Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. Монография. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – Б. 17.

Dehqonchilik tushunchalarini ifodalovchi atamalarning ma’noviy turlari

Dehqonchilikka oid leksemalarning sinonim shakllari:

1. Dehqon (دهقان), chakboshi (چکباشی), sabanchi (سبانجی), tat (تات);

2. Mo‘za (موزه), etik (ایتیک);

3. Qop (قاپ), qanor (قنار), shuval (شوال), kasurgu (کسورگو);

4. Kashr (کشیر), sabzi (سبزی), zarjama (زرجمه);

5. Bo‘ji (بوجی), xalta (خلته), bo‘riy (بوری), jippa (جپّه);

6. Bigiz (بیگیز), juvoldiz (جوال دُوز);

7. Mirob (میراب), battuq, suvchi (سوچی);

8. Koza (کوزه), chayla (چیله), xayma (خیمه), chodir (چادر), olachuq (اَلَچوق);

9. Qilchiq (قیلچیق), saray (سَری), boshoq (باشاق).

Dehqonchilikka oid sof turkiy atamalarni hozirgi o‘zbek adabiy tili munosabatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ayni ma’noda va shaklda ishlatiladigan atamalar: *shudgor, ekin, bug‘doy, dehqon*.

2. Fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llaniladigan atamalar: *arig‘* (ariq)*, samon* (somon), *alma* (olma), *paxal* (poxol).

3. Hozirgi o‘zbek shevalarida qo‘llaniladigan atamalar: *omoch, buyunturiq, juvoldiz, angara*.

4. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqan atamalar: *tat* (dehqon), *ashliq* (g‘alla), *ermaq* (ariq), *qilchiq* (boshoq).

Shimoliy Afg‘onistonda istiqomat qiluvchi o‘zbek dehqonlari nutqida dehqonchilikka oid ko‘plab atamalar faol qo‘llaniladi. Til ijtimoiy padida bo‘lganligi sababli zamon bilan yonma-yon rivojlanadi. Rivojlanish asosan tilning lug‘at qismida o‘z ifodasini topadi. Demak, fan-texnikaning rivojlanishi tillarga yangi tushunchalarni olib kiradi. Shimoliy Afg‘oniston o‘zbeklari shevasida ham ushbu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Fan-texnika rivojlanishi natijasida bir qator g‘allachilikka aloqador leksemalar kirib kelgan: *kampoyin* (kombayn), *treshal* (dikuvi) kabi atamalar bunga misol bo‘ladi”[1]. Nutqdagi so‘zlar zamon o‘tish bilan unutilishi, tarixiy so‘zga aylanishi mumkin. Buning natijasida tilimizdagi ba’zi atamalar nofaol leksik qatlamga o‘tib qolmoqda, hozirgi kunda: *haqqulloh, galagav* kabi so‘zlarning eskirib borayotganligi kuzatiladi. Shuning sababli ham maqolamizda ana shunday yo‘qolib borayotgan leksik birliklarning eskirgan so‘zlar qatoriga kirishini oldini olishni maqsad qildik. Bunday leksemalar hozirgi kunda kunda turmush tarzini ifodalovchi barcha jabhalarda mavjud. Shunday sohalardan biri dehqonchilik bo‘lib, texnika taraqqiyoti natijasida sohaga oid ko‘plab so‘zlar kirib kelib, ba’zi atamalar iste’moldan chiqib ketmoqda.

“Afg‘oniston o‘zbeklari nutqida uchraydigan g‘allachilikka oid so‘zlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Donli va dukkakli mahsulotlarning nomi: arpa, bug‘doy, zira;

2. Donli mahsulotlar poyasi va undan hosil bo‘luvchi xashak nomlari: poxol, somon, angara, chor;

3. Don va poyani ajratish uchun qo‘llaniladigan usul va predmetlarning nomi: galagav, kurak, g‘alvir, o‘roq”[2].

Afg‘oniston shimolida yashovchi o‘zbeklar nutqida ko‘p ishlatiladigan g‘allachilikka aloqador so‘z **bug‘doy** va **arpa** so‘zlaridir. “O‘zbek tili so‘zligi” da(ارپه – دانینی استعمال قیلیش یا ییم صفتیده حیوانلرگه بیریش ممکن بولگن غله اوسیملیگی و اونینگ دانی) “Arpa – donini iste’mol qilish (foydalanish), yem sifatida hayvonlarga berish mumkin bo‘lgan g‘alla o‘simligi va uning doni”[3], – deb izohlansa, X.Jabborovning “Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati”da: “Bug‘doy – g‘alladoshlar oilasiga mansub o‘tsimon o‘simlik va uning doni, g‘allasi”, – deb izohlanadi. “*Oq bug‘doy, bug‘doy uni, bug‘doy, bug‘doy o‘rmoq* kabi jumlalar barchaga yanish. “Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, – deyiladi xalq maqolida. Arpadan asosan hayvonlarning ozuqasi sifatida foydalaniladi. Bug‘doydan esa asosan non tayyorlanadi. Bundan tashqari, bug‘doy kepagi hayvonlarga ozuqa sifatida ishlatiladi. Yog‘ini olish uchun mo‘ljallab ekiladigan o‘simliklardan zig‘ir va kunjut ommalashgan. Zig‘ir asosan yog‘ olish uchun ekiladigan o‘simlik, uning yog‘ini ajratishda juvozdan foydalaniladi, juvoz zig‘ir va kunjutdagi yog‘ni olish uchun mo‘ljallangan kichik zavod bo‘lib, Afg‘onistonda uni ishlatish uchun ot va tuyalardan foydalaniladi, kunjarasi esa molga beriladi. Kunjutning zig‘ir bilan o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. O‘xshash tomoni shundaki, ikkalasidan ham asosan moy olinadi. Farqli tomonlari: ikkalasining poyalari ikki xil bo‘ladi; zig‘irdan asosan yog‘ olinsa, kunjutdan non ustiga sepish, kunjut halvo pishirishda ham foydalaniladi. Donli o‘simliklardan zira o‘simligi Shimoliy Afg‘onistonda ikki xil: tabiiy holda o‘sadigan va zira donidan foydalanish maqsadida lalmi joylarga ekiladigan turi. “Zira donidan dori tayyorlashda va ovqatni xushxo‘r qilishda foydalaniladi”[4]. Shimoliy Af-

[1] Aziz Ahmad Aminiy. Shimoliy Afg’oniston o’zbeklari nutqida g’allachilikka oid so’zlar / O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar 2020. B. 21-23. https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/05/conf_aprel_2020/Filologiya-1.pdf

[2] Aziz Ahmad Aminiy. Shimoliy Afg’oniston o’zbeklari nutqida g’allachilikka oid so’zlar / O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar 2020. B. 21-23. https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/05/conf_aprel_2020/Filologiya-1.pdf

[3] Oltoy, Nurulloh. O‘zbek tili so‘zligi. – Malaysia. Global partners, 2007. – B. 71.

[4] Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. – Б. 144.

g‘onistonda ko‘p ekiladigan g‘alla o‘simligidan yana biri tariq bo‘lib, u boshoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik g‘alla o‘simligidir va u asosan oqlab so‘k qilinadigan mayda doni uchun yetishtiriladi. Mazkur g‘alla o‘simligidan bedana va boshqa shunga o‘xshash qushlarning ozuqasi sifatida hamda bolalarning beshigi ichiga solinadigan ko‘rpachaga paxta o‘rnida solish uchun ham foydalaniladi.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida ishlatiladigan dehqonchilik mahsulotlari nomlarining ifodalovchi leksemalarni tahlil qilishimiz natijasida, ushbu sohaga oid atamalarning ko‘p qismi ikkala hudud vakillari nutqida bir xil ma’no va bir xil talaffuzga ega ekanligi aniqlandi. Biroq Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqiga xos leksemalar ham mavjud. Masalan, *haqullo, sepal, no‘pal, mo‘za, bo‘ji* kabi so‘zlar.

Resume: This article studies and analyzes lexicographic анализируются expressions of names of agricultural products, thematic groups and synonymous forms of lexemes related to this area, used in the Uzbek dialects of Northern Afghanistan.

Резюме: В данной статье изучаются и анализируется лексикографические выражения названий сельскохозяйственной продукции, тематических групп и синонимических форм лексем, относящихся к этой сфере, используемых в узбекских диалектах Северного Афганистана.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TOPONIMIK TADQIQOTLAR TALQINI

Qulto‘rayeva Sarvinoz Bahodir qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Insoniyat qadim zamonlardan buyon nomlar bilan qiziqib keladi. Nomlarning hosil bo‘lishi, hosil bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar, nomlanishga asos bo‘luvchi narsa-predmet, voqea-hodisa va shu kabilarni tadqiq qiladi. Bu sohaga tilshunoslar ham o‘zlarining katta hissasini qo‘shgan va qo‘shib kelmoqda. Tilshunoslikning *onomastika* bo‘limi ayni shu masala doirasida faoliyat yuritadi. Onomastika juda katta tadqiqot obyektiga ega bo‘lim bo‘lib, u o‘z ichida yana bir qancha tarmoqlarga bo‘linib ketadi. Ulardan biri toponimikadir. Toponimika onomastikaning joy nomlarini o‘rganuvchi maxsus bo‘limidir. Toponimika so‘zi lotin tilidan olingan, “topos” – joy, “onima yoki onom” – nom, to‘liq olganda joy nomlarini o‘rganuvchi fan degan ma’noni anglatadi. 1917-yilga qadar toponimika mustaqil fan sifatida mavjud bo‘lmagan, geografiyaning bir bo‘lagi sifatidagina o‘rganib kelingan. Toponimlar juda ko‘plab fanlar, jumladan, tarix, geografiya, iqtisodiyot fanlarining ham tadqiq obyekti sanalsa-da, tilshunoslik fanida joy nomining semantik xususiyatlari, etimologiyasi va shu kabi bir qancha o‘ziga xosliklari tadqiq qilinadi.

Toponimika geografik nomlar to‘plamini, ularni kelib chiqishini, evolyutsiyasini, ma’nosi, tarqalish shaklini, takrorlanishini o‘rganadi va tahlil qiladi. U toponimlar yozilishi, tildan tilga ko‘chirilishi masalalarini o‘rganadi. Toponimika fani tilshunoslikda muhim o‘rin egallaydi. Tarixiy toponimlar so‘zlardan iborat, shuning uchun toponimika tilshunoslik fani ham hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar jahon tilshunosligida toponimikaga bag‘ishlangan tadqiqotlar talaygina. Bu

soha taraqqiyoti uchun o‘zbek tilshunoslari ham birmuncha hissa qo‘shgan. Xususan, T.Nafasovning “Qashqadaryo oblast toponimlari”, L.Karimovaning “O‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi”, Z.Do‘simov “Xorazm toponimlari”, B.O‘rinboyevning “Samarqand viloyati toponimlarining izohi”, T.Enazarovning “Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari (turkiy toponimlar asosida)”, A.Esemuratovning “Xo‘jayli tumani toponimlarining tarixiy-lingvistik tahlili”, K.Hamidovaning “Farg‘ona vodiysi toponimiyasida variantlilik: yuzaga kelish, omillari, turlari va funksional xususiyatlari”, G. Jo‘raboyevaning “Farg‘ona vodiysi toponimlarining shakllanish asoslari”, N.G‘aniyevning “Navoiy viloyati Qiziltepa tumani toponimlarining etimologik va kognitiv tadqiqi”, O.Abbozovning “So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik tadqiqi”, G.Abishovning “Chimboy tumani toponimlarining tarixiy-lingvistik tahlili” va shu kabi yuzlab tadqiqotlarni ko‘rsatish mumkin.

Biz so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida toponimika bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishib o‘tmoqchimiz. Tadqiq obyektimizni ikki yo‘nalishga bo‘lib olamiz: 1) juda katta hududni qamrab oluvchi toponimik tadqiqotlar; 2) katta hudud tarkibidagi kichik hududlarga bag‘ishlangan toponimik tadqiqotlar.

Birinchi yo‘nalish doirasida ma’lum viloyat yoki vodiy toponimlari tadqiqini olish mumkin. Bunda ish juda katta hajmli bo‘lib, mavjud hududdagi barcha toponimlar mukammal o‘rganiladi.

A.Ergashevning “Andijon viloyati etnotoponimlarining areal-onomastik tadqiqi”[1] mavzusidagi tadqiqotida viloyatda mavjud etnotoponimlarning areal xususiyatlari va nomlanishi bilan bog‘liq hodisalar haqida ilmiy qarashlar va nazariy ma’lumotlar keltirilgan Shuningdek, dissertatsiyada davrlashtirish bilan bog‘liq talqinlar mavjud bo‘lib, unga ko‘ra Andijon viloyati etnotoponimlari rivojini olti davrga ajratib o‘rganiladi: 1) Qadimiy davr; 2) Arablar davri; 3) Mo‘g‘ullar davri; 4) Qipchoqlar davri; 5) Sho‘rolar davri; 6) Mustaqillik davri. Ma’lum etnonim olingan va davrlar kesimida solishtirilgan. Tadqiqot natijasida birinchi to‘rt davr etnotoponimlar shakllanishi va rivoji uchun muhim davr sanaladi. Davrlashtirish masalasi barcha toponimlar uchun asosiy masala hisoblanadi.

G.Jo‘raboyeva o‘zining “Farg‘ona vodiysi toponimlarining shakllanish asoslari”[2] nomli ilmiy tadqiqot ishida toponimlarning bir qancha turlarini sanab o‘tadi: xronim, oykonim, urbanonim, oronim, argoonim, nekronim, dromonim, drimonim kabi. Bu o‘rinda dromonim va drimonim kabi atamalar yangidir. Dromonim atamasi har qanday yo‘lga nisbatan, drimonim esa daraxtzor, o‘rmon va bog‘ nomlari ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, o‘zbek toponimikasi tadqiqi o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlanganligi aytib o‘tiladi. Tadqiqotda toponimlar o‘rganilishini davrlashtirish masalasi ham ko‘tarilgan:

1. Qadimgi davr manbalarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasi.
2. XV-XVI asr manbalarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasi.
3. XIX asr 2-yarmi XX asr boshlariga oid manbalarda Farg‘ona vodiysi toponimiyasi.
4. Sho‘rolar davrida Farg‘ona vodiysi toponimiyasi.
5. Mustaqillik davrida Farg‘ona vodiysi toponimiyasi[3].

Shuningdek, Farg‘ona vodiysida mavjud toponimlar eng qadimgi manbalari, sayyohlar va tujjorlarning hujjatlari asosida tadqiq qilingan. Etimologiya masalalariga jiddiy yondashilgan. Ishda Farg‘ona vodiysi toponimlarining antropotsentrik jihatlari ham yoritilgan. Unda toponimlarning yaratilish tamoyillari va unda insonning aralashuvi masalasi o‘rtaga qo‘yilgan.

Toponimlarning yaratilishi, ularning nominativ-motivatsion xususiyatlariga e’tibor qaratilsa, “eng tasodifiy deb qaralgan nom ham ma’lum bir davrlarda ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyat tufayli vujudga kelganini ko‘rish mumkin”[4].

Sh.Bekturdiyev, E.Shodiyevlarning “Sirdaryo toponimlari”[5] deb nomlangan risolasida shu kunga qadar tadqiqqa tortilmagan Sirdaryo viloyati toponimlari yoritilgan. Eng qadimgi Sirdayo toponimlari haqida ma’lumot beruvchi manba yunon yozuvchisi Arrianning “Iskandarning yurishlari” asari ekanligi tilga olinadi. Agarda Iskandar Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishlari haqida gap ketar ekan nafaqat Sirdaryo balki yurtimizdagi ko‘plab toponimlarning etimologiyasi yoki o‘sha davrdagi atalishiga doir ma’lumotlarni ham aynan Arrianning “Iskandarning yurishlari” asaridan izlab ko‘rish foydadan holi bo‘lmaydi. Shuningdek, risola tavsiyaviy harakterda bo‘lib, ko‘cha, mahalla, guzar nomlari o‘z bilarmonlik bilan emas, shu yerda yashovchi aholining xohish-istagi bilan nomlanishi kerakligi aytib o‘tilgan. Bugungi kunda har bir joyga berilayotgan nomlarning tarixiyligi va urug‘lar nomlari hamda kishilarning ismiga berilgan nomlar o‘sha joyga monand qilib

[1] Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 30-45.

[2] Жўрабаева Г. Фарғона водийси топонимларининг шаклланиш асослари. – Тошкент, Академнашр. 2022. – 120 б.

[3] Жўрабаева Г. Фарғона водийси топонимларининг шаклланиш асослари. – Тошкент, Академнашр. 2022. – Б. 17.

[4] Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 76.

[5] Бектурдиев Ш., Шодиев Э. Сирдарё топонимлари. – Гулистон. 2008. – 27 б.

qo‘yilishi kerak. Joy nomlari o‘sha joyda yashaydigan xalqning tarixi va turmush tarziga to‘g‘ri kelsa tez-tez almashtirishga hojat bo‘lmaydi.

K.Hamidovaning “Farg‘ona vodiysi toponimiyasida variantlilik: yuzaga kelish omillari, turlari va funksional xususiyatlari”[1] nomli ilmiy tadqiqot ishida ham Farg‘ona vodiysi toponimlari tadqiqqa tortilgan bo‘lib, u toponimiyadagi variantlilik muammosini ochib berganligi bilan boshqa ishlardan ajralib turadi. Tadqiqot o‘z oldiga: toponimik variantlilik tushunchasiga lingvistik tasnif berish; toponimik variantlilikni yuzaga keltiruvchi omillarni izohlash; toponimik variantlilikning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ochib berish, salbiy jihatlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish kabilarni qo‘yadi. Tadqiqotchi toponimlarda shartli variantlilik, ma’noviy variantlilik, funksional variantlilik hodisalari uchrashini qayd etadi. Xronologik jihatdan tarixiy va zamonaviy variantlilik mavjudligi keltiriladi. Shuningdek, fonetik, morfologik va imloviy variantlilik mavjudligi aytilib, misollar orqali dalillanib ketilgan.

A.Maxmudaliyev, B.To‘ychiboyev, G‘.Yusupovlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Sirdaryo viloyati toponimlari”[2] nomlangan tadqiqot ishi Sirdaryo viloyati toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda toponimika fanining asosiy tarkibiy qismlari bo‘yicha tushunchalar, sohaga oid ilmiy izlanishlar tarixi, toponimikaning o‘ziga xos xususiyatlari va tadqiqot metodlari bayon qilingan. Shu bilan birga unda Sirdaryo viloyati oykonimlari, jumladan gidro, oro, fito, etno, antropooykonimlarga ta’rif berilgan va Sirdaryo viloyatining qisqacha toponimik lug‘ati keltirilgan. “Joy nomlari kishilarning ish faoliyati jarayonida yuzaga keladi, ko‘pincha uning shakli va tovushi o‘zgaradi, o‘z davrini yashab bo‘lgach, halok bo‘ladi. Toponimlar hayotiyligining davomiyligi har xil. Ayrimlarining hayoti bir necha yillar davom etadi. Boshqalarniki esa, ko‘p asrlar davom etadi”[3].

Toponimlarni kichik hududlar doirasida o‘rganish samarador usul hisoblanadi. Bunda mazkur hududdagi toponimlar to‘lig‘icha o‘rganilishi uchun imkoniyat ko‘proq bo‘ladi.

N.G‘aniyevning “Navoiy viloyati Qiziltepa tumani toponimlarining etimologik va kognitiv tadqiqi”[4] nomli tadqiqot ishida mazkur tumanda mavjud barcha toponimlar haqida ma’lumotlar yig‘ilgan. Ularning etimologiyasi batafsil ochib berilgan. Tuman toponimlarining onomastik-etnik, derivatsion-nominatsion va etnologik xususiyatlariga urg‘u berilgan. Qiziltepa tumanidagi joy nomlarining lisoniy tabiatini onomastik-nominatsion sath me’yorlariga xos ravishda tavsiflangan. Tuman toponimlarining etimologik tadqiqi yuzasidan yozilgan faslda arablar davridan to mustaqillik davriga qadar bo‘lgan nomlanishlar lingvistik tadqiqqa tortilgan. Toponimlarning ma’lum tillarga mansub so‘zlardan tashkil topganligi inobatga olinib, o‘z va o‘zlashma qatlamga ajratib tahlil qilish holati mavjud. Qiziltepa tumanida mavjud etnotoponimlar ham tadqiq qilingan bo‘lib, paydo bo‘lishi va qaysi til obyekti nomini anglatishiga ko‘ra: tarkibi urug‘ va qabila nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar; urug‘ yoki qabila tarmog‘i hisoblangan etnotoponimlar; rang-sifat bildiruvchi so‘zlardan yasalgan etnotoponimlar; miqdorni bildiruvchi so‘zlardan yasalgan etnotoponimlar; hajm-o‘lchovni bildiruvchi so‘zlardan yasalgan etnotoponimlar; obyektning o‘rni, yashash manzili va joy nomlari bilan bog‘liq etnotoponimlar; antroponimlarga asoslangan etnotoponimlarga bo‘lib o‘rganilgan.

O.Abbozovning “So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik tadqiqi”[5] mavzusidagi tadqiqotida ham ma’lum chegaralangan hudud tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Ishning asosiy vazifalari sifatida: tuman toponimlarini yig‘ish, tasniflash, ilmiy tahlil qilish va tavsiflash; leksik-semantik o‘ziga xosliklarini aniqlash; toponimlarning xalq tabiati va kognitologiyasiga xos xususiyatlarini yoritib berish; tuman toponimik xaritasini yaratish tanlab olingan va tadqiqot davomida ushbu vazifalar o‘z o‘rnida bajarilgan. Shuningdek, tadqiqotning “So‘x tumani toponimlarining lingvogeografik tavsifi, shakllanishi va takomili” deb nomlangan faslida toponimlarning areal lingvistik jihatlari ochib berilgan.

Toponimika sohasidagi eng yangi tadqiqotlardan biri B.Kilichevning Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik ishidir[6]. Mazkur tadqiqot ishida Buxoro viloyati hududining toponimlari to‘g‘risida juda ko‘plab tahliliy ma’lumotlar keltiriladi. Ayniqsa, hududning tarixiy toponimlari haqida batafsil ma’lumot bergan Abu Bakr Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida keltirilgan toponimlar, ularning bugungi kundagi holati haqida diqqatga sazovor fikr-mulohazalar bayon etilgan. Dissertant toponimlar qadimdan turli fanlar, jumladan tarix, geografiya

[1] Ҳамидова К.М. Фарғона водийси топонимиясида вариантлилик: юзага келиш омиллари, турлари ва функционал хусусиятлари: Фил.фан.бўй.фал.док.диссер.автореф. – Қўқон. 2022. – 56 б.

[2] Maxmudaliyev A., To‘ychiboyev B., Yusupov G‘. Sirdaryo viloyati toponimlari. – Guliston. Ziyo nashr-matbaa, 2024. – 132 b.

[3] Maxmudaliyev A., To‘ychiboyev B., Yusupov G‘. Sirdaryo viloyati toponimlari. – Guliston. Ziyo nashr-matbaa, 2024. – B. 12.

[4] Ғаниев Н.Ў. Навоий вилояти Қизилтепа тумани топонимларининг этимологик ва когнитив тадқиқи: Фил.фан.бўй.фал.док.диссер.автореф. – Жиззах. 2022. – 28 б.

[5] Abbozov O.Q. So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik tadqiqi: Fil.fan.bo‘y.fals.dok.disser.avtoref. – Farg‘ona. 2023. – 52 b.

[6] Kilichev B.E. Buxoro viloyati toponimlarining lisoniy tadqiqi: Fil.fan.dok.(DSc) disser.avtoref. – Buxoro, 2024.

va boshqa soha vakillarini ham qiziqtirib kelganligini turli tarixiy manbalar, A.Beruniy, M.Koshg‘ariy, Z.M. Bobur, Abulg‘ozi Baxodirxon kabi daholarni mazkur masalaga e’tibor qaratganliklari asosida dalillab bergan. Buxoro toponimlarining lug’aviy qatlamlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan. O‘z qatlamga oid toponimlarning lisoniy xususiyatlari haqida fikr yuritilar ekan, Buxoro toponimiyasida bu qatlamning muhim o‘rni borligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu toponimlarda o‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishi tamoyillari, shuningdek, hozirgi taraqqiyot holati aks etganligi ta’kidlanib, ular antroponimlar, joyning relyef xususiyatini ifodalovchi o‘zbekcha so’zlar, gidronimlardan, o‘zbek tiliga xos o‘simlik va daraxt nomlari, kasb-hunar ifodalovchi, rang-tus bildiruvchi so‘zlar, hajm, shakl, o‘lchov masofa, yosh, ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar shuningdek, son, miqdor, urug‘, qabila nomlari va boshqa omillar asosida hosil bo‘lganligi izohlab berilgan. O‘zlashgan qatlamga oid toponimlar sifatida fors-tojik va arab tiliga xos lug‘aviy birliklar asosida shakllangan toponimlar tahlil qilingan.

Ko‘rinib turibdiki, toponimik joy nomlari ming yillar davomida to‘planib kelingan va ularning miqdori juda ko‘pdir. Hozirgacha toponimik nomlar qancha ekanligini hech kim bilmaydi. Bu ishni qilishning imkoniyati ham deyarli yo‘qdir. Chunki shunday nomlar borki, ulardan faqatgina qandaydir qishloqlarda yoki manzilgohlarda yashaydigan, cheklangan miqdordagi kishilargina foydalandilar. Bularga bedapoyalar, yaylovlar, chakalaklar, daryochalar, ko‘lmaklarning nomlari kiradi. Ammo yangi barpo bo‘lgan, yuzaga kelgan qishloq, shaharlar, zavodlar, yoki yirik obyektlar bo‘lsa, ular qisqa vaqt ichida ko‘pchilikka ma’lum bo‘ladi. Tadqiqqa muhtoj toponimik joy nomlarini topish, ularni lingvistik jihatdan o‘rganish, lug‘atlashtirish bugungi tilshunosligimiz va tadqiqotchilarimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Resume. This article provides an overview of toponymic studies conducted in uzbek linguistics. A number of scientists who have contributed to the development of the field of toponymy are analyzed and commented on. The problems of modern toponymy were also touched upon and thoughts were expressed about finding a solution to the problems that had arisen.

Резюме. В данной статье представлен обзор топонимических исследований, проводимых в узбекском языкознании. Анализируются и комментируются ряда ученых, внесших вклад в развитие области топонимии. Также были затронуты проблемы современной топонимики и высказаны мысли о поиске решения возникших проблем.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

STRUCTURAL FEATURES OF POSSESSIVE PRONOUNS IN INDONESIAN LANGUAGE

Sariyeva Zamira,
Termez state university

This article analyses the means of denoting possessiveness and possessive pronouns in Indonesian language. The work includes comparison of different ways of creating possessive form in Indonesian language. The importance of correspondence of lingua-cultural aspects like formal and informal speech will be analysed and compared based on the examples that will be given in the work. Formal and informal ways of denoting possessiveness in Indonesian language differs based on impact of the cultural aspect of the language. The work will use the examples from the popular Indonesian novel: "Laskar pelangi" to describe the difference between "aku", "saya" and "ku", the usage of "kamu", "mu", "anda" and "nya".[1]

There are two main ways of expressing possessiveness in Indonesian language. This work will analyse these means.

One of the ways is to use possessive pronouns:

Saya – my

Anda-your (formal)

Kamu-your (informal)

Dia – his, her, its

Kita – our (inclusively) Kami – our (exclusively)

Mereka – their

Here is the table of forms of possessiveness in Indonesian language

[1] Sariyeva Z. Possessive pronouns in Indonesian language / "Academicia" Vol 10. issue 5. May, 2020.

The form of possessiveness	Example	Translation
Saya	Ini buku saya	This is my book
Anda	Ini buku anda	This is your book (formal)
Kamu	Ini buku kamu	This is your book (informal)
Dia	Ini buku dia	This is his,her book
Kita	Ini buku kita	This is our book
Mereka	Ini buku mereka	This is their book
-ku	Ini bukuku	This is my book
-mu	Ini bukumu	This is your book
-nya	Ini bukunya	This is his,her book

To analyse the structure of possessive pronouns we will use the context.

For example:

PAGI itu, waktu aku masih kecil, aku duduk di bangku panjang di depan sebuah kelas. Sebatang pohon filicium tua yang riang meneduhiku. Ayahku duduk di sampingku, memeluk pundakku dengan kedua lengannya dan tersenyum mengangguk-angguk pada setiap orangtua dan anak-anaknya yang duduk berderet-deret di bangku panjang lain di depan kami. Hari itu adalah hari yang agak penting: hari pertama masuk SD.

That morning, when I was just a boy, I sat on a long bench outside of a school. The branch of an old

filicium tree shaded me. My father sat beside me, hugging my shoulders with both of his arms as he nodded and smiled to each parent and child sitting side by side on the bench in front of us. It was an important day: the first day of elementary school.

Here, from the translation of the first passage is obvious that the writer represent the kid as the phrase (...first day of elementary school) was used. This is the reason why the author used informal form of "I" – "aku" rather than the formal form "saya":

Indonesian *"... waktu aku masih kecil, aku duduk di bangku panjang di depan sebuah kelas...".*

English: *"...when I was just a boy, I sat on a long bench outside of a school..."*. Hence, here the affixation "-ku" is used to represent the meaning "my", as it was mentioned above the possessiveness can be transferred by two means: word form or affixation form.

From above mentioned examples it is possible to conclude that indicating possession pronouns must follow a noun. There is another way of denoting possessive form, by using affixation (-ku, -mu, -nya) after the noun. Here, "-ku" is used for first person singular, "-mu" is used for the second person singular and "-nya" is used for the third person singular. For example:

Seperti ayahku, mereka berdua juga tersenyum.
Like my father, they also were smiling.
"Kasihan ayahku…"[1]
My poor father.

Here affexation "-ku" is the form of "aku". While, "-mu" is form of "kamu". Here are some examples of affixation "-nya":

Apa/siapa namanya?
What's its name?
What are their names?
Maka aku tak sampai hati memandang wajahnya.
I didn't have the heart to look him in the eye.

In the following examples pelayanya "the waiter" and airnya "the water" are possible because waiters are assumed in the context of a restaurants and water is necessary for bathing:

Ia menilai pelayanan di rumah makan cukup baik.
He (she) regards service in the restaurant is very good.

As it was mentioned above indicating possession pronouns must follow a noun. Phrasal forms corresponding to "mine" , "his" , and so on, do not occur. This may require repetition of a noun:

Rumah ini rumah saya.
This house is mine.

To avoid repetition the first occurrence of the noun is usually omitted. Alternatively the possessive pronoun may be attached to a form like "kepunyaan" or "punya"- possession, "milik"- property:[2]

Ini rumah saya.
This is my house.
Rumah ini kepunyaan saya.
Rumah ini milik saya.
Rumah ini milikku. (more informal)
This house is mine (my possession).
Dia memiliki lima tas baru.
She/he has five new bags

This example compares the usage of "punya" which can be considered as informal form of "kepunyaan".[3]

Saya punya mobil.
I have a car.

From the mentioned examples and contexts it is clear the impact of the possessive pronouns on the formal and informal speech. The difference of these two types of possessive form of pronouns influenced by cultural aspect of the language. While choosing which form to use traditional and cultural means of denoting respect and age difference, formal and informal context should be taken into consideration.

The formation of form of possessiveness in Uzbek language differs from the examples that were given above. Compare:

Indonesian language:
Ini buku saya – This is my book
Ini ayahku – This is my father
Uzbek language:
Bu mening kitobim
This is my book

Unlike Indonesian language, where only one form of possessiveness is used, that is only ford form or affixation: Ini buku saya (word form) and Ini bukuku (affixation form). Both of them are not used. In Uzbek language the usage of the both forms of possessiveness is considered correct.

Besides, from the examples that were given above it is obvious that unlike English language structure possessive pronoun + noun, Indonesian language structure noun + possessive. For example:
My father /English language/
Ayah saya
FATHER 1SG .
/My father/
Ayah kamu
FATHER 2 SG .[4]

[1] Andrea Hirata. Laskar Pelangi. Jakarta. 2005.

[2] David Moeljadi. Usage of Indonesian possessive verbal predicates: A statistical analysis based on questionnaire and storytelling surveys APLL-5 conference, May 4-5, 2012.

[3] ????????????

[4] Marit Kana Vamarasi. Grammatical relations in bahasa indonesia. Pacific Linguistics Research School of Pacific and Asian Studies The Australian National University Canberra 2000. Pp. 28-46.

Resume. Possessive form in Indonesian language can be denoted by using possessive pronouns and affixation. This article has described the signs and constructions used to express possession in Indonesian language. The work analysed and compared of formal and informal ways of denoting possessiveness in Indonesian language based on impact of the cultural aspect of the language. The work also used the examples from the popular Indonesian novel: “Laskar pelangi” to describe the difference between “aku”, “saya” and “-ku”, the usage of “kamu”, “-mu”, “anda” and “-nya”. There is the difference of usage forms of possessiveness in Uzbek and Indonesian languages. In Uzbek language where we use both word and affixation form to denote possession: *“Mening kitobim”.* In Indonesian language only one form is used. So, it is correct to say: “Ayah saya” or “Ayahku” both of these sentences are translated into English as *“My father”*, but “Ayahku” is more informal one.

Резюме. Притяжательная форма в индонезийском языке может обозначаться с помощью притяжательных местоимений и аффиксов. В этой статье описаны знаки и конструкции, используемые для выражения притяжательных форм в индонезийском языке. В работе проанализированы и сравнены формальные и неформальные способы обозначения притяжательности в индонезийском языке на основе влияния культурного аспекта языка. В работе также использованы примеры из популярного индонезийского романа: *“Laskar pelangi”*, чтобы описать разницу между “aku”, “saya” и “-ku”, использование “kamu”, “-mu”, “anda” и “-ku”, “-nya”. Существует разница в использовании притяжательных форм в узбекском и индонезийском языках. В узбекском языке, где для обозначения притяжательных форм мы используем как слово, так и аффиксационную форму: “*Мининг китобим*”. В индонезийском языке используется только одна форма. Итак, правильно говорить: “*Ayah saya*” или “*Ayahku*”. Оба этих предложения переводятся как “*Мой отец*”, но “*Ayahku*” является более неформальным.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

СИНТАКСИС ГЕНДЕРНОЙ ЛЕКСИКИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Раджапова Наталья Базаровна,
кафедра русского языкознания
Термезский государственный университет

В настоящее время вопросы гендера и равенства полов становятся все более актуальными и обсуждаемыми в обществе. Одной из сфер, где проявляется гендерное неравенство, является язык. Язык не только отражает социальные отношения и нормы, но и влияет на формирование и поддержание этих отношений. Одним из аспектов гендерного неравенства в языке является гендерная лексика.

Цель данной работы состоит в изучении синтаксических особенностей гендерной лексики в русском языке, а также ее социолингвистического анализа и влияния на современные медиа. Работа также будет посвящена историческому аспекту гендерной лексики в русском языке, рассмотрению перспектив развития этой лексики и ее практическому применению.

Синтаксис гендерной лексики в русском языке является актуальным и важным в свете современных дискуссий о языке и гендере. Русский язык, как и многие другие языки, отражает и поддерживает определенные социальные нормы и стереотипы, включая гендерные. Изучение синтаксических особенностей гендерной лексики позволяет увидеть, каким образом язык формирует и поддерживает определенные представления о мужчинах и женщинах, а также какие возможности и ограничения существуют для выражения гендерной идентичности в русском языке. Это исследование может быть полезным для лингви-

стов, психологов, социологов и других специалистов, интересующихся влиянием языка на формирование гендерных ролей и стереотипов.

Русский язык, как и многие другие языки, имеет свою уникальную историю развития гендерной лексики. Эволюция гендерной лексики в русском языке прошла через множество этапов, отражающих социокультурные изменения и взгляды общества на гендерные роли и стереотипы. Одним из первых этапов развития гендерной лексики в русском языке было формирование грамматического рода. В русском языке существуют три грамматических рода – мужской, женский и средний. Слова, обозначающие мужчин и мужские предметы, относятся к мужскому роду, слова, обозначающие женщин и женские предметы, относятся к женскому роду, а слова, обозначающие неживые предметы, относятся к среднему роду. Этот разделение слов по грамматическому роду отражает бинарное представление о половой идентичности и является основой гендерной лексики в русском языке[1].

Следующим этапом развития гендерной лексики в русском языке было появление гендерных маркеров – слов и выражений, которые указывают на половую принадлежность человека. Например, слова “мужчина” и “женщина” являются гендерными маркерами, так как они указывают на половую принадлежность. Также существуют слова, которые указывают на половую принадлежность животных, например, “кот” и “кошка”. Гендерные маркеры в русском языке также отражают бинарное представление о половой идентичности[2]. Однако со временем в русском языке начали появляться изменения в гендерной лексике, отражающие изменения в социокультурных нормах и взглядах на гендерные роли. Начиная с конца XX века, в русском языке стали появляться новые слова и выражения, которые отражают различные формы гендерной идентичности и выходят за рамки бинарного представления о половой идентичности[3]. Например, в русском языке появились слова и стали использоваться новые формы обращения, такие как “уважаемые”, “дорогие”, “граждане и гражданки”, которые учитывают различные гендерные идентичности и призваны быть более инклюзивными. Кроме того, в русском языке начали появляться новые формы слов, которые нейтрализуют гендерную принадлежность. Например, слово “человек” может использоваться вместо слов “мужчина” или “женщина”, чтобы обратиться к людям независимо от их половой принадлежности. Также стали использоваться формы слов с префиксом “не-“, например, “нематериальный”, “непрофессиональный”, чтобы обозначить нейтральное значение, не связанное с полом. В целом, эволюция гендерной лексики в русском языке отражает изменения в социокультурных нормах и взглядах на гендерные роли. От бинарного представления о половой идентичности мы переходим к более инклюзивному и разнообразному представлению, которое учитывает различные формы гендерной идентичности. Это отражается как в появлении новых слов и выражений, так и в изменении значения уже существующих слов.

В ходе исследования было выявлено, что гендерная лексика в русском языке имеет долгую историю и прошла через множество изменений. Она отражает социокультурные нормы и стереотипы, которые существовали и существуют в обществе. Исторические изменения в гендерной лексике свидетельствуют о постепенном изменении отношения к гендерным ролям и ролевым стереотипам. Синтаксические особенности гендерной лексики в русском языке также были рассмотрены в ходе работы. Было выявлено, что гендерная лексика может влиять на синтаксическую структуру предложений и на выбор лексических единиц. Например, использование определенных слов и выражений может подчеркивать гендерную принадлежность или негативно влиять на восприятие сообщения.

Социолингвистический анализ гендерной лексики в русском языке позволил установить связь между языком и обществом. Было выявлено, что гендерная лексика может отражать и поддерживать существующие социальные неравенства и стереотипы. Однако, она также может служить инструментом для борьбы с дискриминацией и создания более равноправного общества. Связь гендерной лексики с медиа была рассмотрена в работе. Было выявлено, что медиа играют значительную роль в формировании и распространении гендерных стереотипов и представлений. Они могут использовать гендерную лексику для создания определенного образа или воздействия на аудиторию. Однако, медиа также могут быть платформой для изменения существующих стереотипов и расширения гендерных представлений.

[1] Radjapova N., Nazarova M. N. Международный опыт в продвижении гендерного равенства //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 5. – С. 412-419.

[2] Раджапова Н. Б., Жаббарова Н. И. Роль лексических единиц в формировании гендерных стереотипов в медиа // “Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar” onlayn ilmiy jurnali. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – С. 54-58.

[3] Раджапова Н. Б. Гендерная паритетность прав человека в социальной сфере узбекистана //Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования. – 2020. – С. 207-209.

Перспективы развития гендерной лексики в русском языке были также рассмотрены. Было выявлено, что современное общество все больше осознает важность равноправия и борьбы с дискриминацией. Это отражается в изменении отношения к гендерной лексике и появлении новых тенденций. Например, все больше людей становятся осознанными и активно используют гендерно-нейтральные формы и выражения. Практическое применение гендерной лексики в русском языке также было исследовано. Было выявлено, что использование гендерно-нейтральных форм и выражений может способствовать созданию более равноправного общества и устранению дискриминации. Однако, необходимо учитывать контекст и особенности коммуникации, чтобы избежать недоразумений и неправильного восприятия.

В целом, данная работа позволила получить более полное представление о синтаксисе гендерной лексики в русском языке. Исследование показало, что гендерная лексика имеет значительное влияние на языковую структуру и общественное сознание. Понимание этого влияния может помочь в создании более равноправного и инклюзивного общества. Однако, необходимо продолжать исследования в этой области, чтобы более полно понять и осознать гендерные аспекты русского языка и их влияние на общество.

Rezyume. Ushbu maqola rus tilidagi gender leksikasi sintaksisini tadqiq qiladi. Rus tilidagi gender leksikasi – tadqiqotchilar, tilshunoslar va jamoatchilik e’tiborini tortadigan dolzarb va munozarali mavzu. U nafaqat lingvistik xususiyatlarni, balki zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy jihatlarini ham aks ettiradi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslar, tadqiqotchilar va gender hamda til masalalariga qiziqqan har bir kishi uchun foydali bo’lishi mumkin.

Резюме. Данная статья рассматривает синтаксис гендерной лексики в русском языке. Гендерная лексика в русском языке является актуальной и спорной темой, которая привлекает внимание исследователей, лингвистов и общественности. Она отражает не только лингвистические особенности, но и социокультурные аспекты современного общества. Результаты данного исследования могут быть полезными для лингвистов, исследователей и всех, кто интересуется проблемами гендера и языка.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILI TOYLOQ SHEVASINING LEKSIK QATLAMLARI

Jalilova Muxlisa Zafarjon qizi,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Ona tili deganda, adabiy til ko'z oldimizga keladi. Har bir milliy tilning asosini esa, shevalar tashkil qiladi. Qadim xalqimizning turmush sharoiti, o'y-xayollari-yu fikrlarini, orzu maqsadlarini, ularning dunyoqarashini shevalarimizdan ilg'ashimiz mumkin. Uzoq o'tmishni o'zida aks ettiruvchi yodgorlik shevalarimizdir. "O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til vaqt o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir."[1] Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi qipchoq va o'g'uz lahjalarining tadqiq etilishida professorlar: Xudoyberdi Doniyorov va Nazar Rajabovlarning[2] hissalari beqiyos hissa qo'shgan, yuqorida nomi tilgan olingan olimlarning keng plandagi ishlaridan va ular qo'llagan metodlardan ham foydalanildi.

Leksikasi va fonetikasining o'ziga xosligi bilan boshqa shevalardan ajralib turuvchi qarluq lahjasiga mansub Samarqand viloyatining Toyloq tumani shevasi bugungi kungacha to'liq monografik tadqiqot sifatida o'rganilmagan.Toyloq tumani shevasining leksikasining o'ziga xosligi shundaki, adabiy tilning, yondosh tillar va shevalarning ta'siri natijasida grammatik jihatdan ham ancha o'zgarishlarga uchragan.

Bilamizki, o'zbek xalq shevalari lug'ati va uning ko'p tomli yangi variant-larini yaratish muammosi murakkabdir. O'zbek shevalari o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan tubdan farqlanadi. Bu xususiyatlar shevalarni adabiy tildan hamda ularni bir-biridan o'zaro farqlashga yordam beradi. Har bir til, shevada hayotiy zarur tushunchalar so'zlar vositasi bilan ifodalanadi. Tilimiz leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek tili leksikasi ko'hna va boy tarixga ega. U uzoq yillar davomida rivojlanib, takomillashib borgan. Til birligi bo'lmish so'zlarni tushunib, ularning ma'no nozikliklarini ilg'ab, asarlarida mohirona qo'llash shoir-yozuvchilarning so'z boyligini oshirib beruvchi omil hisoblanadi. Buning natijasida shevalardagi ayrim so'zlar jonlanib, adabiy til doirasiga kiradi.

Shevalar odamzot paydo bo'lgandan beri vujudga kelgan bo'lib, qadimiy tarixga egaligi bilan adabiy tildan farqlanib turishini bemalol aytishimiz mumkin. Tilimiz leksik jihatdan ham sintaktik jihatdan qurilishi xilma-xil. Uning so'z boyligini, nafaqat adabiy til misolida balkim, shevalar misolida ham bemalol ko'rishimiz mumkin. Mana shu boylikni biz o'zbek tili Toyloq shevasining leksik qatlamini o'rganish, tahlil qilish orqali ko'rsatishga harakat qildik.

Xalqlar o'rtasidagi o'zaro savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqalar orqali bir millat tili ikkinchi bir millat tiliga o'tish hodisasi yuz beradi. Albatta, bu til leksikasi boyishi uchun tabiiy bir hodisa hisoblanadi. "Tilning lug'at tarkibi etimologik nuqtai nazardan tekshirilganda avvalo tarixiy genetik jihatdan o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar, ya'ni qadimiy turkiy so'zlar belgilab olinadi, so'ngra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar aniqlanadi. Xalq shevalarida mavjud bo'lgan leksik qatlamlar aniqlanayotganda ham shu narsa asosga olinadi. Shevalar leksikasidagi so'zlar tarixiy-etimologik jihatdan quyidagi leksik qatlamlarga ajratiladi:

1. Umumturkiy leksik qatlam.
2. O'zlashtirilgan leksik qatlam."[3]

O'zbek tili Toyloq shevasi tarqalgan hududga areal jihatdan qaraydigan bo'lsak, bu hudud aholisi asosan, o'zbeklar va tojik millatiga mansub aholi bilan birga istiqomat qilishadi. Ayrim oilalarda har ikki tilda bir-xil so'zlashilsa, ayrimlarida esa bir tilning ustunligi yaqqol ko'zga tashlanadi. S.Ashirboyev ham bu xususda: "Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, shevalar lug'at tarkibida forscha-tojikcha so'zlar ko'proq, arabcha so'zlar unga nisbatan kamroq, ruscha-baynalmilal so'zlar juda kam uchraydi, bu esa bunday so'zlarning o'zlashish jarayoni ko'proq

[1] Ernazarov T., Karimjonova V. va boshq. O'zbek dialektologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012. – B. 3.

[2] Дониёров Х.Д. Қипчоқ диалектларининг лексикаси.- Тошкент, Фан, 1979. – 103 б.; Ражабов Н. Ўзбек халқ шеваларида феълнинг морфологик тузилиши. – Тошкент: Фан, – 136 б.

[3] Murodova N. O'zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – B.71.

vaqt talab qilishi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.”[1] Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, qarluq lahjasi Toyloq shevasining o‘zlashgan qatlami tarkibida fors-tojikcha so‘zlarning miqdori salmoqli ekanligini ko‘rdik. Bu ham bevosita ikki xalqning necha zamonlardan buyon yaqin aloqalarining yorqin ifodasidir. Xususan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘sha tilda qanday bo‘lsa shundayligicha, masalan, ***dāmāt (d)-kuyov, libāspöšān– (libos+po‘shtan)*** kabi holatlarda olingan bo‘lsa, aksariyatida fonetik yoki morfologik o‘zgarishga uchragan holda qo‘llanilishini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, ***rőbinān*** - (fors-toj. ro‘y-yuz, bin-ko‘rmoq+on qo‘shimcha) (fonetik o‘zgarish asosida) – yuz ochar marosimiga nisbatan ishlatiladi.

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarni quyidagicha leksik-semantik guruhga bo‘lgan holda o‘rganishimiz mumkin.

Joy nomlari (toponimlar):

Devoliko‘ndalang, Juguton, Bog‘i Baland, Bog‘i shamol, Safedi, Talibarzuyibolo, Andijoni kabi.

To‘y-marosim nomlari (etnografizmlar):

***Kärdä** – adab. sut puli marosimi, **rőbinān –** adab. yuz ochdi marosimi,, **libāspőshān** – adab. kiyim kiygizish marosimi, **halbo** (sochaloq) sochar – adab. yangi tug‘ilgan chaqaloq ustidan shirinlik sochish marosimi;*

Qarindosh-urug‘chilikni ifodalovchi so‘zlar:

***Dāmāt (domad**) – adab. kuyov, **yäŋämüllā –** adab. yanga (akaning yoki ukaning xotini), **äkämüllā –** adab. qayni (kuyovning akasi yoki ukasiga kelin tomonidan qo‘llaniladigan so‘z), **müllä:mäk –** adab. katta amaki (kelin tomonidan kuyovning amakisiga nisbatan ishlatilinadigan atama), **ämäk** – adab. amaki, **pädäröz –** adab. qaynota, **mädäröz** – adab. qaynona, **xāxar** – adab. xolavachcha, **biyi** – adab. ona, **bäčča** – adab. bola;*

Taom hamda oziq-ovqat nomlari:

***ālbāli** – adab. olcha, **zaldārü** – adab. o‘rik, **kišmiš** – adab. uzum (mayda donali uzum), **mäntü** – adab. manti, **sämbösä** – adab. somsa, **äläfibičäk** – adab. ko‘kpichak, **göjä** – adab. oq osh, **türšäkāb** – adab. quruq mevalardan qilingan sharbat, **šäkärāb** – adab. achchiq-chuchuk, salat, chalpak, bichak, konärgä/ ko‘narg‘i / ko‘nalgi (tomizg‘i), **äši ord** – adab. xamir osh, ü**näši** – adab. xamir ingichka qilib kesilib qilingan suyuq osh, **nimxām –** adab. to‘liq pishmagan ovqat;*

Narsa–buyum nomlari:

***äbdästä** – adab. duradgorlar ishlatadigan asbob, **ätäšküräk** – olovni olish uchun ishlatiladigan asbob, **pāčä** – adab. ayollar kiyimi ya’ni lozim, **dästpākün** – adab. tozalovchi material, **dästgir** – adab. issiq narsani ushlash uchun ishlatiladigan mato, **bäräkgiräk** – adab. chuchvarani suzishda ishlatiladigan asbob, **tālär** – adab. ishkom, vayish, **böčkä**, **bālič** – adab. yostiq, **inäk** – adab. sigir, **kälüšpättā** – adab. kovushni yechib qo‘yadigan maxsus joy;*

Kasb nomlarini ifodalovchi so‘zlar:

savdogar, bexalfa, murdosho‘y, go‘rkav, chitfurush, mevafurush, naxo‘tfurush, moshinfurush, asalfurush, yemfurush, salarkafurush;

Kiyim-kechak nomlari:

***Yäktäk** – adab. erkaklar kiyadigan kiyim turi, **källäpösh** – boshga kiyiladigan kiyimbosh yoki do‘ppi, **bālinpöš** – adab. kashta;*

Ichimlik nomlarini bildiruvchi so‘zlar:

***Görāb** – adab. uzum g‘o‘rasidan qilinadigan achchiq, shifobaxsh ichimlik, **türšäkāb** – adab. quritilgan mevalardan qilinadigan shifobaxsh yaxna ichimlik;*

Tojik tilining o‘zbek tiliga ta’siri masalasini nafaqat, leksik qatlamda, balki fonetik, morfologik sathlarda ham bevosita kuzatishimiz mumkin. Masalan, hozirgi zamon fe’lining “yap” affiksi o‘zbek adabiy tiliga asosiy morfologik belgi sifatida qabul qilingan bo‘lib, bu affiks shevamizda “-op” undosh bilan tugagan fe’ldan so‘ng, unli bilan tugagan fe’ldan so‘ng “-yop” shaklida bo‘ladi. Masalan, bārāptü, kelāptü, äytāptü, sőräyāptü kabi. Ü män bilän bārāptü. Agar bu so‘zlarga shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shilganda, fonetik hodisa ro‘y beradi. Ya’ni, boryapman fe’li bārāmmän tarzida ifodalanadi.

-op va -yop affiksi tarkibidagi p tovushi -man shaxs-son affiksidagi m tovushining ta’sirida assimilyatsiyaga uchrab, m bilan talaffuz qilinadi. Bilamizki, o‘tgan zamon fe’lini yasovchi -di affiksi o‘zbek xalq shevalarida di/ti/ kabi fonetik variantlari bor. Samarqand-Buxoro tip shevalarida, xususan mening shevamda -di affiksi l undoshi bilan tugagan fe’l o‘zagiga qo‘shilganda, d tovushi progressiv assimilyatsiyaga uchrab -l bilan talaffuz qilinadi. ld>ll; -di >-li – keldi-kelli, oldi-olli kabi. Inägini bāqqani kelli. O‘tgan zamon fe’li l shaxs ko‘plikda -k affiksi bilan yasalganda, -duk, -tuk tarzida bo‘ladi. Masalan, bārdük, keldük, äyttük. Bizä siläni kőrgani bārdük.

Tojik tilining o‘zbek tiliga ta’siri masalalarini bir qancha olimlar turli talqinda o‘rganganlar. Masalan, prof. A.Berdialiyev, M.Zokirovlar[2] o‘zbek va tojik tillariga xos til kontaktlari tarixi, interferensiya hodisasi hamda ikki tillik masalalariga bag‘ishlangan maxsus asar ham yaratishgan.[3] Bundan tashqari ikki tilning bir-biriga ta’siri masalalarini M.Abdiyev,


[1] Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.79.

[2] Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши: Филол. фан. ном. диссер... автореф. –Тошкент, 2007. – Б. 21.

[3] Бердиалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Тошкент, 2019. – Б.129.

Sh.Jo‘rayevlar[1] kabi samarqandlik olimlar ham o‘z ishlarida alohida o‘rganishgan. Ayniqsa bu boradagi tadqiqotlardan I.Rasulovaning ishlarini alohida ta’kidlash lozim. I.Rasulova “Lingvomadaniy interferensiya hamda uni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari” nomli tadqiqotida tojik va o‘zbek, rus va o‘zbek bilingvizmi sharoitida til o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan interferentiv kamchiliklar, xatoliklarning qiyosiy-tipologik tahlilini Samarqand viloyati materiallari asosida tadqiq etgan. Shuningdek, badiiy asarlar, oziq-ovqat, dori-darmon yo‘riqnomalari ham tadqiqot materiallarini ham tahlil etgan.[2]

Toyloq shevasining leksik qatlamlari haqida gap ketganda, barcha shevalarimizda bo‘lgani kabi biz istiqomat qilayotgan hudud shevasida ham rus tili hamda u orqali Yevropadan kirib kelgan so‘zlar talaygina. Ayrim so‘zlar hatto o‘zlashma ekanligi ham bilinmay qolganligini guvohi bo‘lishimiz ham mumkin. Rus tili orqali o‘zlashgan qatlam so‘zlar asosan, fonetik yoki morfologik, xususan o‘zbek tilining fonetik (talaffuz) qonuniyatlariga bo‘ysungan holda o‘zlashgan yoki bo‘lmasam to‘g‘ridan-to‘g‘ri, hech qanday qonuniyatlarga bo‘ysunmagan holda o‘zlashganligini ko‘rishimiz mumkin. Shularni inobatga olgan holda, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarni:



1. Tovush (talaffuz) qonuniyatlariga asoslangan holda o‘zlashgan so‘zlar;

2. Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) o‘zlashgan so‘zlar.

2 ga bo‘lgan holda o‘rganishni lozim topdik. Birinchi guruh o‘zlashgan so‘zlarda asosan tovush orttirilishi (misol, ***stol – üstäl***), tovush ikkilanishi (***utyuk –üttük***), tovush almashishi (***cho‘tka – šötkä***) kabi hodisalar yuz berishini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, bir so‘z xalq lug‘at tarkibiga kirib keldimi, u xalqning talaffuz me’yorlariga moslashishi yoki xalqaro termin bo‘ladigan bo‘lgan hollarda esa iloji boricha uning muqobili yoki variantdoshini izlab topish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu borada N.Murodovaning bir fikrlari gapimizning isboti bo‘la oladi: “O‘zlashgan so‘zlar o‘sha so‘zni qabul qilgan tilning lisoniy qonun-qoidalariga va ko‘pincha, talaffuz me’yorlariga moslashtirilgan bo‘ladi”[3]. Har qanday tilning leksik qatlami, bu uning tarixining qaydisir qismi mahsuli yoki tarixidan dalolat beruvchi bir mash’aldir. Sababi, tarixiy evrilishga uchrasa yaqqol ko‘zga tashlanadigan qatlam, bu, leksik qatlamdir. Leksik qatlam, xalqning turmushi, tarixi, mentaliteti, orzu-armonlaridan so‘zlovchi tilning bir qismidir. Umuman olganda, globallashuv yoki o‘zaro aloqalarning kuchayishi natijasida kirib kelayotgan ushbu so‘zlar bundan bir necha yillar ilgari rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa hozirgi kunga kelib, internet orqali yoki bo‘lmasa boshqa yo‘llar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib kelmoqda.

O‘zbek tili Toyloq shevasining o‘zlashgan qatlamida fors-tojikcha hamda ruscha baynalminal so‘zlar ko‘pchilikni, rus tili orqali Yevropadan kirib kelgan xalqaro terminlar esa ozchilikni tashkil etaishini kuzatdik. Asosan, o‘zlashma qatlam so‘zlarning qo‘llanilishi kundalik iste’molda bo‘lgan buyum hamda narsalarga, jihozlarga, zamonaviy fan-texnika sohasi rivojlanishi natijasida kirib kelgan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik.

Resume: In this article, the lexical layers of the dialect of Toyloq district of Samarkand region, including the meaning and use of words in the own and assimilated layers, are analyzed.

Резюме: В данной статье анализируются лексические пласты говора Тойлокского района Самаркандской области, включая значение и употребление слов в собственном и ассимилированном слоях.

[1] Жўраев Ш. Билингвизм шароитида тожик ва ўзбек тилларининг лексик сатҳдаги ўзаро алоқалари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – B. 21.

[2] Rasulova I. Lingvomadaniy interferensiya hamda uni bartaraf etish yo‘l-yo‘riqlari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022. – B. 7.

[3] Murodova N. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 85.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ИСКАНДАР ОБРАЗИ ОЛИМ ШАРАФИДДИНОВ ТАЛҚИНИДА

Атаниязова Муборак Абдуллаевна,
Қорақалпоқ давлат университети катта ўқитувчиси

Шарқ хамсачилик анъанасида Искандар Зулқарнайн образи талқини билан боғлиқ мавзу алоҳида ўрин тутади. Шарқ мумтоз адабиётда мавзу ифодасига бағишлаб қатор бадиий асарлар яратилгани сингари адабиётшунослик ҳам бу борада жиддий тадқиқотларни амалга оширганлиги эътиболидир. Ўзбек мумтоз адабиётида ушбу мавзу талқинининг оламшумул ифодаси ҳазрат Алишер Навоий ижоди орқали намоён бўлади. Шу боис мавзу навоийшунослик илмининг доимий эътибор назарида бўлиб келмоқда. Жумладан, янги давр илк навоийшунослик илми намоёндаси Олим Шарафиддинов таъкидлаганидек, Алишер Навоий "Хамса"сига кирган достонларнинг бешинчиси ва энг каттаси "Садди Искандарий"дир. Бу мавзу Шарқ адабиётида ўзига хос ижодий анъана бўлиб, ижодкорлар Искандар Зулқарнайн образи орқали ижтимоий адолат, комил жамият масалаларини ифодалаб берганлар. Гап шундаки, тарихда ҳам, адабиётшуносликда ҳам Искандар Зулқарнайн шахси ва образи ҳақида мунозарали қарашлар ҳукм суриб келади. Шу баҳсли масалалардан бири юнон лашкарбошиси Александр Македонский ва муқаддас китоб Қуръонда[1] зикр этилган Искандар Зулқарнайн сиймосидир. Шарқ адабиётида анъана сифатида тасвир этилган Искандар образи талқини эса, фикримизча, Қуръон зикри билан бошланади. Чунки Шарқ мумтоз адабиётида, хусусан, форсий ва туркий тилларда Искандар Зулқарнайн образи ифода этилган кўплаб тур асарлар силсиласи мавжудки, уларда асосан шу муқаддас манба оятларига ишора сезилади. Шу боисдан ҳам Шарқда анъана бўлиб келган "пайғамбарлар қиссалари"да Искандар қиссасига мурожаат этилади. Бундан ташқари Алишер Навоий талқинда "сад-девор" масаласига эътибор қаратиб, у Қуръонда зикр этилган оятни ёдга келтиради. Чунки Қуръонда Искандар тилга олинганда асосан мана шу "сад-девор" тилга олинади. Алишер Навоий достон номини ҳам бошқалардан фарқли равишда "Садди Искандарий" деб атайди. Шунинг ўзиёқ тўғридан-тўғри муқаддас талқинга ишорадир. Маълумки, Қуръонда қайд этилган йигирма беш нафар пайғамбар сиймо билан Искандар номи ҳам учрайди. Албатта, бу ўринда Искандар пайғамбар сиймо эмас, балки улуғ шоҳ, донишманд ва ҳикмат эгаси сифатида талқин этилади. Алишер Навоий ҳам уни тарихан буюк сиймолар қаторида таърифлайди. Мисол учун мумтоз адабиётнинг йирик вакили ва туркий наср тараққиётига катта ҳисса қўшган Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий ўзининг "Қисаси Рабғузий"[2] асарида Исо пайғамбар қиссаси давомида "Зулқарнайн қиссаси"ни келтиради. Бу қиссада Искандар ҳаётига оид қизиқарли лавҳалар тақдим этилади. Рабғузий фикрича, Искандар Зулқарнайн бутун оламни бошқарган тўртта жаҳонгирдан бири ҳисобланади. Шунингдек, Искандар Зулқарнайн хусусида Ажам-Эрон шоҳлари тарихи битилган асарларда ҳам муфассал фикрлар юритилади. Шунга кўра, Олим Шарафиддинов "Улуғ Фирдавсий ўзининг "Шоҳнома"сида Эроннинг афсонавий қаҳрамонлари қаторида Искандарнинг қилган ишларини тасвирлаганидек, шоир Низомий ҳам унинг ҳақида "Искандарнома" номли тугалланган бадиий асар яратиб, Искандар образини ўзига хос йўсинда талқин қилган, юнон лашкарбошисини кишиларнинг бахт-саодат йўлида қайғурувчи оқил ва доно қаҳрамон сифатида куйлаган эди. Низомийдан кейин Искандар мавзусида яна қатор достонлар яратилди. Улар орасида Хусрав Деҳлавийнинг "Искандарнома"си, шоир Жомийнинг "Хирадномаи Искандарий" номли асарлари адабиёт тарихида алоҳида ўринга эгадирлар"[3], - дейди. Бундан кўринадики, Шарқда Искандар сиймоси бадиий талқини учун икки йўналиш ва анъана, яъни пайғамбарлар қиссалари ва тарихий-бадиий асарлар манба саналади. Бундай шахслар эса тарих ва адабиёт учун камёб ҳисобланади. Шу ўринда айтиш керакки, биринчидан, Олим Шарафиддинов Ис-

[1] Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 672 б.

[2] Рабғузий, Носируддин Бурҳонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 236 б.

[3] Олим Шарафиддинов. Танланган асарлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э.А.Каримов). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 148.

кандар Зулқарнайн образи талқини “Шоҳнома” орқали бадиий адабиётга кириб келганлигига ишора қилмоқда. Қадим юнон воқеликлари асосида битилган “Искандар ҳақида роман” (“Роман об Александре”) асари ҳам мавжуддир. Бу Искандар образи қайси асар ёки қандай талқин билан адабиётда муқим ўрин эгаллагани муаммосини ҳам пайдо қилади. Шу маънода Олим Шарафиддинов қарашлари ҳақиқатга яқиндек кўринади. Иккинчидан, бир мавзуда бўлса-да, асарларнинг номланишидаги ўзига хослик ҳам ижодкорлар бадиий нияти билан боғлиқ равишда асар поэтик оламида бетакрорлик мавжудлигини кўрасатади. Аслида асар таҳлилини композициянинг мана шу компоненти, яъни сарлавҳаларидан бошлаш мақсадга мувофиқ бўлади. Мисол учун бу асарлардаги “нома”, (“Искандарнома”) “хирад” (“Хирадномаи Искандарий”) ва “сад” (“Садди Искандарий”) ушбу асарлар поэтикасини янгича бир тарзда англашни тақозо қилади. Бизнинг фикримизча, асар воқелиги охирларида Искандарнинг онасига “хат-номаси” мавжуд бўлиб, Низомий Ганжавий, Хусрав Деҳлавийлар эътиборини ана шу мотив қизиқтиради. Шунинг учун асар семиотик маркази сифатида “нома” танланади ва сарлавҳага олиб чиқилади. Абдураҳмон Жомий диққатини Искандар “хирад”и (ақл, зеҳн, идрок) тортади. Шу боис асар “Хирадномаи Искандарий” деб номланади. Бу нисбатан Алишер Навоий талқинига яқин бўлиб, унда Искандар Зулқарнайннинг яъжуж, маъжужларга қарши курашдаги ақлий тадбиркорлигига ишора этади. Алишер Навоийда эса юқорида айтиб ўтганимиз каби Қуръони Каримда зикр этилган “сад-девор” асарнинг маъно марказини ташкил қилади. Айнан Қуръон оятларида Искандарнинг қайд этилиши мана шу “сад-девор” зикрида кўринади ва бу ҳодиса бадиий адабиётда хилма-хил талқинларни вужудга келтиради. Шулардан бири унинг эзгулик ва ёвузлик ўртасига қўйилган девор, деб талқин этилишидир. Шу маънода адабиётшунос Олим Шарафиддиновнинг “Садди Искандарий” таҳлилида қиёсий-типологик жиҳатдан “Искандарнома”ларга мурожаат этиш тажрибаси диққатни тортади. Чунки бу ҳолат фақат сарлавҳада эмас, балки бошқа поэтик унсурларда ҳам кузатилади. Хуллас, қадимги Юнон тарихи ва муқаддас тарихларда битилган шахснинг ўзаро фарқли ва умумий жиҳатларини аниқлаш алоҳида масаладир. Биз ушбу мақолада тарихий ва бадиий сиймо муаммосига эътибор қаратдик, холос. Бу ҳақда Олим Шарафиддинов “Шоир бу достонда Искандар (Александр Македонский)нинг турмуши, унинг турли ўлкаларга қилган сафарлари, урушлари ва қаҳрамонона курашларини тасвирлайди... Бу темада Шарқ шоирлари достонларида аслда тарихда бўлган юнон лашкарбошиси Александр образи эмас, балки шу шахс образида шоирлар кўришни истаган жасур, адолатли идеал шоҳ образи гавдалантирилади”[1] – деб ёзади. Демак, Олим Шарафиддинов Александр ва Искандарни бир шахс сифатида тушунади. Бироқ тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин масаласини ажратишда маҳорат кўрсатади. Бундай ҳолат бадиий ижодга хос азалий қонуният эканлигини теран англайди ва англатади.

Адабиётшунос Алишер Навоий “Садди Искандарий” достони ўзбек тилида яратилган шу тип ва мавзудаги биринчи асаргина эмас, балки унда илгари сурилган масалалар, воқеалар ҳамда поэтик жиҳатлардан янги бир асар эканлигини таъкидлайди. Бу, олим фикрича, достоннинг муқаддимасидаги муножот, наът, меърож тасвирларида ҳам кўзга ташланиб туради. Шоирнинг ўзи ҳам “Хамса” достонлари ёзилиши жараёнлари, “Садди Искандарий” мотив ва сюжет-композицион ўзгаришлари, салафлари ҳақида гапиради. Шунингдек, Султон Ҳусайн ва Бадиуззамонга мадҳлар билан биргаликда Эрон шоҳларига бағишланган боб келтирилиб, кейин Искандар саргузаштига ўтилиши бу анъанадаги янгилик ҳисобланади. Бу ҳолатлар Олим Шарафиддиновнинг нафақат Алишер Навоий, балки умуман хамсанавислик поэтикасини чуқур билганлигини тасдиқлашдан ташқари кейинги навоийшунослик учун ижодкор бадиий маҳоратини чуқур англаш йўлида илмий тажриба ва сабоқ ҳам беради. Шуни айтиш керакки, Олим Шарафиддинов илк ўзбек навоийшуносларидан эди. У Алишер Навоий “Садди Искандарий” ва умуман “Хамса” достонларини таҳлил қилганда, давр илм-фани ва таълим-ўқув жараёни талабларидан келиб чиқиб, масалага ёндашади. Чунки таълим-тарбия ва тафаккурда янги босқичга қадам ташлаган авлод учун ниҳоят кенг қамровли хамсачилик ўта мураккаб бир ҳодиса бўлиб кўринади. Шу боис Олим Шарафиддинов достонларни асосий сюжет ва мотивлар оламини оддий тилда изоҳлашга эътибор қаратади. Бу давр нуқтаи назаридан “Хамса” достонларини енгил тушунишга имкон яратади, яратилган ўқув дарслик ва қўлланмаларга амалий ёрдам беради. Хусусан, “Садди Искандарий” таҳлили бўйича ҳам етакчи бир қаҳрамон саргузаштлари осон тушунилади. Унда Рум подшоҳи Файлақус (Александр Македонскийнинг отаси Филипп) овда бир болани топиб олиб, унга Искандар, деб ном қўяди. У илм аҳли қўлида камол топади. Файлақус

[1] Олим Шарафиддинов. Танланган асарлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э.А.Каримов). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 152.

унга тахтни топширади. Искандар одил ва ҳақгўй шахс сифатида танилади. Дастлаб Эрон подшоҳи Дорони ақл билан енгиб, унинг қизи Равшанакка уйланади. Ҳинд, Кашмир, Чиндан ташқари барча подшоҳликлар унинг қўлига ўтади. Хуросонда Ҳирот, Мовароуннаҳрда Самарқандга асос солади. Шундан сўнг қатор саргузаштлар билан Кашмирни эгаллайди, подшоҳ Маллунинг қизи Меҳрнозни хотинликка олади. Кейин Ҳиндистонни фатҳ этади ва Чин ўлкасига қўшин тортади. Ҳоқон тадбирлари билан бу ўлка ҳам забт этилади. Энди юришлар Мағриб томон бўлади. Бу юришлар тасвирида турли саргузаштлар, романтик учрашувлар юз беради. Мағрибни енгиб қайтишида Кирвон мамлакатига дуч келади ва аҳолини яъжуж-маъжужлар офатидан сақлаб қолиш учун Қоф тоғлари орасида “сад-девор”ни қуради. Давомли саргузаштлар билан Искандар ватани Румга қайтади ва оламдан ўтади. Шу тариқа Искандар ўзи қурдирган Искандарияга келтирилиб, васиятига кўра “бир қўлини кафти очиқ ҳолда тобутдан чиқариб” қўйган ҳолда дафн этилади.

Олимнинг бу таърифларидан кўринадики, “Садди Искандарий” асосан бир етакчи қаҳрамон саргузаштига бағишланади. Алишер Навоий бошқа барча ижтимоий-фалсафий, бадиий-эстетик масалаларни ёлғиз образ атрофида айлантиради. Олим фикрича, достон шоҳнома типли асар бўлгани учун унда давр шоҳлари ҳам қайта-қайта тилга олинади. Маълумки, “Хамса” асарининг яратилиши Алишер Навоий ижоди жўшқин паллага кирган бир даврига тўғри келади. Бу кўтаринкилик шоир ижодида ҳам, хамсачиликда ҳам самовий бир юксакликни тақдим этиб беради. Олим эътирофича, Алишер Навоий асар хотимасида ўз ижодий биографияси ҳақида мулоҳаза юритади, “Хамса” ёзиш машаққатини ва унга Жомийнинг берган юксак баҳосини эътироф этади. Шу ўринда достон сўнгида Алишер Навоий бир хаёл эпизодини келтириб ўтадики, бу ҳодиса хамсанависликка ажойиб тароват ва жозиба бағишлайди. Унда Алишер Навоий Шарқ шоирлари билан бир базмда учрашувини қуйидагича тасвирлайди[1].

Яна ики ёндин бу қавм-ўқдурур,
Киши йўққи, бу базм аро йўқдурур.
Кўрушгил бори бирла, ҳурмат била,
Далер ўлмағил сўзда – журъат била.
Қабул айлабон мен, неким айтиб ул,
Ки, қатъ ўлди кўпрак бу мажмаъға йўл.
Доғи юз қарича масофат қолиб,
Ким, ул базм эли қўптилар қўзғолиб.
Манга ўтру келмакка айлаб ситез,
Солиб мен алар сори гомимни тез.
Дебон бир-бир ул хайл отин раҳбарим,
Кўрушмакка доғи бўлиб ёварим.
Чу Саъдию, Фирдавсию, Унсурий,
Саноию, Хоқонию, Анварий...

Хуллас, Олим Шарафиддинов таҳлили билан айтилганда, “...базм тўрида Низомий, ёнида Хусрав Деҳлавий ва Жомий, буларнинг атрофида Саъдий, Фирдавсий, Анварий, Саноий, Ҳоқоний, Унсурийлар ўтирган эди. Навоий шоирлар мажлисига боради, улар ўринларидан туриб, Навоийни қарши олиш учун юрадилар. Хусрав ва Жомий Алишернинг икки қўлтиғига кириб, Низомий томон бошладилар, Низомий Навоий билан меҳрибонларча кўришиб, ўз ёнидан жой берди ва икки йилда гавҳарлар хазинаси бўлган “Хамса”ни ёзиб тугатиши билан табриклади”[2]. Ҳазрат Алишер Навоий таъбири билан айтилганда:

Не менким, бори назм аҳлини пок,
Дуо бирла ҳар субҳ этиб завқнок.
Ниёзинг чу бу нав ўлуб беадад,
Санга биз ҳам айлаб ададсиз мадад.
Йўқ эрса эрур асру савдои хом,
Ики йилда бир “Хамса” қилмоқ тамом.
Қаю “Хамса”, беш гавҳар омуда ганж,
Тасарруф жафосидин осуда ганж...[3]

Олим Шарафиддинов фикрича, “Садди Искандарий” достони нафақат ҳажм жиҳатдан йирик асар, балки таркиб-тузилиш борасида ҳам мураккаб структурага эгадир. У “Достонда воқеани ҳикоялаш сидирға бормайди. Унинг композицион тузилиши жуда мураккаб бўлиб, эпизодлар, бўлимлар орасига сюжетга муносабати бўлмаган, илмий, фалсафий, ахлоқий, сиёсий характердаги муҳокамалар, ҳикоялар, сўроқ ва жавоблар киритилади. Достон бу жиҳатдан қисман “Ҳайратул-аброр”ни эслатади. Навоий Искандар ҳаётидан бирон воқеа ёки эпизодни тасвирламоқчи бўлса, дастлаб шунга мос, унинг моҳияти ва аҳамияти билан боғланган масала қўяди, кейин буни бир ҳикоя билан мустаҳкамлайди. Яна айни масала Искандар томонидан донишмандлар олдига сўроқ равишда қўйилади ва уларнинг жавоби тасвирланади. Бу илмий жавоблар Искандарни амалий иш учун қувватлантиради”[4], - деб ёзади. Бу эътирофлар олим достон поэтикаси масала-

[1] Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Саккизинчи жилд. Садди Искандарий. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – Б. 529.

[2] Олим Шарафиддинов. Танланган асарлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э.А.Каримов). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 153.

[3] Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Саккизинчи жилд. Садди Искандарий. – Тошкент: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – Б. 532.

[4] Олим Шарафиддинов. Танланган асарлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э.А.Каримов). – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 154.

сида холис қарашлар ва талқинларни илгари сурганлигини исботлаш билан бирга бу муносабатларда янги замон навоийшунослиги имкон қадар ҳаққоний позицияда турганлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтилганда, Олим Шарафиддинов “Хамса” достонлари, хусусан, “Садди Искандарий” ҳақида фикр юритганда давр мафкуравий исканжасига қарамасдан, матн мазмуни ва бадиият қонуниятларидан келиб чиқиб фикр юритади. Шу туфайли олимнинг бу хулосалари ҳозирги навоийшунослик ва бадиий-эстетика учун ҳам муайян маъноларда илмий тажриба бўлиб хизмат қилади.

Resume. This article analyzes the views of the literary scholar Olim Sharafiddinov on the last and greatest epic of Alisher Navoi “Khamsa” “Saddi Iskandariy”. It is a comparative study of the scholar’s views on the semantic-genre and artistic features of this great epic of Hamsa. At the same time, the place of Olim Sharafiddinov’s views in modern Navoi studies is assessed.

Резюме. В статье анализируются взгляды литературоведа Олима Шарафиддинова на последний и величайший эпос Алишера Навои “Хамса” “Садди Искандарий”. Это сравнительное исследование взглядов ученых на семантико-жанровые и художественные особенности этого великого эпоса Хамсы. При этом оценивается место взглядов Олима Шарафиддинова в современной навоистике.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ТАРИХГА БИР НАЗАР

Алимов Парда,
Термиз давлат педагогика институти ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, филология фанлари номзоди

Дарҳақиқат, инсоният ўтмиш зарварақлари билан фахрланади. Ана шу фахр, ифтихор, ғурур келажакни янада яхшироқ англаб етишга имконият яратади.

Кўплаб таъкидланганидек, тарихий хотирасиз келажак яратилмайди.

Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Тарихдан маълум: Ватан ва халқ тақдирига нисбатан таҳдидлар кучайган вазиятда айнан миллат фидойилари – уйғоқ қалбли зиёлилар, шоир ва адиблар, санъат намояндалари жасорат билан майдонга чиққанлар. Мамлакатимиз ўз тараққиётининг янги, юксак босқичига кираётган ҳозирги пайтда бизга жадид боболаримиз каби Ғарб илм-фан ютуқлари билан бирга, миллий қадриятлар руҳида тарбия топган етук кадрлар сув билан ҳаводек зарур”[1].

Ҳурматли Юртбошимиз етакчилигида янги Ўзбекистонни қуриш йўлида жадал ишлар олиб борилмоқда. Юртимиз қиёфаси, одамларнинг ҳаётга, жамиятга муносабати жиддий тарзда ўзгариб бормоқда. Жамиятни туб моҳиятини ўзлаштириш одамлар руҳиятига янги фикр ва янги ғояларни сингдириш бугунги даврдаги долзарб муаммолардан биридир.

Янги асрда глобаллашув, ахборот хуружи, турли реакцион оқимларнинг роли кучайиб бормоқда. Соғлом фикрли, етук, комил инсонни тарбиялашда миллий адабий меросни ўрганиш, тарихни жонли тиклаш ва унинг тўғри тафсирини бериш, холисона ўтмишни жонли тарихини яратиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Юртимизда Учинчи Ренессанснинг тамал тоши яратилаётган ҳозирги даврда ёш авлод тарбиясида ва уни комил инсонлар қилиб тарбиялашда адабиётнинг, хусусан, тарихий романларнинг аҳамияти ўзига хосдир. Чунки ёш авлод қанчалик бадиий-тарихий романларни ўқиса, ав-

[1] Мирзиёев Ш.М. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқидан // Hurriyat, 2023. №49. – B. 1.

лодларимизнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, эзгу ниятлари ва хислатлари, ўзига хос мароқли умри, тотувлиги, иноқлиги ва эскирмас анъаналари, оила ва фарзанд тарбияси, оқибат, мурувват, одамийлик ҳақида ноёб ва дурдона фикрларни топиб оладилар.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг қуйидаги фикрлари ижодкорлар, адабиёт аҳли калбини нурга тўлдириб турибди: “Адабиёт халқнинг юраги, элнинг манфаатини кўрсатади. Бугунги мураккаб одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак”.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августда ПҚ-451-сон “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги қарори, 2016 йил 13 майдаги ПФ-4797-сонли “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида”ги, 2017 йил 12 январдаги “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармони ҳам мазкур фаолиятга тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, 2017 йил 17 февралдаги ПҚ-2789-сонли “Фанлар академияси фаолияти, илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сонли “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори юртимизда китобхонга нисбатан совуқ муносабатни йўқ қилди, китобларнинг адади кўпайди, китоб улуғ ва муқаддас манба, авлодларнинг ҳеч нарсага алмаштирилмайдиган, инсон руҳиятини фақат бойитадиган, юксалтирадиган бебаҳо хазина деган тасаввур янада аниқлаштирилди, элимиз китобга қайта бошлади, ижодкорларнинг иззат-ҳурмати оша бошлади.

Китоб ўқиш кундалик эҳтиёж ва зарурият бўлиши керак. X асрнинг атоқли олими андалусиялик Ибн Рушд умри давомида фақат икки кеча китоб ўқимаган: бири уйланган ва иккинчиси отаси вафот этган кечада. Тобеинпардан Урва ибн Зутайр розияллоҳу анҳу ҳаётида бир марта китоб (Қуръон) ўқишни тарк қилган. Оёғи кесилиб, ҳушидан айирилган, оғриқ зўридан.

Ўтмишда ўзбек хонадонларида чироқ ёруғида китобхонлик қилишган. Китоб ўқиган одамнинг мавқеи юқори бўлган. Бир мисолни келтириб ўтишни жоиз деб билдик. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романини чироқ ёғдусида оила аъзолари ўқишган.

Афсус... Илмда юқори чўққиларга эришган китобсевар халқнинг ворислари китоб ўқимай қўйди. Баҳона “Ахборот асри”, “Технология замони”, “Вақтнинг етишмаслиги”. Бундан эса миллатнинг билим савияси, дунёқараши, фикрлаш доираси торайиб бормоқда. Айниқса, ёшларнинг қизиқишлари ва билимлари саёз. Ижтимоий тармоқлардаги фикрни ўлдирадиган шов-шувли гаплар, турли хил бизнесга айланган спорт ва санъат, оммавий маданият.

“Қўл телефон” ишни тез бажаради, лекин фикрлашдан узоқлаштиради, нафсни семиртиради.

Дунёга танилган бой маданий меросимизни, Европани ўқитган, тарбиялаган буюк боболар ҳаётини билиш, янада оммалаштириш, ҳаётий қўлланма даражасига кўтариш, ёшларда ўтмишимизга хос фахр, улуғворликни, кўтаринки руҳни сингдириш барчамизнинг вазифамиздир. Ўзини миллий маданиятини кўтарувчи етакчи омил ўтмишдир. Ҳануз қанча ўқилмаган нодир қўлёзмалар, буюк мутафаккирларнинг ҳали ўрганилмаган ҳаётининг бебаҳо саҳифалари ётибди тадқиқотчисини кутиб. Ҳа, халқимизнинг шонли тарихининг ўқилмаган, ноёб дурлари бор.

Исбот талаб қилмайдиган бир ҳақиқат: инсон бу дунёга фақат мол-дунё топиш, роҳат-фароғатда яшаш учун келмайди. Инсоннинг юксак фазилатлари, фикр ва дунёқарашининг кенглиги, билимдонлиги, ўткир ақл соҳиби бўлиши ҳамма даврлар учун мезон бўлиб келган. Ҳурматли Юртбошимизнинг ташаббуслари билан ўрта мактабни битирган ёшларни олий ўқув юртларига қамраб олиш даражаси ошмоқда, янги олийгоҳлар ташкил этилмоқда.

Аммо бизни китоб мутолаа маданияти қизиқтиради. Юқорида таъкидлаганимиздек, китоб ўқишни, яъни китоб мутолааси юксак маданият, тараққиётнинг бош устуни эканлигини унутмоқдамиз. “Спарк” учун китоб ўқимайлик. Китоб мутолааси ҳар бир хонадоннинг зарурий маънавий юмуши, қалб тўридаги чуқур майли ва истаги бўлиши керак. Гўзал ахлоқ, чиройли турмуш маданияти, етуклик, инсоний фазилатлар, камолот – китобларда яширин.

Улуғ Гётенинг машҳур бир гапи бор: ҳақиқий истеъдод ато қилинган киши буюк ўтмишдошлар билан муомала қилишга ички эҳтиёж сезади ва ушбу эҳтиёж унинг юксак истеъдодидан дарак беради.

Ўзбек тарихий романчилиги ривожида А.Қодирий, М.Т.Ойбек, К.Яшин, Н.Сафаров, М.Исмоилий, Ҳ.Ғулом, П.Қодиров, Х.Тўхтабоев, М.Қориев, Мирмуҳсин, Асад Дилмурод, Муҳаммад Али, Эркин Самарқанд, Саъдулла Сиёев, Омон Мухтор, Й.Шамшаров ва бошқалар адиблар муносиб ҳис-

са қўшдилар. Аслида гап асарларнинг ғоявий-бадиий моҳияти ҳамда китобхон қандай қабул қилиши билан боғлиқ.

Ҳозирда Исажон Султоннинг “Генетика”, “Боқий дарбадар”, “Алишер Навоий” каби романлари ўзбек адабиётида ноанъанавий ва ўзига хос хусусиятга эга бўлган асарлардан ҳисобланади. Лекин бу асарларнинг бадиий қийматини ва уларда юкланган поэтик юкни давр шиддати белгилайди. Китобхон эса бир хил тугайдиган, шаблонга тушиб қолган, мужмал фикрлардан чарчади. А.Мухторни ўзбек романчилигига янги воқелик ва янги услубни олиб кирганини унутиб келмоқдамиз. Ш.Холмирзаевнинг романчиликдаги маҳорати ҳақида “гап” ҳам бўлмайди. Бизнинг фикримизча, ўзбек адабиётида яратилган кўплаб романларга танқидчилик ўз баҳосини бергани йўқ, яъни баҳосини кутмоқда.

Биз асосан тарихий романлар ҳақида мулоҳаза юритишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйганмиз.

Халқ – тарих ижодкори, унинг субъектидир. Тарихсиз юксак келажак йўқлиги аллақачон исботланган. Мудом тарихга қайтамиз, унинг сирли қаъридан сирли жумбоқларга жавоб топамиз. Ўтмишимизни безайдиган улуғ алломалар бизга дастуриламал ва йўлчи юлдуздир. Улар ҳақида асар ёзиш, ўтмишни улуғлаш, айтилмай қолган донолар ҳикматини варақларга тизиш, китобхонга қайтиш ҳозирги авлоднинг ҳаётий бурчидир.

Ўзбек романчилигининг пайдо бўлиши А.Қодирий номи билан боғлиқ.

“Модомики, биз янги даврга оёқ қўйдик, - деб ёзган эди А.Қодирий, - бас, биз ҳар бир йўсинда ҳам шу янги даврнинг янгиликлари кетидан эргашамиз ва шунга ўхшаш достончилик, романчилик ва ҳикоячиликларда ҳам янги асарлар яратишга, халқимизни, шу замоннинг “Тоҳир ва Зуҳра”лари, “Чор дарвиш”лари, “Фарход ва Ширин”ни ва “Баҳром гўр”лари билан таништиришга ўзимизда мажбурият ҳис этамиз.

Ёзмоққа ниятлаганим бу – “Ўткан кунлар” янги замон романчилиги билан танишиш йўлида кичкина бир тажриба, яна тўғриси, бир ҳавасдир. Ҳар бир ишнинг ҳам янги – ибтидоий даврида талай камчиликлари билан майдонга чиқиши, ақлларининг етишмаклари ила аста-секин тузалиб, такомилга юз тутиши, табиий бир ҳолдир. Мана шунинг далдасида ҳавасимда жасорат этдим, ҳаваскорлик орқасида кечадиган қусур ва хатолардан чўчиб ўтирмадим.

Мозийга қараб иш кўриш, жанрлик, дейдилар. Шунга кўра, мавзуни мозийдан, яқин ўтган (замонлардан) кунлардан тарихимизни энг кўп, қора кунлари бўлган кейинги “хон замонлари”дан бошладим”.

Шундан буён бир асрга яқин вақт ўтди. Адабиётда маълум даражада реалистик тўлқин туғилди, тарихий воқеа-ҳодисаларни реалистик, ижтимоий, психологик тасвирлашда тарих муаммосини бадиий ечишда маълум ютуқларга эришилди. Бу машаққатли тадқиқий жараёнда Миён Бузрук, Сотти Ҳусайн, Иззат Султон, Матёқуб Қўшжонов, Озод Шарофиддинов, Лазиз Қаюмов, Умарали Норматов, Ҳомил Ёқубов, Азим Раҳимов, Норбой Худойбердиев, Пирмат Шермуҳаммедов, Ҳотам Умуров, Акрам Каттабеков, Санжар Содиқ, Қозоқбой Йўлдошев, Йўлдош Солижонов, Адҳамбек Алимбеков ўз иқтидори даражасида иштирок этишган.

Танқидчи Адҳамбек Алимбековнинг уқтиришича, кейинги икки ўн йилликда юзга яқин роман яратилди, уларнинг аксар қисми тарихий мавзудадир. Булар Б.Аҳмедовнинг “Амир Темур”, П.Қодировнинг “Она лочин нидоси”, “Шоҳруҳ ва Гавҳаршодбегим”, Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат”, Эркин Самандаровнинг “Султон Жалолиддин”, Саъдулла Сиёевнинг “Яссавийнинг сафари”, Асад Дилмуроднинг “Маҳмуд Таробий”, Х.Бегматовнинг “Машраб”, Омон Мухторнинг “Ишқ аҳли” романлари, тарихий-биографик типдаги асарларида тарихга тўғри ёндашиш, мафкура тизимидан холислик сезилади.

Ҳозирги кунда ҳам тарихий романларнинг ажойиб намунаси, ғоявий-бадиий етуклиги, тасвирнинг пухталиги билан кўз ўнгимизда А.Қодирий, М.Т.Ойбек, О.Ёқубов, П.Қодировнинг ўтган асрда ёзган романлари гавдаланади. Бугунги кунда ҳам қўлма-қўл ўқилаётган, китобхонни ўзида тасвир жилоси билан сеҳрлаб қўяётган романлар борми, деган саволга жавоб беришга бироз шошилмадик. Аслида роман жанрининг бадиий қонуниятлари анча мураккаб. Бу ҳақида назарий қарашларни муаллифлар ўзлари билдиришган.

XIX асрда немис файласуфи роман жанрига қўл тегизди. Рус адабиётшунослиги В.Г.Белинский романни “индивидуал эпоси” деб атаган. Бу жанр айрим шахсларнинг ички дунёсини очишда чегарасиз имкониятга эга жанрдир. Унинг назарий қонуниятлари, жанр сифатида яшаш усули очиб берилмаган. Хусусан, С.Айнийнинг “Қуллар” романида вақтнинг чегараси анча узоқ.

Мавриди келгани учун ҳозирги яратилаётган романларда воқеаларнинг ифода тарзи, сюжет ривожи ва қурилиши ҳақида айрим мулоҳазаларни билдиришни лозим топдик. Адабиётшунос олим Д.Қуроновнинг фикрича, романда дунё ва даврни билиш, ҳикояда эса конкрет ҳаётий воқеа туради. Ф.Достоевский романда полифоник тасвирни бошлаб берди.

О.Ёқубовнинг “Осий дунё”, О.Мухторнинг қатор романлари, Х.Дўстмуҳаммаднинг “Бозор”, Т.Рустамовнинг “Капалаклар ўйини”, А.Нурмуродовнинг “Қон ҳиди”, У.Ҳамдамовнинг “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самардор”, Л.Бўрихоннинг “Шоҳирамадаги одамлар”, И.Шомуродовнинг “Мағлубият” ва “Одамхўр” романлари маълум изланишлар ва экспериментларга бойлиги билан қизиқарлидир.

ХХ асрда бадиий ижодда эсселашиш жараёни бўлди. Бунда кўпроқ воқеаларга маълум қабул қилинган ёндошишлар асосида эмас, муаллифнинг ўз дунёқараши нуқтаи назаридан ёндошилади. Воқеа ва ҳодисаларни муаллиф ўзи кўргандай тасвирлайди.

Гап романнинг узун-қисқалиги ҳақида бормайди. Масала ҳаёт тафсилотининг қанчалик кенг қамровига боғлиқ. Нормурод Норқобиловнинг “Дашти далаларда”, Туроб Мақсуднинг “Илинж”, Зулфия Қуролбой қизининг “Армон асираси” ва “Машаққатлар гирдоби”, Жаббор Ҳалилнинг “Довул” ҳамда “Тақдир бекатлари”, Саломат Вафонинг “Ованинг кўрган-кечирганлари”, Ҳабиб Темировнинг “Қасос ва муҳаббат” романларида мавзулар яхши танланган. Инсон ва табиат, инсон ва жамият, яхшилик ва ёмонлик ҳам, инсоннинг эзгу хислатлари ҳам қаламга олинган. Нормурод Норқобилов ўз асарида инсон ва табиат муносабатини олиб чиқади. Ҳамма биладиган бир хулосага келади. Табиат – инсондан устун. Бу эса асарга қўйиладиган ғояни хиралаштиради. Ш.Бўтаевнинг “Темирйўл” романини ҳеч иккиланмай ишлаб чиқариш асари дейиш мумкин. Иттифоқ даврида бирор бир йирик иншоот қурилса, асар ёзиларди. Ҳолбуки, бу нарса бадиий асарнинг мавзуси эмас, матбуотнинг кундалик хабаридир.

Мустақиллик йилларида Зулфия Қуролбой ўз асарларида инсоннинг оғриқ ҳаётини, дардини, армони, машаққатлар гирдоби тасвирини анча таъсирли тарзда ўзига хос бера олган. Зулфия Қуролбой қизи асарлари дард билан ёзилган, оғриқ билан ўқилади.

Адабиётшунос олим Йўлдош Солижонов “Янги аср насри манзаралари” мақоласида бир нарсани кўп таъкидлаб ўтади. Ёзувчи муаммо қўяди ва ечади. Адабиёт муаммолар ечиш қуроли эмас, балки руҳий эҳтиёждир. Ёзувчи Жаббор Ҳалилов “Довул” ва “Тақдир бекатлари” романларида воқеликнинг қуруқ тасвирини беради.

Ҳозирги А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён”, Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз”, А.Қаҳҳорнинг “Сароб”, М.Т.Ойбекнинг “Қутлуғ қон”, “Навоий”, П.Қодирийнинг “Уч илдиз”, “Қора кўзлар”, “Юлдузли тунлар”, “Авлодлар довони”, Шуҳратнинг “Олтин зангламас”, “Шинелли йиллар”, А.Мухторнинг “Давр менинг тақдиримда”, “Чинор”, О.Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси”, “Қўҳна дунё”, “Диёнат”, С.Аҳмаднинг “Уфқ” трипеяси, Ў.Ҳошимовнинг “Икки эшик ораси”, “Тушда кечган умрлар”, Мурод Муҳаммад Дўстнинг “Лолазор”, Тоғай Муроднинг “Отамдан қолган далалар”, “Бу дунёда яшаб бўлмайди”, Х.Дўстмуҳаммаднинг “Бозор”, Ш.Холмирзаевнинг “Динозавр”, Улуғбек Ҳамдамнинг “Мувозанат” романларида миллат тақдиридаги масалалар ҳаётнинг кенг қамровли тасвири, бадиий қуввати билан ажралиб туради.

Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетрологиясида асарнинг бадиий савиясидан қатъий назар Темурийлар даврининг бадиий тарихи очилган.

Сўнгги йилларда яратилган ўзбек тарихий романлари мавзу доираси анча кенгайди, полифоник оҳанглар ва шаклий изланишлар даврини бошидан кечирмоқда, дейиш мумкин. Фақат жаҳонга чиқадиган ва унинг андозаларига тўғри келадиган романларни қачонгача кутиб яшаймиз? Бунинг учун адибларимиз ўзимиздаги мавжуд тажрибаларни, хусусан, фольклорга хос услубни, халқ достонига хос чиройли ифода йўлини, шунингдек, қардош, шарқ, ғарб, рус ёзувчиларининг ижодий тажрибаларини ўрганишлари керак бўлади.

Шу ўринда филология фанлари номзоди Шоира Дониёрованинг фикрларини эслатиш жоиздир: “Жаҳон насри, жумладан, романчиликнинг асосий адабий-эстетик категорияси тарихийликка асосий эътибор берилмоқда. Бадиий насрда тарихийлик мезони тарихий-роман, тарихий муҳитни кенг тасвирлашдаги асосий омиллардан бирига айланиб бормоқда. Бу жиҳатдан ўзбек миллий романчилигини кузатсак, машҳур тарихий шахслар ҳаёти асосида яратилган асарлар сюжетида ҳам, протипи реал ҳаётда мавжуд бўлмаган тўқима образ ёки воқеалар силсиласида ҳам, қаҳрамонлик нутқида ҳам тарихийлик бош ижодий тамойил сифатида бўй кўрсатганидан воқиф бўламиз”. (“Жаҳон адабиёти” 1/2009, 1-сон, 132-бет).

Ш.Юсупов, А.Расулов, Қ.Йўлдошев, Н.Раҳимжонов, И.Ёқубов ва бошқа олимларнинг тарихий романлар ҳақидаги мақолалари эълон қилинди. Лекин тарихий романлар ўзларининг ғоявий-эстетик, ғоявий баҳосини олгани йўқ.

Исажон Султоннинг “Боқий дарбадар” романи иймонсиз, сабрсиз, қаноатсиз одамларнинг нафс балоси йўлидаги аянчли қисмати берилган. Профессор Қозоқбой Йўлдошев бу асарни одамзодни огоҳлантириш, ёвузлик ва ўз кучига ошиқча баҳо беришдан қайтаришга бўлган бадиий даъват деб атайди. Профессор Д.Қуроновга ва шоир Раҳимжон Раҳмат бу асарга ижодий тажриба сифатида қарашган.

Қозоқбой Йўлдошевнинг яна бир фикрини келтиришни лозим топдик: тарихни тасвирлашда

айрим ёзувчиларимиз (тарихий тасвир) воқелик силсиласини очишдан кўра тарих яратган одам ва руҳий кечинмалари тасвирига кенг ўрин бермоқда. Хусусан, Муҳаммад Али “Улуғ салтанат” тетрологиясининг “Мироншоҳ” асарида якка шахснинг тарих тараққиётига тутган эътиборни қаратди.

Ёзувчи Омон Мухторнинг “Хотин Подшоҳ” романида туркий халқлар ҳаётидаги кескин бурилиш даврида Бухоро салтанатини бошқарган Ойнур тимсоли берилади. Бадиий адабиётда Бухородаги туркийлар билан форслар нозик муносабати ўз ифодасини топган. Бу асар бадиий битикдан кўра маърифий йўналишдаги асарга ўхшайди. Асарда ижодий ихтиро, поэтик топқирлик кўзга ташланмайди.

Хуллас тарихий раманчиликда кўплаб ижодий изланишлар давом этмоқда. Бу қандай самара беришини келажак кўрсатади. Муҳаммад Али, Исожон Султонов шу соҳада ижодий маҳорати билан бошқалардан ажралиб туради. Исожон Султоновнинг Навоий романи воқеликни ифодалаш санъати ҳамда образга ғоявий юк бериш даражаси билан бошқа асарлардан фарқ қилади. Тарих тарихда. Унга ёндошишда холисликни унутмаслик керак. Яратилаётган асарлар тарихий ҳужжат эмас, тарихнинг бадиий талқини эканлигини англаш зарур.

Resume. A truth that does not require proof: a person does not come to this world only to find wealth and live in pleasure. A person’s high qualities, breadth of thought and worldview, knowledge, sharp mind have been the criteria for all times.

In this article, the stages of development of the current Uzbek historical novel and researches are highlighted. the analysis includes a number of novels created in recent years, a number of historical novels are commented on.

Резюме. Истина, не требующая доказательств: человек приходит в этот мир не только для того, чтобы обрести богатство и жить в удовольствиях. Высокие качества человека, широта мысли и мировоззрения, знания, острый ум были критериями во все времена. В данной статье освещены этапы развития и исследования современных узбекских исторических романов. в анализ включен ряд романов, созданных за последние годы, прокомментирован ряд исторических романов.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TANQID VA BADIIY IJOD: ADABIY JARAYONDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR

Bobojanov Alisher,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Yuldoshev Dilmurod,
Qarshi davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Adabiyot olamida tanqidchi va yozuvchining o'zaro munosabatlari doimo murakkab va qiziqarli bo'lib kelgan. Ushbu ikki rolni to'ldiruvchi shaxslar bir-biriga ham raqib, ham hamkor sifatida qaralishi mumkin. Tanqidchilar, adabiy asarlarni baholashda o'zlarining bilim va tajribalaridan foydalanib, yozuvchilarning ijodini yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarishga yordam berishadi. Shu bilan birga, yozuvchilar ham tanqidchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olib, o'z mahoratlarini toblashadi. Biroq, bu ikki tomonlama jarayon har doim ham silliq va ziddiyatsiz kechavermaydi. Ba'zan tanqidchilar bilan yozuvchilar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin, "Ba'zan ayrim yozuvchilar adabiy tanqidchilikka past nazar bilan qarar, tanqidni adabiyotning "dumi" deb atashgacha borib yetar edilar. Hatto "badiiy asar yozish qo'lidan kelmagan odam tanqidchi bo'ladi", degan iboralarni ishlatishar, ba'zan esa yozuvchi do'stlarimiz badiiy asarning o'zida "mening bu asarimni o'qigan hushyor tanqidchi tushunmasligi mumkin" deb o'z asarining mohiyati haqida gapirib ketar, shu yo'l bilan tanqidchi do'stlariga nisbatan ishonchsizligini bildirar edi[1]". Ammo shuni qayd etish kerakki, "…umum ko'lamda, adabiyotning inson oldidagi burchi xususida gap borganda hech bir klassik iste'dodli tanqidchi iste'dodli yozuvchidan pastda ko'rilgan emas.[2]"

Ijodkorlarning tanqidga munosabati turli xil bo'lishi mumkin va bu, asosan, yozuvchining shaxsiy xususiyatlari va ijodiy jarayoniga bog'liq. Ba'zi yozuvchilar tanqidni o'z mahoratlarini oshirish va asarlarini takomillashtirish uchun foydali deb bilishadi. Ular tanqidni ijodiy jarayonning bir qismi sifatida qabul qilishadi va uni o'zlarining yozuvchilik uslubini rivojlantirish uchun ishlatishadi.

Boshqa tomondan, ba'zi yozuvchilar tanqidga sezgir bo'lishlari, uni kamsitish sifatida qabul qilishlari mumkin. Bu holatda, tanqid ularning ijodiy jarayondagi o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun, tanqidchilar o'z fikrlarini bildirishda ehtiyotkor bo'lishlari va yozuvchilarning his-tuyg'ularini hisobga olishlari muhimdir. Tanqid konstruktiv va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, shunda u yozuvchiga o'z ishini yaxshilashda yordam beradi, ularni ruhlantiradi va adabiyotning umumiy sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Yozuvchilar ham tanqidni qabul qilishda ochiq fikrli bo'lishlari va uni o'zlarining ijodiy rivojlanishlariga yordam beradigan vosita sifatida ko'rishlari kerak. Tanqid orqali yozuvchilar o'z asarlarini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqishlari va o'zlarining ijodiy mahoratlarini yanada oshirishlari mumkin. bu esa adabiyotning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tanqidchilik tarixi qadim zamonlardan boshlanib, bugungi kunda ham davom etmoqda. Qadimgi Yunoniston va Rimda ham adabiyotga oid fikrlar almashinuvi keng tarqalgan edi. Masalan, Aristotelning «Poetika» asari adabiy tanqidning dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi. O'rta asrlarda esa, "…adabiy tanqid ko'proq diniy va axloqiy mezonlar asosida amalga oshirilgan. Zamonaviy davrda esa, tanqidchilik ancha murakkab va ko'p qirrali sohaga aylanib, unda turli nazariy yondashuvlar va metodologiyalar paydo bo'ldi.[3]"

Badiiy ijod ham o'zining rivojlanish bosqichlaridan o'tdi va bugungi kunda juda ko'p turli xil janrlar va uslublarni o'z ichiga oladi. Yozuvchilik, shaxsiy tajriba va kuzatishlarni ijodiy ifoda etishning vositasi sifatida, insoniyatning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Yozuvchilar o'z asarlarida jamiyatning turli qatlamlarini, insoniy munosabatlarni va hayotning murakkabliklarini aks ettirish orqali, o'quvchilarni o'ylashga va hissiyotlarni boshdan kechirishga undaydilar.

Tanqidchi va yozuvchining o'zaro munosabatlari, adabiyotning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tanqidchilar yozuvchilarning asarlarini tahlil qilib, ularning ijodiy izlanishlarini baholash orqali ad-

[1] Matyoqub Qo'shjonov. Ijod saboqlari. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1973. – B. 18-19.

[2] Richards, I.A. Principles of Literary Criticism. Routledge, 1924. pp. 15-45.

[3] Leavis, F.R. The Great Tradition. Chatto & Windus, 1948. pp. 78-102.

abiyotning sifatini oshirishga hissa qo‘shadilar. Yozuvchilar esa tanqidchilarning fikrlarini inobatga olib, o‘z uslublarini takomillashtirish va yangi g‘oyalarni yaratish yo‘lida harakat qiladilar. Shunday qilib, tanqidchi va yozuvchi o‘rtasidagi muloqot, adabiyotning doimiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro aloqasi haqida fikr yuritishdan oldin, mavzuga oid asosiy adabiyotlar va ularning mualliflarining qarashlarini chuqur o‘rganish zarur. Bu borada turli davrlar kesimida yozilgan adabiyotshunoslik ilmiga oid asarlarda tanqidchilikning rivojlanish tarixi va uning zamonaviy ko‘rinishlari haqida ko‘plab tahliliy fikrlar mavjud.

Birinchi navbatda, Aristotelning “Poetika” asari e’tiborga molikdir. Ushbu asar, adabiy tanqidning ilk namunalaridan biri sifatida, san’at asarlarini tahlil qilishning ilmiy usullarini taklif etadi. Aristotel she’riyat va dramaturgiyaning tabiati va estetik qadriyatlarini o‘rganib, adabiy asarlarni tahlil qilishda muhim mezonlar joriy etgan.

O‘rta asrlarda esa, adabiy tanqid ko‘proq diniy va axloqiy mezonlar asosida amalga oshirilgan. Masalan, Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” asarida yozuvchilik va uning ijtimoiy ahamiyati haqida qimmatli fikrlar mavjud. Dante, o‘z asarida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib berish orqali, adabiyotning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ta’kidlaydi.

Hozirgi davrda esa, tanqidchilik ancha murakkab va ko‘p qirrali sohaga aylanib, turli nazariy yondashuvlar va metodologiyalar paydo bo‘ldi. Masalan, jahon adabiyotida T.S. Eliotning “Adabiyot va tanqid” asari adabiy tanqidning zamonaviy yondashuvlarini va yozuvchilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Eliot adabiyotning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o‘rni va ta’sirini tahlil qiladi.

Shuningdek, Roland Barthesning “Yozuvchi va o‘quvchi” asari ham diqqatga sazovordir. Barthes yozuvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlari va adabiy asar yaratish jarayonidagi ularning rolini o‘rganadi. U yozuvchining ijodiy erkinligi va tanqidchining asarni tahlil qilishdagi obyektivligi haqida muhim mulohazalarni ilgari suradi.

O‘zbek adabiyotida esa bu masala adabiy mahorat va so‘z san’atiga tahliliy yondashuv negizida muayyan darajada tadqiq qilingan. Jumladan, I.Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, B.Nazarov, B.Akromov, N.Rahimjonov, D.Quronov, I.G‘afurov ilmiy izlanishlari miqyosida umumlashtirish mumkin.

Bu kabi asarlar adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro aloqasini chuqurroq tushunish uchun muhim manbalar hisoblanadi. Ularning tahlili, mavzuni yanada to‘liq va xolis yoritishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslikda yozilgan yangi tadqiqotlar va maqolalar ham mavzuni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro aloqasini chuqurroq tushunish va baholash maqsadida bir qator ilmiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, adabiyotshunoslik sohasida adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro ta’sirini o‘rganish orqali, ularning adabiy jarayondagi rolini aniqroq belgilashdir.

Tadqiqot obyekti turli nazariyalar, jumladan, formalizm, strukturalizm, poststrukturalizm va boshqalar orqali tahlil qilinadi. Ushbu nazariyalar asosida adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro munosabatlari va ularning adabiy jarayondagi o‘rni aniqlanadi.

Badiiy ijod o‘zining noyob ifoda uslubi va ijodiy jarayonlari bilan tanilgan. Ushbu san’atning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Originallik: Badiiy ijodda asl g‘oyalar va yangi perspektivalarni yaratish muhimdir.

2. Ijodiy ifoda: Ijodkorlar o‘z tajriba va kuzatishlarini ijodiy va estetik tarzda ifoda etishlari kerak.

3. Til va stil: Til va stil yozuvchining asarlarida mavzuni qanday ifoda etishini belgilaydi va o‘quvchilarga murojaat qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

4. Mavzu tanlash: Yozuvchilar o‘zlarining asarlarida muhokama qilinadigan mavzularni diqqat bilan tanlashlari kerak.

6. Tadqiqot: Chin ma’noda yaxshi ijodkor bo‘lish ko‘pincha hayot hodisalarini chuqur tadqiq etish va tanlangan mavzuni yaxshi tushunish talab etiladi.

7. Tahrir va qayta ko‘rib chiqish: Ijod jarayoni tahrir va qayta ko‘rib chiqishni ham o‘z ichiga oladi, bu esa asarning sifatini oshirishga yordam beradi.

10. Ijodiy erkinlik: Shoir va yozuvchilar o‘zining ijodiy erkinliklaridan foydalanib, cheklanmagan ifoda uslublarini qo‘llashlari mumkin.

“Ijodkorlik san’ati shaxsiy tajriba va ijodiy ifodaning noyob aralashmasi bo‘lib, har bir yozuvchi o‘zining individual uslubi va yondashuvini rivojlantiradi. Bu tamoyillar, yozuvchilarga o‘zlarining asarlarini yaratishda va o‘quvchilarga ta’sir qilishda yordam beradi.[1]” Badiiy mahorat va ijodiy jarayon har bir yozuvchi uchun noyob va shaxsiy tajriba hisoblanadi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. G‘oya shakllantirish: Ijod jarayoni g‘oyaning paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Bu g‘oya ilhom, kuzatishlar, tajribalar yoki tadqiqotlar natijasida kelib chiqishi mumkin.

2. Reja tuzish: G‘oyani aniqroq shakllantirish uchun yozuvchi reja tuzadi. Bu reja asarning tuzilishi, mavzulari va belgilangan maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

3. Yozish: Reja asosida yozuvchi asosiy matnni yozishga kirishadi. Bu jarayonda yozuvchi o‘z uslubi va yondashuvini qo‘llaydi.

[1] Empson, William. Seven Types of Ambiguity. New Directions, 1930. pp. 58-88.

4. Fikr-mulohaza: Yozuvchi o‘z asarini boshqalarga ko‘rsatib, ularning fikr-mulohazalarini olishi mumkin. Bu jarayon asarning sifatini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida o‘tkazilgan keng ko‘lamli tahlillar, tarixiy va madaniy kontekstda o‘rganish, adabiy asarlar tahlili, tahliliy va tanqidiy yondashuvlar, hamda statistik va kvantitativ tahlil natijalari asosida quyidagi muhim kuzatishlar qilindi:

1. Tanqidchilikning rivojlanish tarixi davomida, uning adabiy jarayondagi roli va ahamiyati o‘zgarib turadi. Qadimgi davrlardan boshlab, tanqidchilik adabiyotning sifatini oshirish va yozuvchilarning mahoratini toblashda muhim rol o‘ynagan. Zamonaviy davrda esa, tanqidchilik yanada murakkablashdi va turli nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Bu esa, tanqidchilikning adabiyotdagi o‘rni va ta’sirini yanada kuchaytiradi.

2. Badiiy ijod insoniy tajriba va kuzatishlarni ijodiy ifoda etishning vositasi sifatida, doimo o‘zgarib turadi. Yozuvchilar o‘z asarlarida jamiyatning turli qatlamlarini, insoniy munosabatlarni va hayotning murakkabliklarini aks ettirish orqali, o‘quvchilarni o‘ylashga va hissiyotlarni boshdan kechirishga undaydilar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijod jarayoni doimo tanqidchilik ta’sirida rivojlanib, yangi uslublar va g‘oyalarni yaratishga intiladi.

3. Adabiy tanqid va badiiy ijod o‘rtasidagi munosabatlar, adabiyotning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tanqidchilar yozuvchilarning asarlarini tahlil qilib, ularning ijodiy izlanishlarini baholash orqali, adabiyotning sifatini oshirishga hissa qo‘shadilar. Yozuvchilar esa, tanqidchilarning fikrlarini inobatga olib, o‘z uslublarini takomillashtirish va yangi g‘oyalarni yaratish yo‘lida harakat qiladilar. Hozirgi davr tanqidchiligi turli uslublar va yondashuvlar bilan boyitilganligini hisobga olsak, bu uning adabiy jarayonga ta’sirini yanada kuchaytiradi, shu bilan birga tanqidchilik adabiyotning sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

4. O‘z navbatida har qanday tadqiqotning o‘z cheklovlari mavjud bo‘lib, ushbu tadqiqot ham bundan mustasno emas. Tadqiqotda foydalanilgan metodologiya va yondashuvlar, mavzuni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun kelajakdagi tadqiqotlarda kengaytirilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar, tanqidchilik va yozuvchilikning adabiyotdagi roli va ahamiyatini yanada aniqroq belgilashga yordam beradi.

5. Shoir va yozuvchilarning ijodiy erkinligi o‘z asarlarida jamiyatning turli qatlamlarini, insoniy munosabatlarni va hayotning murakkabliklarini aks ettirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yozuvchilar tanqidchilarning fikrlarini inobatga olib, o‘z uslublarini takomillashtirish va yangi g‘oyalarni yaratish yo‘lida harakat qiladilar. Bu esa, adabiyotning doimiy rivojlanishini ta’minlaydi.

6. Tadqiqotning kelajakdagi yo‘nalishlari adabiy tanqid va badiiy ijodning adabiyotdagi roli va ahamiyatini yanada aniqroq belgilashga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar, tanqidchilik va yozuvchilikning adabiy jarayondagi ta’sirini yanada chuqurroq tahlil qilish va ularning adabiyotning rivojlanishidagi rolini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

Mavzuning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, adabiy tanqid va badiiy ijod o‘rtasidagi munosabatlar adabiyotning rivojlanishi va ijodiy jarayonning muhim qismidir. Tanqidchilik tarixi va uning zamonaviy uslublari, adabiyotni tahlil qilishda yangi perspektivalarni ochib berdi va yozuvchilarning ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirishga yordam berdi. Shuningdek, bugungi kunda tanqidchilik adabiyotning turli janrlarini va uslublarini, shuningdek, adabiy asarlarning jamiyatdagi roli va ahamiyatini chuqurroq tushunish uchun zarur bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali sohaga aylanib bormoqda. Tanqidchilikning yangi yondashuvlari adabiyotni yanada boyitishda va ijodiy jarayonni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Badiiy mahorat esa har bir ijodkor uchun noyob va shaxsiy tajriba hisoblanadi. Yozuvchilar o‘zlarining asarlarida jamiyatning turli qatlamlarini, insoniy munosabatlarni va hayotning murakkabliklarini aks ettirish orqali, o‘quvchilarni o‘ylashga va hissiyotlarni boshdan kechirishga undaydilar. Natijada, “…adabiy tanqid va badiiy ijod o‘rtasidagi munosabatlar adabiyotning sifatini oshirishda va ijodkorlarning mahoratini toblashda muhim rol o‘ynaydi[1]”. Bu o‘zaro ta’sir, adabiyotning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega va ijodiy jarayonning turli jihatlarini o‘rganishga imkon beradi. Shu bilan birga, zamonaviy tanqidchilikning o‘zgaruvchanligi va yangi uslublari, adabiyotning kelajakdagi rivojlanishiga hissa qo‘shadi va ijodkorlarning mahoratini toblashda davom etadi. Badiiy ijod esa insoniy tajriba va kuzatishlarni ijodiy ifoda etishning vositasi sifatida, doimo o‘zgarib turadi

Adabiy tanqid va badiiy ijodning kelajagi ularning o‘zaro munosabatlari va adabiyotshunoslikdagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy texnologiyalar va media vositalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, quyidagi omillar kelajakda adabiy tanqid va badiiy ijodning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

– Texnologik tendentsiyalar: Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn nashrlar kabi yangi formatlar, yozuvchilik va tanqidchilikning kelajakdagi yo‘nalishlarini belgilaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt va algoritmik tanqid usullari ham badiiy asarlarni tahlil

[1] Eliot, T.S. The Sacred Wood: Essays on Poetry and Criticism. Methuen, 1920. pp. 112-134.

qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

– Globalizatsiya: Dunyo bo‘ylab madaniyatlararo almashinuvlar adabiy tanqid va badiiy ijodning global kontekstda rivojlanishiga yordam beradi. Bu turli madaniyatlar va tajribalarni o‘z ichiga olgan adabiy asarlarning yaratilishiga olib keladi.

– Ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar: Jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar, yozuvchilarning ijodiy mavzulari va tanqidchilarning tahlil metodologiyalariga ta’sir ko‘rsatadi.

– Adabiyotshunoslikdagi yangi nazariyalar:

Zamonaviy adabiyotshunoslikda yangi nazariyalar va yondashuvlar paydo bo‘lishi davom etadi, bu esa tanqid va yozuvchilikning kelajakdagi rivojlanishini shakllantiradi.

– O‘quvchi rolining o‘zgarishi: O‘quvchilarning o‘zgaruvchan talablari va kutishlari, yozuvchilarning ijodiy jarayoniga va tanqidchilarning tahliliga ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, “…adabiy tanqid va badiiy ijodning kelajagi shubhasiz, ijodiy izlanishlar va adabiyotning jamiyatdagi rolini yanada boyitishga qaratilgan bo‘ladi. Ular adabiyotning sifatini oshirishda va ijodkorlarning mahoratini toblashda muhim rol o‘ynaydi[1]” hamda adabiyotning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib qoladi, bu ikki hodisaning adabiy jarayondagi ta’sirini yanada chuqurroq tahlil qilish esa adabiyotning rivojlanishidagi rolini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

Rezyume. Ushbu maqolada adabiy tanqid va badiiy ijodning o‘zaro aloqasi masalalari o‘rganiladi. Tanqidchilikning tarixiy rivojlanishi va ijodkor mahoratining asosiy tamoyillarini tahlil qilgan holda, zamonaviy adabiyotda tanqidchilikning o‘zgaruvchan tabiatini va yozuvchilik jarayoniga ta’siri yoritib beriladi.

Resume. This article examines the relationship between literary criticism and artistic creativity. By examining the historical development of criticism and the fundamental principles of creative craft, the changing nature of criticism in modern literature and its impact on the writing process will be illuminated.

Резюме. В данной статье рассматривается взаимосвязь литературной критики и художественного творчества. Анализируя историческое развитие критики и основные принципы творческого мастерства, будет освещена меняющаяся природа критики в современной литературе и ее влияние на процесс письма.

[1] Gilbert, Sandra M., and Susan Gubar. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. Yale University Press, 1979. pp. 145-170.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ADABIY TA’LIMDA NAZARIY MA’LUMOTLAR – BADIIY MATN MAZMUNINI ANGLASHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

Raxmatullayeva Shaxodat Ziyotovna,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Oromova Nafosat Jo‘rayevna,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Badiiy bilimdonlik asarni teran tushunishga yordam beradi. Nazariy ma’lumotlar, adabiyot nazariyasining ta’limdagi ahamiyati haqida olimlar o‘z munosabatlarni bayon qilishgan. Bu borada professor Q.Yo‘ldoshev “Endilikda adabiyot nazariyasi bo‘yicha beriladigan bilimlar ham o‘quvchilar tafakkurini sinash va uni qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o‘qish va tahlil etishga ko‘mak beradigan ma’lumotlar tarzida qaraladigan bo‘ldi”[1]. To‘g‘ri ta’kidlangani kabi nazariy ma’lumotlardan unumli va o‘rinli foydalanish kerak. Bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. “Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz”.[2] Aslida ona tili ta’limi uchun aytilgan mazkur fikrlar adabiy ta’limda ham o‘quv materiallarini tanlashning mezoni bo‘la oladi.

S.A. Leonovning ta’rifiga ko‘ra: “Talqin – bu ma’noni mustaqil ravishda tushunish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, badiiy asarda mujassamlangan azaliy falsafiy-axloqiy qadriyatlarning bugungi davrdagi ahamiyati, u asosida yaratilgan teatr va kino versiyalarini o‘qish uchun asos bo‘lishi mumkin”[3].

Q.Yo‘ldoshev adabiyotning muloqot-kommunikativ, baholash-aksiologik, tarbiyaviy-axloqiy, zavqlantirish-gedonistik hamda bilish-gnoseolik kabi vazifalarini qayd etadi. Ularni nomlanishiga qarab emas, balki tartiblashtirishning ham ma’no jihatdan ahamiyati va muhimlilik darajasiga urg‘u qaratadi. Olimning fikricha, “Adabiyotning funksiyalarini tayin etish va tasnif qilishda badiiy adabiyotning vazifasiga kirishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha qirralarni hisobga olgan holda ish ko‘rish xolis ilmiy to‘xtamga kelish imkonini beradi. Buning uchun turlicha fikrlarni inkor etish o‘rniga ulardagi yetakchi sog‘lom jihatlarni imkon qadar birlashtirish yo‘lidan borish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilinganda, hodisaning ko‘proq belgilarini hisobga olish imkoni yuzaga keladi”[4]

O‘quvchilar muqaddima o‘rnini aniqlaganlaridan so‘ng, “voqeaning sodir bo‘lish o‘rni, shart-sharoiti bilan tanishtiruvchi qismiga nima deyiladi?” – degan savol o‘rtaga tashlanadi. Ekspozitsiya deyiladi,– degan javob olingach, hikoyadan shu o‘rinlarni aniqlash topshiriladi. O‘quvchilar hikoyadan Olimbek dodxoning sakkiz xotini, ularning hammasi katta xotin – Nodirmohbegim uyida o‘tirgani haqidagi jumlani topadilar. Asarda voqeaning dastlabki sodir bo‘lisj o‘rni Nodirmohbegim uyi ekani ma’lum bo‘ladi. Demak, ekspozisiyada kitobxon asar qahramonlari bilan tanisha va ularning shaxsiga qiziqa boshlaydi. Tugun ham o‘quvchini voqea rivoji tomon yetaklaydi.

Tugun – badiiy asardagi harakatning boshlanishi. Dodxoning darchani zichlab yopib, go‘riston haqidagi qilgan o‘ylari. Hikoyada mana shu o‘rinlardan boshlab, o‘quvchilarga asarning davomiga qiziqish uyg‘otadi. Voealar rivoji shamol bo‘yrani eshikka

[1] Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. – Б. 77.

[2] Ғуломов А.., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи. 1996. – Б. 9.

[3] Леонов С.А. Литература. Интегрированные уроки. 8–9 классы: Пособые для учителя. – М.: Айрис, 2003. – 176 с.

[4] Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 30 б.

kelib urishi bilan boshlanadi. Unsinning go‘ristonda o‘t yoqib, choy qaynatishi, Dodxo maymunining qiz yelkasiga chiqib olishi asarning eng shiddatli nuqtasi, ya’ni kulminatsiyasidir. Qizning qaytib kelishi, Dodxoning narigi uyga o‘tib ketishi, uyga borishi ma’lum bo‘lgani – yechim, Unsinning vafot etishi, Nodirmohbegimning uyni tashlab chiqishi, kunduzi Ganjiravonga jo‘natilgan xizmatkorning yo‘lda uchrashi hikoya xotimasi hisoblanadi. Shu kichik hikoya misolida sujet yo‘nalishining dinamik rivojlanishini kuzatish yo‘li bilan uning kompozitsiyasi o‘rganiladi.

Katta hajmdagi asar kompozitsiyasini o‘rganish uchun misol tariqasida yuqori sinflar uchun mo‘ljallangan 10-sinf adabiyot darsligida berilgan “O‘tkan kunlar” romanini kuzdan kechirish mumkin. Bunda dastlab nazariy ma’lumot berib olinadi, so‘ng o‘quvchilar asardan misol keltirishadi:

1. **Prolog** (gr.pro-old, avval, logos-so‘z) – muqaddima (arab. kirish, debocha, asarning dastlabki tushuntirish, boshlanish qismi ma’nolarini beradi)da yozuvchining niyati va maqsadi yoki tasvirlamoqchi bo‘lgan voqealarining qisqacha, siqiq tarzdagi izhori beriladi. Ba’zida asosiy voqeadan uzoq bo‘lgan, lekin keyinchalik shu voqeani oydinlashtiruvchi biron-bir ko‘rinish tasvirlanishi mumkin. Masalan, “O‘tgan kunlar” romanidagi prolog quyidagichadir:

“Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchiliq, ro‘monchiliq va hikoyachiliqlarda ham yangarishg‘a, xalqimizni shu zamonning “Tohir-Zuhra”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod-Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz. Yozmoqqa niyatlanganim ushbu-“O‘tkan kunlar”, yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi bir havasdir. Ma’lumki har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydonga chiqishi, ahillarning yetishmaklari ila sekin-asta tuzalib, takomilga yuz tutishi tabi’iy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturg‘on qusur va xatolardon cho‘chib turmadim. Moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzu’ni moziydan, yaqin o‘tgan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “Xon zamonlari”dan belgiladim”.

2. Ekspozisiya (lat. Expositio-tushuntirish) – dastlabki holatda asarda yuz beruvchi voqealarning o‘rni, joyi, asar qahramonlarining harakatlariga turtki beruvchi dastlabki voqealar tasvirlanadi. “O‘tgan kunlar” ekspozisiyasiga diqqat qilaylik:

“1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakda shom azoni eshitiladur... Darbozasi sharqi-janubiga qaratib qurilg‘an bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonlik: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek. Saroyning to‘rida boshqalarga qarag‘anda ko‘rkamroq bir hujra, anavi hujralarga kiyiz to‘shalgani holda, bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo‘z ko‘rpalar ko‘ringan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora chiroq sasig‘anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabi’atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda:

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra, bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dur bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek. Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan birovi darboza yonidagi kimdandir so‘radi:

- Otabek shu saroyga tushganmi?

Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomong‘a qarab yurdilar...”

Ko‘rinyaptiki, bu parchada A.Qodiriy voqealar kechadigan vaqtni, joyni, shart-sharoitni, asar qahramonlari Otabek, Yusufbek hoji, Ziyo shohichi, Rahmat, Homid, Hasanali sarguzashtlarining debochasi haqida ilk ma’lumotni beradi. Demak, ekspozisiyada kitobxon asar qahramonlari bilan tanishadi va ularning shaxsiga qiziqa boshlaydi.

3. Tugun – badiiy asardagi harakatning boshlanishi, konfliktning “urug‘i”. U ilk tarzda, “urug‘” shaklida ko‘ringan qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Konfliktning boshlanish jarayonidan xabar beradi. “O‘tgan kunlar”dagi konfliktning “urug‘i” Otabek bilan Homid o‘rtasida sodir bo‘ladi. ular uylanish haqida bahslashadilar. Otabek “Oladurg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiqut-tab’ bo‘lsin,” – desa, Homid “Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni unga keragi yo‘q, xotinlarg‘a “ er” degan ismning o‘zi kifoya...” – deydi. Otabek yakka muhabbatni yoqlasa, Homid ko‘p xotinlikni ma’qullaydi. Mirzakarimboy otlig‘ savdogarning “Shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas” qizi tilga olinganda “Homidning chehrasi buziladi”, toqatsizlanadi. Otabek esa “g‘ayriixtiyoriy bir tebranadi”, chayqaladi.

Otabekning Kumushga ishq qo‘yishi va Homidning ham Kumushdan umidvorligi to‘qnashgan joy – tugunni keltirib chiqaradi. Demak, tugun harakatni aniqlashtiradi, voqeaning asosli va shiddatli rivojlan-

ishiga turtki bo‘ladi, syujetning rivoj yo‘liga, qanday yechilishiga kitobxonni qiziqtiradi.

4. Voqea rivoji. Tugundan boshlab to kulminatsion cho‘qqigacha tasvirini topgan voqealar – voqea rivoji hisoblanadi. Voqea rivojida – obrazlarning o‘zaro munosabatlari (kurashlari, simpatiya va antipatiyalari) keng va batafsil tasvirlanadi, xarakterlarning qirralari baralla ochiladi, asarda aks ettiriluvchi muammo o‘zligini bo‘yi-basti bilan yaqqol ko‘rsatadi.

Masalan, “O‘tgan kunlar” romanida Otabek Kumushga uylanadi. Kumushdan benasib qolgan Homid tuhmat uyushtiradi: uning chaqimchiligi natijasida Otabek va Qutidor qamoqqa olinib, dorga osishga hukm qilinadilar. Gunohsizligi oshkor bo‘lib, dor yonidan qaytadilar. O‘zbek oyim tazyiqi (to‘g‘rirog‘i orzusi) tufayli Otabek Zaynabga uylanadi. Homid Otabek nomidan “taloq xati”ni uyushtiradi. Qutidor kuyovini darbozasi oldida “Uyatsizga manim uyimdan o‘rin yo‘q, uyatsiz bilan so‘zlashishga ham toqatim yo‘q” – deya quvlaydi. Kumush Komilbekka unashtiriladi. Komilbek o‘ldiriladi. Homidning siri fosh bo‘ladi. Otabek u bilan kurashishga bel bog‘laydi.

Yuzaki tarzda bayon etilgan ushbu voqealar – “O‘tgan kunlar” romanining voqea rivoji sanaladi: sof, beg‘ubor muhabbatning og‘riqli, ziddiyatli chigalliklari tobora avjlanib boradi, u rivojlangani, o‘sgani sayin – Otabek va Homid guruhi bilan bog‘liq obrazlar galereyasi olami o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanadi.

5. Kulminatsiya (lat. Culmen- cho‘qqi) – syujet rivojining eng yuqori cho‘qqisi sanaladi. Bu “cho‘qqi”dan turib qarasak, asarda ishtirok etuvchi hamma obrazlarning qismati aniq ko‘rinadi: ular xarakteri to‘la-to‘kis ochiladi.

“O‘tgan kunlar”da Otabek bilan Homidning hayot-mamot kurashining yakuni, ya’ni Kumushni o‘g‘irlashga urinish kechasi Otabek tomonidan avval Mutal polvonni, so‘ng Sodiq tomtesharni, keyin Homid xotinbozni o‘ldirilishi – kulminasiya sanaladi. Ana shu voqeadan so‘ng, voqealar rivojlanishi xotimaga tomon yo‘naladi.

6. Yechimda-asar syujetidagi voqea va qahramonlar taqdiri hal qilinadi. Tugun yechiladi. Kurash xotima topadi. “Oqilona hayot” o‘zining adolatli hukmini chiqaradi. “O‘tgan kunlar”da Homid va uning hamtovoqlarining ayanchli o‘limi, Kumushning vafoti, Otabekning shahid bo‘lishi – yechimga dalolatdir.

7. Epilog (yunoncha. Epi – so‘ng, logos-co‘z) – xotima (ar. Biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugashi, tamom bo‘lishi) syujetning asosiy voqealari tamom bo‘lsa-da, hamon taqdiri aniq bo‘lmagan ba’zi qahramonlarning qismati xotima topadi. “O‘tkan kunlar”dagi xotima shundaydir:

“Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qquz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas’ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu-nishonsiz, o‘luk-tirigi ma’lum emas, deydilar”.

Shu o‘rinda nazariy ma’lumotlar orqali badiiy asar mavmunini tushunish, tushuntirishning quyidagi usullari mavjud (1-jadval):

1-jadval

T/R	Badiiy asar tahlilida adabiy-nazariy tushunchalarga tayanish usullari	Tayanch tushuncha	Natija
1.	Asar tahlilini tugundan boshlash usuli	Tugun haqida ma’lumot berish	O‘quvchi asar voqeasiga qiziqib qoladi
2.	Asar tahlilini kulminatsiyadan boshlash usuli	Kulminatsiya haqida ma’lumot berish	Yechim haqida qiziqa boshlaydi
3.	Asar tahlilini yechimdan boshlash usuli	Yechim haqida ma’lumot berish	Muammo nima bo‘lgani bilan qiziqib, mulohaza qila boshlaydi
4.	Asar tahlilini epigrafdan boshlash usuli	Epigraf haqida ma’lumot berish	Asar mazmuni haqida tasavvur hosil qiladi
5.	Asar tahlilini ekspozisiyadan boshlash usuli	Ekspozitsiya haqida ma’lumot berish	Voqea nima bilan tugashiga qiziqadi, taxminlar qila boshlaydi

1-jadval. **Badiiy asar mavmunini tushunish, tushuntirish usullari**

Adabiyot o‘qitishda matnni tahlil qilishdagi eng murakkab masalalardan biri – badiiy asar tilini o‘rganish masalasidir. Asar bilan tanishuv – ma’lum fikrlarni izchil ifodalab, shu fikrlar sistemasini asar holatiga keltirgan til bilan tanishuv demakdir. Asarni tahlil qilish – uning poetik tilini tahlil qilish demakdir.

Asar tahliliga oid barcha mashg‘ulotlarda shu asar tiliga ham turli yo‘l bilan to‘xtalib boriladi. Qahramonlarni o‘rganishda ham, reja tuzish yoki xarakteristika berishda ham, asar kompozitsiyasini o‘rganish yoki uning mazmuni va maqsadini aniqlashda ham asarning poetik tiliga murojaat qilmay, uni o‘rganmay turib nariga o‘tib bo‘lmaydi. Lekin shunga qaramay, yozuvchining badiiy mayoratini o‘rganish, matn mohiyatini to‘liq tushunish uchun asar tilini o‘rganish yuzasidan alohida darslar o‘tkazish lozim bo‘ladi. Bu maxsus darslardan kuzatiladigan asosiy maqsad – fikrni ifodalashdagi poetik tilning vazifasi va o‘rnini, ahamiyatini, shuningdek, yozuvchining o‘z fikrini ifodalashdagi nutq boyligini ko‘zdan kechirishdir. Asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan mashg‘ulot asar tahlili yuzasidan o‘tkaziladigan bir qancha mashg‘ulot turlariga nisbatan ancha murakkabdir.

Rezyume. Mazkur maqolada badiiy asar ustida ishlash, badiiy asar tahlilida adabiy-nazariy tushunchalarga tayanish usullari, asardagi kalit so‘zlar ustida ishlash usullari ilmiy asoslangan holda tahlil qilingan. Shuningdek, adabiy ta’limda nazariy ma’lumotlar – badiiy matn mazmunini anglashning asosiy vositasi ekanligi tahlilga tortilgan.

Resume. In this article, working on a work of art, methods of relying on literary and theoretical concepts in the analysis of a work of art, methods of working on key words in the work are scientifically based. It is also analyzed that theoretical information is the main means of understanding the content of an artistic text in literary education.

Резюме. В данной статье при работе над художественным произведением научно обоснованы приемы опоры на литературно-теоретические концепции при анализе художественного произведения, приемы работы над ключевыми словами в произведении. Также анализируется, что теоретическая информация является основным средством понимания содержания художественного текста в литературном образовании.

Termiz davlat universitetining 70 yillik yubileyiga



ПРОФЕССОР БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР

Рўзиқул Мустафоқулов,
Термиз давлат университети доценти, филология фанлари номзоди

Илм, фан оламига ўндан зиёд фан докторлари, элликка яқин фан номзодлари, фалсафа докторлари ҳамда беш нафар ёзувчи-шоирлар етказиб берган Сурхондарё вилояти Бойсун туманидаги Мачай қишлоғида филология фанлари доктори, профессор Бекпўлат Умурқулов 1949 йилнинг 25 мартида таваллуд топган.

Бекпўлат Умурқулов ўрта мактабни тугатиб, 1967 йили Низомий номли Тошкент давлат педагогика институтининг 1-курс талабаси бўлди. Уни 1971 йили тугатиб, 1971 йилнинг август ойидан, 1972 йилнинг май ойигача Гагарин (ҳозирги Музработ) туманида “Меҳнат зафари” газетасида катта адабий ходим бўлиб ишлади. 1972 йилнинг май ойидан 1973 йилнинг июнь ойигача ҳарбий хизматда йигитлик бурчини адо этди. 1973-1976 йиллар давомида Гагарин (ҳозирги Музрабод) туманидаги 1-ўрта мактабда она тили ва адабиёти фанидан ўқувчиларга сабоқ берди. 1976 йилдан 1987 йилгача Ўзбекистон фанлар академияси А.С.Пушкин номидаги тил ва адабиёт институтида ишлаган.

Б.Умурқулов 1987 йили М. Т. Ойбек номидаги Термиз давлат педагогика институтининг (ҳозирги Термиз давлат университети) ўзбек тилшунослиги кафедрасида ўқитувчи, 1988 йилдан “Бошланғич таълим, тиллар адабиёти” кафедраси катта ўқитувчиси, педагогика факультети деканининг илмий ишлари бўйича ўринбосари бўлиб фаолият кўрсатди.

Ўзбек тили ҳақидаги, унинг ташкил топиши ва ривожланиш босқичлари тўғрисидаги билимлар, бўлажак олимни йирик тилшунос олимлар В.В.Радлов, С.Е.Малов, А.К.Бороков, А.Н.Кононов, Н.А.Баскаков, А.М.Шчербак В.В.Виноградов, А.И.Ефимов, Г.О.Винокур, В.П.Тригорыев кабилар билан бир қаторда Ғ.Абдураҳмонов, С.Усмонов, У.Турсунов, С.Муталлибов, Э.Фозилов, А.Рустамов, Ш.Шукуров, Б.Ўринбоев сингари ўзбек тилшунослари ижоди қизиқишини янада оширди. Айниқса, тил қонуниятларини, унинг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятларини ўрганиш имкониятлари олимнинг келажаги учун замин бўлиб хизмат қилди. Шахснинг камолоти йўлида адабий муҳит етакчи ўрин эгаллайди.

Бекпўлат Умурқуловнинг устозлари, сафдош дўстлари – Иброҳим Ҳаққулов, Сувон Мелиев, Шомирзо Турдимов, Низомиддин Маҳмудов, Дурдона Ҳудойберганова, Шуҳрат Кўчимов, Маърифат Йўлдошева (Маърифат-манавият), Боқижон Тўхлиев (шарқшунос), Нусратулла Жумаҳўжа, Абди Маматов, Дўстмамат Қулматов, Нурбой Жабборов, Бахтиёр Менглиев, Баҳодир Каримов, Ҳамидулла Дадабоев, Самижон Ашурбоев, Султонмурод Олим, Узоқ Жўрақулов. Вилоятлардан: андижонлик Дилмурод Қуронов, фарғоналик Алижон Мамажонов, қашқадарёлик Дамин Тўраев, Нафас Шодмонов, Бойназар Йўлдошев, Хўжамурод Жабборов, термизлик Бобоназар Муртазоев, Шариф Ёқубов, Шоҳиста Маҳмараимова, самарқандлик Ибодулла Мирзаев, Суюн Каримов, Азамат Пардаев, Азмиддин Носиров, Абдураим Туропов, Муслиҳиддин Муҳиддиновлар муҳитидан

озиқ олиб, улар сафида ижод қилаётган олим Бекпўлат Умурқулов бўлади.

Филология фанлари доктори, профессор, олим Бекпўлат Умурқуловнинг қаламига мансуб айрим илмий-ижодий фаолиятига назар ташлаб ўтамиз. “Ўзбек нутқи маданияти очерклари” (Ҳаммуалифликда.Тошкент, “Фан” 1988) монографияси, “Лектор нутқи ва бадиий тил” (Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 1981), “Сўз танлаш санъати” (Тошкент, “Ўзбекистон нашриёти, 1985) Поэтик нутқ лексикаси (тошкент 1980) китобнинг “Бадиий адабиётда сўз” (Тошкент, “Фан”, 1993), “Бадиий наср жозибаси” Тошкент “Муҳаррир”, (2021, “Савод ўргатиш методикаси” (Душанбе, 1994, ҳаммуаллифликда), “Ўзбек тили” (Термиз, “Жайҳун” 2000), “Ўзбек адабий адабий тили” (Ўқув қўлланма). Тошкент, “Янги аср авлоди” 2001), “Ҳозирги ўзбек адабий тили” (дарслик), Тошкент “Молия”, 2003. “Ҳозирги ўзбек адабий тилидан машқлар тўплами” (лотин тилида дарслик, Термиз, “Жайҳун”, 2007), “Ҳозирги ўзбек адабий тили (Термиз 2009) “Ўзбек тилининг амалий грамматикаси” (Термиз, 2018, ҳаммуаллифликда) каби дарслик ва ўқув қўлланмалар муаллифи. Шунингдек, 250 дан ортиқ илмий, илмий-оммабоп мақолалар муаллифи ҳамдир.

Республикамизда илмий, илмий-педагог кадрлар тайёрлашда ҳам ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиб келмоқда. Жумладан, унинг илмий раҳбарлигида 10 нафар фалсафа докторлари (PhD) тайёрланган.

У 2006 йилдан Antigue world халқаро илмий академиясининг профессори. 2021 йилдан 2024 йилгача Термиз давлат унивурситети қошидаги PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 рақамли илмий Кенгаш раиси сифатида фаолият юритди. 2022 йил профессор илмий унвонига эга бўлган, олим муҳаррирлигида 30 га яқин китоблар нашр этилди. Б.Умурқулов Республикамизда ва хорижий мамлакатларда нашр этиладиган бир қатор журналларнинг таҳрир ҳайъат аъзоси сифатида ҳам фаолият юритиб келмоқда. Жумладан, Самарқанд давлат университетида нашр этиладигн “Фан, таълим ва амалиёти интеграцияси” журналининг таҳрир ҳайъати аъзоси, “Сурхондарё: илм ва тафаккур” журнали илмий котиби, Термиз давлат университетида нашр этиладиган “Филологик тадқиқотлар: тил, адабиёт, таълим” журнали бош муҳаррири ўринбосари. Шунингдек, АҚШнинг Техас штатида нашр этиладиган филология, маданият ва тарих журнали таҳририят кенгаши аъзосидир.

Бекпўлат Умурқуловнинг бадиий матн таҳлилига бағишланган бир катор тадқиқотлари АҚШ, Англия, Малайзия, Ҳиндистон, Туркия, Бирлашган Араб Амирлиги давлатларида нашр этиладиган нуфузли журналларда чоп этилган. Бекпўлат Умурқулов 2023 йил 3-8-январ кунлари Ҳиндистонда ўтказилган “ASIAN socity for academic researching Linguistics English Literature Linguistics” мавзусидаги конференсияда маъруза қилди ҳамда 2023 йилнинг 22-29-апрел кунлари Бирлашган Араб Амирликларининг Дубай шаҳрида ўтказилган халқаро конференцияда ўз маърузаси билан қатнашди. Икки давлатнинг, икки миллатнинг тили ва тилшунослиги бўйича қимматли маълумотлар олиб келиб талабалар ва шогирдлар билан бўлишди.

Бекпўлат домла бундай илмий даражага ва илмий унвонларга осонгина эга бўлган эмас. У илм чорраҳаларидан осонгина ўтиб олгани йўқ. Бу тўсиқларни сабр-бардоши, куч-ғайрати билан, уйқусиз тунларни бедор ўтказиши билан енгиб ўтди ва ўтмоқда.

Устозлар изидан бориб, филология фанини янги қарашлар билан тўлдириб, уни бойитиб, чет эл тилшунослиги билан тенглаштириб, бу фаннинг янги-янги қирраларини очиб бораётган олим Бекпўлат Умурқулов Республикадагина эмас, чет элликларга ҳам танилиб улгурган.

Маълумки, адабий тил ва унинг меъёрлари ва қонуниятлари балоғатга етган, камолотга эришган кишининг шаклланиш жараёнида ўрганиб, ўзлаштириб олинади. Бунда айниқса, оила ва мактаб, олий ўқув юрти, адабий тилни эгаллаган шахслар, олимлар билан яқин алоқада бўлиб туриш ва улар кўмагида турли жанрдаги адабиётларни ўқиш, ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбек адабий тили тарихи фани ўрганиладиган тил ҳодисаларининг турли томонларини қамраб олиши жиҳатидан кўп қирралидир. Бу эса илмий текширишнинг хилма-хил усулларидан (анъанавий, тарихий-қиёсий, тузилмали) фойдаланиш имкониятини беради. Демак, ўзбек адабий тили тарихи ўрганадиган соҳа бевосита ўзбек адабий тилидир. Шунинг учун адабий тил тарихи тараққиётининг маълум даврида тилнинг қандай ҳолатда эканлиги, хусусияти билан бир қаторда, тилда нималар юз бераётганини, қайси соҳалари ўзгарганлигини, қандай янги формалар пайдо бўлганини олим қунт билан ўрганади, мутолаа қилади.

Б. Умурқулов 1983 йилдан филология фанлари доктори Эрнест Бегматов раҳбарлигида “Ҳозирги ўзбек поэзиясининг лексик хусусиятлари” номли номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди. У бу мавзуни ишлаш билан ўзбек тилшунослигининг долзарб, актуал масалаларидан бирини – бадиий асар тилини стили-

стик жиҳатидан ўрганиш масаласини қайта ўртага ташлади. Бадиий асар тилини стилистик режада ўрганиш соҳасида ўзбек тилшунослигида 60-йилларнинг охири, 70-йилларнинг бошида бир қатор ишлар майдонга келганди. Аммо, бу соҳа мукаммал эмас эди.

“Ҳозирги ўзбек поэзиясининг лексик хусусиятлари”[1] мавзусининг долзарблиги шундан иборатки, аввало ўзбек шеъриятининг фаол қўлланадиган кўпгина сўз ва грамматик формалар, асосан, поэтик нутқ учун хос бўлиб, поэтик нутқ лексикани стилистик кесимда ўрганиш қуйидаги хулосалар чиқаришга имкон беради. “Аввало шуни қайд этиш лозимки”, дейди олим, – поэтик нутқ адабий нутқнинг асосий компонентларидан бири, бу нутқ тури образлилиги, эстетик таъсирчанлиги билан алоҳида ажралиб туради. Шеърий нутқ адабий нутқнинг бир компоненти экан, ўз-ўзидан маълумки, унда адабий тил учун унумнормада бўлган лексик воситалар шубҳасиз қўлланилади. Шу билан бир қаторда ишда поэтик нутқнинг ўзига хос специфик хусисиятлари сўзларнинг маълум қатламининг шу нутқ учун табақаланишига ҳам олиб келади” – дея жонли мисоллар орқали асослаб беради.

Айниқса, поэтик нутқнинг хусусиятларидан бири, унинг анъанавийликка асосланишидир. Шу боисдан ҳам поэтик нутқ анъанавий лексик воситаларни – архаик ҳамда анъанавий маъно ифодаловчи сўзларни сақлаб қолувчи нутқ ҳисобланади. Ҳозирги шеъриятда турли услубий мақсадларга кўра фаол қўлланилаётган анъанавий сўзлар поэтик лексиканинг ҳам салмоқли қисмини ташкил қилган. Ушбу монографияда лексик қатлам соф поэтик бўёқдорлиги билан характерланиб, нутқнинг сербўёқлиги, эстетик таъсирчанлигини кучайтурувчи воситалардан бири сифатида хизмат қилиши қайд этилади. “Поэтик нутқнинг муҳим хусусиятларидан бири поэтик фикрни бадиий-поэтик образлар тизими сифатида ифодаланишидир. Шу жиҳатдан поэтик нутқ бадиий нутқнинг бошқа турларидан қисман фарқланади. Поэтик нутқнинг синтактик қурилиши фикрни янада эмоционал, таъсирчан, ифодали ва образли ифодалаш имкониятини яратади”. Яна: “Поэзия тили бадиий адабиётнинг бошқа турлари каби бадиий таъсир кўрсатувчи тил. Бадиий таъсир кўрсатиш қўлами поэтик тил хусусиятлари натижасида янада кучаяди. Дарҳақиқат, *ўт, оташ* каби умумпоэтик метафоралар, *зангори, мовий, зилол* каби умумпоэтик сифатлашлар поэтик нутқнинг муҳим услубий воситаларидан биридир” дея ўз қараш ва фикрларини ўртага ташлайди.

Домланинг фикрича, ҳар қандай поэтик фикр маълум ўлчов асосида баён қилинади. Фикрнинг ифодалилиги қофия, оҳанг, мисраларнинг ўлчовдорликка асосланиши, гап бўлакларининг инверсияси каби ҳолатлар натижасида вужудга келади. Олим фикрларини қоришиқ ҳолда таҳлил орқали баён этади.

Монографияда адабиётшунослар, шоир ва ёзувчилар поэзия тили ҳақида тўхталиб, “...поэзия тили сўз формалари ва сўз вариантлари учун эркин тил. Поэтик тизилманинг бузилмаслиги учун айниқса, ҳижолар талаби билан, поэзия тилида сўзлар кам бўғинли, қисқарган кўринишда фаол қўлланилади” дея ҳукм чиқаради.

Б.Умурқулов нафақат тилшуносликда, балки адбиётшунослик нуқтаи назаридан ҳам поэзия тилини асосли ёритиб беришга эътибор қаратади. “Умуман, ҳозирги ўзбек поэзияси тилида қўлланилиб, стилистик функция бажарувчи анъанавий поэтик сўзлар, поэтик оттенкаси мавжуд бўлган поэтизмлар, барқарор эмоционал-экспрессив оттенкаси мавжуд сўзлар, бир қатор шаклан ихчам, талаффузи қулай жозибадор сўзлар услубий жиҳатдан поэтик нутқ учун табақаланган бўлиб, ҳозирги ўзбек поэзиясида учрайдиган бундай сўзлар ўзбек тилининг поэтик лексикасини ташкил қилган. Поэтик лексика, шеърий текстларда кўчма маъно ҳосил қилувчи сўзларни, образли сўз бирикмаларини, шунингдек, версификацион вариантларни ҳам қамраб олади. Бу воситаларнинг ҳаммаси бир бутун ҳолда поэтик нутқнинг специфик хусусиятларини юзага чиқаришга хизмат қилади»[2], дея поэтик нутқ учун хосланган луғавий воситалар ҳақида муҳим хулосага келади. Лексик воситаларнинг шу нутқ жараёнида бажарадиган вазифасини, уларни нутқнинг ушбу турида фаол қўлланиш сабабларини ўрганиш долзарб масалалардан бири эканлигига батафсил тўхталиб ўтади.

Бадиий адабиёт тилини ўрганиш ва таҳлил қилиш филология илмининг энг муҳим масалаларидан бири бўлганидек, адабий тил тараққиёт йўлларини аниқлаб беришда ҳам чуқур аҳамияга эга.Чунки бадиий адабиёт тили адабий тилнинг асосини ташкил қилувчи умумлингвистик масалалардан бири ҳисобланади.

Ўзбек тилшунослигида бадиий адабиёт тилини кенг ўрганилаётган аспектлардан бири лексик-стилистик аспект бўлиб, бадиий асар тилини бу усулда ўрганиш тилшунослик учун қанчалик аҳамиятли бўлса, адабиётшунослик учун ҳам

[1] Умурқулов Б. “Поэтик нутқ лексикаси” номли монографияси (ЎзССР “фан” нашриёти, Тошкент-1990)

[2] Умурқулов Б. “Поэтик нутқ лексикаси” номли монографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

шунчалик муҳим. Тил воситаси бадиий асарда фикр, тушунча ифодаловчи бирлик сифатида чегараланиб қолмайди, балки бадиий асар асосини ташкил қилувчи образлиликка хизмат қилади. Бадиий асарнинг мазмуни, ғояси ана шу образли тил туфайли вужудга келиши натижасида асарнинг эстетик моҳияти ошади. Шунга кўра, бадиий адабиёт тили образли тил бўлиб, коммуникатив функция бажариш билан бирга, кишига эстетик завқ ҳам бағишлайди. Б.Умурқулов бадиий адабиёт тили адабий тилга бевосита таъсир қилиб, тил маданиятининг ўсишини, ривожланиб боришини таъминлаб туришини исботлаб беради. Шундай экан, бадиий адабиёт тилини ўрганиш ва таҳлил қилиш ўзига хос назарий ва амалий аҳамиятга эга. Б.Умурқулов бадиий адабиёт тилини ўрганишда таниқли олимлар ижодига марожаат қилади ва рус тилшунослигида бадиий адабиёт тилини ўрганишга бағишланган қўплаб йирик ишларга ижодий ёндашади.

Бу соҳадаги йирик тадқиқотлар сифатида академик В.В.Виноградов, профессор А.И.Ефимовнинг бир қатор ишларини кўрсатиш мумкин. Бу ишларда бадиий адабиёт тили, уни ўрганиш ва таҳлил қилишнинг назарий масалалари атрофлича баён қилинганлиги эътироф этилади.[1]

Муаллифнинг фикрига қўшилган ҳолда сўз ва унинг қадр-қиммати, сўзни увол қилмаслик ҳақида икки оғиз фикр билдириб ўтишни маъқул кўрдим.

Айтадиларки, барча нарсанинг аввалида сўз туради. Сўз инсонни тарбиялайди, камолга етказади. Сўз неча минг йилларнинг ибратли воқеаларини, сабоқларини, фойдали жиҳатларини авлодларга етказади. Хусусан, бадиий адабиёт шаклидаги сўз оламшумул ишларни қилишга қурблидир. У хоҳ ёзма адабиёт бўлсин, хоҳ оғзаки ижодиёт шаклида бўлсин, неча-неча авлод вакилларини тарбиялайди, ҳам жисмонан, ҳам руҳан қувватли қилади. Шу жиҳатдан олиб қарайдиган бўлсак, олимнинг сўз ҳақидаги ҳайратомуз даражада улкан ишларни амалга оширганига иқрор бўламиз.

Тадқиқотчининг илм йўли чорраҳасидаги яна бир асарига назар ташлаймиз: “**Бадиий адабиётда сўз”**[2] асарида шундай фикрлар келтирилади: “Ўзбек тилшунослигининг долзарб мавзуларидан бири адабиётнинг тили, ўзига хос хусусиятларининг ёритилишига алоҳида эътибор қаратади бадиий адабиёт тили бугунги куннинг долзарб мавзуларидан бири, унга бўлган қизиқиш кенгайиб боришига қарамай, олим намуна қилиб кўрсатгунигача бўлган вақтда ҳеч бир тадқиқот иши майдонга келгани йўқ эди. Шу боис ҳам ўзбек тилшунослигида *бадиий адабиёт* тили тушунчаси кенг қамровли, тўла ифодасини топган эмас”. Бекпўлат Умурқуловнинг китобида эса бадиий адабиёт тилининг ҳар бир меъёри ўз ифодаси нуқтаи назаридан батафсил таҳлилга эга.

Бекпўлат Умурқуловнинг қаламига мансуб дарслик, қўлланма ва методик асарларидан, икки юзга яқин мақолаларидан ўқувчилар янги бир фикр янги далил ва асосларни илғаб олишади.

Бу фикрни қўллаб-қувватлаган ҳолда ТерДУ Бошланғич таълим кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори Феруза Хайитова шундай маълумот беради. “Мен устозимизнинг қаламига мансуб она тили ва адабиётга тааллуқли дарслик, қўлланма ва абутуриентларга ёрдам китоблари билан таниш бўлганман. Университетда бевосита домланинг қизиқарли мунозарали-маърузаларидан мактаб ўқувчилик даврларидан бевосита баҳраманд бўлганман. Ҳақиқаттан ҳам *ирода*, *эътиқод* деган тушунчага кундалик ҳаётимиз жараёнида деярли ҳар куни дуч келамиз. Аммо уларнинг ҳақиқий соҳиблари кимлар, деган саволга бир оз ўйланиб, мулоҳаза юритиб жавоб берамиз. Негаки, ушбу кишилар ҳаёт ва меҳнат фаолияти жараёнида барча қийинчилик, синовларни метиндек иродаси ҳамда мустаҳкам эътиқоди билан енгиб ўтишлари зарур бўлади. Ўз навбатида бундай кишилар жамият ривожида ҳам фаол қатнашиб, ўзларининг тўғри сўзлилиги, қатъиятлилиги, ҳар бир юмушни виждонан, масъулият билан бажаришлари туфайли обрў-эътибор қозонадилар.

Илм йўлида ҳормай-толмай, қизғин меҳнат қилаётган устоз Бекпўлат Умурқулов домланинг ижодий палласида биз билан бир сафда хизмат қилаётгани ҳақида бораётганда эса, ҳеч иккиланмай, у кишини ирода ва эътиқодга суянган олим, устозлик оламида яшаган инсон дея оламиз.

Бекпўлат Умурқулов 6 нафар фарзанд ва кўплаб шогирдларни жамият хизмати, эл-юрт кори учун тарбиялаб бераётган фидоий инсондир. Бу борада у кишига ота-онасининг ўгитлари, ҳаётий тажриба ва ниҳоят Оллоҳ томонидан ато этилган ақл-идрок қўл келди, десак адашмаймиз. Инчунун, биз буни домла билан бўлган узоқ суҳбатлар, ота-онасини яқиндан билган кишилар билан сўзлашув жараёнида ҳам кузатганмиз”.[3]

Бекпўлат Умурқуловнинг нуфузли олимлар билан баҳслари поэтика ҳақидаги фикрлари бадиий адабиёт тилининг кенг кўламдаги тадқиқот объекти эканлигини кенг қамровли далиллар асосида

[1] Умурқулов Б. “Поэтик нутқ лексикаси” номли монографияси. – Тошкент: Фан, 1990.

[2] Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 27.

[3] 2022 йил 15 августдаги суҳбатдан.

исботлаб беради.

Олим ўз фикрлари ва дунёқарашини бошқа академик ва олимлар фикр-мулоҳазалари билан таққослаб, танланган мавзуни ёритишга ҳаракат қилади. Масалан, “Академик В.В.Виноградов бадиий адабиёт тилини филология фанининг бир-бири билан фарқли равишда тилшунослик ва адабиётшунослик аспектида ўрганилиши лозим бўлган объект деб ҳисобласа, П.Григорьев бадиий адабиёт тили лингвопоэтик тадқиқотлар учун асосий объект бўлганидек, лингвистик поэтика учун ҳам объект бўлиб қолишини такидлайди”[1].

Бадиий адабиёт тили лексикасини услубий нуқтаи назардан ўрганишда муаллиф қуйидагиларга эътибор беришни лозим топади: “Бадиий адабиёт тили лексик жиҳатдан қамровдор бўлиб, бу кенг қамровлик бадиий нутқнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади. Бадиий адабиёт тили нуқтнинг барча шаклларини адабий тил билан боғлаб турувчи тилнинг алоҳида кўриниши бўлганлиги учун унда барча нутқ услубига хос воситалардан фойдаланилади. Бадиий адабиёт ҳаётни бадиий акс эттириш формаси. Унда кишилар, характер, маълум давр ва муайян ҳаётий воқеалар тасвирланади. Бу ҳол бадиий адабиёт тилида турли луғавий қатламларга оид сўзлар – умумистеъмол сўзлари, эскирган сўзлар, касб-ҳунарга оид сўзлар ва диалектизмларнинг кенг миқёсда қўлланишига олиб келади. Бадиий адабиёт тили кенг функцияли тил. Шунингдек, бадиий нутқ ёзма нутқ турлари орасида лексик-грамматик воситалари, нутқ қурилиши жиҳатидан ажралиб турувчи нутқдир. Бадиий нутқнинг бу алоҳидалиги лексик жиҳатдан, унинг таянч сўзлари бадиий китобий сўзлар бадиий адабиёт тили жараёнида турли услубий имкониятларни”[2] вужудга келтирувчи манба эканлиги билан характерланади, дея ҳукм чиқаради.

“Дарҳақиқат, бадиий адабиёт тилини ўрганиш ва таҳлил қилиш, долзарб муамоллардан бири, зеро, бадиий адабиёт тили адабий тил тараққиёти йўлларини аниқлаб беришда ҳам чуқур аҳамиятга эга. Чунки бадиий адабиёт тили адабий тилни ривожлантирувчи манбалардан бири бўлганидек, адабий нормани шакллантириб борувчи адабий тил учун янги норматив воситаларни тавсия этувчи тилдир. Шу нуқтаи назардан қараганда, бадиий адабиёт тилини ўрганиш умумлингвистик масалалардан бири ҳисобланади”, деб хулосалайди.

Бадиий асарни таҳлил ва талқин қилиш учун юқорида таъкидлаганимиздек, домлада илм қувати, илм салоҳияти илмнинг моҳиятини, мазмунини англаш салоҳияти бор. Тўғри, кўплаб олимлар Ҳамид Олимжон шеъриятининг таҳлил ва талқинига қўл урган, Б.Умрқулов эса шеъриятдаги жозибадор узукка кўз қўйгандек, қофия санъатини синчковлик билан таҳлил қилган. Ҳамид Олимжон достонларидаги эҳтиросли қофиялар таҳлили билан таҳлилчининг эҳтиросли қўшилиб, чатишиб кетганини англаймиз.

Ўзбек адабиётининг улкан сиймоларидан бири сифатида ижоди тадқиқотчилар томонидан кенг кўламда ўрганилаётган ижодкорлардан бири Ҳамид Олимжондир. Зеро, шоир шеърияти чуқур мазмунга, гўзал ифодаларга бойлиги билан бир қаторда, шеърий санъатлар қўлланишининг мукаммаллиги билан ҳам ажралиб туради. Ана шундай санъатлардан бири – шеърият учун муҳим ҳисобланган қофия санъатидир.

Қисқа ва сермазмун ижодининг самараси сифатида халқимиз учун катта мерос қолдирган ижодкор Ҳамид Олимжон достонлари материаллари асосида тайёрланган “**Шоирнинг қофия санъати**”[3] номли монографияси нашр этилди. Бунгача Бекпўлат Умурқулов бадиий асар тилини таҳлил қилиш масалалари бўйича 100 дан ортиқ илмий мақолалар ёзиб, нашр эттирган.

Ҳамид Олимжон барча шеърий санъаткорлар сингари қофияга ҳам алоҳида эътибор қаратиб, унинг бетакрорлигидан фойдаланган. Ушбу китобда шоирнинг қофия тузишдаги маҳоратини йирик ҳажмдаги асалари мисолида таҳлил этишга ҳаракат қилинган.

“Шоирнинг қофия санъатида” таҳлилчи ўз фикрини қуйидагича давом эттиради: “Аслида бир хил такрорланган сўзлар қофияланмайди. Бу ҳолат радифлардан ҳам кўзга яққол ташланиб туради. Бир хил сўзлар маъно жиҳатидан ҳам товуш жиҳатдан ҳам тенг бўлса, улар қофияланмайди. Агар бир хил сўзлар товуш жиҳатдан фарқланмаса-ю, маъно жиҳатдан фарқланса, улар бекаму-кўст қофиядошликни таъминлай олади. Юқоридаги *ёқар* сўзи ана шундай маъно фарқлашга эга. Бу сўз биринчи мисрада “кўнглига ёқмоқ” маъносини ифодаласа, кейинги мисрада “оловда ёқмоқ” маъносини воқелантирган. Ана шу шакл-дошлик хусусиятига асосланган ҳолда уларни қофиядош деб ҳисоблаш жоиздир.

Иккинчи бўлимнинг учунчи қисми сўзларнинг қуйидагича қофиядошлигига эга.

[1] Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 129 б.

[2] Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 129 б.

[3] Umurqulov B, Umurqulov Z, Raximova U. Shoirning qofiya san’ati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016.

Ўзак ва ўзак

Кун-тун
Солмишдир-олмишдир.
Ўзак ва қўшимча
билмаст-маст
тайёрланар-ёнар,
хабардор-бардор.

Бу бўлимдаги 10 мисрадан 4 таси ўзак ва ўзак, 6 таси ўзак ва қўшимча типида қофияланган. Юқоридагилардан кўринадики, “Зайнаб ва Омон” достонида қофияси асосан ўзак ва ўзак кўринишидаги қофиядошликка асосланилган. Дарҳақиқат, биринчи бўлимдаги ҳамма қисмларда, иккинчи ва учинчи бўлимларнинг кўпгина қисмларида қофия ўзак ва ўзак типидаги кўринишга эгадир”[1].

Ҳамид Олимжон моҳир сўз устаси. У сўз танлаш ва уни ўрнида қўллашга алоҳида аҳамият берган. Бу ҳолат шоир асарларида тўлиқ ва жарангдор қофиядошликни таъминлашга ҳам олиб келган. Маълумки, тўлиқ ва жарангдор қофиядошликка эришиш ўз-ўзидан бўлавермайдиган мураккаб жараён. Бу жараён турли воситаларни излашни, товушдош сўзларни танлай билишни талаб қилади.

Ҳ.Олимжон турли воситалардан фойдалана олганлиги учун ўз асарларида тўлиқ ва жарангдор қофиядошликни таъминлашга эришган. Чунончи, сўзларни шакл ва вариантлардан, шакл ва маъно муносабатлари ҳамда товушдошлигидан маҳорат билан фойдаланиши мукаммал қофиялар яратилишига олиб келган. Масалан, шоир ижодида *мен, сен, у* олмошларининг *ман, сан, ул* поэтик вариантлари қофиядошлик мақсадида анча фаол қўлланилган.

Бунёд келган замон ул,
Шодликка тўлди буткул.
“Семурғ ва Паризод” достонидан”
Нафратим бордур санга
Ўзинг ўйлаб кўр танга.
“Ойгул билан Бахтиёр” достонидан

Шоир қофиядошликни, шунингдек, мисралардаги ҳижолар мутаносиблигини тахминлаш мақсадида турли қисқартма шаклларни қўллайди. Шоир қўллаган қисқартма шакллар орасида шеъриятда қадимдан ишлатилиб келган *бўб//бўп, гар, чун* каби қисқартмалар бўлганидек, шоирнинг ўзи ҳам бир қатор сўзларни қисқартириб қўллайди. Масалан, *кучини, йиқитармиз* сўзларининг *кучин, йиқармиз* шакллари қофия ташкил қилиш мақсадида Ҳ.Олимжоннинг индивидуал услубига хосдир.

Тинглар эдим бетиним,
Узун тунлар ётиб жим.
Сеза олардим кучин,
Кўпи ёлғон кўпи чин.

* * *

Лекин бу гал бўлмади,
Аммо тилак ўлмади.
Бир кун сани йиқармиз
Ва қабрга тиқармиз.[2]
“Ойгул билан Бахтиёр” достонидан

Бу ҳар икки тўртлик маснавий шаклида қофияланган. Олдинги тўртликдаги *чин* сўзи билан тўлиқ қофиядошликни таъминлаш учун *кучини* сўзи *кучин* шаклида қисқартириб қўлланса, иккинчи тўртликда *тиқармиз* сўзига қофиялаш учун *йиқитармиз* сўзи *йиқармиз* шаклида қўлланган. Сўзни бундай ўзгартириб қўллашда унинг нутқда бирор нутқий вазифа бажариши кўзда тутилади. Агар нутқ жараёнида сўз бирор нутқий вазифа бажармаса, унда сўзни қисқартириб ёки бирор бир шаклда ишлатишнинг ҳожати қолмайди. Бу ҳолатда сўз ўта сунъийлаштирилгандек, норматив нутқ учун ҳам ноўриндир. Юқорида қисқартирилиб қўлланилган сўзлар ушбу нутқда ҳам, қофиядошликни, ҳам ҳижолар мавофиқлигини таъминлаган”[3].

Олимнинг таъкидлашича, “Ҳамид Олимжон достонларида қофия шеърий мисраларининг ритмик бўлинишини таъминлаб, уларни ўзаро боғлаб, мусиқийлигини кучайтирган. Шунингдек, қофия жараёни орқали шоир ўзбек тилида бой оҳангдош сўзлар силсиласи мавжуд эканлигини кўрсата олган”лигини маҳорат билан таҳлилга олган.

Аждодларимиздан бизгача етиб келган сўз ҳақидаги фикрларига эътибор каратамиз. “Оламда сўз кўп. Унинг ҳаммасини жамлашга инсон ва унинг ақл-идрокининг қурби етмайди. Аммо керакли сўзларни айтиш учун уни мажбурлаш шарт эмас. Шоир шундан кейин ўгит қилиб, отадан қоладиган

[1] Umurqulov B, Umurqulov Z, Raximova U. Shoirning qofiya san’ati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016.

[2] Umurqulov B, Umurqulov Z, Raximova U. Shoirning qofiya san’ati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016.

[3] Umurqulov B, Umurqulov Z, Raximova U. Shoirning qofiya san’ati. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2016.

мероslардан бўлган олтин-кумуш билан сўзни солиштириб, сўзнинг улуғлигини, бебаҳо бойлик эканлигини таъкидлайди:

Кумуш ишга тушса олқинар, туғар,
Сўзим ишга тушса, олтинлар тўкар"[1].

Демак, ушбу ўгитга кўра, кишидан кишига, авлодларга қоладиган мерослarнинг аълоси – сўз. Унга амал қилиш минг-минг фойда ва наф келтиради.

Ўзак ва ўзак

Кунларимда – тунларимда Жони – хони
Дамлар – гиламлар қонида - исёнида
Қанотлар – отлар кунлар - тунлар
Қиссаси – хиссаси бошини - ёшини
Тортар – ортар ўлимдан - зулмдан
Кучин – кечин андиша - теша
Томонда – замонда косов - ёв
Элда – сэлда отинлар - хотинлар
Қоқди – ёқди соқол - чол
Ор – дор Қон – замон
Ботди – ётди

Фикрларимизни домланинг **"Поэтик нутқ лексикаси"** монографиясига қаратамиз:
Мен илк бор дунёнинг харитасида,
Олтин узук янглиғ ўлкамни кўрдим.
Заминнинг дўппидек бир палласида
Ҳилолий нусха гул –
Бу менинг юртим[2]!

Бу парчадаги қатор-қатор ўхшатишлар, шоир ифодаламоқчи бўлган фикрининг сербўёқлигини уюштирганидек, *ҳилолий* оккозионализми ҳам ифода хусусиятига кўра ушбу шеърий парчанинг умумий руҳига мос топиб ишлатилган. Шеър руҳига мос сўзлар, жозибадор фикрлар топиб, таҳлил қилганлиги ҳам шерга ярашиб тушган.

"Шоир Ўзбекистонни гулга қиёс қилади" дейди олим. У шунчаки оддий гул эмас, ҳилолий нусҳа гул. *Ҳилол* сўзи "Уч кунлик ой маъноси"да қўлланган, шу сўз таркибидаги *-ий* қўшимчаси ўхшатиш ҳосил қилган. Ойнинг энг гўзал даврига Ўзбекистоннинг қиёсланиши натижасида фикрий образлик кучайтирилган.

Худди шу усулда оккозионал сўз ясалганини А.Ориповнинг "Райҳон" шеърига ҳам эътибор қаратади: *Саҳрода сарбонларнинг оқарган сўнгаклари жаҳаннамий дашт ўзра ялтираб турган сароб* … "А.Орипов ўз шеъриятида Ғ.Ғулом, Ҳ.Олимжонларга хос бўлган оккозионал сўзлар яратган. Чунончи, *замондош, ўлкадош, елкадош, югурик, хотирот, маним* сўзлари Ғ.Ғулом, Ҳ.Олимжон шеъриятида учрайди. А.Орипов бу сўзларни ўз ижодида қўллаб, устозлар анъанасини давом эттирган. Поэтик нутқда бу хилдаги сўзларнинг фаоллашиши учун А.Орипов поэзияси маълум босқич вазифасини ўташи ҳам мумкин" деган хулосага келади.

"Ойгул билан Бахтиёр" достонининг биринчи ва иккинчи бўлимларида хам ўзак ва ўзак типидаги қофиялар асос эканлигини кўриш мумкин. Шоир қофия санъатининг ниҳоятда мукаммал эканлигини исботлаб берган. Шунингдек, олимнинг синчковлик билан шоиримиз Ҳамид Олимжоннинг учта достонининг қофияланишини таҳлил қилиб чиққанлига эътиборимизни қаратамиз.

Бекпўлат Умурқуловнинг "**Бадиий нутқ жозибаси"**[3] китобида бадиий нутқнинг лингвистик хусусиятлари, бадиий нутқда бадиий эстетик моҳиятнинг намоён бўлиши бадиий наср материаллари асосида луғавий-услубий жиҳатдан таҳлил қилинган. Унда ўзбек бадиий насри ўзбек тили луғавий бойликларини кенг қамраб олувчи нутқ экани, бу ҳол ўз моҳиятига кўра, ижодкорга образли нутқ яратиш учун имкон бериши, бундай нутқнинг юзага келтиришда индивидуал қўлланишлар, кўчма маънолар, синонимлар, сўз вариантлари каби луғавий бирликлар ёритиб ўтилганлиги келтирилади.

[1] Umurqulov B, Umurqulov Z, Raximova U. Shoirning qofiya san'ati, Adabiyot Uchqunlari. Toshkent, 2016.

[2] Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990.

[3] Умурқулов Б. Бадиий наср жозибаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2021.

Мен дўстимнинг адабиётга, санъатга ёшликдан бўлган қайноқ муҳаббати бекорга кетмаганидан, республика филология фанимизнинг улкан заҳматкаш намояндаси бўлиб етиишганидан ўзимда йўқ хўрсандман. Айни пайтлар олимнинг етуклик босқичига дадил кўтарилганлигидан далолат берувчи илмий босқич деб биламан.

Олимнинг фаолиятида турли масалалар ёритилган талай асарлари ҳам борки, улар республикамизда филология илмини бойитишга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда. Жумладан, адабиётнинг фахри, Ҳамид Олимжоннинг “Зайнаб ва Омон”, “Семурғ ва паризод”, “Бунёднинг жанги” каби достонларини синчковлик билан таҳлилга олган.

Тадқиқотчи маҳоратини кўрсатиш борасида, бадиий сўз сеҳрининг серқирра жилосини, санъаткорона нафис очиш жиҳатидан Ҳамид Олимжон ижодига бағишлаган тадқиқоти кўпчилик касбдош ва адабиёт ихлосмандлари оғзига тушганида кўп гап бор. В.Г.Белинскийнинг айтганидек, “Истеъдодга ҳурматсизлик – нодонлик аломати”. Негаки, талант халқ мулки, уни авайлаш керак. Одатда, истеъдод билан ёзилган бадиий асар, катта-кичиклиги ва муаллифнинг ёшидан, жанридан қатъий назар, бир умрга ўлмас, оригинал, ҳамиша ардоқли, демакки, классик намуна бўлиб қолади. Бундай асарларни Ҳамид Олимжон, Абдулла Қодирийдан тортиб Ғафур Ғулом, Ойбек, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов сингари истеъдод эгалари қаламига мансуб сўз санъати намуналарида кўп учратамиз. Худди шундай моҳиятга молик намуналар бадиий сўз санъати борасидагина эмас, илмий кашфиёт бобида фан билан бадиий ижодни бир-бирига боғлашнинг ўзига хос хусусиятларидан бири ҳисобланади.

“Ўрта мактабнинг юқори синфларида ўқиб юрган чоғларимизда домла “Ҳозирги ўзбек адабий тили, кирилл ва лотин алфавитидаги ўқув қўлланма ва дарслигининг яратувчилардан бири сифатида меҳримизни орттирганди. Шунингдек, олий ўқув юртига кирувчи абитуриентлар учун ёзилган “Ўзбек тили” қўлланмасининг ҳам талабаликка қабул қилинишимизга катта фойдаси теккан деб ёзади, Термиз давлат педагогика институтининг 3-курс талабаси Нафосат Сайфиддинова. Бу фикрни талаба бежизга айтаётган эмас. Чунки устоз ҳар бир адабий ҳодиса ёки асар устида ўз билимини ўзгалардан аямайди, эринмай баҳам кўради: камтарлиги устига бундай сифатнинг мужассамлиги сабабли мухлислар, шогирдлар, илм толиблари, қаерда бўлмасин, гул атрофида ғужгон ўйнаган асаларилардек, домланинг атрофида ўралашади, тортиниб, қисиниб, қимтиниб турмай савол-жавобга тутишгани, тутишган...

Бекпўлат домла билан дўстона ўтиришимиз, суҳбатларимиз, албатта, илмий йўналишларда бўлади. Бир сафарги суҳбатимиз ўрта мактабларнинг ўқувчиларига ўргатилаётган дарсликлар, мавзулар ва уларнинг онгига сингдирилиши борасида бўлди. Домла ўз фикрини шундай давом эттирди: “Тилнинг барча томонлари (талаффуз, фонетика, лексика, грамматика, сўз ясалиши)ни ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганиш она тилини ўрганишдаги етакчи тамойил бўлиб, уни амалга ошириш мураккаб, ривожланувчан, ўзаро боғланган муҳим томонларга эга бўлган ҳодиса сифатида англаб етишлари учун илмий асос яратади. Тилнинг моҳиятини бундай идрок этиш ҳодисаларнинг ривожланувчанлиги ўзаро боғланган қисмлардан тузилишини тушунишга замин ҳозирлайди.

Мактабда ўқув предмети сифатида тилни ўрганиш тизими тилнинг барча томонларини, яъни фонетикаси, лексикаси, сўз ясалиши ва грамматикасининг ўзаро ички боғланишларига ҳам асосланади. Айниқса, мактабларда она тилини ўргатишнинг мазмуни жамият ривожланишининг ҳозирги босқичида давлатимизнинг мактаб олдига қўйган вазифасига мосланган. Бу вазифа ўқув предмети сифатида ўзбек тилининг ўзига хос хусусияти бўлиб, ўқувчини шахс сифатида шакллантиришга йўналтирилган умумтаълим вазифалари билан боғлиқ ҳолда амалга оширилади”.

Яна домла қўшимча қилади, она тили дарси, аввало, ўқувчилар нутқ ва тафаккурини ўстириш дарсидир. Она тили дарслари ижтимоий-фойдали бўлиши учун ўқувчиларда ўз фикрини грамматик тўғри, услубий аниқ, изчил ифодалаш ва бошқалар фикрини бера олиш кўникмасини шакллантиришга қаратилиши лозим. Гапни грамматик жиҳатдан тўғри қуриш малакалари, фикрни турли нутқ услубларида тўғри ихчам, равон, тушунарли баён қилиш кўникмалари кабиларни алоҳида-алоҳида таҳлил қилишга тўғри келади.

Эътибор қилинг, ўрта мактаб ўқувчилар нутқининг кўрсатгичларидан бири унинг сўз бойлигидир. Педагогик адабиётларда берилган илмий маълумотларга қараганда, 2 ёшли болалар 30 дан 100 гача, 4 ёшли болалар 1000 дан 4000 гача , 7 ёшли болалар 3000 дан 7000 гача, 10-11 ёшли болалар 8000 дан 15000 гача, 14-15 ёшдагилар 11000 дан 18000 гача сўзларни билиши лозим. Афсуски, она тили машғулотларида фикрни оғзаки ва ёзма шаклда баён қилиш зарурияти туғилганда, ўқувчиларда сўз қашшоқлиги дарров сезилиб қолади” дея куюнчаклик билан фикр билдиради.

Профессорнинг гапида жон бор. Ҳозирги мактаб ўқувчиларининг сўз бойлигидан қашшоқлиги ҳам айни ҳақиқат. Тўғри, оғзаки ва ёзма нутққа эътибор сусайиб бормоқда.

Шу ўринда Юсуф хос Ҳожибнинг фикрини келтириб ўтамиз: “Билим, заковат соҳиби бўлишнинг асосий калити тилдир. Тил туфайли киши ўз илми, ақл-идроки, заковатига жило беради, фикрини равшан қилади. Тил, сўз кишининг қадр-қимматини оширади, улуғликка элтади. Аммо сўзни ўйлаб, билиб, кези келгандагина сўзлаш керак. Шундагина тил ва сўзнинг нафи жуда катта бўлади. Ўйламай сўзланса, сўз киши қадрини туширади, уни эътибордан қолдиради. Шунинг учун оз, лекин соз сўзлаш даркор”.

Домла ёзма нутқни ўргатиш методикасига ҳам ўз фикрларини баён этиб ўтади: оғзаки нутққа қараганда анча мураккаб жараён саналади. Чунки у ўқувчилардан грамматик ва мазмун жиҳатдан тўғри жумла қуришни, ҳар бир сўзни ўз ўрнида тўғри қўллашни, фикрни ихчам изчил, ифодали, услуб жиҳатдан содда ва равон ифодалашни, баён қилинган фикрлар асосида хулосалар чиқаришни талаб қилади. Шу сабабли нутқнинг бу тури анча кескин ва мурукkаб кечади. Она тили машғулотларида шундай ҳолатни вужудга келтириш лозимки, ўқувчи яратган матнидан қониқиш ҳосил қилсин. Шунда ўқувчи ўз нутқини такомиллаштириб боришга илҳом бахш этади.

Кўпчилик ўқувчилар ижодий фикрлаш, фикр маҳсулини оғзаки ва ёзма равишда тўғри ифодалашга қийналадилар; ўзбек адабий тилининг бой имкониятларини нутқий жараёнларда қўллай олмайдилар. Бунинг сабабларини аниқлаш учун болаларнинг нутқий тараққиётини белгиловчи омиллар; уларнинг сўз бойлиги, сўз ва сўз бирикмларидан гапда ўринли фойдаланиш маҳоратини алоҳида таҳлил қилишга тўғри келади”, дея фикрини хулосалайди.

Шуни алоҳида такидлаш лозимки, сўз санъати билан шуғуланувчи кишилар, айниқса, инсон таълим-тарбияси учун масъул бўлган муаллимлар ифодали нутқ маҳоратини пухта эгаллаган бўлишлари зарур. Хақиқаттан ҳам ўқитувчининг бутун сиймоси хатти-ҳаракатларидан тортиб, гапириш услубигача ёш ва тажрибасиз тақлидчан ўқувчи учун жонли намуна ҳисобланади. Донишмандлар наздида инсон сўзи билан танилади ахлоқи билан мақталади. Бинобарин, ёш авлоднинг шахс сифатида камол топишида муҳим рол ўйновчи муаллимнинг равон ва ифодали нутқи гўзал ахлоқи беқиёс ибрат намунаси булиб хизмат қилади.

Дарҳақиқат, ифодали нутқ воситаларини пухта ўзлаштириш, ўзбек тилининг ўзига хос хусусиятларини чуқур ўрганиш орқалигина ифодали ўқишда маълум натижаларга эришиш мумкин. Ифодали ўқиш инсонда туйғу ва кайфиятлар ҳосил қилади, аниқроғи, воқеликнинг ҳис-туйғулари қиёфасини яратади.

Юқоридаги фикрларга асосланган ҳолда шуни айтишимиз жоизки, ҳар бир мактаб ўқувчиси бошланғич синф давриданоқ бадиий адабиёти ва ўз она тилини пухта эгалласа, шубҳасиз, адабиётимиз боқий яшайди. Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпоннинг “Адабиёт яшаса, миллат яшайди” ибораси негизида ҳам мана шу долзарб масала ётганини англаш қийинмас.

Олим ўз устозларининг ишларини собитқадамлик билан давом эттириб, тилшунослигимизда нисбатан ёш ва навқирон соҳалар ҳисобланган “Ўзбек тили услубияти”, “Нутқ одоби ва маданияти”, “Бадиий асар тили ва услуби” фанларининг ривожига катта ҳисса қўшиб келмоқда. Устоз томонидан яратилган ҳар қандай илмий тадқиқот ишларини кўздан кечирар экансиз, унинг ўз тилини ҳаддан ортиқ суйиши, ардоқлашининг гувоҳи бўласиз. (**Суюн Каримов,** СамДУ филология фанлари доктори, **Азамат Пардаев,** СамДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси мудири, филология фанлари доктори, **Шавкат Маҳмадиев,** СамДУ, Филология фанлари номзоди, доцентлари эътирофларига қўшилган ҳолда фикрларимизга ҳозирча якун ясаймиз).

Resume. The given article is dedicated to the scientific and creative activity of Professor Bekpulat Umurkulov. It mentions the achievements of the hero of the article, respect for his teachers, kindness to his students, and loyalty to his friends.

The difficulties and joyous achievements of the professor in the path of science, his honors in the path of science are highlighted, and information about textbooks, monographs, and manuals, articles written by the scientist is also included. Besides, the analysis of the scientist’s 1st, 2nd and 3rd books are presented, as well as reviews and comments on the scientist’s works are also given.

Резюме. Данная статья посвящена научной и творческой деятельности профессора Бекполата Умуркулова. В статье упоминаются его достижения, отмечены его почтение к учителям, доброта к ученикам и верность друзьям. Освещаются трудности и радостные достижения профессора на научном поприще, а также имеются сведения о его учебниках, монографиях, научных статьях, принадлежащих перу ученого.В статье также представлен анализ 1,2,3 частей книг ученого, а также даны рецензии и комментарии к его работам.